

MUZEJ VSTAVNOSTI

49. 1
M-84




49,1
M-84

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI
O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI
MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ

MUZEYSHUNOSLIK

5120300 – Tarix, 5220300 – Arxivshunoslik,

5110600 – Tarix o'qitish metodikasi
bakalavriat yo'naliishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma



TOSHKENT
«TURON–IQBOL»
2018

UO'K 725.8.930.2

KBK 79.1

M 84 Muzeyshunoslik. O'quv qo'llanma. / O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018. – T.: "Turon–Iqbol", 2018. – 260 b.

Mas'ul muharrirlar:

A.A. Mavru洛ov – tarix fanlari doktori, professor

Z.A. Saidboboyev – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

S.R. Xasanov – filologiya fanlari doktori, professor

X.T. Fayziyev – tarix fanlari nomzodi

A.M. Malikov – tarix fanlari nomzodi

O'quv qo'llanmada O'zbekistonda muzey ishining rivojlanishi, O'zbekiston hamda xorij amaliyotida shakllangan tamoyillar asosida muzey fondlarini jamlash va kataloglashturish, muzey ashyolariga ilmiy ma'lumotnoma apparatini tuzish, muzey pedagogikasi hamda uni joriy qilish tajribalari haqida ma'lumot beriladi. O'quv qo'llanma talabalarning muzey va uning ijtimoiy hayotda kengayib borayotgan o'rni, funksiyalari haqidagi tasavvurlarini boyitishga, ularda muzey ashyolari, fondlar bilan ishlash bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning yozilishida muzey sohasi bo'yicha faoliyat olib borayotgani tajribali va yetakchi mutaxassislar, olimlar hamda pedagoglar qatnambahishdi.

O'quv qo'llanma PZ-20170928749 raqamli "*O'zbekiston mustaqillikka erishishniig tarixiy shart-sharoitlari, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar*" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tayyorlandi.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz Ilmiy-metodik kengashining 2017-yil 27-dekabrdagi qarori bilan nashriga tavsiya etilgan.

- © O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2018
- © "TURON–IQBOL", 2018

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....	5
(t.f.d., prof. Raximov M.A.)	
1-MAVZU. MUZEYSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARİ	8
(t.f.d. Sh.M. O'ljayeva)	
2-MAVZU. MUZEY FONDI VA MUZEY FONDLARINI JAMLASH TARTIBI.....	19
(t.f.n. D. Qurbanova)	
3-MAVZU. MUZEY EKSPONATLARINI HISOBGA OLISH VA SAQLASH TARTIBLARI	37
(t.f.n. D. Qurbanova)	
4-MAVZU. MUZEYNING ILMIY MA'LUMOTNOMA APPARATI VA ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI	58
(M. Muxamedova)	
5-MAVZU. MUZEY PEDAGOGIKASINING TARAQQIYOTI VA TAJRIBALARI	74
(t.f.d. J. Ismoilova)	
6-MAVZU. MUZEY MENEJMENTI VA MARKETINGI.....	94
(t.f.d. J. Ismoilova, J. Adilov, A. Nazarov, M. Muxamedova, M. Azimbayev)	
7-MAVZU. MUZEY SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MUNOSABATLARNING O'RNI	124
(K. Nishonova)	
8-MAVZU. JAHONNING YETAKCHI MUZEYLARI	142
(A. Mirkamilov)	

9-MAVZU. O'ZBEKISTONDA MUZEY ISHI TARIXI	174
(<i>t.f.n. D. Kuryazova</i>)	
10-MAVZU. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MUZEYLAR VA	
MUZEY ISHINING ISLOH ETILISHI	224
(<i>t.f.d. J. Ismoilova</i>)	
GLOSSARIY	246
MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT	258

SO'Z BOSHI

Muzeysenoslik – muzeylar haqidagi fan, bilimlar majmua-si. U tarix fanining yordamchi tarmog'i, ijtimoiy fanlar tarkibi-ga kiradigan fan hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyotida muzey-shunoslik XIX asrning so'nggi choragida fan sifatida shakllan-di. Lekin muzey haqidagi tasavvurlar, tushuncha va bilimlar qadim davrlardan ma'lum.

Muzeylar – jonli tarix, o'tmishdan guvohlik beruvchi muas-sasalardir. Ularda xalqimizning tarixi, urf-odatlari, an'analari o'z aksini topgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar saqlanadi. Muzeylarning madaniyatimizda tutgan o'rni benihoya katta, bu avvalo, ularning tarixiy xotira va merosning bir avloddan ik-kinchi avlodga o'tishidagi roli bilan belgilanadi. Boshqa to-mondan, muzeylardagi eksponatlar orqali tariximizni dunyo xalqlariga tanishtirish vazifasi ham turadi. Zero, muzeylar va muzey ishi turizm sohasi bilan aloqador bo'lib, bu o'z navba-tida respublikamiz iqtisodiyotining muayyan yo'nalishlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev boshchiligidida mamlakatda mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tari-xiy turizm bilan bирgalikda ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa salohiyatli turlarini jadal rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli chora-tad-birlar amalga oshirilmoqda.

Turizmnинг ustuvorlik kasb etayotgani ham muzeylar faoli-yati va muzey ishi tizimli tashkil qilinishini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda-

gi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» doirasida 2017-yil 11-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qaror qabul qilindi.

Mazkur dasturda kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Mamlakatda 350 dan ortiq muzey faoliyat yuritib, o‘zining eksponatlari – ashyoviy dalillari bilan yosh avlodni tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilayotgani ham malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabni dolzarblashtiradi. Ularni tayyorlashda yangi o‘quv qo‘llanmalar va darsliklarga mayjud ehtiyojni nazarda tutib, O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz tashabbusi bilan muzeishunoslik bo‘yicha o‘quv qo‘llanma yaratildi. Mazkur qo‘llanma O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining tarix fakultetlari talabalariga mo‘ljallab yozilgan. “Muzeishunoslik” o‘quv qo‘llanmasini yozishda mahalliy va xorijiy adabiyotlardan, turli tarixiy materiallardan foydalanildi. O‘quv qo‘llanma talabalarga muzeishunoslik nazariyasi, metodlari, bu boradagi amaliy tajribalar xususida tasavvur beradi. Unda, shuningdek, muzey pedagogikasi, muzey ishining huquqiy-me’yoriy asoslari, zamonaviy muzeylar konsepsiysi, muzey menejmenti va marketingi kabi masalalar ham qamrab olingan.

“Muzeishunoslik” o‘quv qo‘llanmasi 10 mavzudan iborat bo‘lib, Muzeishunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari – tar.f.dok. Sh.O‘ljayeva; Muzey fondi va muzey fondlarini jamlash tartibi – tar.f.nom. D. Qurbonova; Muzey eksponatlarini hisobga olish va saqlash tartiblari – tar.f.nom. D. Qurbonova; Muzeyning ilmiy ma’lumotnoma appa-

rati va ilmiy tadqiqotchilik faoliyati – M. Muxamedova; Muzey pedagogikasining taraqqiyoti va tajribalari – tar.f.dok. J. Ismoilova; Muzey menejmenti va marketingi – tar.f.dok. J. Ismoilova, J. Adilov, A. Nazarov, M. Muxamedova, M. Azimbayev; Muzey sohasini rivojlantirishda xalqaro munosabatlarning o'rni – K. Nishonova; Jahonning yetakchi muzeylari – A. Mirkamilov; O'zbekistonda muzey ishi tarixi – tar.f.nom. D. Kuryazova; Mustaqil O'zbekistonda muzeylar va muzey ishining isloh etilishi – tar.f.dok. J. Ismoilova tomonidan yozildi.

O'quv qo'llanma tarix fanlari doktori, professor A. Mavrushev, tarix fanlari nomzodi, dotsent Z. Saidboboyev mas'ul muharirligida tayyorlanib, uning ilmiy-metodik tahririni O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz xodimlari – I. Shamsiyeva, S. Pulatova, K. Sagdullayev, D. Choriyeva, A. Mirkamilovlar amalga oshirgan.

Shuningdek, o'quv qo'llanmaning konsepsiyasini ishlab chiqishda hamda uning tayyorlanishida O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori J. Ismoilova, muzeylardagi arxeologik ashyolar, koshinlar haqidagi ma'lumotlarni tavsiflashda tarix fanlari nomzodi B. Aminov ishtirot etdi.

Markaz va mualliflar jamoasi mazkur o'quv qo'llanmani takomillashtirish bo'yicha taklif-mulohazalar uchun avvaldan minnatdorchilik bildiradi.

M.A. Raximov, tarix fanlari doktori, professor

1-MAVZU. MUZEYSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA

1. Muzeyshunoslik fani haqida tushuncha.
2. Muzeyshunoslik fanining obyekti va predmeti.
3. Muzeyshunoslikning tarixidan.
4. Muzeyshunoslikning yordamchi tarixiy fanlar bilan bog'liqligi.

Muzeystoshunoslik fani haqida tushuncha. Muzeystoshunoslik (muzeologiya) – muzeylar tarixi, ularning ijtimoiy vazifalari, muzei ishi nazariyasi va metodikasi masalalarini o'rganadigan fan tarmog'i. Muzeystoshunoslik tizimiga *muzey ishi nazariyasi*, *muzey ishi tarixi* (muzei tarixshunosligi bilan), *muzey manba-shunosligi*, muzeylar va muzei tadqiqotlari faoliyatiga xos tomonlarni o'rganuvchi *ilmiy metodika* kiradi.

Muzeystoshunoslik deganda, odatda, “muzei ishi haqidagi fan”, “muzeylar haqidagi fan” yoki qisqa qilib aytganda, “muzei nazariyasi” tushuniladi. Lekin, bu yuzaki tasavvur bo'lib, hozirgi kunda shu bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Shunday ekan, muzeystoshunoslik tushunchasining hal qiluvchi belgisi va mazmunini aniqlash vazifasi paydo bo'ladi. Yagona va hamma tan oladigan ilmiy ta'rif hozircha mavjud emas. Bunday murakkablik faqat muzeystoshunoslikka xos bo'lmasdan, yangi paydo bo'lgan ko'plab fanlarda ham shu holat uchraydi.

Hozirgacha olib borilgan ilmiy izlanishlarga tayanib, *muzeystoshunoslik* – ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni to'plash, saqlash jarayonlari, bilimlar va ma'lum hissiyotlarni muzei ashyolari orqali yetkazib berishni, muzei ishini, muzeyni ijtimoiy institut sifatidagi maqomini, vazifalarini hamda turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ularning amalga oshirish shakllarini o'rganadigan fandir, deb belgilash mumkin.

Muzey ishi tarkibiga ijtimoiy faoliyatning alohida sohasi sifatida muzeylarning amaliy faoliyati, obidalarni muhofazalash, muzey tarmoqlari, muzey siyosati va qonuniyati, kadr-larni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi, sohaviy ilmiy, ilmiy-uslubiy hamda o‘quv markazlari, ixtisoslashgan matbuoti, muzeysenoslik fani kiradi. Muzeysenoslik muzeylarning kelib chiqishini, tarixini, uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, shuningdek, ularning klassifikatsiyasi va tipologiyasini tadqiq qiladi.

Muzeysenoslikning o‘zi tarix fanining tarkibiy qismi bo‘lib, arxeologik topilmalar, yozma manbalar va tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlarni, umuman, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy xazinani targ‘ib qilish ishlarini olib boradi.

Umuman, muzeysenoslikning boshqa fanlar bilan har tomonlama uzviy bog‘liqligi, uning obyektiv jihatdan murakkabligini belgilaydi. Muzeysenoslik ham ijtimoiy, ham tabiy fanlar bilan uzviy aloqador, ayniqsa, uning muzey mavzuyiga oid fanlar va yordamchi fan sohalari (tarix, arxeologiya, geologiya, etnografiya, adabiyotshunoslik, zoologiya, san’atshunoslik va boshqalar) bilan umumiyl tomonlari ko‘p.

Muzeysenoslikda muzeylarni tabiat va jamiyatni o‘rganish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan manbalarni to‘ldirish, muzey buyumlarini ilmiy hujjatlashtirish, o‘rganish hamda saqlash, ekspozitsiya va ko‘rgazmalar tashkil etish, ilmiy-ma’rifiy hamda boshqa faoliyatda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy funksiyalari bo‘yicha tadqiqotlar olib boriladi. Shuningdek, fan muzeylarni to‘ldirish, yodgorliklarni hisobga olish, saqlash va restavratsiya qilishning ilmiy tamoyillarini o‘rganadi. Muzeysenoslik sohasidagi ishlar yirik muzeylar, ta’mirlash ustaxonalari va ilmiy tadqiqot institutlarida amalga oshiriladi.

Muzeysenoslik fanining obyekti va predmeti. Muzeyshunoslikning obyekti – bu muzey, ijtimoiy hodisa sifatidagi muzey ishi. *Muzey* – bu sotsial axborotlarni tarixan o‘zaro

bog‘lovchi ko‘p funksiyali ijtimoiy institut bo‘lib, uning faoliyati madaniy-tarixiy hamda tabiiy-ilmiy boyliklarni saqlash, ma’lumotlarni to‘plash va muzey ashyolari orqali tarqatishga mo‘ljallangandir. Muzey turli jarayonlarni, tabiat va jamiyat hodisalarini hujjatlashtiradi, muzey ashyolarining kolleksiyasini to‘ldiradi, saqlaydi, o‘rganadi. Shuningdek, ulardan ilmiy, ma’rifiy, tarbiyaviy va targ‘ibot maqsadlarida foydalaniladi.

Muzeyschunoslik predmetini aniqlashda “muzey ashyosi”, “muzey” kabi atamalarning mazmunini o‘zlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. XIX asrغا kelib, muzey ashyolariga turli fanlarning manbayi (san’at asari, qadimiy asar, tabiiy preparatlar) sifatida qarala boshlandi. Keyinroq bu osori atiqalarni birlash-tirish malakasi paydo bo‘ldi. Muzey ashyosi inson faoliyatining mahsuli bo‘lib, u avvalo, san’at asari, birlamchi hujjat ekanligi bilan ahamiyatlidir. *Muzey ashyosi* – bu muzeyschunoslik ahamiyatiga molik va saqlanishi zarur ashyo hisoblanadigan hamda ijtimoiy yoki tabiiy ilmiy axborotni beruvchi madaniy-tarixiy boylikdir.

Muzey ashyosi tushunchasiga olimlar XVII asrdayoq aniqlik kiritishga harakat qilishganligini qayd etish zarur. Y.D. Mayorning urinishlari bunga misol bo‘ladi. U muzeysda saqlanadigan ashyolarga real, to‘la, haqqoniy, qudratli va uzoq vaqt saqlanadigan narsalar sifatida qaragan.

Muzeyschunoslik predmetini nazariy asoslashda bir qancha yondashuvlar mavjud. Institutsional deb nomlangan yonda-shuv tarafдорлари (Y. Benesh, V. Vinter, T. Silyanova-Novikova, E. Xyuns va b.) muzeyschunoslikning predmeti sifatida muzeysga ijtimoiy-madaniy institut deb qarashadi. Bunda muzeyni ijtimoiy ahamiyatga ega axborotni saqlovchi maskan tarzida izohlashadi, asosiy e’tibor uning ijtimoiy vazifalarini o‘rganishga qaratiladi. Biroq, ular muzeyschunoslik predmeti doirasida faqat muzey va uning vazifalarini tadqiq qilish bilan cheklanib qolishgan. Qolgan tadqiqotchilar esa, muzeyschunos-

lik predmetini ancha kengroq, ya’ni uning tarkibiga muzey ishi-ni qo’shgan holda talqin etishadi. Masalan, slovakiyalik mu-taxassis Y. Beneshning qarashlariga ko’ra, muzeyshunoslikning predmetini ixtisoslashtirilgan faoliyat yig‘indisi tashkil etib, uning yordamida muzey ishi o’zining ijtimoiy vazifalari ni amalga oshira oladi. Fransuz muzeyshunosi J.A. River fikriga ko’ra esa, muzeylar tarixi, ularning jamiyatdagi rolini o’rganish, muzeyshunoslikning predmeti hisoblanadi.

Predmetli yondashuv tarafdorlari (Z. Bruna, X. Veks, A. Gregorova, R. Lang, Z. Stranskiy, T. Xetesh, D. Shults, V. Ennenbax) muzeyshunoslik predmeti sifatida muayyan qimmatga ega bo’lgan muzey ashyolarining fenomenini hamda muzeyning paydo bo’lishi sabablarini o’rganishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv tarafdorlaridan bo’lgan nemis tadqiqotchisi K. Shrayner ta’rifiga ko’ra, muzeyshunoslik bu – muzey obyektlarini jamlash, saqlash, o’rganish va ulardan foydalanish haqidagi fan. Bulardan tashqari, muzeyshunoslik predmetini tu-shunishda kompleks yondashuv ham mavjudki, u Z. Stranskiy tomonidan asoslab berilgan. Olim muzeyshunoslik predmetini insonning muzeylarga bo’lgan munosabatida deb biladi.

Muzeyshunoslikning tarixidan. Muzeylarning dastlabki vatani Yunoniston hisoblanadi. Muzalar – bu sevgi, go’zallik va she’riyat ilohalari bo’lib, ularning sharafiga Yunonistonda Gelikon tog‘i atrofida har besh yilda bir marta bayramlar o’tkazilib, unda shoirlar, rassomlar, haykaltaroshlarning o’zaro mu-sobaqalari bo’lib turgan. Bu musobaqalarda yig‘ilgan dastlabki kolleksiyalarni jamlash va saqlash niyatida muzeylar tashkil etila boshlandi.

Kritdagi Knoss saroy xazinasi (miloddan avvalgi XVI asr), Vanlar saroyi va ink kohinlarining arxivi (Xitoy, miloddan avvalgi XIII–XII asrlar), Nineviya saroy kutubxonasi va boshqalar shular jumlasidan. Qadimdan ibodatxona, keyinroq xususiy to‘plamlarda (miloddan avvalgi III asrdan) asosan san’at

asarlari jamlangan (Varres, Sulla galereyalari, Serviliy, Krase, Lukull, Pompey, Sezar va boshqa to‘plamlar).

Birinchi muzey – ta’lim muassasasi taxminan miloddan avvalgi 290-yilda Aleksandriyada Ptolomey I tomonidan tashkil etilgan. Uming tarkibiga yashash va ovqatlanish xonalari, kutubxona hamda o‘quv xonasi, botanika va zoologik bog‘lar, rasadxonalar kirgan. Keyinchalik unga tibbiyot va astronomik asbob-uskunalar, haykallar va byustlar ham ko‘rgazmali quollar sifatida qo‘sib borilgan. Boshqa muzeylardan farqli ravishda u davlat ta’minotida bo‘lib, unda ishlagan xodimlarga maoshlar to‘langan. Bosh kohin (direktor) Ptolomey I tomonidan tayinlangan, kutubxonada 750 mingdan ko‘p qo‘lyozmalar saqlangan. Milodning 270-yilida bu muzey yong‘in natijasida yo‘q bo‘lgan va kutubxonaga jiddiy zarar yetgan.

Vizantiya sobor va monastirlarida, keyinroq Fransiya, Italiya, Germaniya va boshqa mamlakatlar soborlarida ham turli xil to‘plamlar saqlab qolingan.

Yevropada ilmiy vazifalar yuklatilgan muzeyning paydo bo‘lishi buyuk geografik kashfiyotlar davri – Uyg‘onish davriga to‘g‘ri keladi; bu davrda hayvonot va o‘simlik dunyosi namunalari, minerallar, geodeziya hamda astronomiya asboblari, etnografik ahamiyatga ega buyumlar jamlangan; tabiiy, ilmiy, etnografiya va tarixiy-badiiy noyob ashylardan iborat saroy to‘plamlari (kunstkameralar, myunskabinetlar va boshqalar) shuhrat qozongan. Muzey haqidagi dastlabki tavsiflar, shuningdek, muzeyshunoslik haqidagi nazariy asarlar ham shu davrda paydo bo‘ldi va rivojlandi. Florensiya (L. Medichi, XV asr), Rim (Vatikan muzeyi, XVI asr), Drezden (Avgust Saksonskiy, XVI asr) va boshqa joylardagi antik davr yodgorliklari to‘plamlari shu davrga mansub.

XVII–XVIII asrlarda aksariyat davlat milliy muzeylari negizini tashkil etgan xususiy to‘plamlar (tarixiy, arxeologik, tabiatshunoslik, san’atshunoslik) shakllandi.

Muzeysunoslikning yordamchi tarixiy fanlar bilan bog'liqligi. Muzeysunoslik faoliyatini takomillashtirish uchun ko'plab tabiiy va gumanitar fanlarning hamkorligi zarur bo'ladi. Xususan, har qanday muzey ekspozitsiyasida uning tarixi yoritiladi. Shu sababli o'z-o'zidan muzey xodimlarining tarixchi olimlar bilan ishlashi talab etiladi. Shuningdek, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, rentgenografiya, spektografiya, dala tadqiqotlari, eksperimental metodlar, tarixiy eksperiment, modellashtirish metodi va boshqa yordamchi tarix fanlari hamda tabiiy fanlarning yutuqlaridan foydalanish talab etiladi.

Jamiyatdagi insonlar fikrini o'rghanish, muzey ekspozitsiyasini o'rtacha saviyadagi tashrif buyuruvchining talabiga moslash muzeysunoslikning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Mana shu kabi muammolarning yechimi sotsiologiya fani bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Tarix muzeylarida ekspozitsiyalarni tilsiz "so'zlatish" usullari muzeysunoslikning o'ziga xosligini ko'rsatib, uning fan sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

Muzey muassasasi insoniyat yutuqlarining noyob namuna-larini targ'ib etish bilan birga dam olish maskani vazifasini ham o'tashi lozim. Ular insonlar bilimining yuksalishi va ruhiy holtiga ham ta'sir ko'rsata olishi kerak. Muzeyga jamiyatning turli tabaqa va guruhi vakillari tashrif buyuradi, muzey xodimlari ularning psixologiyasi, xohish-istagi inobatga olingan ekspozitsiyalarni tuzishda sotsiolog, psixologlar bilan birga hamkorlikda ishlashlari lozim bo'ladi.

Har bir muzey ashyosining pasporti bo'lib, unda ashyoning kim tomonidan va qachon olib kelingani, saqlanish holati, davri, raqami hamda boshqalar yozilgan bo'ladi. Muzey xodimi ana shu hujjatlashtirish jarayonini ham yaxshi bilishi zarur.

Muzey xodimlari rentgenografiya, spektografiya kabi tibbiyot va kimyo sohalaridan ham xabardor bo'lishi kerak. Muzeydagi har bir noyob ashyoni asrash, kerakli namlik va quruq-

lik bilan ta'minlash, yorug'lik, ob-havoning muzey ashyolari-
ga ta'sirini o'rganish, ularning normal holatini doimiy ushlab
turish ham muzeyshunoslikning dolzARB masalalaridan biri.
Hatto o'ta issiq va o'ta sovuq sharoitlarda tashrif buyuruvchi-
ning ma'lum ma'noda muzeyga issiq yoki sovuq havoni olib
kirishi ham inobatga olinadi. Shunday ekan, muzey xodimidan
ana shu o'ziga xoslikni bilish ham talab etiladi. Muzey xodimi
biologiyadan ham yetarlicha xabardor bo'lishi va bu soha vakil-
lari bilan hamkorlik qilishi kerak. Chunki muzey ashyolari uzoq
davrlardan beri avloddan avlodga o'tib kelayotgan ekan, ularni
turli zararkunanda va mikroorganizmlardan asrash muammosi
ham kelib chiqishi mumkin.

Muzey xodimi tabiat ofatlari – yong'in, zilzila, suv toshqi-
ni kabi favqulodda holatlarga ham tayyor turishi, ana shun-
day holatlarda muzey ashyolarini qanday asrashni ham bili-
shi zarur.

Muzey atamashunosligi. MuzeysHunoslik fani alohida fan
hisoblanib, uning o'ziga xos bo'lgan atamalari mavjud. Muzeo-
grafiya qadimgi yunon tilidan so'zma-so'z "museion" – "mu-
zey", "grapho" – "yozaman" demakdir hamda muzeylar va
ulardagi ashyolarning bayon etish ma'nosini anglatadi. Mu-
zeysHunoslik ayni paytda "muzeologiya" so'zining sinonimi
bo'lib, muzeologiya yunoncha "musa" – "muza" va "logos" –
"so'z", "ta'limot" demakdir. U muzeylar haqidagi ta'limot
sifatida ularning tarixi, nazariyasi va amaliyotini o'rganadi.

Muzey arxitekturasi deganda, muzeylarning qurilishi, ular-
ning me'moriy-badiiy yechimi nazarda tutiladi. Muzeylar
bilim olish maskani bo'lish bilan birga, odamga zavq va nafo-
sat bag'ishlovchi, uning nozik hissiyotlarini uyg'otishga xiz-
mat qiluvchi dam olish muassasasi rolini ham bajarishi kerak.
Shuning uchun ham azaldan muzeylarning mahobatli va chi-
royli bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Buning uchun podshoh
saroylari, qasr va cherkovlar muzeyga aylantirilgan hamda bu

an'analar muzeylarning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilib kelgan.

Qolaversa, ma'lum bir davr yoki mavzuni muzey eksponatlari orqali namoyish etishda ko'rgazmaning ilmiy, badiiy-me'moriy yechimining uyg'unlashgan *kompozitsiyasi* muhim hisoblanadi.

Muzey etikasi muzeyshunoslikning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Muzeylarda uzoq asrlardan buyon saqlanib kelayotgan osori atiqalarga bo'lgan munosabat, muzeylarga tashrif buyurish odobi – muzey etikasi deyiladi.

Muzey kommunikatsiyasi atamasini birinchi bo'lib kandalik olim D.F. Kameron ilmiy muomalaga kiritgan. Muzey kommunikatsiyasida eksponat va tomoshabin o'rtasidagi ko'rmas muloqot nazarda tutiladi. Muzeyga tashrif buyurgan tomoshabin, u yerdagи eksponat va ekspositsiya orqali ma'lum bilimlarni ola bilishi kerak, ya'ni tarixning jonsiz guvohlari bo'lgan bu manbalar o'z davridan tilsiz hikoya qila olishi zarur. Muzey ashyolarini eksponat sifatida joylashtirishda va ularning jamlanmasi bo'lgan ekspositsiyalarni yaratishda muzey kommunikatsiyasi usullari tanlab olinadi.

Muzey ashyolarining asl ekanligini bilish maqsadida **muzey ekspertizasi** amalga oshiriladi. Avvalo, u ko'z mutaxassisi tomonidan, ko'rish qobiliyati bilan baholanadi. Ashyolarning asl yoki dublikat ekanligini aniqlashda bir necha marotaba kattalikda ko'rsatadigan lupalar va boshqa qurilmalardan foydalaniлади.

Muzey ashyolarini saqlash ham muzeyshunoslikning maxsus sohasini tashkil etadi. Unga ko'ra, nur va yorug'lik, quruqlik va namlik, havo harorati ashyolar uchun turlicha belgilanishi mumkin. Masalan, yog'ochdan ishlangan ashyolar bor yerga maxsus harorat saqlanishi uchun suv qo'yiladi.

Muzey pedagogikasi – bu muzey muhit sharoitlarida o'tmish tajribalari, tarixiy, ma'rifiy, madaniy qadriyatlarni pedagogik jarayon orqali kelajak avlodga yetkazishdan iborat.

Muzey yosh avlod tarbiyasi jarayoniga munosib hissa qo'shuvchi ko'makchi maskandir. Muzey pedagogikasi yo'nali shida, asosan, muzeyning ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligi nazarda tutiladi. Mazkur yo'nali sh keng omma-lashuvining sababi, muzeylarga tashrif buyuruvchilarni yanada jalg etish, turli noan'anaviy ta'lim-tarbiya metodlaridan foy-dalanib, muzeylarni yosh avlod tomonidan mamlakat tarixini o'rganishlarida va ularning ta'lim-tarbiya olish jarayonlarida o'z hissasini qo'shishidan iborat.

Bunda ekskurovod va pedagoglar oldiga quyidagi faoliyat maqsadlari qo'yiladi:

- muzey va uning to'plamlari orqali o'tmish qadriyatlariga tashrif buyuruvchilarda qiziqish uyg'otish;
- yoshlarda muzey yodgorliklariga ehtiyojkorona, hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni mamlakatimiz tarixi, madaniyatining bir qismi sifatida anglash tuyg'ularini shakllantirish, muzey-pedagogik dasturlari asosida umumiy mavzu va pedagogik maqsadga oid tadbirlarni tashkil etishdan iborat.

"Muzey pedagogikasi" tushunchasi o'z mazmun-mohiyatida quyidagi funksiyalarni amalga oshirishini ifoda etadi:

- axborot berish – muzey, avvalo, tashrif buyuruvchiga qaysidir sohada ma'lumotni ta'ddim etadi;
- ta'lim berish – muzey o'zida jamlangan materiallar vositasida tashrif buyuruvchilarning bilim doirasini kengaytirishda muhim o'rinn tutadi. Bundan tashqari, kommunikatsiya jarayonida tashrif buyuruvchilar muzey sohasida ayrim malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Muzey boshqa ta'lim muassasalarida olingan bilimlarga qo'shimcha ma'lumot olish imkoniga ega maskandir;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni rag'batlantirish – muzey ayrim sohalarda tashrif buyuruvchining ma'naviy madaniyatini shakllantirish, uning shaxsiy ijodiy xislatlarini ochishga ijobjiy ta'sir etuvchi maskandir. Muzeyda shaxsni ijodiy ja-

rayonlarga undovchi alohida sharoitlar mavjud. Eng muhimi, uning ta'sirchan “ilhom baxsh etuvchi” imkoniyatga egaligi – o'tmish qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar aks etganligidadir;

- muloqotni shakllantirish – muzey faoliyatiga oid mavzularda qiziqishlar bo'yicha turli tadbirlarning tashkil etilishi jarayonida o'smir-yoshlar faol muloqotga jalb etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishda muzey xodimlari tomonidan muzey-pedagogik dasturlari ishlab chiqiladi. Dasturlar asosan o'quvchi yoshlar, talabalar auditoriyasiga mo'ljallangan muzey zallari bo'ylab interaktiv sayohat, uchrashuv, seminar, viktorina va boshqa tadbirlardan tashkil topadi.

Umuman olganda, muzeyda ma'rifiy sohada tashkil etilagan va amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati ko'p qirralidir.

Savol va topshiriqlar

1. Muzeysenoslik deganda nimani tushunasiz?
2. Muzey predmeti (ashyolari) va obyekti haqida tushuncha bering.
3. Muzeysenoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida gapirib bering.
4. Muzey pedagogikasining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

Manbalar va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi PF-1913-sod farmoni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1998. – 1-sod. – 31-modda.
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 23 декабря 1994 г. № 618 "О мерах по улучшению деятельности музеев Республики".
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy- texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tad-

birlar to'g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.12.2017-y., 09/17/975/0398-son.

4. *O'ljayeva Sh.M.* Muzeyshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2002.
5. *Шляхтина Л.М., Фокин С.В.* Основы музейного дела. – СПб., 2002.
6. *Шляхтина Л.М.* Основы музейного дела: теория и практика. – М., 2005.
7. *Юренева Т.Ю.* Музееведение. – М.: Академпроект, 2003.
8. *Carbonell B.M.* Museum studies: an anthology of contexts. – Oxford: Blackwell, 2004.
9. *MacDonald Sh.A.* Companion to Museum Studies. – Oxford: Blackwell, 2006.
10. *MacLeod S.* Museum Architecture: A New Biography. – London; New York: Routledge, 2013.

2-MAVZU. MUZEY FONDI VA MUZEY FONDALARINI JAMILASH TARTIBI

REJA

1. Muzey fondi tushunchasi.
2. Muzey fondalarini ilmiy tashkil etish.
3. Muzey fondalarini to'ldirish (komplektlash).
4. Muzey ashyolarini yig'ish bo'yicha ekspeditsiyalar tashkil qilish.

Muzey fondi tushunchasi. Muzey faoliyati muzey fondlari asosida yuritiladi. Fonddagi predmetlarni muzey xodimlari yig'ishlari, saqlashlari, o'rganishlari, shuningdek, ta'lim-tarbiya ishlari va ilmiy izlanishlarda foydalanishga sharoit yaratishlari zarur.

Fond orqali muzey o'tmish bilan hozirgi davrni bog'laydi. Masalan, tarixiy ixtisoslikdagi muzeylarning fondi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, ichki va tashqi siyosatni, madaniyat tarixini o'rganuvchi, tasdiqlovchi hujjatlar, ashyolardan iborat.

Muzey fondlarining arxiv va kutubxona fondlaridan farqi shundaki, turli materiallarni toplash orqali tarixiy jarayonlar majmuasi hujjatlashtiriladi. Muzeylar uchun ashyoga taalluqli ma'lumotning mazmuni va hajmigina yetarli emas, bu ashyo nima maqsadda, qanday qilib yaratilganligi haqidagi axborot ham kerak, ya'ni ashyoning tabiatini aniqlovchi ma'lumotni yetkazib berish xususiyati bo'lishi zarur.

"Muzey fondi" deyilganda, muzeyga doimiy saqlovga qabul qilingan, ilmiy tashkillashtirilgan materiallarning yig'indisi tushuniladi. U nafaqat fond saqlovi va ekspozitsiyadagilarni, balki boshqa muzey yoki muassasaga ko'rgazmada vaqtinchalik foydalanish uchun berilgan, shuningdek, ekspertiza, ta'mirlash uchun jo'natilgan ashyolar, kolleksiyalarni ham qamrab oladi.

Demak, muzey fondi asosini muzey ashyolari tashkil etadi. Bularga tarix va madaniyat yodgorliklari, ijtimoiy yoki tabiiy jayron va hodisalarni hujjatlashtira olish xususiyatiga ega hamda o‘z makonidan ajratib olingan tabiat obyektlari kiradi. Shuningdek, fondlardan ilmiy yordamchi materiallar ham o‘rin oladi. Lekin, bu materiallar muzey ashyosi xususiyatiga ega bo‘lmay, ashyolarni o‘rganish va ekspozitsiyalashga yordam beradi. Ashyoni o‘rganish jarayonida yoki bevosita ekspozitsion zarurat uchun yaratilgan rekonstruksiyalar, maketlar, modellar, xaritalar, loyihamalar, grafiklar, jadvallar, chizmalar, shartli tasvirlar *ilmiy yordamchi material* deyiladi. Ularning ayrimlari, ba’zi bir sabablarga ko‘ra ekspozitsiyaga joylashtirib bo‘lmaydigan ashyolarning tashqi qiyofasini tasavvur qilishga imkoniyat yaratadi. Boshqalari, ashyo haqida qo‘srimcha axborot beradi.

Muzey ashyolari mazmunini yanada chuqurroq ochib berish maqsadida, ekspozitsiyaga kiritilgan turli xildagi audiovizual vositalar, vitrinalar, shkaflar, stendlar va boshqa muzey jihozlari muzey fondi tarkibiga kirmaydi.

Muzey ashyolarining ilmiy yordamchi materiallardan farqi, ular madaniyat va tarix yodgorliklari hisoblanib, amaldagi qonunga muvofiq muhofaza qilinadi.

Namunaviy (tipovoy) muzey ashyosi deb, o‘ziga xos hodisalarni aks ettiruvchi va muayyan miqdorda mavjud buyumlaridan biri bo‘lgan ashyolarga aytildi. Bunga namunaviy hujjatlar, standart sanoat mahsulotlari misol bo‘ladi. Mazkur ashyolar muzeyda yagona nusxada saqlansa-da, namunaviy deb ataldi, chunki kundalik turmushda u bilan bir xil ashyolar mavjud. Bunday ashyolarga faqat seriyali ishlab chiqarish mahsulotlari emas, ma’lum hodisalarni tavsiflovchi kamdan kam uchraydigan ashyolar ham kiradi. Bunga neolit davrining tosh qurollari misol bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, agar ma’lum hodisani aks ettiruvchi ashyo yagona nusxada yoki kam miqdorda saqlanib qolingan bo‘lsa,

u nodir ashyo hisoblanadi. Chunki, undagi mavjud ma'lumot boshqalardan farqli tavsifga ega. Yana betakrorligi va o'ziga xosligi jihatidan ham nodir ashyolar bo'ladi. Bunga yuksak darajada ishlangan tasviriy va amaliy bezak san'ati asarlari, ajoyib konstruksiyaga ega asboblar, yodgorliklarning kamdan kam uchraydigan nusxalari misol bo'ladi.

Masalan, Moskvadagi Politexnika muzeyi 2 mingdan ziyod ashyoga ega bo'lib, ular orasida namunaviy konstruksiyalar ham, nodir fotografiya yodgorliklari ham mavjud. XX asr o'rtasida ishlab chiqarilgan fotoapparat, fotokameralarning nusxalari namunaviy muzey ashyosiga kiradi. Ular optikaviy-mekanik sanoatning shakllanish tarixini hujjatlashtirgan. 1840-yili fransuz optigi Sharl Shevalye tomonidan tayyorlangan fotoapparat, eng birinchi fotoapparatlardan biri bo'lib, u ham muzeyning nodir namunalari orasidan joy olgan.

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyining ekspozitsiyasidan ham O'zbekistonning quyidagi nodir yodgorliklari o'rinni olgan: Fayoztepadan topilgan Buddha va rohiblarning toshdan ishlangan haykali (I-II asrlar), qadimgi Yunon-Baqtriya va Kushon podsholiklari, ko'hna Xorazm, ilk o'rta asrlarga oid Naxshab, Buxoro, Choch, Samarqand tangalari va boshqalar. Ulardagi mahalliy hokimlarning siymolari, tamg'alarini va yozuvlari tomoshabinni o'ziga jalb qiladi.

O'zbekiston Davlat san'at muzeyida esa XV–XVIII asrlarda ijod qilgan Yevropa san'at ustalarining asarlari, XX asr o'rtalarigacha yashab ijod etgan rassomlarning asarlari ham noyob eksponatlar qatoriga kiradi. Usta Mo'min (Aleksandr Nikolayev), Aleksandr Volkov, Chingiz Ahmarovning asarlari shular jumlasidandir.

Nodir eksponatlarga *memorial ashyolar* ham kiradi. Atoqli davlat va jamoat arboblari, fan, madaniyat, san'at namoyandalarining shaxsiy buyumlari, tarixiy voqealar bilan bog'liq buyumlar bunga misol bo'ladi. Ular orasida *shaxsga oid yodgor-*

liklarni ham alohida ajratishadi. Bular yuqori darajadagi emotsional ta'sirga ega ashyolar bo'lib, atoqli inson yoki voqeа yodgorligi sifatida qadrlanadi.

O'zbekistondagi Muxtor Ashrafiy, G'afur G'ulom uy-muzeylaridan ba'zi shaxsiy buyumlar, Yunus Rajabiy uy-muzeyidagi bir necha musiqa asboblarini ham mazkur eksponatlar qatoriga kiritish mumkin.

Shunday qilib, noyob eksponatlar qatoriga boshqalardan farqli ilmiy, tarixiy, badiiy qimmatga ega, shuningdek, oddiy hodisalarni aks ettirsa-da, yagona nusxada yoki chegaralangan miqdorda saqlanib qolgan ashyolar kiritiladi.

Muzey ashyolari ko'p belgilar bo'yicha o'zaro bog'liq: bitta tarixiy davrga, voqeaga, shaxsga, muallifga, manbalar nusxa-siga tegishliligi bilan ularni umumiy mavzu, sujet, yaratilgan vaqtin, muhiti, materiali va tayyorlanish texnikasi birlashtirishi mumkin. Bu kabi bog'liqliklarni, albatta, inobatga olish zarur, chunki alohida ashyoga nisbatan, o'zaro bir-biri bilan bog'liq ashyolar guruhi ko'proq ma'lumot beradi.

Bir yoki bir qancha belgilarining umumiyligi bo'yicha bog'liq va bir butun ilmiy, badiiy yoki bilishga oid qiziqishni namoyon etuvchi muzey ashyolarining majmuyiga – *muzey kolleksiyasi* deyiladi. Ashyolar kolleksiyaga turli belgilari – manba turlari, kelib chiqishi, mazmuni bo'yicha guruhlanadi. Bir turdag'i ashyolardan tashkil topgan, ma'lum belgilari, tasnifi, ya'ni materiali, bilim sohalari, amaliy faoliyati, mintaqasi, etnik guruhi kabi guruhlangan kolleksiyaga – *sistematisk kolleksiya* deyiladi. Bu – chinni, arxeologiya, telefon apparatlari, san'at asarlari kolleksiyalari bo'lishi mumkin.

Muzey ashyolarining turli tiplaridan shakllangan kolleksiya (hujjatlar, fotolar, san'at asarlari, buyumlar), o'zlarining majmuasida ma'lum mavzuni ochib beradi va bu *tematik kolleksiya* deyiladi. Agar turli tipdag'i predmetlar yig'indisi ma'lum shaxs yoki tarixiy voqeа bilan bog'liq bo'lsa, *memorial kolleksiya* deyiladi.

siya hisoblanadi. Ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilgan va muzey saqloviqa topshirilgan kolleksiyaga *xususiy kolleksiya* deyiladi.

Muzey kolleksiyalarining majmuyi esa *muzey to'plamlari* deb yuritiladi. Shuningdek, buning yanada keng ma'nosи ham mavjud. Bunda nafaqat ilmiy tashkillashtirilgan muzey to'plamlarining majmuyi, balki ilmiy yordamchi materiallar, muzeyda saqlanadigan ilmiy axborot ta'minoti vositalari, arxiv va kutubxonalari qamrab olinganligi ham tushuniladi. Demak, muzey fondlari ilmiy tashkillashtirilgan bo'lishi zarur.

Muzey fondlarini ilmiy tashkil etish. Fondlarni ilmiy tashkil etish:

- ashyoning yuridik holatini belgilaydi, shuningdek, konkret muzey, fan va madaniyat uchun ahamiyatini ochib beradi;
- fondlarni shakllanishi, saqlanishi, tadqiq etilishi va ular-dan foydalanishi uchun optimal sharoit yaratib beradi.

Ashyolarning ilm va fanga doir ahamiyati hamda yuridik mavqeyiga qarab, muzey fondlari – muzey ashylaridan tashkil topgan *asosiy fond* hamda ilmiy yordamchi materiallarni o'z ichiga oluvchi *ilmiy yordamchi fondga* ajratiladi.

Tabiiy-ilmiy muzeylarda yana *ashyoviy materiallar fondi* ham bo'ladi. Unga laboratoriya tadqiqotlari va preparatlash uchun mo'ljallangan tabiat obyektlari kiradi. Hayvon terilari, nam ekspeditsion to'plamlar, uzoq muddatga saqlanadigan materiallar shular jumlasidandir. Bu fondga ashylar navbati bilan vaqtinchalik asosda kiritilib, tekshiriladi hamda preparatlash ishlari o'tkaziladi. Ayni shu jarayonda, tabiat obyektlarining bir qismi, o'zining muzey xususiyatini yo'qotishi mumkin.

Muzey fondlarini yana bir qancha qismga ajratish mumkin. Lekin, bu masala munozarali hisoblanadi. Masalan, ba'zi muzeyshunoslar, ma'lum vaqtga ekspozitsiya, ko'rgazma yoki ilmiy qayta ishslash uchun boshqa tashkilotlar, muzeylar va

shaxslardan olingen ashyolar *vaqtinchalik saqlov fondiga kiritilishi kerak*, deb hisoblaydilar.

Albatta, *vaqtinchalik foydalanishga olingen materiallar va muzey ashyolari deyarli har bir muzeyda uchraydi*. Lekin, bunda ular muzeyning xususiy to‘plamlari tarkibiga kirmaydi, shuning uchun bir qator mutaxassislarning fikricha, ularni muzey fondiga kiritish to‘ri kelmaydi.

Muzeyning o‘zida ehtiyoji bo‘lmagan ashyolar *almashinuv fondiga kiritiladi*. Undagi ashyolar muzey bo‘ysunadigan tashkilotning ruxsatiga binoan boshqa muzeylarga bepul asosda beriladi yoki ixtisoslikka xos ashyolar bilan almashtiriladi.

Muzeylarning fondlari tarixan shakllanib borar ekan, vaqt o‘tishi bilan ularning maqsad va ixtisoslikka bo‘lgan qarashlari o‘zgarishi mumkin. Ba’zan muzey fondlarida ixtisoslikka oid bo‘lmagan, lekin fan va madaniyat uchun ulkan ahamiyatga ega ashyolar ham uchrab turadi. Bundan tashqari, muzey fondlarida aynan bir xil ashyolar – *dubletlar* bo‘ladi. Bu, oldindan biron shaxs yoki muassasa tomonidan to‘planib, shakllantirilgan kolleksiyalarda o‘rin oladi. Mayjud me’yoriy hujjatlariga asosan, muzey to‘plamida bir-birini takrorlaydigan muzey ashyolari bo‘lsa, ularning beshtasi asosiy fondga, qolganlari almashinuv fondiga kiritiladi.

Demak, *almashinuv fondi muzey ixtisosligiga xos bo‘lmagan ashyolar fondi va ortiqcha dublet materiallari fondiga bo‘linadi*. Asosiy fond ichida *dublet fond* va *kolleksion fond* shakllanadi. Kolleksion fondda yagona nusxada barcha muzey ashyolari va bir necha nusxadagi ashyolarning eng sarasi saqlanadi.

Namunaviy va nodir ashyolar fan, madaniyat uchun alohida ahamiyat kasb etganligi bois, ularni kolleksion fond tarkibidagi dublet fond, *ixtisoslikka oid bo‘lmagan ashyolar fondi*, ortiqcha dublet materiallari fondiga ajratish, mutaxassislar tomonidan tavsiya etiladi.

Memorial muzeylarda kolleksion fondni *memorial ashyolar fondi* va *memorial ahamiyatga ega bo‘lmagan ashyolar fondiga ajratish* tavsiya etilgan.

Tabiiy-ilmiy muzeylarning fondlari ma’lum o‘ziga xosliklarga ega. Individual va betakror bo‘lgani uchun tabiat obyektlari almashtirishga oid yoki dublet fondlarga ajratilmaydi.

Ba’zi yirik muzeylarda fond asosiy, ilmiy va ekspozitsion fondga bo‘linadi. Bunday bo‘linish asosida, materialni fiksatsiyalash uslublari va konservatsiyalash shakllari yotadi. Bu ekspozitsiyalash va tadqiq etish uchun muhim ahamiyatga ega.

Spirt aralashmalari yordamida fiksatsiya qilingan nam preparatlar tez rangsizlanadi va ekspozitsion ko‘rinishini yo‘qotadi. Lekin, organizmning morfologik va anatomik o‘ziga xosliklari to‘liqligicha saqlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, tadqiqot o‘tkazish uchun zarur. Fiksatsiyalashda formalinli aralashmadan foydalanilgan preparatlar, juda sezilarsiz darajada rangsizlanadi, biroq matolarning tuzilishi (strukturasi) o‘zgaradi. Shuning uchun, ular ekspozitsion ko‘rkamligini saqlab qolsa-da, amalda to‘liq ilmiy tadqiq etishga yaroqsiz bo‘lib qoladi.

Ashyolarning asosiy yoki ilmiy yordamchi fondlarga oid ekanligi, turli hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi.

Mamlakatimizdagi barcha muzeylarining muzey ashyolari, *O‘zbekiston Respublikasining Milliy muzey fondini* tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy muzey fondiga muzey ashyolari bilan bir qatorda, alohida shaxslar, jamoat va diniy uyushma, tashkilotlarga qarashli mulkda turgan, muzey ashyosi ahamiyatiga ega buyumlar ham kiradi. Shunday qilib, o‘z tarkibiga ko‘ra, muzey fondlari *davlatga tegishli* va *davlatga tegishli bo‘lmagan qismlarga ajratiladi*. Lekin mulkdorlik shaklidan qat’i nazar, uning tarkibiga kiritilgan barcha tarix va madaniyat yodgorliklari O‘zbekiston xalqi madaniy merosining

ajralmas qismi hisoblanadi. Ular mamlakat chegarasidan chetga chiqarilmaydi, vaqtinchalik olib chiqish esa O'zbekiston Respublikasining "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida"gi qonuniga binoan boshqariladi.

Muzey fondlari tarkibiga kiruvchi ashylolar, o‘zining fizikaviy xususiyatlari, shuningdek, axborotni saqlash usuliga binoan farqlanadi. Hozirda muzey ashylari olti turga yoki manbara ajratiladi: buyumli, tasviriy, yozma, ovozli, shuningdek, foto va kino manbalar.

Buyumli (ashyoviy) manbalar – insonlar tomonidan ishlangan, o‘ziga xos xususiyatlarga ega buyumlar bo‘lgan muzey ashylaridir. Bu mehnat qurollari, kundalik asbob-anjomlar, harakatlanish vositalari va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan ashylar bo‘lib, ular xo‘jalik faoliyati, maishiy hayot, ijtimoiy tuzum, estetik va diniy tasavvurlar haqidagi ma’lumotlarni saqlaydi. Ashyoviy manbada mavjud axborot bevosita ashyning shakli, tuzilishi, materiali, o‘lchami, vazni, rangi orqali yetkazib beriladi.

Tasviriy manbalar – tasviriy san’atning rangtasvir, haykal-taroshlik, grafika turlari bo‘yicha asarlari, sxematik tasvirlar (chizmalar, loyihamalar, xaritalar) hisoblanadi.

Yozma manbalar – yozuv belgilari: harf, raqam va boshqa timsollar orqali qayd qilingan ma’lumotlarga ega muzey ashylaridir. Yozma manbalar juda xilma-xil, ularga yilnomalar, hujjatlar, statistik ma’lumotlar, adabiy va publisistik asarlar, noyob kitoblar kiradi.

Ovozli manbalar – maxsus texnik vositalari yordamida yozib olingan inson nutqi, musiqa ovozi kabi manbalardan tashkil topgan muzey ashylaridir. Ular atoqli shaxslarning ovozini, o‘quvchi nutqining o‘ziga xosligi, musiqachilarning ijro mahorati kabilarni yetkazib beradi. Bu materiallarga patefon, gramofon plastinkalari, magnit lentalari, kompakt-disklar kiradi.

Foto manbalar – fotoapparatura yordamida olingan tasvir ko‘rinishidagi axborotni saqlaydigan muzey ashyolaridir. Bular faqat fotosuratlarni emas, oyna ustidagi, plyonkadagi va boshqa materiallardagi negativlar, qog‘ozdag, keramikadagi, metalda- gi fototasvirlar, plyonka yoki oyna ustidagi diapozitivlarni ham qamrab oladi.

Kino manbalar – dinamik tasvir ko‘rinishidagi, texnika vositalari orqali yoziladigan va namoyish etiladigan muzey ashyolaridir.

Ma’lum manba turiga oid ashyolar, ko‘p hollarda boshqa turdag'i manbalarning elementini saqlaydi. Masalan, portretlar va janrli tasvirlar vazalarda, idishlarda, gilamlarda uchraydi. Lekin, bunda yodgorliklarning moddiy madaniyat yodgorligiga tegishliligi o‘zgarmaydi, ya’ni ular ashyoviy manbaligicha qoladi. Tasviriy san’at manbalari elementlari, ko‘pincha kitoblarda, miniatyurlar ko‘rinishida ham uchraydi.

Fondlarda u yoki bu turdag'i muzey ashyolarining o‘zaro nisbati muzey ixtisosligi va uning konkret spetsifikasiga bog‘liq. Masalan, fan va texnika muzeylarida mashina, aniq asboblar, mexanizmlar kabi ashyoviy manbalar ustuvorlik qiladi, adabiyot muzeylarida esa fond asosini yozma manbalar tashkil etadi. Lekin tasviriy, kino, ovozli manbalarning roli deyarli pasaymaydi.

Fond tasniflarining navbatdagi birligi *muzey ashyolari* bo‘lib, ular bir yoki bir necha belgilarning umumiyligi asosida ajratiladi. Ular material, ashyoning tayyorlanish texnikasi yoki alohida belgilarining uyg‘unligi bo‘lishi mumkin. Masalan, buyum manbalar materiali bo‘yicha ajratiladi – yog‘och, metall, tosh, sopol, shisha, suyak, perlmutr, plastmassa. Materialni bildiruvchi tushuncha to‘plovchilik tavsifi ga ega. Masalan, “metall” tushunchasiga: temir, mis, kumush, oltin; “sopol” tushunchasiga: qo‘pol sopol, chinni, fayans kiradi.

Buyumli kolleksiyalar predmetlarning funksional belgilangan maqsadi, hududiy belgisi, ishlab chiqilgan vaqt, muallifga oidligi bo'yicha ham bo'linadi.

Tasviriy san'at kolleksiyalarining manbalari, ko'p hollarda, tasviriy san'at asarlari kolleksiyasi va sxematik tasvirlar kolleksiyasiga bo'linadi. Tasviriy san'at asarlari oldin turlari (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) bo'yicha, so'ngra, yaratilish vaqt, maktablari, janrlari, muallifiga ko'ra bo'linadi. Sxematik tasvirlarning bo'linish tamoyillari sifatida hududiy belgilar, yaratilish vaqt, tayyorlanish texnikasi, mazmuniga e'tibor qaratiladi.

Yozma manbalar kolleksiyasi muzey ashyolarining quydagi turlariga ajratiladi: qo'lyozma va bosma, shaxsiy hamda muassasa materiallari, vaqtli nashrlar, kitoblar, blanklar. Tarihiy ixtisoslikdagi muzeylarda ular tematik va ixtisoslik tamoyillari bo'yicha ham bo'linadi.

Foto manbalar tayyorlanish texnikasiga ko'ra negativlar, pozitivlar, dagerrotiplarga, tematik tamoyil bo'yicha – fotoportret, sujetli fotosuratlar va boshqalarga tasnifланади.

Muzeystunoslikda fotohujjalarning ma'lum muzey manbalari turiga oidligi haqida yagona fikr mavjud emas. Ayrim muzeylarda ular mustaqil guruhni tashkil etadi, boshqasida yozma manbalarning tasviriy fondidan o'rinn oladi, yana birida ular bilan birlashtirilib, hujjatli fondga kiritiladi.

Shuningdek, kolleksiyalar bilan bir qatorda ekspeditsiyalar tomonidan tuzilgan, bo'linmaslik sharti bo'yicha kolleksionerlardan olingan yoki kolleksiyalash namunasi sifatida konservatsiyalangan ashyolar muzey to'plamlariga *mustaqil tuzilishdagi kolleksiyalar* birligi sifatida kiradi. Agar muzeyga biron shaxs doimiy ko'rgazmaga bebahoh badiiy kolleksiyalarini topshirgan bo'lsa, muzey uning butunligini va to'plovchingining nomini saqlab qoladi.

Muzey fondlarining tuzilishi nafaqat muzey ixtisosligi, balki uning konkret xususiyatiga ham bog'liq. O'z fondlarini

tasniflayotganda, muzey, albatta, umumiy qabul qilingan qoidalarga amal qiladi. Bo‘linish tartibi doimo bir xil asosda amalga oshiriladi. Har bir ashyoning umumiy tavsifi bitta tushuncha os-tida bo‘lishi kerak. Masalan, manbalarni turi bo‘yicha bo‘lishni amalga oshira turib, qo‘lyozma kitobni miniatyuralar bilan bir vaqtida yozma va tasviriy manbalarga kiritib bo‘lmaydi.

Shunday qilib, fondlarni ilmiy tashkil etilishi asosida bir necha tizimni shakllantiruvchi belgilar yotadi – ashyolarning ilmiy va madaniy ahamiyati, ularning yuridik jihatlari, ular orqali axborot fiksatsiya qilish usuli.

Fondlarni ilmiy tashkil etish tartibi bilan muzey fondlari tarkibi va muzey fondlarini tuzish kabi tushunchalar bog‘liq. Zamonaviy muzeysenoslik adabiyotlarida mazkur tushunchalarning mazmuni va o‘zaro nisbatiga oid yagona fikr yo‘q.

Shunday qilib, fondlar asosida butun muzey faoliyati amalga oshiriladi. Muzeylar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarni muvafqaqiyatli hal etishlari uchun fondlar mazmuni muzey ixtisosligiga mos va ilmiy tashkil etilgan bo‘lishi, shuningdek, ularning yo‘nalishi va muzeysenoslikning rivojlanish darajasiga qarab – uzlucksiz, maqsadga yo‘naltirilgan holda to‘ldirib borishlari kerak.

Muzey fondlarini to‘ldirish (komplektlash). Ushbu faoliyat yo‘nalishining mohiyati muzey ahamiyatidagi ashyolarni yig‘ish va aniqlashdan iborat, maqsadi esa ularni muzey ashyosiga aylantirish, muzey to‘plamini to‘ldirishdir.

Komplektlash muzey faoliyatining barcha bosqichlarida davom etib, fondlarni ilmiy loyihalash dasturiga mos tarzda mun-tazam olib boriladi.

Muzey ilmiy konsepsiyasining tarkibiy qismi muzey fondlarini komplektlashning ilmiy konsepsiyasida muzey ixtisosligiga mos tarzda maqsadlari, yo‘nalishlari, shakllari va komplektlash uslublari umumlashtiriladi. Unda mavjud fondning mazmuni, tuzilishining bahosi berilib, muzey maqsad va vazi-

falariga qarab kolleksiyalarni to‘ldirish yoki komplektlashning tavsifining yo‘nalishi asoslanadi, fondlarga material tanlash mezonini aniqlanadi.

Komplektlashning ilmiy konsepsiyasidan kelib chiqib, aniq maqsadlarni hisobga olgan holda, fondlarni komplektlash loyihasi tuziladi. Bu loyiha 5–10 yilga mo‘ljallangan, shuningdek, istiqbolli yoki joriy, ya’ni bir yillik bo‘lishi mumkin. Ular fond va ekspozitsion bo‘limlari ishchilarining rejali talabnomalari asosida shakllanadi. Mazkur talabnomalar, o‘zaro qo‘shimcha tarzda kelishilib, asosiy e’tibor va kuchlar komplektlashning muhim, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalariga qaratiladi.

Uslubiga ko‘ra komplektlashning uch asosiy turi mavjud: sistematik, tematik, kompleksli. *Sistematik komplektlash*, bir xil turdagи ashyolar bilan muzey kolleksiyalarini muntazam to‘ldirib boradi. *Tematik komplektlash* esa, konkret mavzuni aks ettiruvchi, muzey ahamiyatiga ega har xil tipdagи ashyolarni to‘playdi va aniqlaydi. U muzey yo‘nalishidagi mavzular bo‘yicha jarayon va hodisalarini hujjatlashtirishga imkon beradi.

Sistematik va tematik komplektlashning vazifalari *kompleksli komplektlashni* birlashtiradi, bu asosan, uncha katta bo‘limgan muzeylarda amalga oshiriladi.

Muzey mutaxassislari fondlarni komplektlash muammolarini yechishni yanada optimal yo‘llarini izlash maqsadida doimo muzey ahamiyatidagi ashyolarning mulkdorlari yoki mulkdori bo‘lishi mumkin shaxs, tashkilotlar bilan vaqtinchalik, shuningdek, doimiy aloqani yo‘lga qo‘yishadi. Bularga kolleksionerlar, rassomlar, fotograflar va boshqa ijodkorlar, badiiy hunarmandchilik buyumlari hamda kundalik ashyolarni loyihalovchi, ishlab chiqaruvchi korxonalar, antikvar va bukinistik do‘konlar, kolleksiya yig‘uvchi ilmiy muassasalar (ularni saqlamaydigan, masalan, gumanitar ixtisosligidagi ilmiy institutlar, OTMning tarix fakulteti, arxeologiya va etnografiya kafedralari – shular jumlasidan) kiradi.

Muzey fondalarini komplektlash shakllari turlichadir. Bu muzey smetasiga kiritilgan maxsus hisob raqamidagi mablag' evaziga sotib olingan kolleksiya yoki alohida ashyolar, tashkilotlar, xususiy shaxslar tomonidan bepul (hadya) muzeyga berilgan kolleksiya yoki ashyolar, dublet va noixtisoslik materiallarni muzey to'plami tavsifi hamda ixtisosligiga mos keladigan ashyolarga almashish, original ish bajartirish uchun maqsadli buyurtmalar bo'lishi mumkin.

Muzey to'plamini komplektlash loyihasiga binoan, muzey ahamiyatidagi ashyolarni yig'ish uchun komplektlash bo'yicha maxsus xizmat safarlari uyuştiriladi. Shuningdek, ma'lum mavzuni o'rganish va to'plovchilik ishlarini o'tkazish maqsadida, muzeylar turli xil: arxeologik, etnografik, tarixiy-maishiy, tabiiy-ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etadilar. Ular ko'p hollar da boshqa muzeylar yoki ilmiy muassasalar bilan birgalikda o'tkaziladi.

Komplektlashning yana bir turi, hodisa yuz berayotgan vaqt tugashi bilan amalga oshiriladi. Bu muhim siyosiy voqealar, obyektlarning ochilish marosimi paytidagi, shuningdek, ilmiy-amaliy kongress, simpoziumlar doirasida to'plovchilik ishi bo'lishi mumkin. O'zbekiston tarixi Davlat muzeyidagi 1966-yilgi zilzila asoratlari, 1999-yilgi fevral voqealari (terorrhilarning qo'poruvchilik ishlari natijasida ko'rilgan talafotlar) fototasvirlari, mustaqillik davrida erishilgan yutuqlar haqidagi ekspozitsion materiallar bunga misol bo'ladi.

Ashyolarni tanlash tizimi umumiyligi va xususiy tavsifga ega mezonlarning majmuasidan iborat. Umumiyligi mezonlar axboriylik, reprezentativlik, attraktivlik, ekspressivlikka oid ashyo tavsiflarini e'tiborda tutadi. Xususiy mezonlar kollektsiyaning konkret spetsifikasini, ashyoning turi, ko'rinishi va manba siyatidagi o'ziga xosliklarini inobatga oladi. Bunda, ashyoning yoshi, aslligi va kamyobligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tavsiflarni aniqlash uchun ashyo turlarining tarixini, mate-

riallarning qo‘llanilishi tarixini bilish, ashyoning aslligini isbotlovchi belgilar bilan tanish bo‘lish zarur: yozuvlar, monogrammalar, emblemalar, fabrika belgilari, tamg‘alar, muallif imzolari, nashrlar, ekslibrislar (kolleksionerlarning markaga o‘xshaydigan maxsus belgisi) shular jumlasidandir. Bu belgilar fond ishlari jarayonida to‘liq ochib beriladi, lekin tanlash bosqichida ham ularning birlamchi rasshifrovkasi bo‘lishi zarur.

Ashyo bilan ishslashning boshlang‘ich bosqichida, uning muzeyda uzoq vaqt saqlanish imkoniyatini hal etish maqsadida tayyorlangan materialini aniqlash shart. Muzey to‘plamlarini zamonaviy davr bo‘yicha komplektlash o‘ziga xos murakkabliklarga ega, chunki tanlash mezonlari yaxshi ishlab chiqilmagan bo‘ladi. Bu muammoni hal etishda muzey xodimlari ijtimoiy so‘rov o‘tkazishadi.

Ashyo muzey ahamiyatiga egaligi yoki muzey to‘plami uchun kerakligini aniqlashda, xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida *jamoaviy ekspertiza* o‘tkaziladi. Uni tarkibiga turli ixtisoslikdagi mutaxassislar, ekspozitsion va fond bo‘limlari ishchilari kiradigan maxsus organ – fond-sotib olish komissiya-si amalga oshiradi. Mazkur organ, nafaqat muzey ahamiyatiga ega ashyoni sotib olishga qaror qabul qilibgina qolmay, balki uni asosiy yoki ilmiy yordamchi zaxiraga qo‘sadi. Shuningdek, u fond ishlarining uslubiy masalalari bilan shug‘ullanadi. Uning qarori bayon bilan hujjatlashtiriladi va bosh muhofiz qo‘l qo‘yib, muzey direktori tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu hujjat ashyoning muzey to‘plamiga kiritilishi va uning muzey ashyosiga aylanishiga yuridik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ba’zi muzeylarda ikkita – fond va sotib olish komissiyalari alohida tarzda mavjud.

Fondga kelib tushishidan oldin, muzey ahamiyatidagi ashyolar uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tadi, uning asosiy muhim bosqichlari maxsus hujjatlarga yozib qo‘yiladi. Agar ashyolar tashkilot yoki xususiy shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa, ular

qo'shimcha, vaqtinchalik saqlovga qabul qilinadi. Maxsus qabul qilish dalolatnomaga bilan hujjatlashtiriladi va u ashyoning egasi bilan muzey xodimi tomonidan imzolanadi.

Bir vaqtning o'zida ashyo haqida afsona yoziladi. Unda ashyoning kelib chiqishi, yashash muhiti, qo'llanilish uslubi, shuningdek, egasi haqida ma'lumot beriladi. So'ngra, ashyolarni mutaxassislar ekspertiza qilib, yozma xulosa beradilar.

Agar ashyo yoki kolleksiya hadya qilingan bo'lsa, qabul qilib olayotganda, muzeyda hadya shartnomasi, ashyo sotib olib qabul qilinganda esa, sotib olish shartnomasi, almashinuv nati-jasida qabul qilinsa, almashinuv shartnomasi tuziladi. So'ngra ashyolarni doimiy saqlovga qabul qilinganligi haqida dalolat-noma tuziladi va u muzey direktori tomonidan tasdiqlanadi hamda muhr qo'yiladi. Agar saqlovga kolleksiya qabul qilin-sa, dalolatnomaga kolleksion ro'yxat ilova qilinib, unda har bir ashyoning nomi, tashqi ko'rinishi, qanday materialdan va tex-nikadan foydalanilgan holda tayyorlanganligi, hajmi, og'irligi bat afsil yoziladi.

Shunday qilib, *fondlarni komplektlash jarayonini* quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

- muzey fondlarini komplektlashning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqish;
- komplektlash loyihasini tuzish (komplektlash shakli va uslubi aniqlashtiriladi, ekspert so'rovlari o'tkaziladi);
- to'plovchilik ishiga tayyorgarlik (mavzu bo'yicha adabi-yotlar, arxiv fondlari o'rganiladi, boshqa muzeylarning kollek-siyalari tahlil qilinadi, mutaxassislardan konsultatsiyalar olina-di, to'plash rejasining yo'naliш mavzusi aniqlashtiriladi);
- to'plovchilik ishi (ashyoning yashash muhiti o'rganiladi, xizmat safari va ekspeditsiya vaqtida yoki komplektlashning doimiy obyektlarida muzey ahamiyatiga ega ashyolarni to'plash hamda aniqlash ishlari olib boriladi, dala hujjati tuzi-ladi);

- yakuniy jarayon (muzey ahamiyatidagi ashyolar, u bilan bog‘liq hujjatlar va hisobotlar fond-sotib olish komissiyasiga topshiriladi, komissiya qaroriga ko‘ra, ular muzey fondiga topshiriladi, ya’ni doimiy saqlovga qabul qilib olinadi).

Muzey ashyolarini yig‘ish bo‘yicha ekspeditsiyalar tashkil qilish. Maxsus hujjatlashtirish ekspeditsiya yoki xizmat safarlari davomida ham olib boriladi; u ish jarayoni va shakllanayotgan kolleksiya tarkibini aks ettiradi.

Ekspeditsiyaning maqsad va vazifalariga ko‘ra, dala hujjatlashtirilishi – dala ro‘yxati, dala kundaligi, folklor yodgorliklarini, shuningdek, muzey qiziqtirgan voqealarning qatnashchilari, guvohlarining esdaliklari va hikoyalarini yozish, ashyolarning afsonasi, negativning tartib raqami ko‘rsatilgan fotosvirlar, tasvirga olingan joy, vaqt kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ekspeditsiyaning asosiy hujjati – *dala ro‘yxati* bo‘lib, muzey ahamiyatiga ega ashyolarning ro‘yxati va hisobi yoziladi. Unda quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

- ashyoning tartib raqami;
- topilgan (yoki sotib olingan) kuni va joyi;
- nomlanishi va qisqa ta’rifi;
- ashyolarning soni (ba’zida bitta raqam ostiga bir qancha o‘xshash ashyolar yoziladi);
- ashyoning ishlangan vaqtি, texnikasi, materiali (vaqtি aniq bo‘lmasa, taxminan yoziladi);
- nimaga mo‘ljallanganligi, qanday foydalanilganligi va saqlanganligi;
- tarixi;
- kirim manbayi yoki ashyoning egasi haqida ma'lumot;
- bahosi (hadya qilingan bo‘lsa, bu ko‘rsatiladi);
- ilova.

Ikkinci asosiy hujjat *dala kundaligi* hisoblanadi. Unda xronologik tartibda to‘plovchilik ishining olib borilishi, kuzatishlar, uchrashuvlar, dala ro‘yxati yo‘nalishidan tashqari doiraga

kiruvchi ashyolar haqida ma'lumot, harakatlanish grafigi, tad-qiqot va izlanishlarni tashkillashtirish yuzasidan tahliliy reja kabilar yozib boriladi.

Ekspeditsiyadan muzeyga qaytgach, to'plangan materiallarni dala hujjatlari bilan birga, fond-sotib olish komissiya-si ko'rib chiqadi. U kolleksiyani bir butunligicha qo'yilgan mavzuni aks ettirilishining to'liqligi nuqtayi nazaridan, har bir ashyoni alohida, uning muzey uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi jihatidan baholaydi.

Fond komissiyasi qaror qabul qilganidan so'ng, ashyolarning bir qismi asosiy fondni, qolgani ilmiy yordamchi fondni to'ldiradi.

Dala ro'yxatining oxirgi betlarida, materiallarni fond xodimlariga berilganligi haqidagi fakt ham yozib qo'yiladi va boshqa ekspeditsion hujjatlar bilan birgalikda doimiy saqlova topshiriladi. Bunda turli xildagi ashyolardan tashkil topgan tematik ekspeditsiya kolleksiyalari, tegishligiga qarab, fond bo'limlariga ajratib yuboriladi.

Har bir ashyo mavjud muzey to'plami tasnifi asosida shakllantirilgan muayyan muzey kolleksiyasi tarkibida mutaxassislar tomonidan o'r ganilib, saqlanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Muzey fondlarining asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
2. Muzey fondlarini ilmiy tashkil etish deganda nimani tushunasiz?
3. Muzey ashyolarini komplektlashning qanday turlari mavjud?
4. Muzey ashyolarini to'plashda ekspeditsiyalar qay darajada ahamiyat kasb etadi?
5. Tarix va tabiat muzeylari fondlaridagi ashyolarning turlari haqida ma'lumot bering.

Manbalar va adabiyotlar

1. Илалов И. Музееоведение. – Т.: Musiqa, 2006.

2. *Ismoilova J.X., Muxamedova M.S.* Muzey predmetlari atributsiyasi va ekspertizasi. O'quv qo'llanma. – T., 2013.
3. *Казакова С.Ф.* Научное комплектование фондов музеев. – М., 2002.
4. *Kuryazova D.T.* Muzey ishi tarixi va nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2007.
5. *Левтееева Л., Турсуналиев К.* Музеология (Наука о музейном деле). – Т., 2008.
6. *Левыкина К.Г., Хербст В.* Музееведение. Музеи исторического профиля. – М.: Высшая школа, 1988.
7. *Фузаилова Г., Хасанова М.* Музееведение. – Т., 2008.
8. *Юренева Т.Ю.* Музееведение. – М.: Академпроект, 2003.
9. *Timothy A., Crispin P.* Museum Basics (Heritage: Care-Preservation-Management). 3rd Edition. – London; New York: Routledge, 2012.

3 MAVZU. MUZEY EKSPONATLARINI HISOBGA OLİSH VA SAQLASH TARTIBLARI



1. Muzey fondlarida eksponatlarni hisobga olish va saqlash.
2. Muzey fondlarini kataloglashtirish.
3. Muzey fondlarini saqlash tartibi.
4. Ashyolarni saqlashda harorat, namlik, yorug'lik darajasi.

Muzey fondlarida eksponatlarni hisobga olish va saqlash. Muzey fondlarini hisobga olishning maqsadi fondlar, kolleksiyalar hamda ashayolarini o'rganish natijasida olingan ma'lumotlarga yuridik maqom berish va ularning saqlanishini ta'minlashdan iborat.

Fondlarning hisobi uzlusiz davom etuvchi jarayondir, chunki, muzey fondlari doimo to'ldirib boriladi, ashayolarning harakati va ularning holati nazorat qilinadi.

Muzey ashayolarini hisobga olish, saqlash va ilmiy qayta ishlash, mazkur muzey bo'y sunuvchi tashkilotning me'yoriy hujjatlari bo'yicha boshqariladi.

Muzey fondlarini hisobga olish jarayonida hisob hujjati tuziladi. Unda ashayolarning guruhlari yoki har bir ashyo, ularning muzeyga va boshqa turli fond bo'limlariga olinish haqidagi ma'lumotlar kiritiladi. Ko'plab hujjatlar yuridik kuchga ega bo'lib, ro'yxatga olingandan keyin doimiy saqlanishi zarur. Bular qabul qilish, topshirish dalolatnomalari, kirim, ilmiy inventar kitoblaridir.

Muzey fondlarini davlat hisobiga olish ikki bosqichdan iborat bo'lib, ashayolarning o'rganilganlik darajasini aks ettiradi: muzeyga kelgan ashayolarni birlamchi ro'yxatdan o'tkazish va inventar kitoblarga kiritishdir. Ya'ni, muzey ashayolari ilmiy ro'yxatga olinadi. Bu haqdagi dalolatnoma uch nusxada tuzi-

lib, bosh saqlovchi (fond mudiri) fond-sotib olish komissiyasi qarorigacha ashyoni saqlagan shaxs va ularni moddiy saqlovga qabul qilgan xodim tomonidan imzolanadi. Hujjat muzey direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Qimmatbaho metallar, toshlar, orden va medallar, quroslaslahalardan iborat ashyolarni qabul qilish maxsus me'yoriy hujjatlar orqali amalga oshiriladi.

Tegishli fond bo'limlariga keltirilishidan oldin ashyolar bilamchi ro'yxatga olish jarayonidan o'tadi, bu bilan ularning butunlay muzeyga tegishli ekanligi mustahkamlanadi. Ashyolar muzey eksponatlarining *kirim kitobiga* yoki ilmiy yordamchi materiallar kitobiga qayd etiladi. Tabiiy-ilmiy muzeylarda ashyoviy materiallar – ashyoviy materialarning hisob-kitobida ro'yxatga olinadi.

Muzeyga vaqtinchalikka berilgan ashyolar, vaqtinchalik foydalanuv kirim kitobiga yoziladi. Ular ashyo saqlangan fond bo'limi mudiri, moddiy javobgarlik saqloviga vaqtincha qabul qilgan shaxslar tomonidan imzolangan va tasdiqlangan dalolat-noma bo'yicha qaytariladi.

Kirim kitobida ashyoni ma'lum raqam ostida ro'yxatga olinishi, uning almashinib qolishiga yo'l qo'ymaydi, mabodo yo'qolib qolish, o'g'irlanish holatlari sodir bo'lsa, unga berilgan qisqa tavsif orqali qidirishni osonlashtiradi.

Kirim kitobi bo'yicha ma'lum ashyoga berilgan tartib raqami, bir vaqtning o'zida muzeyga qabul qilish dalolatnomasida, shuningdek, muzey shifri bilan birgalikda ashyoning o'ziga qo'yiladi. Masalan, O'zDSM, KK-212504.

Bir xildagi ashyolar katta hajmda bir vaqtda keltirilsa, kolleksion yoki dala ro'yxatiga ko'ra, kirim kitobiga guruhli qilib yozishga ruxsat etiladi. Bunday holda, keltirilgan ashyolarning soni, kirim kitobining tartib raqamlariga muvofiq aks ettiriladi yoki kasr tartib raqamlarida yoziladi (masalan, KK-1110-1220 yoki KK-1110/1-110).

Nodir ashyolarning har biri alohida qayd etiladi. Qimmatba-ho metallar va toshlardan yasalgan ashyolarni ham guruhli qilib yozish taqiqlanadi.

Muzey ashyolarini kirim kitobida ro‘yxatga olish, dala huj-jatlari va qabul qilish dalolatnomasida yozilgan barcha ma’lu-motlarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Birlamchi ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtigacha ashyolarni tavsiflash, ularning atributsiya natijalari asosida qilinadi. Kirim kitobida ashyoning keltirilish vaqt, manbalari, saqlanishi, bahosi (sotib olingandagi), ularga oid hujjatlar yozib qo‘yiladi.

Kirim kitobi saqlov tartibidagi davlat hujjati sifatida, uning betlari raqamlanadi, uning ikki joyini teshib, qalin ip o‘tkazilib bog‘lanadi hamda ustidan qog‘oz yopishtirib yoki surg‘uch qo‘yilib, muzey muhri bosiladi.

Ichidagi barcha yozuvlar aniq yoziladi, keyin tuzatish ki-ritish deyarli mumkin emas. Xatolarni to‘g‘rilamaslikning iloji bo‘lmasa, xato va to‘g‘ri yozilgan variantlar aniq ko‘rinib turi-shi shart.

Kam ahamiyatli to‘g‘rulanish kitobning izoh qismida maxsus yozuvda tasdiqlanadi. Unga direktor, bosh muhofiz, hisob bo‘limi mudiri, ashyo saqlovchisi imzo qo‘yadi va muzey muhri bosiladi.

Kirim kitobidagi barcha jiddiy o‘zgartirishlar faqat direktor yoki uning ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rribbosari, bosh muhofiz, fond bo‘limi mudiri tomonidan imzolangan maxsus dalolatno-ma asosida qilinadi va birlamchi hisob uchun javobgar shaxs to-monidan tasdiqlanadi.

Birlamchi hisobning yuridik hujjatlari puxta saqlanadi, unga kam doiradagi shaxslarga kirish huquqi beriladi. Ushbu huj-jatlardagi axborotlarga nafaqat muzey xodimlari, balki boshqa muassasa tadqiqotchilari ham ehtiyoj sezadi. Shuning uchun, birlamchi hisob bosqichida *kartoteka* yaratiladi. Unda, asosan kirim kitobining informatsion funksiyasini bajaradigan

kartochka o‘rin oladi, oxirgi yillarda esa elektron kartochkalar ham joriy etilmoqda. Kartochkalar mazmunan kirim kitobidagi yozuvlar bilan bir xil va uning tartib raqamlari bo‘yicha joylashtiriladi. Vaqtinchalik qabul qilingan ashylarga ham kartoteka tuziladi va u kirish manbalari bo‘yicha tasniflanadi.

Kirim kitobida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin ashylar moddiy javobgarlik saqlovi dalolatnomasi bo‘yicha fond bo‘limlari saqlovchilariga beriladi. Bunda muzey ashylari ilmiy yordamchi materiallardan farqli tarzda, hisobning ikkinchi bosqichi – inventarizatsiyani o‘taydi hamda asosiy fond ashylarini o‘rganish, tavsiflash va ilmiy aniqlashning asosiy shaklini o‘zida namoyon etadi. U *ilmiy inventar kitobi* – ilmiy inventarlar yordamida amalga oshiriladi. Bo‘lajak yuridik hujjatlar siyatida, ular xuddi kirim kitobidagidek rasmiylashtiriladi.

Ilmiy inventarda ashyoning aniq nomlanishi, uning batafsil tavsifi barcha mavjud tamg‘alar, monogrammalar, imzolar, yozuvlarning ro‘yxati bilan beriladi. Mualliflik, muhiti, ashyoning tarixi, unga taalluqli maqolalar, tayyorlanish texnikasi va materiali, hajmi va og‘irligi (qimmatbaho toshlar, metallar uchun), saqlanib qolganlik darajasi haqidagi ma’lumotlar ham kiritiladi.

Tegishli ustunlarda hisob belgilari, eski hisob belgilari (agar bo‘lsa), fotonegativlarning raqamlari, muzeyga qay yo‘sinda keltirilganligi va manbayi, bahosi hamda boshqalar ko‘rsatiladi.

Muzey fondlarini kataloglashtirish. Muzey ashylari inventarizatsiya qilinishida asosiy fond tuzilishiga ko‘ra tizimlashtiriladi. Muzey ashylari qabul qilingan tasniflariga mos guruhlari bo‘yicha bir necha *ilmiy inventarlarga* ega bo‘ladi. Masalan, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik asarlari tasviriy manbalari bo‘limidagi turli inventar kitoblarga kiritiladi. Ularning har biri o‘zining belgisiga ega bo‘lib, u inventarizatsiyalangan ashyoning konkret fond bo‘limiga oidligini aniqlash-

ga yordam beradi. Zargarlik buyumlarga oidligi – *Z* harfi, tasviriy manbalar bo‘limiga oidligi – *T* harfi, rangtasvir guruhiga oidligi – *R* harfi bilan belgilanishi mumkin.

Ilmiy inventarda har bir ashyo o‘z raqamiga ega bo‘lib, u ham kirim kitobiga, ham ashyoning o‘ziga yoziladi. Shu tarzda, muzey ashyosi ikkita raqamga ega bo‘ladi: kirim kitobi bo‘yicha, ilmiy inventar bo‘yicha.

Uning to‘liq hisob belgisi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

DCM - KK1452

T - R173

DSM – O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi, *KK* – kirim kitobi deb belgilangan.

Hisob belgisini qo‘yayotganda ashyoning tashqi ko‘rinishiga shikast yetkazmaslik zarur. U shunday qo‘yilishi kerakki, saqlovchi va tadqiqotchiga ko‘rinadigan, to‘kilib ketmaydigan, o‘chmaydigan bo‘yoqda bo‘lishi shart. Ma’lumotlar metall ashyolarga emal bo‘yoqda, sopol buyumlarga tush yoki moy bo‘yoqda yoziladi.

Agar hisob belgisini ashyoning o‘ziga qo‘yishning imkonni bo‘lmasa, yorliq, birkalardan foydalilanadi va ular ashyoga osiladi, qoqladi yoki tikiladi.

Komplektni tashkil etuvchi ashyolar (servizlar, garnitur) ilmiy inventarga alohida raqamlar ostida kiritiladi, ularning komplektga oid ekanligi esa tavsifda beriladi.

Bir muallifning chizmatasvir albomlari, fototasvirlari, atlasmalar ilmiy inventarga bitta raqam ostida kiritiladi. Bunda har bir varaqqa kasr raqam yoziladi.

Qimmatbaho metall hamda toshlardan qilingan ashyolar inventarlariga faqat materialning asl nusxaligi va aniq og‘irligi, uni tasdiqlovchi, zargar ekspertizasining dalolatnomasi bo‘lgandagina qayd etiladi. Maxsus inventar kitoblarida ularning qo‘sishimcha hisobi olib boriladi, shuning uchun boshqa ashyolardan farqi, ular ikki emas, uch raqamga ega bo‘ladi.

Yozma manbalar – arxiv va boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarga ko‘ra hisobga olinadi. Hisobga olish arxiv fondlari, arxiv kolleksiyalari bo‘yicha olib boriladi. *Arxiv fondlarining ro‘yxati* yuridik jihatdan ilmiy inventarizatsiya kitoblariga tenglashtiriladi.

Ilmiy inventarga yozish qo‘shimcha tuzilgan *ashyoning ilmiy ro‘yxati kartochkalari* asosida qilinadi, ularning ustunlari, inventar ustunlariga mos tushishi kerak. U muzey ashvosini aniqlash jarayonida to‘ldiriladi va uning barcha asosiy belgilarni o‘rganish natijalarini qayd etadi. Tavsiflash matni ilmiy inventarga kiritilishiga qadar fond bo‘limlari mudirlari, ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rnbosari yoki bosh muhofiz tomonidan qo‘shimcha tekshirilib, unga qayd belgisi qo‘yiladi.

Ilmiy tavsiflash jarayonida kartochkaning mazmuni to‘ldirilishi, aniqlashtirilishi va hattoki o‘zgartirilishi mumkin. Bunda, ilmiy inventarga kiritiladigan barcha o‘zgarishlar, xuddi kirim kitobidagi qoida kabi rasmiylashtiriladi.

Muzey ashylarining ilmiy tavsifi kartotekasi asosida inventar kartoteka yaratiladi va u inventar kitoblarining informatsion funksiyalarini bajaradi hamda fondlarni *ilmiy kataloglashga* asos bo‘lib xizmat qiladi. Ashyolarni tez topish uchun topografik kartoteka va topografik ro‘yxat tuziladi, unda har bir hisob birligining saqlanish joyi yoziladi. Har bir fond bo‘limida ilmiy yordamchi fond ashylariga ham kartotekalar tuziladi.

Muzey fondlari uzlusiz harakatda bo‘ladi. Chunki ashylar boshqa muzey va muassasalarga almashinuv tartibida doimiy foydalanishga yoki vaqtinchalik ekspozitsiyalar, ko‘rgazmalar yaratishga beriladi. Shuningdek, ular muzey bo‘limlariga ekspozitsion-ko‘rgazma ishlari uchun vaqtinchalik foydalanishga, o‘rganishga, ta’mirlashga, fotonusxa olishga beriladi.

Muzey ichida uzoq muddatga berish (boshqa fond bo‘limlariga, ekspozitsiyaga) ichki dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va bosh muhofiz tomonidan imzolanadi.

Fond bo‘limlaridan muzeyning boshqa bo‘limlariga, masalan, fotolaboratoriyaga, qisqa muddatga beriladigan ashyolar, maxsus kitobda, qabul qilib olingan shaxs tilxati bilan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Muzey fondlaridagi ashyolarning soni doimo o‘zgarib turadi: bir ashyo muzey to‘plami tarkibidan chiqadi, boshqalari uni to‘ldiradi. Shuning uchun, muzey ilmiy xodimlari har yili muzey fondlarining harakati haqida yillik hisobotlar tuzishadi. Unda ashyoning kelishi, umumiy soni, muzey ichida va muzeydan tashqariga berishlar haqidagi ma’lumotlar aks ettiriladi.

Hisob hujjatlaridagi konkret raqamlar bo‘yicha, real ashyoning bor ekanligiga ishonch hosil qilish, shuningdek, ularning saqlanishiga shikast yetmaganligini aniqlash maqsadida fondlarni *qayta hisobga olish* o‘tkaziladi.

Qayta hisobga olishni, uch nafardan kam bo‘lmagan maxsus komissiya amalga oshirib, unda, albatta, mazkur kolleksiyaning saqlovchisi qatnashadi. Fond bo‘limiga biriktirilgan har bir ashyo, moddiy javobgarlik saqloviga qabul qilinish dalolatnomasi, ilmiy inventarizatsiya va kirim kitoblaridagi yozuvlar bilan solishtiriladi, ashyolarning fondda yo‘qligini rasmiylashtiruvchi hujjatlarning mavjudligi ham tekshiriladi.

Yakun bo‘yicha komissiya muzey ashyolarining joyida ekanligi yuzasidan hisob hujjatlari bilan solishtirish dalolatnomasini tuzadi va imzolaydi, uni muzey direktori tasdiqlaydi.

Barcha daloletnomalar, inventar kitoblar, vaqtinchalik va doimiy kirim kitoblari, qimmatbaho materiallardan tayyorlangan buyumlarning ro‘yxati hamda inventar kitoblari javobgar shaxslar tomonidan yonmaydigan shkaflarda, yopiq xonda saqlanadi, ish vaqtida tugagach plombalanadi. Chetdan kelgan shaxslarga ular berilmaydi va muzeydan tashqariga chiqarilmaydi.

“Hisob hujjatlari” termini bilan bir qatorda, yanada kengroq ma’noli – “*fond hujjatlari*” tushunchasi mavjud. Hisobdan

tashqari, u fondlarni fizikaviy saqlovi jarayonida paydo bo‘ladigan hujjatlarni, shuningdek, ularning tasniflanishida va tizimlashtirishda yuzaga keladigan: tasnifiy sxemalar, kataloglar hamda ko‘rsatkichlar kabi hujjatlarni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, fond hujjatlari ham fondlarning o‘zi haqida, ham muzey ashyolarini hujjatlashtiradigan jarayonlar va hodisalar haqidagi ma’lumotlarni qamrab oladi. Demak, u axborot tizimini o‘zida ifodalaydi. Fond hujjatlaridan tashqari, unga alohida ashyolar va ularning guruhi, olib borilgan tadqiqotlarning monografiya, maqola tarzidagi ko‘rinishlari, shuningdek, yo‘nalish bo‘yicha hamda muzey ashyolari asosida yaratilgan izlanishlar ham kiradi.

Fond axborot tizimidan ashyolarni ekspozitsiyaga tanlashda va etiketaj tuzishda foydalaniladi, u ekskursiya hamda ma’ruzalarda ashyolarni sharhlashda yordam beradi, ashyolarni o‘rganish jarayonida solishtirma tahlil olib borishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, u fond holatining to‘ldirilish yo‘nalishi va maqsadiga muvofiqligini aniqlashga oid ma’lumotlarni ifodalaydi.

Fond axborot tizimini yaratish – murakkab va uzlusiz jarayon. XXI asr boshida kompyuter texnologiyalari uning modifikatsiyasini faollashtirdi. Bu esa, muzey hujjatlarini tayyorlash jarayonini tubdan o‘zgartirdi.

Elektron axborotlar tarqatuvchining mavjudligi, muzey multaxassislarini hisob hujjatlarini qog‘ozga yozib rasmiylashtirishdan xoli etmaydi. Chunki, bu hujjatlar yuridik kuchga ega. Lekin fond bo‘limlari faoliyatini avtomatizatsiyalash, sezilarli darajada ish hajmini kamaytiradi, xatoliklarning oldini oladi va tayyorlanayotgan hujjatlarga o‘zgartirish kiritishga imkoniyat yaratadi.

Ayniqsa, muzey to‘plamlarini kataloglashtirishda, kompyuterlashtirish keng imkoniyatlar ochib beradi. Uning yordamida kartotekalar olib borilib, ashyo haqidagi har qanday ma’lumotni

kiritish mumkin. U turli belgilari bo'yicha axborot qidirishga yordam beradi. Masalan, muallif, inventar raqami, yaratilish vaqt yoki tavsifdagi biron-bir gap, so'z bo'yicha ma'lumot olish mumkin. So'rov bo'yicha olinadigan ma'lumotlar ham matnli, ham grafik ko'rinishda bo'ladi.

Muzey fondlarini saqlash tartibi. Muzey fondlarining maqsadi muzey boyliklarini saqlanishini ta'minlash, ularni yemirilish, shikastlanish, o'g'irlanishidan himoya qilish, shuningdek, kolleksiyani ko'rsatish va o'rganish uchun qulay sharoit yaratishdan iborat.

Fondlarni saqlash ishlari fond saqlov xonalarida, ekspozitsiyada, ashynoning muzey ichida va tashqarisida harakatlanishi davrida amalga oshiriladi. Fondlarni saqlashni tashkil etish haqidagi qat'iy qoidalar umumdavlat me'yordari bo'yicha aniqlanadi va bunga barcha muzeylar amal qiladi. Lekin, har bir muzey fondi o'zining spetsifikasiga ega: u fondlarning strukturasi va tarkibida, ashylarning miqdori hamda ularning saqlanganlik darajasida, muzey binosi va fond xonalarining qurilishidagi o'ziga xosliklarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun, asosiy me'yoriy hujjatlarga qo'shimcha tarzda, muzeylarda ichki foydalanish uchun fondlarni saqlash bo'yicha yo'riqnomalar chiqiladi.

Zamonaviy muzeysunoslikda "saqlash" deganda, eksponatlarning uzoq vaqt saqlanishi uchun sharoit yaratib berish, tushuniladi. Bunga eksponatlarning fizikaviy, kimyoviy va texnologik xususiyatlari inobatga olinadi.

Darhaqiqat, ashylarda doimiy tarzda eskirish jarayoni kuzatilishi tabiiy, uni to'xtatib bo'lmaydi, faqat bu jarayonni sekinlashtirish va minimumga keltirish mumkin, xolos. Ashylarning saqlash sharoitini ta'minlash fond saqlovchilari va ta'mirlovchilar zimmasiga yuklanadi, ya'ni ular sharoit yaratishga javobgar shaxs hisoblanadilar.

Fondlarni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit, maxsus *saqlash tizimi* samarali natija beradi. Shuning uchun har

bir saqlov uchun ajratilgan alohida xonada, saqlash tartibi bir-biriga yaqin ashyolarni joylashtirish lozim.

Kompleksli tizimda saqlashda esa, bir xonada turli materiallardan ishlangan ashyolar joylashtiriladi. Saqlashning kompleksli tizimi faqat xonalar kam bo‘lsa yoki ashyolar kam bo‘lganda qo‘llaniladi.

Bu tizim ashyolarning joylashtirilishi, manbalarning tipiga, materialiga, mazmuniga, nima uchun moslashtirilganligiga qarab amalga oshiriladi.

Ashyolarni joylashtirishda hajmli, inventar raqamiga ham e’tibor beriladi. Ular shkaf, stellaj, polka va boshqa moslamalarغا bittadan yoki guruhlarga ajratib joylashtiriladi. Guruhlarga ajratilganlari o‘ziga tegishli moslamalarga qo‘yiladi. Ya’ni, birlari planshetlarga tikiladi, boshqalari papkalarga, g‘iloflarga solinadi va hokazo. Ashyolar joylashtirilgan moslamalarga topografik ro‘yxat yoziladi.

Arxeologik yodgorliklar alohida saqlash guruhlariga ajratiladi.

Matolar, jun, charm va ulardan qilingan buyumlar bitta saqlash guruhini tashkil etadi. O‘z navbatida, bu ashyolar yana kichik guruhlarga bo‘linadi.

Gazlamalar, kashtalar lotok-qutili shkaflarda, hajmiga qarab gorizontal taxlanadi, usti chit bilan yopiladi. Uncha katta bo‘limgan qismlarini esa ramkaga tortilgan matolarga tikiladi va ularni usti yopiladigan vertikal planshetlarda saqlash mumkin. Jun, ipak, zig‘ir, paxta, sintetik tolali matolar turli shkaflarda saqlanadi. Shuningdek, gorizontal holatdagi lotok-qutilarda dur, tilla va kumush iplar bilan bezak berilgan zardo‘zlik buyumlari ham saqlanadi.

Kiyimlar qanday matodan tikilganiga qarab, guruhlarga ajratiladi va yumshoq kiyim osgichlarga ilinib, usti chit chehol bilan yopiladi hamda vertikal holatda shkaflarda saqlanadi.

Charm va jundan tayyorlangan tekis buyumlar ham mato-

lar singari gorizontal lotok-qutilarga taxlanadi. Charm va jundan tikilgan kiyimlar ham matodan tikilgan kiyimlar singari, vertikal holatda, yumshoq kiyim osgichlarga ilinib, shkaflarga qo'yiladi.

Bosh kiyimlar dumaloq shakldagi g'o'lalarga kiydiriladi yoki kartonga o'xshagan qog'oz bilan ichi to'ldirilib, g'ilofga solib, shkaflarda saqlanadi.

Oyoq kiyimlarining ichi yumshoq qog'ozlar bilan to'ldirilib, korobkaga solinib, shkafda saqlanadi.

Bayroqlar – dumaloq qilib, atrofi tekislangan uzun yog'ochlar ustiga o'raladi, chexol kiygaziladi va vertikal holatda ustunlarga qo'yiladi.

Gilamlar, shirmalar o'ng tomoni ichiga qilib, valga o'raladi va chexolga solinadi, vertikal holatda saqlanadi.

Suyakdan ishlangan ashyolar alohida oynali javonlarda saqlanadi, chunki yorug'lik kam bo'lsa, u rangini o'zgartiradi.

Yog'ochdan yasalgan ashyolar hajmi, mo'ljallanishiga qarab, bir guruhga birlashtiriladi. Ular orasidagi me'moriy yodgorliklarning yog'och detallari; suvda (kema, qayiq, sol va h.k.) va quruqlikda (foytun, arava, chana va boshqalar) harakatlanishga mo'ljallangan moslamalar; ish qurollari; mebel, shuningdek, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa kichik ashyolar ham mavjud. Yog'ochdan ishlangan ashyolar bilan qamishdan qilinganlari ham birga saqlanadi. Fondda haykallar tasviriy manbaga kiritilsa-da, yog'ochdan ishlanganlari yog'och buyumlar bilan saqlanishi mumkin.

Me'moriy inshootlarning qismlari, maxsus jihozlangan devorlarga osiladi. Mebel va katta hajmdagi haykaltaroshlik asarlарining tagiga narsa qo'yiladi, poldan balandroq holda bo'ladi. Uncha katta bo'limgan ashyolar, uy-ro'zg'or buyumlari, o'yinchoqlar, mayda haykaltaroshlik namunalari hajmiga qarab, shkaflarda saqlanadi. Stend, stellaj va shkaflardagi buyumlar bir-biriga tegmasligi kerak.

Sopol va shishadan ishlangan ashyolar guruhlarga bo‘linadi hamda nimaga ishlatalishiga qarab ajratiladi: idish, koshinlar, yoritqich moslamalari, texnik hamda laboratoriya shishalari va hokazolar. Shuningdek, bu saqlov guruhiga sopol haykaltaroshlik buyumlari ham kiradi. Ashyolar qanday materialdan qilingani hisobga olinib joylashtiriladi. Masalan, chinni, fayans, mayolikadan qilingan buyumlar bir guruhga to‘planadi. Rangli shishalar alohida guruhga ajratiladi.

Sopol va shishadan qilingan ashyolar shkaflarda saqlanadi. Ularni tokchalarga og‘irligini hisobga olgan holda, bir-biridan uzoqroqqa taxlanadi. Chunki, tokcha ashyolarning og‘irligidan tushib ketib, buyumlar sinishi mumkin. Tekis yuzali ashyolar, masalan, likobchalar maxsus tagliklarga vertikal tarzda joylashtiriladi. Agar ular gorizontal holatda saqlansa, orasiga yumshoq qog‘oz yoki mato qo‘yiladi va bir-birini ustiga tushmasligi, oltitadan ko‘p bo‘lmasligi nazarda tutiladi.

Katta hajmdagi vazalar, haykallar tokchali ochiq polkalarga yoki tagliklarga qo‘yiladi. Osib qo‘yiladigan yoritqich asboblari shtangalarga mahkamlanadi.

Qimmatbaho metallar, toshlar, numizmatika buyumlari, qurol-aslahalar moslashtirilgan maxsus xonalarda, seyflarda saqlanadi. Yirik muzeylarda ular mustaqil saqlanish guruhlarini tashkil etadi.

Qimmatbaho metall ashyolar shkaflarda, polkalarda, lotok-qutilarda saqlanadi. Platina, tilla, kumushdan tayyorlangan mayda buyumlar g‘ilofga solinib, seyfga qo‘yiladi.

Numizmatikaga oid buyumlardan tangalar, medallar, nishonlar, jetonlar va boshqalar korobkalarga solinib, lotok-qutilarda saqlanadi. Shuningdek, ularni kartonlarga birma-bir solib, vertikal taxlash ham mumkin.

Qurol-aslahalar hajmiga qarab, tagliklarning ustida, tokchali ochiq polkalarda, shkaflarda saqlanadi. Katta hajmli-

lari, zambarak va hokazolar maxsus tagliklarga o‘rnataladi. Quroq, miltiq, to‘pponchalar ichida ular o‘rnataladigan reyka-li maxsus shkaflarga qo‘yiladi. Kalta ushlagichli quollar (to‘p-poncha), shuningdek, lotok-qutili shkaflarda ham saqlanadi. Har xil turdagи nayzalar vertikal holatda, maxsus tagliklarga o‘rnataladi. Sovuq quollar, ya’ni qilich, qilichsimon nayzalar, xanjar gorizontal holatda yoki maxsus moslamalarga osilgan tarzda saqlanadi.

Boshqa metall buyumlar materialiga qarab guruhlanadi (cho‘yan, temir, po‘lat, mis, bronza, qo‘rg‘oshin, qalay va hokazolar). Qo‘rg‘oshindan ishlangan ashylolar maxsus saqlash tartibiga amal qiladi. Ularni yog‘ochdan qilingan polkalarga qo‘yib bo‘lmaydi.

Optik asboblar, ya’ni mikroskop, teleskop, fotoapparat va boshqalar ehtiyojkorlik bilan saqlashni talab qiladi, chunki ularning mexanizmlari juda nozik bo‘ladi.

Tasviriy manbalar ham saqlash guruhlariga bo‘linadi: rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, fotosuratlar. Alovida guruhgа kartografik materiallarni ajratish maqsadga muvofiqdir.

Rangtasvir asarlari fond saqlovxonalarining devorlariga osi-ladi yoki ochiq polkali shkaflariga joylashtirilishi mumkin. Pol-kalar havo sirkulyatsiyasi (aylanishi)ni ta’minalash uchun panja-rali va har bir rasm uchun katakli bo‘lishi kerak. Ularni mosla-malarga qo‘yish, asarlarning to‘planish xususiyati, hajmi yoki inventar raqamiga qarab amalga oshiriladi.

Ramkasiz rasmlarning o‘ng tomoni tashqariga qaratilib, dia-metri 50–70 santimetrli valga o‘raladi. Bu ishni faqat ta‘mir-lovchi amalga oshiradi. Bitta valda o‘ntagacha kichik hajm-dagi, ikki-uchtagacha katta hajmdagi rasmlarni o‘rash mumkin. Shuningdek, rasmlar hajmiga qarab tanlanib, ikkitadan o‘ng tomoni bir-biriga qaratib taxlanadi.

Marmar, ohak, gipsdan ishlangan haykaltaroshlik namuna-larining katta va o‘rtacha hajmdagilari taglik yoki stellajlar-

ga qo‘yilib, usti chexol bilan yopib qo‘yiladi, kichikroq hamda mayda haykallar shkaflarda saqlanadi.

Ko‘mirda, yumshoq qalamlarda chizilgan chizmatasvirlar oyna tagida saqlanadi. Ushbu chizmatasvirlar va akvarel, gravyura, litografiyalar katakli shkaflarga vertikal qo‘yiladi. Akvarel, qalamtasvir, gravyura, litografiya tasvirli varaqlar alohida yig‘ma jildlarda saqlanishida inventar raqami bo‘yicha o‘ttizadan oshirmay taxlanadi. Yig‘ma jildlar tortma qutili shkaflarda gorizontal tarzda saqlanadi.

Atlaslar shkaf polkalarida, xarita va loyihalar yig‘ma jildlarda saqlanadi. Katta hajmdagi xaritalar doka yoki chitga yelmlangan bo‘lib, o‘ng tomoni tashqariga qaratilib, val yoki karton trubkalarga o‘raladi, chexolga solib, gorizontal holatda maxsus shkaf yoki polkalarda saqlanadi. Globuslar – korobkalarga solinib, shkafga joylanadi. Katta hajmdagiga chexol yopilib, maxsus tagliklarga qo‘yiladi.

Negativlar, pozitivlar alohida saqlanishi kerak. Negativlar alohida konvertlarga solinib, hajmi bo‘yicha qutilarga vertikal taxlanib, shkaflarga qo‘yiladi. Pozitivlar qattiq qog‘ozlarga o‘ralib, konvertlarga solinib, vertikal tarzda qutilarga taxlanadi.

Magnit lentalari yog‘och moslamada, bir xil hajmli qutilarga vertikal taxlanadi. Yiliga bir marta magnit lentalarini qayta o‘rab, ichki kuchlanishi yo‘qotiladi. Gramplastinkalar alohida-gi konvertlarda vertikal qo‘yiladi, to‘planish tartibi va inventar raqamiga qarab joylashtiriladi. Yorug‘lik tushishi xavfli bo‘lgan ashyolar, yorug‘lik tushmaydigan shkaflarda saqlanadi. Uuman, moslamalar qulflanadi, ularga plomba va muhr bosiladi.

Fond saqlovxonalaridagi moslamalar, avvalo, ashyolarning maksimal saqlanishini ta’minlash, shuningdek, ilmiy xodimlar ishlatishiga qulay bo‘lishi uchun ham maxsus talablarga 100 foiz javob bera olishi kerak. Saqlash jarayonida asosiy o‘rinni iqlim egallaydi, bu – harorat, namlik, yoritish va tozalik uyg‘unligidir.

Ashyolarni saqlashda harorat, namlik, yorug'lik darajasi. Harorat va namlik darajasining ashyyoga ta'sir kuchi ashyo tayyorlangan material, uning tuzilishi, muzeyga keltirilguniga qadar turgan muhiti kabi ko'plab omillarga bog'liq. Masalan, qalaydan qilingan buyumlar +13 °C dan past haroratda yemiriladi. Ashyo o'zining tuzilishini o'zgartiradi, unda oldiniga kul rang dog'lar, keyin bo'shliqlar paydo bo'lib, zararlangan joylari kukunga o'xshab to'kila boshlaydi. Harorat +25 °C dan yuqori bo'lsa, mumdan qilingan va plastmassa buyumlar zararlanadi.

Charm, yog'och, gazlama, qog'oz va boshqa organik gigroskopik materiallardan qilingan buyumlar ham yuqori, ham past namlikda talafot ko'radi. Yuqori namlikda bu materiallar osonlikcha shishadi, tolalari orasidagi zichlik buziladi va ashyo deformatsiyalanadi (ya'ni, o'z shaklini yo'qotadi). Masalan, haddan tashqari namlik bo'lsa, pergamentning dastlabki holatiga putur yetadi, natijada, uning ustidagi qadimiy yozuvlarning nozik bo'yoq qatlami to'kila boshlaydi. Yuqori namlik mog'or paydo bo'lishiga olib kelib, organik materialarni yo'q qiladi, haddan ziyod quruq havo esa ularning ko'plarini mo'rt qiladi, ashyyoga sal tegilsa ham buzilib ketishi mumkin. Ayniqsa, haroratning keskin oshib yoki pasayib ketishi rangtasvir, haykaltaroshlik, yog'och o'ymakorligi, shuningdek, turli kengayish koeffitsiyentiga ega materiallardan yaratilgan (masalan, yog'ochning har xil turidan ishlangan qadama naqshli mebel) ashylar uchun juda xavfli.

Namlikning keskin o'zgarishi ham zararli. Har bir o'zgarish yuz berganda, materialning tez ta'sirlanuvchi yuza qatlami ichki qatlamiga nisbatan deformatsiyalanadi. Agar namlikning o'zgarishi tez-tez takrorlansa, yorilishlar va buzilishlar paydo bo'ladi.

Harorat va namlik ashyyoga bir-biri bilan bog'liq tarzda ta'sir ko'rsatadi. Nam tortish xususiyatiga ega materiallar uchun past namlikda yuqori harorat juda xavfli. Yuqori namlikda past harorat ham ashylarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan,

fayans yoki koshinning teshiklariga yig‘ilgan namlik muzlab qolsa, ashyoga jiddiy shikast yetkazishi mumkin. Haroratning o‘zgarishi, namlikning ham o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun “*harorat-namlik tartibi*” tushunchasi paydo bo‘lgan.

Harorat-namlik tartibining o‘zgaruvchanligi, asosan, organic materiallarni yemiradi, organik bo‘lmagan materiallardan dastavval arxeologik ashylar yemiriladi.

Muzeysga keltirilgan ashylarning harorat-namlik tartibini aniqlash uchun, uning avval qanday sharoitlarda saqlanganligini bilish zarur. Masalan, yerosti suvlari ta’sirida bo‘lgan arxeologik shisha buyumga pasaytirilgan namlik kerak, nam yerdan qazib olingan arxeologik yog‘och buyumni esa juda kuchli namlikda saqlash lozim.

Harorat-namlik tartibining eng qulay parametrlari mutaxassislar tomonidan o‘rganiladi. Turli muzey ashylari bir xil bo‘lmagan sharoitlarni, saqlash moslamalarini talab etadi. Harorat-namlik tartibining nisbiy universal ko‘rsatkichi, harorat $+18+1^{\circ}\text{C}$ va namlik $55\% + 5\%$ hisoblanadi.

Yorug‘lik salbiy ta’sir qiladigan materiallarni, yorug‘likdan himoya qiladigan fond moslamasida saqlash lozim. Ular bilan ishlaganda yorug‘lik 50–75 lyuksdan oshmasligi kerak (Lyuks (lk) – yorug‘lik darajasining o‘lchov birligi).

Fond saqlovxonalarini va ekspozitsiyadagi havoni ifloslanishiqa qarshi kurash, shuningdek, harorat-namlik tartibining zarur parametrlarini saqlab turish uchun havoni changsizlashtiradigan, tozalaydigan, haroratni, namlikni me’yorida ushlab turadigan zamonaviy uskunalardan foydalilanadi. Saqlovxonalarda, eskpozitsion va ko‘rgazma zallarida harorat-namlik tartibini nazorat qilish – psixometr, gigrometr, termometr yoki o‘zi yozuvchi uskunalar – gigrograf, termograflar yordamida amalga oshiriladi. Uskunalarning ko‘rsatmalari, albatta, maxsus journalga yoziladi. Harorat va namlik ko‘rsatkichlari sutkasiga 2 marta maxsus daftarchaga qayd etiladi.

Ashyolarning tabiiy eskirishini oldini olish uchun yorug'lik tartibiga ham rioya qilish zarur. Gap shundaki, yorug'lik ta'sirida, ayniqsa, ultrabinafsha nurlari ostida, ashylar bilan fotokimyoiy o'zgarishlar sodir bo'lishi: ular sarg'ayishi, qorayishi, oqarishi yoki butunlay rangsizlanishi mumkin. Ayniqsa, tabiiy yorug'lik ta'siri kuchli yemiruvchilik xususiyati ga ega, sun'iy yorug'liklar manbalaridan lyuminessent lampalari ko'proq xavfli hisoblanadi. Yorug'lik tufayli ro'y beradigan fizikaviy o'zgarishlar, material tuzilishining yemirilishida, imustahkamligini yo'qotishida, qisqarib (yoki kichrayib) qolishida namoyon bo'ladi. Ular ham tabiiy, ham sun'iy yorit-qichlarda mavjud infraqizil nurlarining ta'siri ostida yuz beradi: buni ko'proq cho'g'lanma lampalar tarqatadi. Yorug'lik ta'sirida bo'ladigan zararlanish, nurning intensivligi va uning qancha davom etishiga bog'liq. Yorug'likning o'zgarishiga ko'z tez moslashishi sababli, uning darajasini maxsus moslama-siz aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun yorug'lik *lyuksmetr* degan asbob bilan o'lchanadi.

Yorug'lik tartibi ashyoning materiali, rangi va saqlanganlik darajasiga qarab o'rnatiladi. Grafika, kitoblar, qo'lyozma materiallar, fotosuratlar, gazlamalar, bo'yagan charm, flora va fauna namunalari saqlanadigan xonaga 50–75 lyuks atrofida yorug'lik berish tavsiya etiladi. Rangtasvir (moy bo'yoq, tempera) lok, yog'och, bo'yalmagan charm va suyak yorug'likka o'rtacha chidamli bo'lib, ular uchun 150 lyuksdan oshmaydigan yorug'lik tavsiya etiladi. Yorug'likka yuqori chidamli ashylardan – metall, rangsiz shisha va tosh, sopol, gips kabilarni faqat to'g'ri yo'nalgan quyosh nurlaridan saqlash zarur. Yorug'likka o'rtacha chidamli ashylarning yorug'lik tartibi bir xil emas: yorug'liksiz suyak va oq jun sarg'ayadi, rangtasvir tonirovkasi, ustki qatlami qorayadi, har xil daraxtlar – yong'oq, qizil daraxt, emandan tayyorlangan ashylar yorug'likda kuyishi mumkin, shuning uchun ularning ustiga chexol yopiladi.

Yorug'lik manbalari kuchli salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ashylarning ko'chirma nusxasigina ekspozitsiyaga qo'yiladi. Asl nusxalari esa vaqtinchalik ko'rgazmalardagina namoyish etiladi.

Muzey ashylarining yuqori saqlov tartibini ta'minlashda ularni havo ifloslanishidan himoyalash zarur. Chunki, bu ularning yemirilishi va eskirish jarayonlarini keltirib chiqaradi. Serovodorod (vodorod sulfid), oltingugurtli gaz, ammiak, xlor, chang, qurum kabilalar shular jumlasidandir.

Serovodorod sanoat ishlab chiqarishi va chirish jarayonlari natijasida paydo bo'ladi. Rezina yoki kazeinli bo'yoqlardan foydalanib yaratilgan muzey jihozlari ham uning manbayi bo'lishi mumkin. Bu materiallar eskirganda, o'zidan serovodorod ajratib chiqaradi.

Ammiak ham chirish natijasida paydo bo'lib, ayniqsa, kumush, bo'yoq, lakka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xlor ko'p materiallar uchun xavfli bo'lib, havoga xlordan texnologik jarayonlarda (masalan, mato va qog'oz ishlab chiqarishda) chiqadi. Namlik bilan qo'shilganda, u xlorid kislotani hosil qiladi. Oltingugurtli gaz – yonish jarayonining natijasidir. Namlik bilan qo'shilib avvaliga oltingugurtli, so'ng sulfat kislota hosil bo'ladi. U gazlamalarni, rangtasvir, charm, qog'oz, gips, dur, marmar, bronza, qalay kabilarni kuchli yemirilishiga olib keladi.

Chang va qurum suv shimapdigan materialarning teshiklariга kirib, ashydagi namlikni ushlab turadi, kimyoviy jarayonlarni kuchaytiradi, rangtasvir asarlarining bo'yoqli qatlamiga qalin kirlanish beradi. Chang biologik zararkunandalar uchun qulay muhit yaratib beradi.

Muzey kolleksiyalarini havo ifloslovchilaridan himoya qilishning asosiy usuli – fond xonalarini havo kirmaydigan-chiqmaydigan, ya'ni zich, havo o'tkazmaydigan qilib yopish, kondisionerlardan, havoni filtrlaydigan moslamalardan foydalanish, ashylarni esa doimo alohida qilib g'iloflarga, chekollariga, yig'ma jildlarga solib qo'yishdir.

Ashyolarni mikroorganizmlar, hashoratlar va kemiruvchilar ham shikastlantirishi mumkin, shuning uchun *biologik tarifni* ham nazarda tutish kerak. Harorat namlik tartibining buzilishi, chang, oziq-ovqat omborxonalarining muzey binosiga yaqin joylashgan bo'lishi, shuningdek, qayta ishlov berilmashdan qabul qilingan, zararlangan ashylolar biologik zararkunandalarning ko'payishiga olib keladi.

Mikroorganizmlar – bakteriyalar va mog'or ko'p turdagi ashylarni yemiradi. Birinchi navbatda, organik materiallardan tayyorlangan, ya'ni rangtasvir, qog'oz, gazlama, suyak, yog'och ashylolar zararlanadi. Mog'orning barcha turlari ketkazish qiyin bo'lган dog' hosil qiladi, ba'zilari esa tolalarni yemiradi. Ayniqsa, namlik 70 %, harorat +20 °C bo'lsa, mog'orlash jarayoni tezlashadi. Mog'or zamburug'larini yuqtirish, zamburug' bo'laklari va havo orqali o'tadigan bakteriyalar yoki zararlangan ashylolar bilan aloqada sodir bo'ladi. Shuning uchun, mog'orlangan ashyo alohida saqlanadi. Mog'orlashning oldini olish maqsadida, muzey uskunalari vaqtiga vaqtiga bilan formaldegidning 2 % spirtli aralashmasi bilan artib turiladi.

Metall, shisha va keramika buyumlaridan boshqa muzey ashylari uchun hashoratlar, ya'ni turli qo'ng'izlar, kuyalar, suvaraklar, pashshalar o'ta xavflidir. Ular muzeyga oynalardan, eshiklardan yoki muzeyga keltirilgan ashylolar orqali kiradi. Ularni yo'q qilish uchun suyuq insektitsidlardan foydalaniladi. Har bir muzeyda ashylarni zararlanganligini tekshiradigan maxsus xona va zararsizlantiradigan maxsus kamera bo'ladi.

Biologik zararkunandalarni yo'q qilish uchun muzeylarda ishlatishga ruxsat etilgan vositalardan foydalaniladi. Hasharotlarni yo'q qilishda esa, albatta, ta'mirlovchi qatnashadi. Sichqon va kalamushlar ham muzey ashylari uchun xavfli bo'lib, ulardan saqlash chora-tadbirlari ko'rildi.

Muzey ashylarini saqlashda konservatsiya va ta'mirlash ham katta ahamiyatga ega. *Konservatsiya*, bu – ashylarning

tabiiy eskirish jarayonlarini sekinlashtirish uchun zarur saqlash tartibini yaratadigan va endi boshlangan yemiruvchilik jarayonlarini turli kimyoviy va fizikaviy vositalar yordamida ashyolarni mustahkamlaydigan usuldir. Buni faqat maxsus tay-yorgarlikka ega mutaxassis-ta'mirlovchi amalga oshiradi.

Muzey ashyolari turli sabablarga ko'ra o'zining oldingi qiyofasini yo'qotishi, sinishi, lat yetishi, yirtilishi mumkin. Ularni asl holiga keltirish uchun *ta'mirlash* ishlari olib boriladi.

Saqlovchilar va ta'mirlovchilar doimo muzey to'plamlarini tekshirib, ular orasidan konservatsiya hamda restavratsiyaga muhtojlarini yig'ib oladilar. Ko'rik natijalari maxsus ro'yxatga kiritilib, ashyoning saqlanish holati qayd etiladi.

Konservatsiya va ta'mirlash juda murakkab, javobgarligi katta ish hisoblanadi. Shuning uchun bu ishni olib borish uslub va vositalarini maxsus komissiya hal qiladi. Ularning xulosasi, ashyo bilan amalda ishslashning natijalari maxsus hujjatga yoziladi. Bu ma'lumot, yillar davomida undan oldin yig'ilganlari bilan birgalikda, ta'mirlash uslubini mukammallashtirishga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Muzey fondi ashyolari qay tarzda hisobga olinadi?
2. Ashyolar necha turga bo'linadi?
3. Muzey fondlarini saqlash tizimi deganda nima tushuniladi?
4. Ashyolarni saqlashda harorat darajasi qanchalik ahamiyatga ega?
5. Tasviri san'at galereyasidagi rangtasvir ashyolarini saqlash haroratini kuzating.
6. Tabiat muzeyidagi ashyolarning saqlanishi va harorati to'g'risida ma'lumot bering.

Manbalar va adabiyotlar

1. Илалов И. Музееоведение. – Т.: Musiqa, 2006.
2. Ismoilova J.X., Muxamedova M.S. Muzey predmetlari atributsiyasi va ekspertizasi. O'quv qo'llanma. – Т., 2013.

3. Казакова С.Ф. Научное комплектование фондов музеев. – М., 2002.
4. Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. – Т.: O'qituvchi, 2007.
5. Левтеева Л., Турсуналиев К. Музеология (Наука о музейном деле) – Т., 2008.
6. Левыкина К.Г, Хербст В. Музееведение. Музеи исторического профиля. – М.: Высшая школа, 1988.
7. Фузаилова Г., Хасанова М. Музееведение. – Т., 2008.
8. Юренева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003.
9. Timothy A., Crispin P. Museum Basics (Heritage: Care-Preservation-Management). 3rd Edition. – London; New York: Routledge, 2012.

4-MAVZU. MUZEYNING ILMIY MA'LUMOTNOMA APPARATI VA ILMIY TADQIQOTCHILIK FAOLIYATI

REJA

1. Muzeyning ilmiy ma'lumotnoma apparati.
2. Muzeyning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqish.
3. Kataloglar tizimi. Yo'lko'rsatkichlar tizimi.
4. Muzey ashyolariga ilmiy ma'lumotnoma apparati tuzish tartibi.

Muzeyning ilmiy ma'lumotnoma apparati. Ilmiy ma'lumotnoma apparati bir qator fanlar, fundamental va amaliy tadqiqotlarning tayanch asosi bo'lib, muzeylarda yirik olimlarning fan uchun yangiliklar ochish, ilmiy ishlar olib borish jarayonlarini birlashtiradi. Muzeylar tadqiqot markazlari sifatida komplekta, hisobga olish, o'z to'plamlarini o'rganish, muzey kataloglarini bo'limlarga ajratishni ishlab chiqish, saqlash sharoitini ta'minlash uchun zarur metodlardan foydalanish, ekspozitsiya va ko'rgazmalarining ilmiy loyihasini yaratish ishlari bilan shug'ullanadi.

Har qanday ilmiy tadqiqot ishi o'z predmeti va tadqiqot usullariga ega. Tadqiqot predmeti doim o'ziga xos (spetsifik) bo'ladi. Taniqli olim A.M. Razgon muzeyshunoslikning ilmiy ma'lumotlar tayyorlash jihatini quyidagicha ta'riflaydi: "Muzeyshunoslikda predmetlarni ilmiy o'rganish – ijtimoiy axborot va bilim to'planishi, saqlanishi, egallanishi, bilim, an'ana, tasavvur hamda his-hayajonni muzey ashyolari vositasida uztash (tarqatish), muzey va muzey ishining paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda ish yuritish jarayonlariga mansub obyektiv qonuniyatlar doirasidir".

O'z navbatida, muzey va muzey ishi ijtimoiy hodisa sifatida faqat muzeyshunoslikning emas, balki bir vaqtida falsafa, tarix, san'atshunoslik, sotsiologiyaning ham tadqiqot obyekti

bo'lishi mumkin. Bu xususiyat muzeishunoslikning tarix va san'atshunoslik fanlari bilan bog'liq rivojlanishini namoyon etib, ularning ilmiy tadqiqot usullaridan ba'zilarini to'liq, boshqalarini qisman foydalanishini ko'rsatadi.

Muzey ashyolarini ilmiy tadqiq etishda arxeologiya, paleografiya, etnografiya, numizmatika, sfragistika, adabiyotshunoslik va san'atshunoslik metodlaridan foydalilaniladi.

Muzey ashyolarini qayta tiklash va buzilmaydigan qilib saqlash davomida tabiiy fanlar metodlaridan, masalan, rentgenografiya, spektrografiyan dan foydalilaniladi. Ekspozitsiya va ko'r-gazmalar tashkil etishda, turli xil madaniy-ma'rifiy faoliyatda, muzey auditoriyasini o'rganishda pedagogika va psixologiya metodlari qo'llaniladi.

Muzeyning ilmiy ma'lumotnoma apparati quyidagi nazarialarni o'z ichiga oladi:

1. *Hujjatlashtirish nazariyasi* – muzey fondlarini to'ldirishga, ya'ni muzeylar to'plamiga voqelik obyektlarini tanlash metodologiyasi va metodikasiga bog'liq masalalarni tadqiq etadi.

2. *Zaxira nazariyasi* – bu ilmiy-fond ish usuli; u muzey buyumlarining va ulardagi axborotning qiymatini bilish, ya'ni muzey ashyolaridan foydalanish, ularni hisobga olish hamda saqlash jarayonlarini o'rganadi.

3. *Kommunikatsiya nazariyasi* – muzeyni kommunikatsion institutlardan biri sifatida axborotning uzatilish xususiyatini, muzey vositalari va kommunikatsiya shakllarining tomoshabin-larga ta'siri masalalarini o'rganadi.

Muzey manbashunosligi muzey ashyolarini manbashunoslikka xos bo'lgan nuqtayi nazardan tadqiq etish bilan shug'ullanadi; aniqlash, tadqiq etish va foydalanish nazariyasi va metodikasini ishlab chiqadi.

Amaliy muzeishunoslik quyidagi uch bo'limni o'z ichiga oladi:

1. *Ilmiy metodika* muzey faoliyatining barcha turlarini

qamrab oladi. Umumiy va maxsus metodik tadqiqotlar mavjud. Umumiy metodika barcha muzeylar majmuasiga mansub. Bular, masalan, ekspozitsiya tuzishning metodik tamoyillari, muzey fondini saqlash va ekskursiya ishlari tamoyillaridir. Maxsus metodikalar umumiy ilmiy metodikadan kelib chiqsada, ular aniq tipdagi va yo‘nalishdagi muzeylarga mo‘ljallangan bo‘ladi.

2. *Muzey ishi texnikasi* muzey binolarini loyihalashtirish, har xil turdag'i muzey materiallari, ko‘rgazmaga qo‘yish, axborotni tarqatish texnik vositalari, muzey ashyolarining fizik holtini tadqiq etish texnikasi, ularni buzilishidan saqlash va qayta tiklash masalalari bilan shug‘ullanadi.

3. *Muzey ishini tashkil etish va muzeyning faoliyatini boshqarish* menejment va marketing masalalari bilan bog‘liq.

Muzeylardagi ilmiy ma’lumotnoma apparatini tashkil etish ikki yo‘nalishda olib boriladi:

Birinchi yo‘nalish – muzey to‘plamlari va yodgorliklarni o‘rganish (o‘tmish madaniyatining nomoddiy merosi, muhit, ko‘chmas yodgorliklar ham shular jumlasidan). Tadqiqot ishining bu yo‘nalishi, manba materiallari bilan bog‘liq fanlarga tayanadi: tarix, etnografiya, arxeologiya, biologiya, san’atshunoslik va boshqa. Tadqiqotchilik faoliyati jarayonida yangi mambalar ochiladi, ulardan foydalanish va ilmiy qo‘llanilishga kiritish usuli belgilanadi, ilmiy asosda kengaytiriladi, tadqiq etiladi.

Ikkinchi yo‘nalish – muzeysenoslik tadqiqotlari bo‘lib, barcha muzeylar uchun umumiyydir hamda ma’lum ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, bevosita muzeysenoslik va u bilan bog‘liq fanlar (sotsiologiya, pedagogika, psixologiya) negizida rivojlanadi.

Muzeysenoslik tadqiqotlari guruhiga quyidagilar kiradi:

- muzeylarning konsepsiyasini va alohida muzey faoliyati yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- ekspozitsiya va ko‘rgazmalarni ilmiy loyihalash;

- muzey auditoriyasini sotsiologik o'rganish;
- madaniy-ta'lif faoliyati shakllari va uslublarini ishlab chiqish;
- muzey kolleksiyalarining fizikaviy saqlanishini ta'minlash muammolarini ishlab chiqish;
- muzey ishining rivojlanish tarixini bir (turli) guruh va turdag'i muzeylarni, hududlarni, alohida muzeylarni tadqiq etish;
- umumnazariy muzeysenoslik tadqiqotlari.

Ikkinch'i yo'nalishdagi tadqiqot ishlarini samarali amalga oshirishda ilmiy jamoaning muzeysenoslik ma'lumoti, ishchilar tomonidan muzeysenoslik, psixologiya, sotsiologiya, pedagogikadagi eng so'nggi yutuqlarni bilishlari katta ahamiyatga ega.

Muzeylarning funksional o'ziga xosliklariga mos tarzda muzey faoliyati quyidagi yo'nalishlarga bo'linib, ularning har biri tarkibida tadqiqotchilik komponentlari mavjud:

- komplektlash;
- ilmiy-zaxira ishlari;
- ekspozitsion-ko'rgazma ishi;
- madaniy-ta'lif faoliyati.

Komplektlash. Komplektlashning tadqiqotchilik aspekti, muzey to'plamining shakllanishidagi muhim asosi hisoblanib, komplektlashga ilmiy yondashuv, kelajakda butun muzey faoliyatining rivojlanishini ta'minlaydi.

Muzey tadqiqotchilik ishining yo'nalishlari quyidagilar:

1. Komplektlashning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqish. Ushbu hujjat muzeydagi komplektlashning maqsadlari, vazifalari, yo'nalishlari, tamoyillari, uslublari haqida tizimli tasavvurni beradi.

2. Mavjud ixtisoslikdagi muzeyning maqsad va vazifalari ga mos tarzda, tabiiy, tarixiy, madaniy jarayonlarni hujjatlashtirish maqsadida, fond to'plamlariga material tanlash mezonlari ni ishlab chiqadi.

Ilmiy-zaxira ishlari – muzey fondi bilan ilmiy ish olib borish, avvalo, muzey ashyolari va kolleksiyalarini o‘rganishga, ularning ilmiy, tarixiy, badiiy ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Zaxiralar bilan ishlashda, muzey ashyolarini belgilangan tartibda konservatsiya qilish alohida o‘ringa ega. Muzeylarda gi xazinalar keyingi avlodga ham xizmat qilishi uchun kolleksiyalarning holati qat’iy nazorat qilinishi, o‘z vaqtida ta’mirlash ishlari bajarilishi, har kuni harorat, namlik tartibiga rioya etilishi zarur.

Muzeylarning aksariyati bir vaqtning o‘zida, muzey ashyolarini saqlash, ta’mirlash, konservatsiyalash bo‘yicha yirik tadqiqot markazlari sifatida faoliyat yuritadi.

Ilmiy-zaxira ishlari muzey to‘plamining tuzilishi va tarkibining o‘ziga xos tomonlarini aniqlaydi, ekspozitsiya hamda ko‘rgazmalarda ashyolardan foydalanish imkoniyatini hal etishga yordam beradi.

Ekspozitsiya va ko‘rgazma ishlari. Muzey ekspozitsiyasini yaratish tadqiqotchilik, ijodiy va texnik ishlab chiqarish jaryoni bo‘lib, ilmiy xodimlar, rassomlar, dizaynerlar, muzey pedagoglari hamda muhandisiarning birqalikda ishlashini talab etadi.

Zamonaviy tasavvurga ko‘ra, *muzey ekspozitsiyasi* – bu ashyolarning bir maqsadga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan namoyishi bo‘lib, ular kompozitsion jihatdan tashkil etiladi, sharh, izohlar bilan ta’milanadi, texnik hamda badiiy jihozlanadi, natijada tabiiy, ijtimoiy hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlari timsolini yaratadi.

Muzey nafaqat doimiy, balki vaqtinchalik ekspozitsiyalar – ko‘chmas va sayyor ko‘rgazmalarni ham tashkil etadi. Ularning vaqtinchalik tavsifi eksponatlarning tarkibida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ko‘rgazmalarda boshqa muzeydagি, shaxsiy kolleksiyalardagi, yana uzoq vaqt davomida zaxira saqlovxonalaridan boshqa joyda saqlab bo‘lmaydigan ashyo-

lar (akvarel, yozma manbalar, noyob buyumlar) namoyish etiladi.

Ko'rgazmalar muzey zaxiralarining ijtimoiy ahamiyatini oshiradi, xususiy to'plamlardagi yodgorliklarni ilmiy va madaniy qo'llanilishiga imkon beradi, muzeyning madaniy-ta'limga hamda ekspozitsion uslublarini takomillashtirish ishlarida yordam beradi, uning faoliyati doirasini kengaytiradi.

Madaniy-ta'limga faoliyati doirasiga quyidagilar kiradi:

- muzeyning ta'limga tizimini ishlab chiqish;
- muzey auditoriyasini o'rghanish;
- auditoriya uchun uzoq va qisqa vaqtli madaniy, ta'limga dasturi va loyihibalarini ishlab chiqish;
- auditoriyaning turli toifalari bilan ishlash yuzasidan uslubiy ishlarni yaratish;
- madaniy-ta'limga faoliyatining turli shakllari uchun uslubiy hujjatlar tayyorlash.

Muzeyning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqish. Muzey konsepsiysi faoliyatning alohida yo'naliishlari bo'yicha barcha funksional konsepsiyalarni o'z ichiga oladi. U, avvalo, muzeyning rivojlanish istiqboli, maqsad va vazifalari tartibini asoslab berishni o'zida aks ettiradi.

Muzeyning ilmiy konsepsiyasini ishlab chiqishni direktor rahbarligida ilmiy jamoa amalga oshiradi va bunga mam-lakatning ilmiy markazlari mutaxassislari ham jalb etilishi mumkin. Hujjat muzeyning Ilmiy kengashida muhokama etiladi va ushbu muzey bo'y sunadigan boshqaruv organida tasdiqlanadi.

Ilmiy konsepsiyanini ishlab chiqish uch bosqichda olib boriladi:

I bosqich – tahliliy so'rovlarni tayyorlash:

- hududning tarixiy va tabiiy o'ziga xosliklarini, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishini tahlil qilish;

- hududdagi muzey ishi holatini tahlil qilish, mavjud muzey to‘plamlari va ekspozitsiyalarda hududning zamonaviy holati, tarixi qanchalik to‘laqonli aks ettirilganligini baholash;
- aholining ijtimoiy-demografik tavsifi;
- bibliografik kartotekalar tuzish.

II bosqich – muzeyning mavzuga oid konsepsiyasini ishlab chiqish bo‘lib, muzey faoliyatiga bog‘liq tartibini o‘z ichiga oladi. Bu – ijodiy jarayon, fan va san’atning uyg‘unligidir. Mazkur bosqichda muzeyning rivojlanish istiqqboli aniqlanadi.

III bosqich – muzey rivojlanishining bosh loyihasini tuzish bo‘lib, muzey faoliyatining barcha yo‘nalishlarida muayan g‘oyani qo‘llash yuzasidan aniq tadbirlarni avvaldan belgilaydi.

Ilmiy konsepsiyanı ishlab chiqish mavjud muzey ishini hujjatlashtirishga tayyorgarlikni ham nazarda tutadi. Ushbu ilmiy hujjatlashtirish jarayonlari muzey hayotida muhim o‘rin egallab, uning kelajagini belgilaydi.

Muzey xodimlari o‘zlarining tadqiqotchilik ishlari haqidagi vaqtiga bilan ilmiy bo‘limlarning yig‘ilishlarida hisobot berishadi. Tadqiqot natijalari esa, maqolalar to‘plamlari, monografiyalar, jurnallar, ekspeditsiya hisobotlarida chop etiladi. Yakuniy hisobot muzeyning Ilmiy kengashida muhokama etiladi (agar muzeyda Ilmiy kengash bo‘lmasa, ishni shunga xos muammo bilan shug‘ullanadigan boshqa tashkilot yoki mutaxassisiga taqrizga berish tavsiya etiladi).

Ilmiy tadqiqot ishlari natijalarimi yozma materiallari, foto, kino, video, grafik hujjatlar, to‘plangan boshqa materiallar, muzeyning ilmiy arxivida saqlanadi.

Ilmiy tadqiqot natijalaridan muzey faoliyatining barcha yo‘nalishlarida keng foydalilanadi, ular ekspozitsiya va fondlar bo‘yicha kolleksiya, ekspozitsiya va ko‘rgazma kataloglari, yo‘lko‘rsatkichlari ko‘rinishida nashr qilinadi.

Odatda, ilmiy ishni tashkil etish va uning natijalaridan mu-

zey faoliyatining barcha yo'nalishlarida foydalanish samaradorligini oshirish uchun *ilmiy tadqiqotchilik ishi to'g'risida Nizom* ishlab chiqiladi.

Mazkur hujjat quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- muzeyning ko'p qirrali tadqiqotchilik faoliyatini aniqlovchi maqsad va vazifalari;
- tadqiqotchilik ishini tashkillashtirish (bu bo'limda rahbarlik massalalari, muzeyda tadqiqotchilik ishlarini boshqarish qoidalari ifodalanadi): agar ilmiy ishlar bo'yicha direktor muovini bo'lsa, bu yo'nalishdagi barcha ishlarni boshqarish va tashkil etish unga yuklanadi, muzeyning kichikligi sababli bunday lavozim bo'lmasa, bu yo'nalishni direktor olib boradi;
- "Nizom"ning mazmuni, muzey tadqiqot ishi rivojining ustuvor yo'nalishini ko'rib chiqishni o'zida aks ettiradi.

Muzeylarda tadqiqotchilik ishining rivojlanishida Ilmiy kengashning ahamiyati juda katta. Uning tarkibiga mutaxassislar ham muzeydan, ham boshqa ilmiy tadqiqot tashkilotlaridan kiritilishi maqsadga muvofiq.

Agar Ilmiy kengash bo'lmasa, eng asosiy muammolarni muhokama etish uchun ilmiy-uslubiy kengashlar tashkil etilib, unga chetdan mutaxassislar jalb etiladi. Kengashning ish tartibi, dasturi, tarkibi ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, muzeylarning muvaffaqiyatli ish faoliyati puxta o'yangan ilmiy tadqiqotchilik ishi dasturi bilan bog'liqdir.

Muzeyning barcha faoliyati to'g'ridan to'g'ri ilmiy tadqiqotga tayanadi. Ularsiz zaxiralarni sifatli komplektlash ham, saqlash jarayonini maksimal uzaytirish ham, to'laqonli ekspozitsiya tuzish ham, madaniy-ta'lim ishini olib borish ham mumkin emas.

Kataloglar tizimi. Muzey ilmiy tadqiqotlari, ilm-fan uchun ham yangidan yangi manbalarni ochib berishga ko'maklashadi.

Hozirda fond ishi yuzasidan muzey ilmiy tadqiqotlarining eng dolzarb masalalaridan biri – *elektron kataloglar ma'lumotlar bazasini yaratishdir.*

O'zbekistonda muzey ishini axborotlashtirish, mustaqillik yillarida shakllana boshladi. Har bir muzey o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda, yangi kataloglashtirish loyihalarini ishlab chiqmoqda.

Odatda, ekspozitsiyaga chegaralangan ashyolar majmuasi qo'yilib, qolgan qismi esa fondlarda saqlanishi kuzatilar edi. Muzey ashyolarini to'laligicha raqamli ko'rinishga o'tkazish, ularni diqqat bilan kuzatish va fondlarning saqlov rejimini o'rganish borasida yengilliklar yaratadi. Bu muammolar borasida bir qancha yechimlar ishlab chiqilgan. Bular orasida eng ko'p qo'llaniladigan uslub kompakt disk va Internet saytlarida elektron katalog nashrlarni joriy etish hisoblanadi.

Elektron katalog nashrlar kitob nashrlaridan farqli tarzda chegaralanmagan matn, illyustrativ material va bir qancha xorijiy tillarni umumlashtirgan ma'lumotlar taqdim etib, muzeylar qanday qiziqarli katalog to'plamlariga ega ekanligi haqida axborot beradi.

Umuman, davlat katalogi deyilganda, Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyosi va muzey kolleksiyasi to'g'-risida asosiy ma'lumotlar mavjud bo'lgan, hisobga olish hujjati tushuniladi. Davlat katalogi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan yuritilib, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan hisoblanadi.

Milliy muzey fondi katalogi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari mulkdoriga ro'yxatdan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnoma beriladi. Davlat katalogi elektron va bosma ma'lumotlar bazasi ko'rinishida shakllantiriladi. Madaniyat vazirligi mutaxassislari tomonidan "SKM-MUZEY" va "SKM-GID" dasturlari ishlab chiqildi. Dastlab

mutaxassislar tomonidan xorijiy hamda MDH muzeylari tomonidan ishlab chiqilgan (KAMIS, Muzeolog) elektron katalog dasturlari o'rganib chiqilganda, ushbu dasturlar orqali yagona elektron baza yaratishning imkoniyati yo'qligi ma'lum bo'ldi. Bu jihatdan "**SKM-MUZEY**" dasturi mukammal ishlab chiqilgan bo'lib, hatto Rossiyaning yirik muzeylari xodimlarida ham katta qiziqish uyg'otdi.

Dastur o'zbek va rus tillardagi interfeysga ega. Dastur interfeysi quyidagi 9 bo'limdan iborat:

- arxeologiya fondi;
- numizmatika fondi;
- etnografiya va amaliy san'at fondi;
- quroq-aslaha fondi;
- tasviriy san'at fondi;
- hujjatlar, kitoblar fondi;
- kino-, fotohujjatlar, slaydlar, negativlar fondi;
- tabiiy-ilmiy ashyolar fondi;
- texnika va transport fondi.

Ushbu dastur turli yo'nalishdagi muzey xodimlari faoliyatini avtomatlashtirish orqali quyidagi vazifalarni hal etadi:

- dastlabki ro'yxatga olish va atributsiya ishlari;
- ilmiy inventardan o'tkazish;
- kartoteka bo'yicha ashyo kartochkasini yuritish;
- ko'rgazma va ekspozitsiyalarini tayyorlash;
- ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.

Dasturning maqsadi:

- kirim kitobini yuritish;
- tasvir va matnni o'z ichiga olgan muzey kolleksiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yuritish;
- turli belgilar, ma'lum bir parametrlar orqali tez qidiruv va tanlashni ta'minlash;
- muzey ashyolari va kolleksiyalarining ilmiy tavsif kartochkalarini tayyorlash;

- hisobot va boshqa foydali ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

Mazkur dastur Milliy muzey fondining yagona elektron katalogi bo'lib, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan barcha turdag'i muzeylarda saqlanayotgan har bir muzey ashyosi va muzey kolleksiyasi to'g'risida asosiy ma'lumotlar kiritiladi.

"SKM-MUZEY" katalog dasturining asosiy vazifasi respublikadagi barcha muzeylar fondidagi eksponatlar harakatini nazoratga olish, mahalliy va xorijiy ko'rgazmalarni o'tkazish jarayonini yengillashtirish hamda "SKM-GID" dasturi orqali sensorli kiosklar yordamida, fond zaxiralaridagi eksponatlar haqida qo'shimcha ma'lumotlar berishdan iborat.

Davlat katalogini yaratish jarayoni mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan muzeylarga toifa berish, muzeylarda saqlanayotgan ashyolar va kolleksiyalarni qayta ro'yxatdan o'tkazish hamda muzey xodimlarining malakasini oshirish tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

Yo'lko'rsatkichlar tizimi. Muzey ilmiy tadqiqotlari ishiga muzey zallari va eksponatlari bo'yicha yo'lko'rsatkichlar yaratish tizimi ham kiradi. Muzey yo'lko'rsatkichlari turizm yo'nalishlari uchun muzeylar haqida umumiylar ma'lumot berish vazifasini bajaradi. Yo'lko'rsatkichlarda muzeyni rivojlantirishning ilmiy va loyihibaviy ta'minlashda qo'llaniladigan yangiliklar ham o'rinni oladi.

Muzey yo'lko'rsatkichi, odatda, muzeyning tashkil etilgan yangi konsepsiysi asosida yaratiladi. Yo'lko'rsatkichlar tashrif buyuruvchilarning yosh doirasiga: muktab yoshidagi bolalar, mahalliy aholi, sayyoohlari, maxsus guruhlar, yakka tartibdagi tomoshabinlar, xorijliklar uchun alohida tartibda muzeyning "Ekskursiya va ekspozitsiya" bo'limi ilmiy xodimlari tomonidan ishlab chiqiladi.

Yo'lko'rsatkichda, avvalo, muzeyning marshrut ishlanmasi ishlab chiqiladi. Bunda quyidagi shartlarni oldindan amalga

oshirish nazarda tutiladi: obyektning mavjudligi va uni tomosha qilish uchun yetarli joyning bo'lishi, ekskursantlarning xavfsizligi hamda transport xizmati bilan ta'minlash kabilar.

Yo'lko'rsatkichda guruhning ish tartibi, muzey ashyolarini namoyish etish, ko'z bilan ko'rildigan faktlardan foydalaniladi va quyidagi:

- umumiy ma'lumotnoma-obyektlarning qisqacha tavsifi;
- eksponat suratlariga dastlabki sharh;
- tarixiy, badiiy asarlarni yo'lko'rsatkichda lo'nda ifodalashga qulay bo'lgan sitata;
- umumiy ma'lumotlarni qisqacha aks ettiradigan va badiiy montaj yo'li bilan tayyorlangan suratlar o'rinn oladi.

Muzey ashyolariga ilmiy ma'lumotnoma apparati tuzish tartibi. Tabiatda, jamiyatda ko'pgina shunday obyekt va predmetlar borki, ular ilmiy, badiiy, tarixiy yoki memorial qimmatga ega bo'lib, muzeyda foydalanish uchun ma'lum ahamiyat kasb etadi. Ularni *muzey ahamiyatiga ega ashyolar* (buyumlar) deb atash qabul qilingan. Muzey ashyosi nomini olish uchun buyum tadqiqotlar jarayonida bir qator izchil operatsiyalardan o'tkazilishi kerak.

Bu jarayonlarda ular saqlashga va boshqa maqsadlarda foydalanishga tayyorlanadi.

Muzey ahamiyatiga ega ashyo dastlab aniqlanadi va joyidan olinadi; keyin muzeyga olib kelinadi, hisobga olinadi va saqlanadi; so'ngra to'liq yoki dastlabki ilmiy ishlov beriladi. Shunday qilib, muzeyda ashyo hujjatli guvohga, aniq fakt, voqeа, hodisa yoki jarayonning belgisi, ramziga aylanadi.

Ashyolarni tanlashda predmetning turli tomonlarini xarakterlovchi uchta xossasi – informativligi, attraktivligi va ekspresivligiga tayaniladi.

Informativlik – muzey ashyosining mazmunini, uning tarixiy hodisalar, madaniy, ijtimoiy va tabiiy hodisalar hamda muayyan tarixiy kontekstda qatnasha olish qobiliyatini ifoda-

laydi. Ashyo haqida ilmiy hujjatda qayd etilgan ma'lumotlar yig'indisi, uning axborot salohiyatini tashkil etadi.

Attraktivlik – ashyoning tashqi tomonini, tashqi belgilari, xususan, shakli, rangi bilan muzeyga tashrif buyuruvchilar e'tiborini o'ziga jalb etish qobiliyatini ifodalaydi.

Ekspressivlik – ashyoning badiiy qiymatini aniqlashda, u odamda ma'lum hodisa, voqeа va faktlarga nisbatan his-tuyg'u uyg'ota olishiga bog'liq.

Umuman, muzey faoliyat ixtisosligi, jamiyatdagi va madaniyatdagi o'rni hamda roli – hujjatlashtirish va ta'lim-tarbiya funksiyalari orqali namoyon bo'ladi.

Hujjatlashtirish funksiyasi tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan hodisalarни muzey ashylari yordamida muzey to'plamlarida maqsadga muvofiq aks ettirishni nazarda tutadi. Hujjatlashtirishning mohiyati shundan iboratki, muzey tabiat obyektlarini va inson yaratgan buyumlarni aniqlaydi, tanlab oladi. Ular obyektiv haqiqatning asl guvohi hisoblanadi. Hujjatlashtirish funksiyasi jamiyatning ilmiy va madaniy talablariga javob beradi. Bu, asosan muzey fondlarini to'ldirish, ularni saqlash va o'rganish jarayonlarida amalga oshiriladi.

Ta'lim va tarbiya funksiyasi muzey ashynosining informativ va ekspressiv xossalariга asoslanadi. U jamiyatning bilish va madaniy talablariga bog'liq bo'lib, muzeylarning turli shakldagi ekspozitsion hamda madaniy-ilmiy ishlari orqali amalga oshiriladi.

Muzeyning ijtimoiy funksiyalari uzviy bog'liq bo'lib, bir-biriga ta'sir etadi. Hujjatlashtirish jarayoni muzeyning ekspozitsion va madaniy-ilmiy faoliyatiga asos bo'ladi. Ekspozitsiya esa muzey ashylarini to'ldirish, ularni o'rganish va ta'riflash jarayonida olib borilayotgan ilmiy ishlar nashrining spetsifik shaklidir. Ko'pincha ekspozitsiyalar asosida aynan ta'lim va tarbiya funksiyasi amalga oshadi. Ekskursiya, ma'ruzalar va shu kabi muzey faoliyatining boshqa shakllari ekspozitsiya

hamda undagi muzey ashylarining sharhi bo'lib xizmat qiladi.

Odamlar bo'sh vaqtini unumli tashkil etishda muzeylar rolining oshishi, o'z navbatida, ekspozitsion va madaniy-ilmiy faoliyatga ta'sir etadi. Bunda muzeyga tashrif buyuruvchilar uchun yanada qiziqarli ekspozitsiyalar yaratish, alohida xonada monitor o'rnatish, kompyuter qo'yish, teatrlashtirilgan tomoshalardan foydalanish, konsert, bayram, bal uyshtirish kerak.

Muzey fondlarini to'ldirishda ilmiy ekspeditsiyalarni rejali tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu borada kam o'rganilgan viloyatlarda ish yuritadigan va malakali ilmiy mutaxassislarga ega bo'lган ekspeditsiyalar yaxshi samara beradi. Bunday ekspeditsiyalarni o'tkazishdan avval muzey fondlaridagi materiallar bilan batafsil tanishib chiqiladi, adabiyotlar o'rganiladi, mutaxassislar bilan hamkorlik o'rnatiladi. Ekspeditsiyada turli muassasalarda faoliyat yuritadigan mutaxassislar bilan muloqot muzey xodimlarining ko'nikmalarini rivojlantiradi, eksponatlarni puxta tanlash va ularga ilmiy yondashishni chuqurlashtiradi.

Ekspeditsiya-to 'plovchilik ishi muzey tomonidan bir necha yilga mo'ljallab, oldindan puxta rejlashtiriladi. Bunday ish rejalar ekspozitsiya vazifalari, ilmiy tadqiqot va eng avvalo, fondlar ahvolini hisobga olish bilan uzviy bog'liq holda tuziladi.

Har bir ekspeditsiya oldidan u bajarishi lozim bo'lган ishlarning ilmiy rejasini aks ettiruvchi *ro'yxat-jadval* tuziladi.

Etnografiya kolleksiylarini komplektlashda har bir eksponat *ro'yxatdan* o'tkazilib, tekshirilayotgan xalq yoki elat tarixi hamda turmush tarzi bilan uzviy bog'liq holda, muayyan vaziyatda o'rganiladi.

Buyumni fondga topshirish uchun inventar kitobiga yozishdan oldin uning nimaligini aniqlash, mazmunini bilish, haqiqiyligiga ishonch hosil qilish, unga to'liq nom berish lozim.

Muzey fondlarida shunday buyumlar borki, ularni aniqlash va o‘rganish uchun yillab vaqt sarflanadi.

Navbatdagi bosqich *ilmiy pasportlarni to‘ldirish* bo‘lib, buyumlar haqidagi ma’lumotlar kengaytirilib, tarixiy sharhlar beriladi. Bu jihatdan ashyolardan imkon qadar samarali foydalananish uchun ular o‘rganilib, tahlil qilinib, hujjatlarning tarkibi, mazmuni, manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar qisqa umumlashgan shaklga keltiriladi.

Ilmiy tadqiqotchilik ishlarini bajarishda muzey xodimlaridan fonddagi ashyolarni o‘rganish uslublarini bilishi, ularni ilmiy asosda tashkil etishi, qay sharoitda saqlashni o‘zlashtirgan bo‘lishi, ma’rifiy ishlarni olib borishda ashyolardan to‘g‘ri foydalanishi talab etiladi. Bu esa, muzey mutaxassisi universal bilimga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Hatto, u ashyolarning fizik holatiga muhit, kimyoviy usullar qay darajada ta’sir etishi haqida keng tasavvur va malakaga ega bo‘lishi zarur. Bu jihatdan fond xodimlari turli seminarlarda qatnashib turishi va vaqtida mutaxassislar tomonidan attestatsiyadan o‘tkazilishi shart.

Savol va topshiriqlar

1. Muzeyning ilmiy konsepsiysi qanday tartibda ishlab chiqiladi?
2. Zaxiralarni komplektlash sohasida ilmiy tadqiqot qanday olib boriladi?
3. Muzeylarda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishning muhim yo‘nalishlari nimalardan iborat?
4. Ekspeditsiya-to‘plovchilik ishi qanaqa bosqichlardan tashkil topadi?
5. Toshkent uy-muzeylaridan birini tanlagan holda kichik hajmda katalog yo‘lko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqing.

Manbalar va adabiyotlar

1. Альмееев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Т.: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма, 2007.

2. Илалов И. Музееведение. – Т.: Мусиқа, 2006.
3. Kuryazova D.T. O'zbekistonda muzey ishi tarixi. – Т.: San'at, 2010.
4. Чинхолл Р. Музейная каталогизация и ЭВМ – М., 1993.
5. Юренева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003.
6. Building National Museums in Europe 1750–2010. – Linköping University Electronic Press, 2011.
7. The first treatise on Museums: Samuel Quiccheberg's Inscriptiones, 1565. – Los Angeles; California, 2013.

5-MAVZU. MUZEY PEDAGOGIKASINING TARAQQIYOTI VA TAJRIBALARI

REJA

1. "Muzey pedagogikasi" tushunchasi va uning ahamiyati.
2. Muzey pedagogikasini shakllantirishda muzey auditoriyasining o'rganilishi.
3. Xorijdagi muzeylarda muzey pedagogikasi amaliyotga tatbiq etilishi.
4. O'zbekiston muzeylarida muzey pedagogikasini joriy etish amaliyoti.

"Muzey pedagogikasi" tushunchasi va uning ahamiyati. "Muzey pedagogikasi" deganda, "U nima?" va "Nima uchun kerak?" kabi savollar paydo bo'ladi. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, muzey pedagogikasi bolalarni tarbiyalash jarayonidagi bebahoh ko'makchi, ularni umuminsoniy qadriyatlar asosida barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, nafaqat o'z hayoti, balki yuzlab insonlar hayoti bilan birga yashashga o'rgatadi, yosh avlodni bunyodkorlikka da'vat etadi.

Muzey pedagogikasi – pedagogika, psixologiya va muzeyshunoslikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan yo'nalishi hisoblanib, u dastlab tushuncha sifatida XX asr boshlarida Germaniyada shakllangan hamda ilmiy muomalaga kiritilgan. Muzey pedagogikasining hayotga tatbiq etilishi A. Lixtvark, A. Reyxven va G. Froydental nomlari bilan bog'liq. Avvaliga bu soha o'quvchilar bilan ishlashga mo'ljallangan muzey faoliyatining bir yo'nalishi sifatida talqin etildi. 1913-yilda A. Lixtvark birinchi marta muzeyning ma'rifiy maskan sifatidagi ahamiyati g'oyasini shakllantirdi va tashrif buyuruvchi bilan muloqotda yangi usullarni taklif etdi. Muzeylarda maktab

tizimidagi mashg‘ulotlarni o‘tish metodikasi ilk bor G. Froydental tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, u muzey muhitida ta’lim jarayonini tashkil etish uchun pedagogning zarurligini ta’kidlab, ushbu mutaxassisiga “muzey pedagogi” nomi berilishini taklif qildi.

Ya.K. Frizzenning fikriga ko‘ra, muzey pedagogikasi, bu – muzey vositalari bilan ma’rifiy ishlar va didaktikaga tayanadigan badiiy tarbiya an’analari hisoblanadi. F. Fogt fikricha esa, muzey pedagogikasi – muzeylararo hamda ularning kolleksiyalari va tomoshabinlari o‘rtasidagi vositachilik faoliyatidir. Bu borada A. Reyxveyn muzeylarda pedagogik faoliyatni rivojlantirish uchun ekspozitsiyalarni maktab o‘quv dasturlariga moslab tashkil etish, o‘qituvchi, o‘quvchi va muzey orasidagi hamkorlikni mustahkamlash, maktab o‘qituvchilarini muzey ilmiy xodimlari tomonidan malakasini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish zarurligini ta’kidlaydi.

Jamiyatning barcha qatlamlariga ta’sirni kuchaytirish uchun muzey bilan maktabni birlashtirgan G. Kol “Muzey va galereyalar o‘z oldiga ta’lim maqsadini qo‘ymas ekan, ular zerikarli hamda foydasiz muassasa bo‘lib qolaveradi”, degan xulosa ga keladi. G. Kolning bu fikri muzeylarning ta’lim faoliyati modelini shakllantirishni taqozo etdi.

Muzeydagi mashg‘ulotlar muvaffaqiyatini G. Froydental quyidagi shart-sharoitlar bilan bog‘laydi: muzeylarga har bir tashrif aniq o‘quv maqsadiga ega bo‘lishi; muzeyga tashrifni bolalarning maktab mashg‘ulotlaridan charchagan paytda emas, balki u yerdagi manbalarni idrok etishiga tayyor bo‘lgan vaqtda uyushtirish; bolalargagina emas, kattalarga ham tinglash uchun og‘ir bo‘lgan obzorli ekskursiyalardan voz kechish; bolalarning mavzular bo‘yicha mustaqil ijodlari (rasmlar, insholar, yaratgan modellari) muzeyga tashriflarining yakuni bo‘lishiga erishishdir.

G. Froydental bolalar bilan muzey ta’lim jarayonini tashkil etishga tayyor bo‘lgan mutaxassislarni muzey pedagogi

deb atagan holda, katta yoshdagi bolalarni texnika va maxsus muzeylear, kichik yoshdagi bolalarni esa o'lkashunoslik, tabiiy-ilmiy va badiiy muzeylear bilan tanishtirishdan boshlashni tavsiya etgan.

Keyingi yillarda Rossiyada ham ta'lim sohasidagi islohotlar muzey pedagogikasi yuzasidan bir qator tadqiqotlarni amalga oshirishga qulay sharoit yaratdiki, bular xorijiy mamlakatlarda ham katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, bu borada B.A. Stolyarovning ishlari diqqatga sazovordir. U muzeylarning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rniga e'tibor bergan holda, bu boradagi jahon tajribasini ham o'rgandi va uning hozirgi davrdagi nazariy jihatlarini asosladi. Olim muzey ekspozitsiyalari bilan ish olib borishning shakl hamda metodlarini, eng muhimi muzey-maktab hamkorligi modelini ishlab chiqib, bu borada muzey pedagogi hamda o'qituvchini tayyorlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berdi.

Umuman, muzeylarning umumta'lim jarayoniga kirib keliishi, insonni ham psixologik, ham axloqiy jihatdan shakllanishida, shuningdek, uning ijtimoiy-ma'naviy islohotlarning subyekti bo'lishiga yordam beradi, ya'ni o'quvchi muzeylarning ma'naviy merosni ko'rib, o'rganib, uni anglab olishi natijasida, o'z hayotini mazmunan boyitadi.

Muzey pedagogikasini shakllantirishda muzey auditoriyasining o'rganilishi. Auditoriyaga har bir muzeyning mazmun-mohiyati, yo'nalishi va sohasiga qarab yondashish maqsadlidir. Muzey auditoriyasi muzeyning ajralmas qismi hisoblanib, uning alohida obyekt sifatida o'rganilishi, muzeyning faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi.

Muzey auditoriyasi kasbi, yoshi, dunyoqarashi va qiziqishlariga qarab, turli toifaga bo'linadi. Ular orasidagi eng faol auditoriya yoshlar hisoblanadi. Ularni ham turli guruhlarga bo'lgan holda, muzeyga jalb etish usullarini alohida ishlab chiqish zarur.

XXI asr boshlariga kelib muzeylarda o‘quvchi va talabalar bilan ishlash jarayonlari birmuncha faollashdi. O‘quvchilar toifasi, o‘z navbatida, yosh jihatidan maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, boshlang‘ich sinf, o‘rta sinf o‘quvchilari, litsey-kollej o‘quvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasasi talabalari guruhlariga bo‘linadi. Muzey mutaxassislari yuqorida qayd etilgan har bir guruh bilan alohida muloqotga kirishadi. Bu davrda o‘quvchi va talabalar bilan ishlash tajribasi yangi yo‘nalishlarda takomillashtirilgan bo‘lsa, maktabgacha ta’lim muassasalari bilan muloqot shakllari bиринчи bor yo‘lga qo‘yildi. Sababi, bunday kichik yoshdagи auditoriya bilan ishslash XXI asrgacha O‘zbekiston muzeylarida to‘laqonli shakllanmagan edi.

Albatta, maktab ta’tili vaqtida muzeylar kichik yoshdagи tashrif buyuruvchilar bilan to‘lib ketishi sir emas. Yosh bolalarni muzeyga intilishi va qiziqishi doimiy bo‘lib, ular turli tadbir ishtirokchilarining ko‘pchilik qismini tashkil etib kelgan. Muzeylarda kichik auditoriya bilan ishlashning maxsus yo‘nalishi va usullari deyarli rivojlanmaganligi sababli, odatda, o‘qituvchilar muzeyga bolalarni asosan 5-sinfdan boshlab olib borar edilar.

Ma’lumki, XX asr boshlaridan boshlab, ba’zi muzey va maktab muzeylarida 4 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun maxsus loyihalar ham bo‘lgan. XX asrning 90-yillariга kelib esa, muzeylarda kichik yoshdagи tashrif buyuruvchilar uchun tadbirlar o‘tkazish ommaviy tus oldi. Lekin, hali bu yoshdagи auditoriya bilan ishlashning shakl va usullari bo‘yicha pedagogik-psixologik bilimlar talab darajasida emas edi.

Aslida bolalarni estetik ruhda tarbiyalash va ularning ma’naviyatini shakllantirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, aynan maktabgacha tarbiya muassasalarida yosh avlod tabiatdagи turli o‘zgarishlar haqidagi dastlabki ma’lumotlarni oladilar.

Maktab yoshigacha (3 yoshdan 7 yoshgacha) bo‘lgan bolalar uchun muzey pedagogikasi. Avvalambor, muzeyda maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarning psixologik holati, ularning axborotni qabul qilish darajalarini o‘rganishda, asosan bolalarda atrof-muhitni anglash, fikrlash va eslab qolish qobiliyatlari hisobga olinadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga muzeyga tashrif jarayonida dastlab ekspozitsiyadagi ashyolarning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida suhbat o‘tkaziladi. Shuningdek, kichik yoshdagi tashrif buyuruvchilar uchun teatrlashtirilgan, izlanish olib borishga yo‘naltirilgan hamda o‘yin tariqasidagi mashg‘ulotlardan foydalanish mumkin.

O‘yin tarzidagi suhbat orqali ekskursiyalar o‘tkazishda ularning shakllanayotgan psixologik jarayonlarini o‘rganib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va bu borada bolalarga zamonaviy texnika vositalaridan (sensor kiosklar, plazma panellardan) foydalanish imkoniyatini yaratish zarur.

Muzey pedagogikasi kichik yoshdagi tashrif buyuruvchilar bilan ishslashning turli shakllari: viktorina, rebus va musobaqalar tarzida tashkil etishni tavsiya qiladi. Bundan tashqari, bolalar uchun vazifa tariqasida “Mening shajaram”, “Mening uyimdagи yodgorlik”, “Uy bo‘ylab sayohat” kabi mustaqil vazifalar yoki marshrut varaqalari orqali ijodiy topshiriqlar ham ijobiy natijalar beradi.

Shunday qilib, qadimgi tarixdan guvohlik beruvchi asl osori atiqalarni saqlovchi muzey hozirgacha o‘zining qadrini yo‘-qotmagan, insonni tarix va madaniyat dunyosiga olib kiruvchi maskan hisoblanadi. Ma’lum ma’noda muzey bolalarga atrof-muhitdagi rivojlanishning murakkabligi va davomiyligi haqidagi tessavurni beradi. Tarixiy va madaniy faktlar, mashhur nomlar, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari nafaqat bolalarning qalbida, balki xotirasida bir umrga qoladi.

Muzeylar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustaqil fikr yuritish, voqeа va hodisalarga befarq qaramaslik, eng asosiysi o‘z moddiy madaniy merosini asrash tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu g‘oyalar bolalarga o‘yin, ijod va muloqot uyg‘unligida singdirib boriladi.

7 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan maxsus das-turlarda, ularning mavhum tushunchalarni to‘liq qabul qila olmasliklarini nazarda tutgan holda, har bir hodisani sodda va to‘g‘ri ma’lumot tarzida yetkazish tavsiya etiladi. Bu yoshdagи bolalar davr, vaqt tushunchasini tashqi muhit bilan bog‘liq ravishda tasavvur etadi. Aynan shu vaqtda bolalarga tarixiy ma’lumotlarni emas, balki qadimiy hayvonlar haqida hikoya qilish, xayolan tasavvur qilishga undash lozim.

Bolalar mashg‘ulotlardan keyin:

- o‘zi yashayotgan zamонавиy muhit bilan tarixiy davrlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar haqidagi tushunchasi tarixiy va madaniy yodgorliklar orqali shakllanishi;
- estetik did va hayratlanish qobiliyati rivojlanishi;
- boshqa madaniyatga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish hissi qaror topishi;
- turli davr va xalqlarning madaniy merosini mustaqil ravishda o‘rganishga ishtiyoqi o‘sishi mumkin.

Muzey pedagogikasining bolalar tarbiyasidagi o‘rnı madaniyat va san’atga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirish bilan ham belgilanadi. Muzey bolalarning kuzatuvchanligini oshirib, tasavvurni kengaytirish va ma’lum ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, bolalar muzey ahamiyati-ga molik ashylarni bog‘chada, ko‘chada, tanishlarining uyida yoki tashqi muhitda ko‘ra olish, shuningdek, muzeyda o‘zini tutish, ko‘rgazmada ashylarni ko‘rish kabi madaniy meros bilan muloqotga kirishish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lib borishadi. Natijada, bolalar muzeylarga – madaniyatning noyob muassasasi sifatida qiziqa boshlashadi. Asosiysi, yo‘qolib bo-

rayotgan madaniyat, an'analar va ularning ahamiyati bolalarda alohida qadr-qimmat kasb etadi. Muzey xazinasi ularga beba-ho va noyob tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda, muzey pedagogikasi maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining tafakkuriga tarixiy xotirani shakllantirish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Maktab o'quvchilari uchun muzey pedagogikasini tashkil etish. Bu yoshdagi bolalarning muzeyga tashrifini ularning ruhiyatiga to'g'ri keluvchi muloqot ekskursiyalari orqali tashkil etish zarur. Bu borada o'quvchilarning qiziqtiruvchi omillar dan kelib chiqqan holda, ularni 7–11 va 11–15 yosh tarzida alohida guruhlash mumkin. Ular bilan ishlashda didaktik o'yinlar, rivojlantiruvchi mashqlar, ijodiy topshiriqlar, munozara, suhbatlarning zamonaviy usullarini ishlab chiqish ijobjiy natijalar ni beradi.

Muzey o'quvchilarga nafaqat turli hodisa va voqealar ning sabablari hamda tartiblari haqida bilimlarni berish, balki uni xotirada saqlash bilan bir qatorda, o'z oldilariga qo'yilgan savollarga mustaqil ravishda javob topishga o'rgatishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda ularni voqe va hodisalarga nisbatan qarashlari muqim hamda mustahkam bo'lmasligini e'tiborga olib, bolalarga ko'proq voqealardagi qahramonlar bilan birgalikda, aynan shu muhitga tushib harakat qilishi, his etishi uchun imkon yaratish kerak. Ularning ongi-da barcha personajlar ijobjiy va salbiy (yaxshi va yomon)ga bo'linadi. Shuning bilan birga, bolalar, masalan, rasmda tasvir langan tabiatning ko'rinishi yoki qahramonning holati va his-hayajonlariga katta e'tibor qaratadilar. Tabiiyki, bunda ular, muhokama qilishlari va shaxsiy fikrlarini bildirishlari mumkin. 8–9 yoshdagi bolalar badiiy tushunchalar va axborotlarni o'z lariga singdirib, badiiy obrazlarni sodda tahlil qiladilar.

Kichik muktab yoshidagi o'quvchilarga muzey yodgorliklari orqali moddiy va ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi

hisoblangan muzey ashyolariga munosabatni shakllantirish hamda ularni jahon madaniyatida tutgan o'rniga e'tibor qaratish lozim. O'quvchilar uchun "Muzeydagi rasm", "Ashyolar so'zlaganda" va "Muzey bilan birinchi tanishuv" kabi loyihalardan foydalanish mumkin.

7–11 yoshgacha bo'lgan bolalar vaqt haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lsa-da, lekin mavhum tushunchalarni qabul qilishga tayyor emaslar. Bu yoshdagi o'quvchilarda ekspozitsiyadan olgan ma'lumotlarini o'z tajribasi bilan uzviy bog'lashga o'rgatish kerak.

9–12 yoshdagilar mavhum tushunchalarni bilishadi, lekin psixologik tomondan ko'proq ularga sensor shakldagi usullardan foydalanish to'g'ri keladi.

Muzeylarda o'quv dasturini qo'llashda bir necha bosqichlar ni amalga oshirish nazarda tutiladi. Masalan, ekskursovod, birinchi navbatda, ekskursiyani boshlashdan avval bolalar bilan o'zaro muloqotga kirishib, tashrif buyuruvchilar bilan iliq munosabatni o'rnatib olishi kerak. Tarixiy muzeylardagi ekspozitsiyalar, tarixiy so'zlar va jarayonlarni bolalar to'laqonli qabul qilishlari qiyin kechishi mumkin. Shu sababli, muzey pedagoglari ekskursiyalarni ashyolarni qiyoslash, farqlash yoki o'xhash ashylar bilan uyg'unlashtirish orqali tushuntirishga harakat qiladilar.

Muzey pedagogi biror voqeа yoki hodisa bo'yicha o'quvchilarga savol berish orqali ulardan voqelikni kuzatish, tahlil qilish va yechimini topish bo'yicha javob kutadi. Bu ham bolalarni ekspozitsiyada namoyish etilayotgan ma'lumotlarga munosabati va unga nisbatan o'zining mustaqil fikrini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Muzeyda yosh tashrif buyuruvchilar ko'proq erkinlik va mustaqillikni xush ko'radi. Ularga qo'l bilan ushlab ko'rish va eksponat bilan muloqot qilishda aynan eksponat nusxalari, maketlari yoki mulyajlari o'quvchilar uchun hech nar-

saga tenglashmaydigan o‘quv materiali hisoblanadi. Shuning uchun ham ko‘plab muzeylar o‘z zallarida bolalar uchun eksponatlarning nusxalarini yasab, ularga ashyolarning ishlatalish usulini sinab ko‘rishga imkon berishadi. Yoki bo‘lmasa, tarixiy shaxslarning kiyimini kiyib ko‘rish, zodagon ayolning taqinchoqlarini taqib ko‘rish, kulolchilik charxida V asrdagi kabi ko‘zalarni yasab ko‘rish bolada katta taassurot uyg‘otadi.

Xorijiy muzeylar teatrlashtirilgan tomoshalardan ham foy-dalanmoqda. Bu, ayniqsa, tarix va texnika muzeylarida samarali natija bermoqda. Bu namoyishlar bir guruh muzey xodimlarining ma’lum bir davrni o‘zida aks ettiruvchi qahramonlar obraziga kirishi yoki ekskursovodlarning mavzu bo‘yicha libos kiyishida namoyon bo‘ladi. Bu bolalarni o‘ziga jalb qilish bilan birga, aynan shu mavzuga katta qiziqish uyg‘otadi.

Tarixga ixtisoslashgan muzeylarning turli loyihalar bilan ishslash imkoni nihoyatda keng. Masalan, har bir ashyoning o‘ziga xos tarixi bor. Uni nafaqat nazariy tomondan, balki amaliy tomondan tashrif buyuruvchilarga namoyish etish va ularning ham ishtiroki uchun imkoniyat yaratish muhim. Jahan tarixida eng birinchi hunarmandchilik sohalaridan biri hisoblanadigan kulolchilikning taraqqiyotini makon va zamon kesimida qiyoslash orqali, uning bosqichlari bilan to‘liq tanishtirish mumkin. Albatta, bu tushuntirishlar amaliyat bilan, ya’ni kulolchilik mahsulotlarini yasash va uning davrini aniqlash kabi mashg‘ulotlar bilan olib borilishi zarur. Bunday mashg‘ulotlarni, masalan, kashtachilik, kandakorlik, to‘qimachilik, tasviriy san’at, muqovasozlik, yozuv, tangashunoslik tarixi kabi qadimdan rivojlangan va taraqqiyot rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘sghan sohalar bo‘yicha ham olib borish mumkin.

Umuman olganda, hozirgi zamonaviy muzeylar bolalar bilan ishslashning turli usullarini ishlab chiqmoqdalar. Ularning soni

va ko‘lami juda keng bo‘lib, har bir muzey o‘zining xususiyati hamda faoliyatining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ish tutishi lozim.

O‘smir yoshlarga muzey pedagogikasini tatbiq etish usullari. O‘smirlilik davrida insonning tabiatni, dunyoqarashi, odamlar bilan o‘zaro munosabatida turli o‘zgarishlar ro‘y beradi.

O‘quv faoliyati jarayonida ularning dunyoqarashi analitik xarakterga ega bo‘lib boradi, faol va mustaqil ravishda fikrlash, chuqur muhokama, xulosa chiqarishga o‘rganishadi.

10–12 yoshda, bolalarning rasm chizish davrida “tabiiy inqiroz” davri boshlanadi. Muntazam ravishda rasm chizib yurgan bolalar bu mashg‘ulotdan voz kechishadi. Chunki ular san’at sohasini mukammal egallashda professional ta’lim muhim o‘rin egallashini tushuna boshlashadi. Aynan shuning uchun ham muzeylarda o‘smir yoshdagi bolalar uchun ekskursiyalar dasturiga o‘quvchilarni ma’lum bir yo‘nalishdagi bilimlarini kengaytirishda asos bo‘lib xizmat qiluvchi mavzuli va tarixiy ekskursiyalarni kiritish maqsadga muvofiq.

O‘smir yoshlarning dunyoqarashi va shaxs sifatida shakllanishi, o‘z faoliyatida mustaqillikka intilishi, katta bo‘lishga intilish hissiyoti paydo bo‘ladi. Hatto ular “o‘z qahramon”larini qidirish va unga taqlid qilishga harakat qiladilar. Bu qahramonlar biror-bir davlat arbobi, tarixiy shaxs, buyuk rassom yoki musiqachi bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha bunday taqlidlar o‘quvchilarni kelajakda kasb tanlashida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar muzeyda. Talabalar auditoriyasiga mo‘ljallangan ekskursiyalarda taqdim etilayotgan materialning uch jihatini inobatga olish darkor:

- anglesh (intellektning rivojlanishi);
- his etish (muzey yodgorliklarining mazmun-mohiyati va alohida xususiyatlarini his etish);
- affektiv (yodgorlikka nisbatan hayratlanish hissi).

Ularning bir-biri bilan muvozanati talabalar yoshi va intellektual xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Talabalar auditoriyasini ekskursiyaga tayyorlashdan avval guruhning intellektual va badiiy darajasini hisobga olish, ularning bilim doirasini, estetik tasavvurini kengaytirish uchun oliy ta’lim muassasasi bilan hamkorlikda ish olib borish zarur. Bu ekskursiyalar talabalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- asl ashyolar bilan muloqotga kirishish;
- tasviriy san’at asarlarini badiiy va obrazli tushunish;
- konkret ashyolar misolida badiiy tahlil asoslarini o’zlashtirish.

Ko‘plab oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘zlarining amaliy mashg‘ulotlarini muzeylarda o‘tkazadi. Bu jarayon bo‘lajak kasb egalarining nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkmalashga katta yordam beradi.

Shu ma’noda muzeylar oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalarini tuzadilar. Bu shartnomalar talabalarni kasbiy mahoratga o‘rgatib, ularning qiziqish va qobiliyatlarini takomillashtirishda katta yordam beradi. Masalan, tarix yo‘nalishi bo‘yicha muzeyda bo‘lajak tarixchi talabalar uchun ekspozitsiyalar tashkil etish, ekskursiyalar olib borish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Xorijdagi muzeylarda muzey pedagogikasi amaliyotga tatbiq etilishi. Dunyoda kelajak avlod tarbiyasida muzeylarning muhim ahamiyatga ega bo‘lib borishi, XXI asr boshlari da jahonda bolalar muzeyini rivojlantirish jarayonlarining tez sur’atda o‘sishiga sabab bo‘ldi. Ta’lim sohasi bo‘yicha mashhur amerikalik mutaxassis Gregori Ramsey “maktab va muzey jamiyatga ajdodlar “hududi” sifatida qaytishi kerak”, – deb ta’kidlab, – “bu zamonaviy dunyo kattalar uchun bunyod etilgan bo‘lib, unda bolalar uchun joy yo‘q”, – degan edi. Haqiqatan ham bu masalaga jiddiy qaralsa, XX asrning 90-yillari-

ga qadar inson uchun yaratilgan qulayliklar va sharoitlar, buning etilgan turli ma'rifiy markazlar orasida bolalar uchun maxsus maskanlar deyarli bo'Imagan (bolalar ijodiyot markazlari va madaniyat uylari bundan mustasno). Bunga, albatta, muzeylar ham kiradi. Muzeylar bolalar va o'quvchilarning eng ko'p tashrif buyuruvchi maskani bo'lishiga qaramay, ularning dunyoqarashi, talabi darajasidagi ekspozitsiyalar yaratilmagan. Faqatgina ularga ekskursovodlar tomonidan maxsus ekskursiyalar tashkil etilgan, xolos.

Darhaqiqat, muzeylar faoliyatini ta'lim-tarbiyaga yo'naltirishning o'z tarixi bor. Bu Rossiya, AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya muzeylari faoliyati san'at va fanni ommalashtirishni o'z oldilariga asosiy vazifa etib qo'yishi bilan bog'liq tarzda ro'y bergen. Masalan, Fransiyadagi *Luvr muzeyining eksponatlar to'plami nafaqat tashrif buyuruvchilar bilimini kengaytirishga, balki fanning arxeologiya va tarix kabi sohalarini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatgan*. Shuning uchun ham uni ta'lim va tadqiqot muzeyi deb atash mumkin. Luvr muzeyi tashkil qilinidan boshlab, o'z faoliyati davomida "ma'rifat tarqatish va insonlarga estetik zavq berish" maqsadini amalga oshirdi.

AQShning yirik muzeylaridan sanalgan Nyu-Yorkdagi *Metropoliten* faoliyatida ham ta'lim maqsadiga katta ahamiyat berib kelingan. Metropoliten hududining kengligi, kolleksiyalarning sifati va tashrif buyuruvchilar bilan o'tkaziladigan ekskursiyalar, ma'ruzalar, konsertlar, kinofilmlar namoyishi kabi tadbirlar ushbu muzeyda ta'limning shakllariga alohida e'tibor berilishi ni ko'rsatadi.

Aynan Metropoliten muzeyida birinchi bor tashrif buyuruvchilarni ekspozitsiyalar bilan tanishtiradigan yo'lko'rsatkich hamda o'qituvchilar uchun qo'llanma nashr etilgan. Dam olish kunlari bu yerda omma uchun ma'ruzalar o'qilgan. Lekin, muzey ta'limi masalasida maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo'lsa ham dastlab maktab bilan muzey ta'limi o'rtasida jiddiy farq

mavjud edi. Shuning uchun ham Metropoliten muzeyi birinchilardan bo‘lib tarixiy ashyolardan foydalangan holda, maktabda o‘qitiladigan tarix, geografiya va boshqa fanlar bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borishni yo‘lga qo‘ydi.

Hozirda bolalar muzeyi soni to‘rt yuzdan ortiq bo‘lib, ularning asosiy qismi AQShda joylashgan. Undan tashqari, butun Yevropa poytaxtlarida shu kabi muzeylar faoliyat yuritadi.

Suvosti dunyosi, badiiy ustaxonalar, turli o‘yinchoqlar kolleksiyalari va boshqa ko‘plab qiziqarli jarayonlarni uyg‘unlashtirgan ajoyib mo‘jaz muzeylarning to‘qqiztasi 2012-yili “Forbes” jurnali tomonidan eng yaxshi bolalar muzeylari sifatida tan olindi. Ular quyidagilar:

Ivan Shtaygerning O‘yinchoqlar muzeyi (Chexiya). Bu muzeyda har bir bola orzu qiladigan va qiziqadigan o‘yinchoqlar mavjud: eng qadimiy, o‘ziga xos o‘yinchoqlar bilan bezatilgan archalar, Barbi World qo‘g‘irchoqlari, bug‘ bilan yuradigan mashina modeli, mashhur kinoyulduzlar va harbiy sarkardalar haykalchalari shular jumlasidandir. Shtayger o‘yinchoqlari – insoniyatning tadrijiy rivojlanish jarayonlarini ham qamrab oladi.

Sharl Perro qasr-muzeyi (Fransiya) esa oilaviy tashrif uchun ajoyib maskan sanaladi. Binoda bir yuz oltmishga yaqin mum haykallar mavjud. Haykallar orasida etik kiygan mushuk, qo‘rqinchli ko‘ksoqol, qizil qalpoqcha kabi mashhur ertak qahramonlarini uchratish mumkin. Dam olish va ta’til vaqtlarida bu qahramonlar “jonlanadi”, ya’ni tashrif buyurnuvchilar ko‘z o‘ngida sahma ko‘rinishlari qo‘yiladi. Har yili 17-dekabrdan 3-yanvarga qadar qasr minglab turfa rangdagi ajoyib yangi yil chiroqlari bilan yoritiladi.

Dunyodagi bolalar mehrini qozongan muzeylardan yana biri *Shvetsiyadagi Astrid Lindgren muzeyi* sanaladi. Muzey bir qancha mavzuli qismlarga bo‘lingan: o‘yingohlar, “ertaklar olami” bo‘limi, Karlson taomnomasi asosidagi oshxona va

mo'jazgina kitoblar do'koni. O'yingoh maydonida turli shved etaklari qahramonlarining uychalari joylashgan. Turli buyumlar yordamida bolajonlar bu yerda qiziqarli spektakllarni sahnalaشتirib, o'zlarining dramatik qobiliyatlarini shakllantirdilar.

Finlyandiyadagi Mumi-trollar muzeyi. Mumi-trollar (mitti yerosti odamchalar) muzeyi Finlyandianing Tampere shahar-chasidagi kutubxona erto'lasida tashkil etilgan. Bu yerda mumi-trollar hayotiga bag'ishlangan Lyuisa Kerroll va Jon Ronald Ruel Tolkiyen asarlari asosida 2 mingdan ortiq suratlar, eskizlar to'plangan. Bolalar bu yerga faqatgina suratlarni ko'rish uchun emas, balki 2,5 metrli mumi-trollarning ulkan uychasida mehnimon bo'lish uchun ham tashrif buyuradilar. Uycha besh qavatdan iborat bo'lib, ko'plab xonalari bor.

Bolalar bilan muzeysiga tashrif buyurgan kattalar, bu ajoyib uy loyihasining alohida unsurlarini "Uy tarxi" nomli kompyuter dasturi orqali tomosha qilishlari mumkin. Bu uydan tashqari, muzeyda mumi-trollar hayotidan olingan qirqqa yaqin ertak maketlari ishlangan.

Buyuk Britaniyadagi Bolalik muzeyi. Bu yerdagi eng qadimiy o'yinchoq uch ming yillik tarixga ega. Umuman olganda, Londondagi Bolalik muzeyi 20 mingga yaqin buyumlarni umumlashtirgan bo'lib, shu kolleksiya asosida "bolalik" tushunchasi to'liq o'z ifodasini topgan. Ular orasida chinni, yog'och, plastik va mumdan ishlangan qo'g'irchoqlar, turli rang hamda hajmdagi o'yinchoqlar, harbiy askarlar to'plami, o'nga yaqin qo'g'irchoq uychalari, temir yo'l maketlari, bolalar mebellari, maktab buyumlari, bolalar kiyimlari, turli stol o'yinlari majmualari mavjud.

Besh yoshgacha bo'lgan bolalar bo'limi maxsus xonachadan iborat bo'lib, bu yerda bolalar Teddi yumshoq ayiqchasi bilan do'st tutingan holda, yayrab dam olishlari mumkin. Katta yoshdagagi bolalar esa qo'g'irchoqlar yasash yoki biriktirilgan

tarbiyachi boshchiligidagi futbolkalarni maxsus texnika yordamida bezash imkoniga egalar.

AQShdagi Strong Milliy o‘yinlar muzeyi. Rochesterdagi Strong bolalar muzeyi – Amerika tarixi uchun ahamiyatli bo‘lgan milliy o‘yinlar va o‘yinchoqlarning tarixini tadqiq etishga bag‘ishlangan jahondagi yagona muzey sanaladi. Muzeyning 500 mingdan ortiq eksponatlari orasida dunyodagi eng katta qo‘g‘irchoqlar va o‘yinchoqlar kolleksiyasi mavjud. Muzeyga tashrif buyurgan ota-onalar ham ekspozitsiyalarning turfa xilligini kuzatgan holda, bolalik onlarida orzu qilgan o‘yinchoqlari haqidagi xotiralariga berilishi mumkin. O‘yinchoqlardan tashqari, muzeyda rolikli va stol o‘yinlari mavjud bo‘lib, ularni o‘ynash qoidalarini shu yerning o‘zida o‘rganish mumkin.

Muzey video o‘ynlarga bag‘ishlangan ekspozitsiyalari bilan ham mashhurlikka erishdi. Ushbu to‘plamdagagi “Elektron o‘yinlar tarixi” kolleksiyasi 15 mingga yaqin kompyuter va konsol o‘yinlarni umumlashtirgan, unga eski avtomat o‘yin jihozlari ham kiritilgan. Shunday qilib, muzey hozirda elektron o‘yinlar dasturi bo‘yicha loyihalar ustida ish olib borgan birinchi Bolalar muzeyi sifatida tanilmoqda.

Xitoydagi Pekin Bolalar muzeyi. Ushbu muzey asosan 8 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan. Muzey binosiga kirish bilan bolalar “Sehrli loviya uychasi” maketiga to‘qnash keladilar. Bu uycha ularni sirli qasr tomon yetaklaydi. Qasrda qanday mashg‘ulot bilan shug‘ullanishni hamma o‘zi hal etadi: kimdir arqonlardan to‘qilgan ko‘prikda sayr qilishi, boshqasi olmaxon bilan turli g‘ildiraklarda uchishi, yana biri deraza tuynuklaridan arqon bilan sakrashi mumkin. Haftada bir marotaba – seshanba kunlari qasrda qo‘g‘irchoq teatrлari spektakllari ko‘rsatiladi.

Suv olami dunyosi bo‘limida kichkintoylar cho‘milishlari, suzishni o‘rganishlari, qayiqda suzishlari, shuningdek, suvgaga chidamlı maxsus qog‘ozlarga rasm chizishlari ham mumkin.

Suv havzasi atrofidagi qumlikda bolalar o‘z xayollari asosida shahar va uylar qurishlari uchun shart-sharoitlar yaratilgan.

Avstriyadagi Vena shahri Zoom muzeyi. Katta interaktiv Zoom – Yevropadagi eng yaxshi bolalar muzeyi hisoblanib, Vena shahri markazida joylashgan. Muzey bir qancha bo‘limlarga ajratilgan: ZOOM Okean – 6 yoshgacha bo‘lgan kichkintoylar uchun, 3 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarga – ZOOM Studio, ZOOM Exhibition – turli yoshdagi, ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi bolalarga, ZOOM Animated Film Studio – maktab bolalariga mo‘ljallangan. Kichkintoylar bo‘limida attraksionlar, oynavand tunnellar, suvli matraslar, turli bino maketlari qurilgan.

Studiya – maxsus ustaxona sanalib, u yerda bolalar barcha narsalarni bo‘yoqlar bilan bo‘yashlari mumkin. Ustaxonada faoliyat olib borish uchun bolalarga maxsus kiyimlar, rezina etikklar taqdim etiladi. U yerda bolalar, hatto o‘z loyihalari asosida qurilish xomashyolaridan binolarni barpo etishlari mumkin.

Xolon (Isroil)dagi bolalar muzeyida tashrif buyuruvchi har bir ashyoni ushlab ko‘rishi mumkin. Ekskursovodning hikoyasi davomida jajji tashrif buyuruvchi o‘zini qahramondek his etadi. “Zulmatdagi muloqot” nomli pavilonda bolalar ko‘zi ojiz inson ortidan yurishadi hamda turli ovoz va hidrlarni bir-biridan farqlashni o‘rganishadi.

O‘zbekiston muzeylarida muzey pedagogikasini joriy etish amaliyoti. O‘zbekistonda birinchi bolalar muzeyi *O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi* qoshida muzey pedagogikasining amaldagi tatbig‘i sifatida 1971-yilda tashkil etildi. Hozirda ham faoliyat yuritayotgan mazkur muzey 4 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan.

Bolalar muzeyi tarixga oid bilimlarni rivojlantirish bilan bir qatorda noan’anaviy dasturlar, mahorat darslari va ko‘rgazmalar orqali ularning qiziqishlari, imkoniyatlarini yuzaga chiqa-

radi. Bolalarda arxeolog, numizmat, etnograf, tarixchi, muzeyshunos, san'atshunos, restavrator kabi kasblarga nisbatan qiziqish uyg'otish orqali ularda keljakda kasb tanlash imkoniyatlari kengayadi.

Muzey “Qadimgi insonlar manzilgohlari”, “Yosh arxeologlar”, “Yozuv va pul muomalasi tarixi”, “Yosh kulol”, “Milliy liboslar”, “O‘zbekiston ne’matlari” bo‘limlaridan iborat.

“Yosh arxeologlar” bo‘limida bolalar arxeologiyaga oid materiallarni ko‘rishlari mumkin. Bu bo‘limda bolalar tarixning qadimgi davrlariga sayohat qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, ashyolarni qidirishadi hamda ular tegishli bo‘lgan davrni aniqlashadi. Shu tariqa eng qadimgi mehnat qurollari va dastlabki manzilgohlarni o‘rganishadi. Shuningdek, arxeologik qazishmalar, xususan, Kampirtepa qazishmasi bilan tanishish, arxeoglarning ish jarayoni, topgan ashyolarini o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Bolalar muzeyining “Yosh arxeologlar” bo‘limining mashg‘ulotlari muzeyning arxeolog mutaxassislari va ko‘rgazma materiallarini jalb qilgan holda olib boriladi. Turli mavzuda amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va ta’mirlash bo‘yicha mahorat darslari ham tashkil etiladi.

“Yozuv va pul muomalasi tarixi” bo‘limida dastlabki tangalarning paydo bo‘lishi, qadimgi O‘zbekiston hududida birinchi mahalliy tangalar miloddan avvalgi IV–III asrlarda Sug‘d, Yunon-Baqtriya, keyinroq Xorazmda, IV–III asrlarda esa Choch, Ustrushana, Farg‘ona quyi viloyatlarida zarb qilina boshlangani haqidagi qiziqarli ma'lumotlar taqdim etiladi. Bundan tashqari, bolalar uchun maxsus joyda tangalarni topish, ularning davrini aniqlash va kim tomonidan zarb qilinganini bilish imkoniyatlari beriladi.

Muzeysda oromiy yozuvida saqlanib qolgan dunyodagi qadimgi kutubxonalardan birida loy taxtachaga yozilgan quyidagi matnni ko‘rish mumkin: **“Kimki o‘qish va yozishda alohida iqtidori bilan ajralib tursa, u quyoshdek porlaydi”**.

Bundan uch ming yil avval ham husnixat bilan yozish san'ati juda qadrlangan. Harfli yozuvlarning paydo bo'lish markazlari – Sharqiy O'rtayer dengizi atrofidagi davlatlar, Misr, Xitoy hisoblanadi. Bu markazlardan keyinchalik hozirgi Markaziy Osiyo va boshqa makonlardagi yozuvlar shakllanib rivojlandi. O'zbekistonda ming yilliklar davomida oromiy, yunon, sug'd, arab va boshqa yozuvlar shakllanib rivojlandi. Bu bo'limda bolalar oromiy, sug'd, yunon, arab kabi qadimiy yozuv turlari bilan tanishishlari va o'zлari ham ushbu yozuvlarda yozib ko'rishlari mumkin.

Muzeyda taxminan 300 mingta eksponatlar O'zbekiston xalqlarining ko'p asrlik tarixini o'zida aks ettiradi. Ularning orasida kulolchilik buyumlari muhim ahamiyatga ega. Muzeyda, shuningdek, hunarmandchilik mahsulotlarining uskunallari saqlanmoqda. Bularning barchasi "Yosh kulol" bo'limidan o'rin olgan. Bu bo'limda bolalar mahorat darslarida qatnashishi, o'z qo'llari bilan tarixiy ashyolarga o'xshash kulolchilik buyumlarini yasashi va ijodiy ishlarining ko'rgazmalarini tashkil etishi mumkin.

"Milliy liboslar" bo'limida bolalar O'zbekiston Respublikasining viloyatlaridagi milliy liboslarning turlari bilan tanishadilar. Xususan, Qoraqalpog'iston, Toshkent, Samarcand, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo kabi hududlarning milliy liboslarning bir-biridan farqi va mahalliy xususiyatlarini o'rganish, yangi ko'rinishdagi liboslar dizaynnini yaratish, matoga gul bosish, tabiiy ranglarni olish usullari kabi yo'nalishlarda mahorat darslarida ishtirok etish imkoniga ega bo'lishadi.

"O'zbekiston ne'matlari" bo'limi. Bu bo'limda bolalarga O'zbekistonda yetishtiriladigan boy nozu ne'matlar shu jumladan, O'zbekistonning qadimiy bog'lari va mevalari, ularning karvon savdo yo'llari orqali turli mamlakatlarga olib borilgani hamda butun dunyoda mashhur bo'lgani haqida qimmatli

ma'lumotlar beriladi. Kichkintoy tashrif buyuruvchilar kitoblar, filmlar, mahorat darslari orqali O'zbekistonning tabiatini, qishloq xo'jaligi, bog'lari haqida to'liq tasavvurga ega bo'ladilar.

Bolalar muzeyining asosiy xodimlarini tajribali psixologlar, pedagoglar va ilmiy xodimlar tashkil etadi. Bolalar bilan ishlash uchun oliy ta'lim muassasalari talabalari, kollej va litsey o'quvchilari ham jalb etiladi. Muzey o'z faoliyati davomida bolalarning taklif va talablariga binoan yangi bo'limlar, ko'rgazmalar, treninglar, davra suhbatlarini tashkil etib kelmoqda.

Hozirda bolalar uchun maxsus bo'limlar nafaqat O'zbekiston tarixi Davlat muzeyida, balki Savitskiy nomidagi san'at muzeyi va boshqa muzeylar qoshida ham yo'lga qo'yilmoqda. Bunday muzeylarning mamlakatimiz muzeylari qoshida tashkil etilishi, yosh avlodni muzeylar orqali ma'naviy va madaniy ruhda tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, O'zbekistonda bolalarning muzeyga borishini qo'llab-quvvatlash maqsadida, qonunchilikda, alohida imtiyozlar belgilanganligi ham bolalar muzeyini rivojlantirishga muhim omil bo'ladı.

Savol va topshiriqlar

1. Muzey pedagogikasi nimani anglatadi?
2. Muzey pedagogikasiga berilgan ta'riflarni izohlang.
3. Jahondagi eng mashhur bolalar muzeyi qaysi mamlakatlarda joylashgan?
4. Bolalar muzeyining boshqa muzeylardan farqi nima?
5. O'zbekistonda muzey pedagogikasi amaliyotga qanday tatbiq etilgan?

Manbalar va adabiyotlar

1. Гильмутдинова Г.М. Детский музей как фактор формирования исторического мышления детей в контексте современных проблем музейной педагогики (зарубежный и отечественный

- опыт)// Сайт Института истории им. Ш. Марджани АН РТ – См. <http://www.tataroved.ru/institut/center/publ/7/>.
2. *Ismoilova J.X. Zamonaliv muzeishunoslik asoslari.* – Т., 2016.
 3. Панкратова Т.Н., Чумалова Т.В. Занятия и сценарии с элементами музейной педагогики для младших школьников: Первые шаги в мире культуры. – М., 2002.
 4. Соколова Н.Д. Ты пришел в музей. Путеводитель по Русскому музею для младших школьников. – Самара, 2003.
 5. Столяров Б.А. Музейная педагогика. История, теория, практика: Учеб. пособие. – М., 2004.
 6. Столяров Б.А., Соколова Н.Д., Алексеева Н.А. Основы экскурсионного дела: Учеб. пособие для студентов педагогических вузов. – СПб., 2002.
 7. Школьный музей на рубеже веков: Методические рекомендации. – М., 2001.
 8. Юхневич М.Ю. Образовательные музеи (педагогический, школьный, детский). – М., 2007.

6-MAVZU. MUZEY MENEJMENTI VA MARKETINGI

REJA

1. Muzeylarni boshqarishda marketingning ahamiyati (marketing yondashuvi).
2. Marketing yondashuvida tashrif buyuruvchilar.
3. Muzey menejmenti va sheriklik konsepsiysi.
4. Pablik Rileyshnz va reklama.
5. Muzeylar faoliyatida zamonaviy axborot va multimedia texnologiyalarining o'rni.

Muzeylarni boshqarishda marketingning ahamiyati (marketing yondashuvi). Hozirgi globallashuv jarayoni iqtisodiy va ijtimoiy hayotning tez o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Bu esa, o'z navbatida, aholining ehtiyojlari tarkibida o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Shu bilan bir vaqtida rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda bozor tovarlarning, ya'ni taklifning ko'pligi bilan ajralib turadi. Bunday global raqobatli bozorda yashab qolish iste'molchilarning tanloviga bog'liq. Bu holat nafaqat ishlab chiqarish, real savdo yoki xizmatlar bozoriga oid, balki madaniyat va ma'rifat sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarga ham tegishlidir.

Muzeylar bu jarayonda nafaqat o'zaro, balki boshqa turdag'i tashkilotlar bilan ham raqobatga kirishishga majbur. Muzeylarning jamiyatdagi o'rni o'zgarishi tufayli bu muammo yana-da keskin tus olmoqda. Bir tarafdan, ular mustaqil jamoat institutiga aylandi. Ikkinchisi tomondan esa, ularni davlat tomonidan moliyalashtirilishi qisqarmoqda va mexanizmi o'zgarmoqda. Natijada, muzeylar jahon iqtisodiga integratsiyalashishga majbur bo'lmoqda. Shu bilan birga, ularning faoliyati samaradorligini nazorat qilish kuchaymoqda. Bu esa, muzeylardan o'z

faoliyatlari strategiyasini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozzo etmoqda. Zero, globallashuv davrigacha muzeylarning asosiy vazifalari madaniy merosni asrash bilan cheklangan edi. Muzeylar jamiyatdagi asosiy iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan juda ham uzviy bog‘liq bo‘lmagan o‘ziga xos tashkilotlar edi. XXI asr bo‘sag‘asida esa ular jamiyatdagi jarayonlarning faol sohasiga aylanishdi. Ularning ta’lim beruvchi va ko‘ngilochar muassasa sifatidagi ahamiyati oshdi.

Hozirda muzeylar tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun quyidagi omillarga e’tibor qaratishmoqda:

- muzey binosi va uning atrofi ko‘rkamligi;
- noqulay ob-havodan himoyalanish mumkinligi;
- biror-bir narsani bilish va o‘z bilimini oshirish imkonining mavjudligi;
- vaqt ni maroqli o‘tkazish ehtiyoji;
- ovqatlanish sharoiti;
- bolalar uchun qiziqarliroq narsalarni topish ehtiyoji.

Tashrif buyuruvchilarning mazkur ehtiyojlarini qondirish uchun zamonaviy muzeylar *konsepsiya asosida o‘zining bozor siyosatini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishi* zarurat hisoblanadi.

Muzeylarning mavjudligi hamda ularning turli-tumanligi muhim madaniy va iqtisodiy faktidir. G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida muzey sohasi iqtisodiyotning muhim sektoriga aylanmoqda. Misol uchun har yili Luvrga 7 million kishi tashrif buyuradi, shulardan 67 foizi xorijliklardir. Britaniyaning 1848 ta muzeyi mamlakatga xorijiy sayyoohlarni jalb etish orqali yiliga o‘rtacha 350 million funt sterling daromad olmoqda.

Madaniyat muassasalarida tovar sifatida, ularning vazifalaridan kelib chiquvchi mahsulotlar, xizmatlar ishlab chiqariladi va taklif etiladi. Muzeylarning noshirlik va ko‘rgazmalar o‘tkazish faoliyati ularning mahsulotlari hisoblanadi. Shuning-


dek, kolleksiyalarning namoyish qilish va talqin etish, ma'rifiy (ta'lim beruvchi) ishlar – ekskursiyalar, ma'ruzalar, bolalar hamda o'smirlar studiyalari, seminarlar, konferensiylar kabilar ham bevosita muzeylarning mahsulotidir. Qolaversa, zamonaviy muzeylarda qo'shimcha mahsulotlarning ahamiyati salmoqlidir. Ular sirasiga axborot ta'minoti xizmati, kafe yoki bufetlar, muzey do'konlari, tashrif buyuruvchilar uchun ochilgan maxsus ustaxonalar va turli tadbirlar – qabullar, uchrashuvlar, konsertlar, spektakllarni kiritish mumkin. Demak, aynan shular tashrif buyuruvchilarda muzey haqidagi taassurotni yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan muzey marketingiga muzeylar vazifasini amalga oshirishda aholining turli qatlamlarining ehtiyojlarini aniqlovchi, oldindan ko'ra biluvchi va qondiruvchi jarayon, deb baho berish mumkin.

Bu jarayonda ikkita muhim omilni ta'kidlash kerak. Birinchidan, *muzey marketingining samaradorligi* tijorat tashkilotlaridagi singari moliyaviy foyda emas, balki muzeyning vazifasidan kelib chiqib aniqlanadi. Uning imkoniyatlari ko'pligi yoki cheklanganligiga, demakki, muzey ixtiyoridagi vositalarga (kolleksiya, xodimlar, bino, moliya mablag'lari) bog'liqdir.

Ikkinchidan, zamonaviy muzey vazifalarining tarkibiy qismi *tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini o'zgartirishdan iboratdir*. Ushbu vazifa davlat, jamiyatdagi manfaatdor shaxslar guruhi yoki muzeyning o'zi tomonidan ham ilgari surilishi mumkin. Tabiiyki, ***muzey xizmatlariga*** to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan ***talab*** endilikda nafaqat tashrif buyuruvchilar, balki davlat, homiylar, manfaatdor shaxslar guruhlari tomonidan shakllantirilmoqda.

Umuman, muzeylar davlat yoki mahalliy hokimiyat hisobidan moliyalashtiriladi. Hozirda chet el davlatlarida bu jarayon yuqori raqobatli tanlov asosida amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bu jarayonga turli homiylarning mablag'lari ham jalb etil-


gan. Bunda investorlar (davlat, mahalliy hokimiyat yoki homiyalar) ushbu muzeylarning faoliyati ustidan moliyaviy nazorat o'rnatishadi. Aynan bu jarayonda bozor mexanizmining ishlashini ko'rish mumkin.



Agar muzeylar tijorat tashkilotlari sifatida faoliyat yuritgalarida edi, ularning iste'molchilar bilan bo'lган munosabatlari ni quyidagi formula orqali izohlash mumkin bo'lar edi:

$$\text{muzey mahsuloti} = \text{iste'molchilar pullari}$$

Bunday holda muzey faqatgina tashrif buyuruvchilardan olinadigan mablag'lar hisobiga faoliyat yuritishga majbur bo'lar edi. Amalda bunday vaziyat juda ham kam. Odatda, muzeylar mablag'ni manfaatdor tomondan olishadi va bunda moliyaviy jarayonning ikki emas uch ishtirokchilari mavjud bo'ladi.



Demak, uchta ishtirokchi: "*homiy* (davlat, nodavlat tashkilotlari yoki alohida shaxslar) – *muzey* – *tashrif buyuruvchi*"

mavjud bo‘lib, bunda davlat yoki mahalliy hokimiyatning investor bo‘lishi har tomonlama ma’quldek ko‘rinadi.

Bu jarayonda pul tushumlari va xarajatlarining nisbati quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

muzey mahsuloti = homiy mablag‘lari (pullar 1) + muzey mahsulotiga tashrif buyuruvchilar tomonidan to‘langan haq (pullar 2)

Bunda homiy tomonidan qancha mablag‘ ko‘p sarf qilinsa, muzey tomonidan tashrif buyuruvchilarga shuncha ko‘p imtiyozlar berish imkoniyati yuzaga keladi. Bu holatning o‘ziga xosligi ishtirokchilar o‘rtasida nomoddiy bog‘liqlik bo‘lib, ular o‘rtasida moliyaviy munosabatlarni tenglashtirib turadi. Muzey homiyning imijini shakllanishiga ko‘maklashadi. Tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini kerakli yo‘nalishga o‘zgartirish imkonи bu jarayonda tadbirdor sifatida namoyon bo‘luvchi homiylar uchun ma’qul bo‘lgan bozorni yuzaga keltiradi. O‘z navbatida, muzey mahsulotini sotib oluvchilarning mablag‘larini sarflamagan holda, homiylarning mablag‘lari hisobiga o‘z vazifalarini bajarish imkoniga ega bo‘ladi.

Muzey faoliyatida marketing siyosati shakllanishining “*ehtiyoj–tovar–bozor–savdo*” sxemasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki aynan ehtiyojdan savdo tomon yurish tashrif buyuruvchilarni yana bir bor muzeyga olib kelishi va u o‘z missiyasini amalgalashishiga qulay sharoit yaratishi mumkin.

Marketing yondashuvida tashrif buyuruvchilar. Muzeylar dam olish hamda ilmiy maqsadda muzeyga tashrif buyuruvchilar, chunonchi, mahalliy va xorijiy sayyoohlar, mutaxassislarining qiziqishlarini inobatga olishlari shart. Xorijiy mamlakatlarda bu muassasalar o‘zaro raqobat natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishganlarini ta’kidlash joiz. Chunonchi, so‘nggi yillarda muzeylarga Buyuk Britaniyaning 43 foiz aholisi tashrif buyurdi.

Bu muvaffaqiyatga erishish tovar va bozor strategiyalari ning o‘zgarishi bilan bog‘liq tarzda sodir bo‘ldi. So‘nggi yil-

larda muzeylar o‘zining rivojlanish konsepsiyasini qaytadan ko‘rib chiqib, unga muvofiq doimiy ekspozitsiyalarni o‘zgartira boshladilar. Kolleksiyalarning salmoqli qismi doimiy ekspozitsiyalardan zaxiraviy qismga ko‘chiriladi, asosiy e’tibor eksponatlarni interaktiv tartibda foydalanishga mo‘ljallangan ko‘rgazmaga qaratiladi.

Muzeyda muvaffaqiyat mezoni ham kolleksiyaning jamoat tomonidan baholanishidir. Muzey mahsulotidan foydalanishning noyobligi shundaki, tashrif buyuruvchi bu jarayonning ko‘pgina jihatini nazorat qiladi: nimani va qancha vaqt tomosha qilish yoki eshitish, ekskursiya rahbarini tinglash yoki yorliqlarni o‘qishning barchasini u o‘zi tanlaydi.

Tashrif buyuruvchilar uchun qo‘srimcha pullik xizmatlar (ekskursiyalar, filmlar namoyishi, konsertlar, ma’ruzalar, ustاخоналар ва h.k.) tashkil etiladi. Muzey pedagogik, ma’rifiy faoliyat, shuningdek, tashrif buyuruvchilar uchun ko‘p hollarda foydalanish huquqi beriladigan kutubxona xizmati bilan ta’minlanadi.

Kuzatuvchilik konsepsiyasidan ishtirok etuvchilik konsepsiyasiga o‘tish muzeylar muvaffaqiyatining muhim asoslaridan biri bo‘ldi. Masalan, Shveysariyada Nevshatel ko‘li qirg‘og‘ida 2001-yili “Latenium” nomli qadimgi kelt manzilgohi o‘rnida arxeologik bog‘ va muzey ochildi. Muzey tashrif buyuruvchilarga (topilmalarning sanasini aniqlash, ularni konservatsiya va restavratsiya qilish kabi) tadqiqot usullari bilan tajriba o‘tkazish imkoniyatini berdi. U yerda maktab o‘quvchilari uchun Rim tarixi, biologiya, arxeologiya va boshqa fanlar bo‘yicha darslar taklif etiladi. Bog‘da ibridoiy davrga oid ovchilar manzilgohi, bronza davri uyi, temir davri qabri rekonstruksiya qilingan, Gallo-Rim nusxadagi kema suvgaga tushirilgan va boshqa.

Ko‘pchilik muzeylar maktab o‘quvchilarini muzeyning asosiy iste’molchi guruhlaridan biri sifatida ko‘radi. Bu fao-

liyat yo‘nalishi nafaqat bugungi kun uchun muhim, balki kela-jak uchun ham poydevor sanaladi. Yoshligida muzeyga borgan kishi ulg‘aygach, bu yerga yana keladi, keyinchalik o‘zining farzandlarini ham olib keladi. Bu faoliyat yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyati – majburiy mакtab dasturiga xizmat ko‘rsatishida (tarix, geografiya va boshqa darslar); bolalar ko‘rgan eksponatlari bo‘yicha o‘zlari mustaqil ravishda qo‘s Shimcha ma’lumotlar olishi mumkin bo‘lgan “ishchi” burchaklarni yaratilishida hamda ko‘rsatilgan ashyolar bilan muomala qilish ko‘nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzeylarning bolalar bilan ishlashining salmoqli qismini ularda multmadaniyatli jamiyatda yashash qobiliyatini tarbiyalash egallaydi. Boshqa tarafdan, oilaviy qadriyatlar, “kichik Vatan”ga qiziqish uyg‘onish tendensiyasi ham e’tibordan chetda qolmaydi. Chunonchi, so‘nggi vaqtarda, aksariyat davlatlarda muzeylar aholining shaxsiy, oilaviy va guruhga oid tarixga bo‘lgan talablarini qondirish maqsadida fondlarini foydalanishga bergen holda, o‘z tashrif buyuruvchilarining tarixini qayd etishmoqda. Bu faoliyat yo‘nalishi, ayniqsa, mahalliy muzeylarga xosdir.

Xorijiy sayyoohlarni jalb etishda maxsus marshrutni ishlab chiqish talab etiladi: standart o‘tish joyi, chet tilida yoki pikto-grammada yozilgan jadval hamda yorliqchalar, audiogidlar, axborot budkalari va boshqalar.

Ta’kidlash kerakki, muzeylar tashrif buyuruvchilar ortidan ergashadi, degan noo‘rin xulosaga kelib bo‘lmaydi. Sababi, muzey yaratilayotgan ekspozitsiya konsepsiysi va dizaynni ishlab, potensial muzey bozoriga olib chiqadi hamda dastlabki, qisman, ko‘rgazmali variantlami tashrif buyuruvchilarda sinab ko‘radi.

Ishga umumiyl baho berish maqsadida ekspozitsiya ochilishidan so‘ng tashrif buyuruvchidagi o‘zgarish o‘rganiladi va

tahlil qilinadi. Bu kuzatish, suhbat qilish, anketa va test o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

2012-yilning yozida Angliyaning shimoli-sharqida 81 ta muzey tomonidan muzeyning ijobiy obrazini yaratish bo'yicha marketing kampaniyasi o'tkazildi. Uncha katta bo'lмаган min-taqaviy tarixiy-o'lkashunoslik muzeylarining imkoniyatlari ha-qida keng ommani xabardor qilish va birgalikda tomoshabin-larni jalb qilish vazifasi qo'yildi. Dastavval, kampaniya doira-sida quyidagi guruhlar bo'yicha maqsadli auditoriyalar aniqlan-di va so'rov o'tkazildi: oila; muzeylarga tez-tez tashrif buyuruv-chi manfaatdor katta yoshli kishilar; madaniyat masalalariga qiziqadigan, ammo muzeylarga kam tashrif buyuradigan kishi-lar; shuningdek, madaniy takliflarning boshqa sohalariga qizi-qadigan 25–34 yoshdagи kishilar. O'tkazilgan so'rov tahlil qilib chiqilgandan keyin, quyidagi reklama so'zлari yozilgan veb-sayt tayyorlandi: "*Men muzeyni shuning uchun sevamanki, chunki u...* ". Eng yaxshi shior yaratish bo'yicha tanlov e'lon qilindi.

Bevosita maktab o'quvchilarining ta'til kunlariga bag'ishlab ikki oy mobaynida o'tkazilgan marketing kampaniyasi davrida veb-saytga kiruvchilar soni 32 ming kishidan oshdi. 148 mingta taklif kelib tushdi. Mana shiorlardan ayrim misollar:

*Men muzeyni shuning uchun sevamanki, chunki u
– men fikrlashim mumkin bo'lgan joydir;
– men o'zimni boladek his qiladigan maskan;
– men ilhom manbayi topa oladigan joydir.*

Umuman, tashrif buyuruvchilar bilan muloqot shakllari orqali muzey xodimlari, ularning muzeydagi kolleksiyalar hamda kataloglarning taqdim etilishiga, muzeyning ilmiy va ma'rifiy ishlariga oid fikrlarini aniqlashtirishlari mumkin. Tash-rif buyuruvchilarning istaklarini tezkorlik bilan inobatga olish muzey ishini yangilashga imkon beradi, binobarin, bundan har ikki tomon ham yutadi – go'yoki butunlay yangi va kutilmagan narsa taqdim etiladi.

Demak, muzeyda yaratilayotgan muhit ulkan ahamiyatga egadir. Tashrif buyuruvchi o‘zini ardoqli mehmon sifatida his qilishi juda muhimdir.

Ma’lum ma’noda, muzey makonni sotadi, chunki muzey makoni buyumlarga mazmun va qiymat ato etuvchi xususiyatga ega. Bundan tashqari, u quyidagilarni taklif etadi:

- ekspozitsiyalar va ko‘rgazmalar;
- dasturlar – masalan, ekskursiyalar sikli, ma’ruzalar hamda to‘garaklar, studiyalar va boshqa;
- maxsus tadbirlar yoki hodisalar;
- assortimentlar (jamoasi va infratuzilmasi imkoniyatlari dan kelib chiqib belgilanadigan xizmatlar);
- suvenirlar (sifatli va tasodifyi bo‘lmagan mahsulotlar: muzeyning firma markasi yoki muzeyda saqlanuvchi ashyolar ning nusxasi. Ashyo nusxasi aslidan olinganligi borasida sertifikat bilan ta’milanishi kerak);
- kitoblar, kataloglar, bukletlar va boshqa poligrafik mahsulotlar (bevosita muzey mavzuyi yoki yaqin mavzular bo‘yicha) hamda videofilmlar, slaydlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlangan elektron nashrlar;
- amaliy ishlar uchun materiallar, hunarmandchilik buyumlari.

Narx marketing faoliyatining ayniqsa nozik va ahamiyatga ega masalasi hisoblanadi. Kirish baholarining keskin oshishi, to‘lashga qodir tomoshabinga nisbatan samarali bo‘lishi, ammo imkoniyati yo‘qlarni cho‘chitib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun, muzey kirish chiptalariga yuqori narxni belgilashni differensial amalga oshirishi, ya’ni tashrif buyuruvchilarning ayrim toifasi uchun imtiyozlar berish, kirish bepul kunlarni e’lon qilish, doimiy tashrif buyuruvchilar uchun qimmat bo‘lmagan yillik chiptalar sotishni nazarda tutishi kerak.

Demak, muzey xizmatlarini taqdim etishda tashrif buyuruvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashni nazarda

tutadigan moslashuvchan narx siyosati olib boriladi.

Muzeyda menejment va sheriklik konsepsiysi. Muzeyda menejment o‘ziga xos tarzda shakllangan bo‘lib, nazariy va amaliy masalalarini qamrab oladi. Muzey menejmentidagi yetakchi mutaxassislardan biri Rojer Mayls fikriga ko‘ra, bu soha uchta asosda o‘rganiladi:

- aniq reja va ish tartibi asosida auditoriya diqqatini jalg etish;
- muzey intilayotgan maqsadlar va vazifalar loyihasini ishlab chiqish;
- loyiha doirasidagi turli omillarni ilmiy o‘rganish (masalan, tomoshabinlar resursi, moliyaviy resurs, boshqarishda bilim va intellektual salohiyat).

Muzey tijorat tashkiloti hisoblanmaydi, shuning uchun unga avvalo, boshqaruv ishlaridan manfaatdor bo‘lgan hukumat va mahalliy boshqaruv organlari, muzeyga tashrif buyuruvchi ijtimoiy guruhlar, ilmiy uyushmalar, kolleksionerlar bilan o‘zaro munosabatlarni samarali tashkil etishni nazarda tutuvchi “*sheriklik*” konsepsiysi muhim sanaladi. Qator G‘arb davlatlari da bu konsepsiya, ayniqsa, muzeyning Oliy boshqaruv organi hisoblanmish *Vasiylilik kengashining* tuzilishida o‘z ifodasini topadi. Uning vakolatlari qatoriga muzey direktorini tayinlash, rivojlanish strategiyasini belgilash, budjet va nisbatan yirik bo‘lgan xarajatlarni tasdiqlash kiradi. Qolaversa, *Vasiylilik kengashining* a’zolari hukmron tuzilmalarda va moliya bozorida muzey manfaatlarini ilgari surishda muhim rol o‘ynaydi. Bu vazifalar, umuman olganda, aksiyadorlar jamiyatni kuzatuv kengashining funksiyalariga o‘xshash. Ammo aytish joizki, maqsadlarning noaniqligi sababli shaxs omili bu yerda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘pgina davlatlar (chunonchi, Kanada, Avstraliya)da *Vasiylilik kengashi* a’zolarini saralash vazifasi davlat organlariga topshirilgan. AQSh an’analarda bu mas’uliyat bevosita fuqaro-

lik jamiyatiga yuklangan va vasiylar mustaqil ravishda o‘z tarkibini yangi a’zolar bilan to‘ldiradilar.

Vasiylik kengashining qay tartibda tuzilishidan va uning shaxsiy tarkibidan qat’i nazar muzey top-menejmentiga, uning strategiyasini ishlab chiqishdagi roliga yetarlicha baho bermaslik mumkin emas. *Muzey menejmenti*, birinchidan, profesional nuqtayi nazarni ifodalaydi, ikkinchidan, ma’lumotlarni tayyorlaydi hamda Vasiylik kengashi ishini tashkillashtiradi. So‘nggi vaqtarda muzey ishining murakkablashuvi strategik masalada katta menejment rolining ortishiga sabab bo‘ldi va bunda uning eng samarali “quroli” *ishontirish metodi* hisoblanadi.

Vasiylik kengashi bilan harakat koordinatsiyasi uchun muzey tuzilmasida maxsus bo‘g‘in ajratiladi. Chunonchi, Metropoliten muzeyida (AQSh) bu funksiyani Vasiylik kengashi aloqalari bo‘yicha vitse-prezident bajaradi. AQSh muzeylari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, homiylarning bozorga chiqishi *fandreyzing* bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar sonining nisbatan ortishiga olib keladi. Bunda marketing obyekti tashkilot do‘satlari, homiylar, metsenatlar, fondlar hamda davlat hokimiyyati organlari hisoblanadi.

Muzeyning sheriklari bilan hamkorlik umumiylar maqsadlarga erishish uchun yangi loyihalar va qo‘srimcha moliyaviy tushumlar manbayi bo‘lishi yuzasidan rivojlantiriladi.

Turli ixtisoslikdagi muzeylar, boshqa madaniyat muassasalari, maktablar va oliy ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash, turizm, sport muassasalari, muzey bilan o‘xshash maqsadlarga ega bo‘lgan boshqa tashkilotlar, ko‘ngilli jamiyatlar muzeyning doimiy sheriklaridir.

Odatda, bu tashkilotlar muzeyning imkoniyatlarini taqdim eta olmaydi. Shu sababli muzeyning o‘zi tashabbus ko‘rsatishi, ularga hamkorlik bo‘yicha takliflar bilan chiqishi kerak. Bular ta’lim tizimi jalb qilingan ma’rifiy loyihalar; korxonalar tomo-

nidan moliyalashtiriladigan korxonalarning tarixi haqidagi ko'rgazma; turizm agentliklari uchun o'lka tarixi bo'yicha ishlamalar; teatr, kinoteatr, madaniyat uyi foyesida tashkil etiladigan ekspozitsiyalar bo'lishi mumkin. Hatto kichik muzey ham o'z xodimlari salohiyatidan va shartnomaviy subpudratlaridan foydalangan holda axborot banki, tadqiqot markazi, dizaynbyuro sifatida faoliyatini yo'lga qo'ya oladi.

O'z iste'molchilarini (tashrif buyuruvchilar, xaridorlar) va kutilayotgan sheriklarini (buyurtmachilar, homiylar) bilish – marketing strategiyalari hamda texnologiyalarini ishlab chiqish yo'liga o'tgan muzeyning ijtimoiy va iqtisodiy muvaffaqiyating o'zgarmas shartidir.

Tashkiliy sohadagi asosiy tendensiyalardan yana biri muzey faoliyatining "shaffofligi"ni ta'minlaydigan mexanizmni yaratishdir. Buning uchun, muzey tarkibidagi xodimlar haqidagi ma'lumotlar, barcha turdag'i faoliyat turlari, shu jumladan, ko'rgazmaviy siyosat, yangi ashyo va xizmatlar haqidagi axborotlarni o'z ichiga olgan yillik hisobotlar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, muzeylarning mahalliy, milliy va xalqaro darajadagi mustahkam hamkorligi tendensiyasi kuzatilmogda. Birgalikda dastur ishlab chiqadigan va kommunikatsion siyosat olib boradigan turli darajadagi muzey assotsiatsiyalari tashkil etilmoqda.

Misol tariqasida, Yevropada keng tarqalayotgan *muzey passportlari tizimini* keltirish mumkin. Bunda muzey xizmatlari ni kompleks tarzda olish imkoniyati vujudga kelib, mahalliy muzey pasporti ko'p hollarda xorij mamlakatlarida ham muomalada bo'ladi. Xususan, Freyn muzey pasporti va Yevromintaqa muzey saroylari pasporti ushbu muzeylarga bepul tashrif buyurish imkoniyatini beradi.

Birlashib o'tkaziladigan tadbirlarga, eng avvalo, ko'rgazmalarga alohida e'tibor qaratiladi. Bu siyosat qo'shni davlatlar: Germaniya, Fransiya, Shveysariyada istiqomat qiluvchi-

lar uchun transport imtiyozlari bilan mustahkamlanadi. Bu kabi sxemalar transchegaraviy tumanlarda keng ommalashmoqda (Shveysariya–Italiya–Avstriya kabi).

Bu tendensiyaning yana bir jihat – muzey tarmog‘ining rivojlanishi, taniqli marshrutlarga unchalik mashhur bo‘limgan va uzoqda joylashgan muzeylarning qo‘silishi sanaladi. Muzey birlashmalari doirasidagi muzeylar kooperatsiyasi strategik, shu jumladan, xalqaro doiradagi ittifoqlarning yaratilishiga zammin bo‘lmoqda. Kolleksiyalarining o‘zaro to‘ldiruvchanligi tamoyillariga asoslangan holda, Davlat Ermitaji, Guggenxayma muzeyi, Vena san’at tarixi muzeyi birgalikda faol ish olib bormoqda.

Xorijda “muzey ustaxonalari”ni (*Workshops*) tashkil etiliishi keng qo‘llanilmoqda, bunda ishlab chiqarish jarayonini bevosita kuzatish va hatto unda ishtirok etish mumkin. Muzeylash-tirilgan texnologiyalarga qiziqish homiylar va muzeylar manfaatlarini bog‘lash ehtimolini yuzaga keltirdi. Endilikda yirik ko‘rgazmada taqdim etilgan tovarlarning do‘konlarda sotilishi oddiy hol bo‘lib qoldi.

Texnologik merosning targ‘ib etilishi deyarli yangi hodisa. Bu holda, muzey zamonaviy bozorga muayyan texnik va texnologik yutuqlarni targ‘ib etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Endilikda biron-bir ashyoni emas, uni qanday yaratilganligi, ya’ni texnologik jarayoni ko‘rsatilmoqda. Natijada, muzey samaradorligi ortadi, negaki, jarayonga jalb etilgan tashrif buyuruvchi buni yaxshi tushunadi va eslab qoladi. Muzeylar ularni mablag‘ bilan ta’minlaydigan tashkilotlar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladilar. Chunonchi, so‘nggi vaqtarda, Germaniyada katta avtomobil firmalarining muzeylarini o‘sishi kuzatilmoqda. Nemis konsernlari maqsadi – muzey texnologiyalari orqali nemis ishlab chiqaruvchilarining dongdor an’analari va brendlarini iste’molchilarga eslatgan holda, yapon raqobatchilarini (birinchi o‘rinda “Toyota”ni) siqib chiqarishdir.

Umuman, amalga oshiriladigan muzey siyosati rivojlanishining yangi bosqichi, bu – hududiy komplekslarning muzeylashtirilishidir. Muzey o‘z hududini kengaytiradi va uni yagona madaniy hamda tijorat loyihasi sifatida boshqaradi. Ushbu loyi-hada muzey, me’morlik inshootlari, landshaft, ishlab chiqarish, oziq-ovqat va ko‘ngilochar industriyalar bir butunlikni tashkil etadi. Bu borada Sankt-Peterburgning markaziy hududlari ni o‘zlashtirib olayotgan Davlat Ermitaji va Rus Davlat muzeyi kabi Rossianing ilg‘or muzeylarini misol keltirish mumkin.

Pablik Rileyshnz va reklama. Pablik Rileyshnz (inglizcha *public relations* (PR) – jamoatchilik aloqalari) – muassasa-ning yanada muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash va uning nufuzini oshirish maqsadida jamoatchilik fikrini tashkil etishdir. U turli yo‘llar bilan, birinchi navbatda esa, ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. U davlat (boshqaruv), jamoat tuzilmalari (*publicity, merchandising, marketing*) va fuqarolar o‘rtasida butun jamiyat manfaatlari yo‘lidagi o‘zaro munosabatlar san’atidir. PR faoliyatini olib borishning asosiy maqsadi – tashkilotning muvaffaqiyati uchun qulay bo‘lgan tashqi va ichki ijtimoiy-ruhiy muhitni barpo etishdan iboratdir. PR faoliyati bir necha yo‘nalishlarda olib borilishi, u jamoatchilikning turli guruhlariiga (keng yoki mahalliy jamoatchilikka) yoki aniq maqsadlarga erishishga (muayyan nufuzni shakllantirish, inqirozni bartaraf etish) qaratiladi.

Matbuot, radio, kino, keyinroq televideniyening jadal rivojlanishi va tarqalishi auditoriyani jalb qilishga erishishning miqyosi hamda tezligini keskin o‘stirib yubordi. Shunga muvofiq, jamoatchilik fikrini boshqarishning korporativ vazifasi sifatida PRning maqomi mustahkamlanib bordi.

Jamoatchilikning keng guruhlari tashkilotning muhim kommunikatsiya obyektiga aylandi. Bu endilikda nafaqat iste’molchilar, balki davlat tashkilotlari, mahalliy aholi, professional uyushmalar, sheriklar, moliyaviy tuzilmaladan iboratdir.

Reklama va pablitsiti ham maqsadlari, foydalanish vazifalariga, ham o'tkazish vositalari va samaradorligiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Ko'pincha "pablitsiti" (inglizcha *publicity* – ommaviylik, oshkoraliq) atamasi "imij" bilan aynan bir xil tushuniladi. Ammo *pablitsiti* ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda, omma uchun shakllantiriladigan tashqi mashhurlikdir. Imij esa, muayyan auditoriyaga ma'lum bo'lishi va OAVlarga tor doirada tayanishi mumkin.

PR vositalari bilan pablitsitini shakllantirish yoki imijni qo'llab-quvvatlash reklamadan birmuncha farq qiladi. Reklama quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: haq to'lanish, nima, qayerda, qanday qilib, kimga va qancha tez-tez xabar qilinishi nazorat ostiga olinadi.

PR vositalari esa, press-relizarlar, maqolalar, reportajlar, matbuot konferensiyalaridir. PR vositalari reklamaga qaraganda ustunlikka ega bo'ladi: uni tayyorlash va joylashtirish uchun ancha kam xarajat ketadi, shuningdek, u ko'proq ishonchga sazovor bo'ladi, chunki ular xolisona yangiliklar sifatida qabul qilinadi.

Pablitsiti quyidagi holatlarda alohida ahamiyatga ega bo'ladi:

- nufuzni oshirish, yaxshilash. Masalan, xayriya tadbirini reklama yordamida berish xato bo'ladi, saxovatpeshalikni kundalik gazetaning yangiliklar ruknida yoritish o'rnlidir;
- yangi xizmat paydo bo'lganda (muzeysda yangi ko'rgazma, taqdimot yoki dastur) ijobiy mashhurlikni shakllantirish, PR vositasida reklamadan oldin amalga oshirilishi kerak, chunki bu hozircha yangilikdir;
- agar madaniyat xizmatlari bozorida o'tkaziladigan tadbirning muqobili bo'lsa, unga iste'molchining e'tiborini tortish qiyin kechadi. Bunda pablitsitini shakllantirish vositalari – maxsus voqealar, homiylik va noodatiy hamkorlik unga qizi-

qishni qayta uyg‘otishi mumkin;

- iste’molchilar va muzey xodimlarining muloqoti tilini sod-dalashtirishda yangi xizmat yoki tadbirni professional izohlash, bu orqali reklama erisha olmaydigan katta hajmdagi materiallar (maqola, intervyu) bilan tarix tushunarli tilda bayon qilinadi;
- budjetning cheklanganligi tufayli reklama uchun xarajatlarga mablag‘ bo‘lmasligi mumkin, ammo maqolani joylashtirish imkonи mavjud;
- inqiroz vaziyatida PR vositalari tashkilotning ijobiy mashhurligini, obro‘sini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha eng tezkor va ishonchli vosita hisoblanadi. Qiyinchiliklar bartaraf etilgandan keyingina reklama berish o‘rinlidir.

Pablitsiti – bu yangiliklarni xabar qilishdir. Hamma narsa yangilik bo‘lishi mumkin: muzeyda hayot bir joyda turib qolmaydi, har qanday o‘zgarishlar axborot tarqatish manbayidir. Faqat masala shundaki, u yoki bu axborot kimga qiziqarli bo‘lishi mumkin, qanchalik u dolzarb: ko‘pincha kim uchundir yangilik bo‘lgan narsa boshqaga yangilik emas. Axborot muzeyga nisbatan jamoatchilikning ko‘ngildagi xatti-harakatini ta’minlash uchun o‘zi haqidagi ijobiy jamoatchilik fikri ni yaratish va uni qo‘llab-quvvatlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Odatda, OAV bilan ishlash uchun quyidagilar tuziladi:

- *bekgraunderlar* – shov-shuvli bo‘lмаган kundalik voqelik haqidagi axborot, u faoliyatning yangi yo‘nalishlari, kundalik tadbirlar haqida bo‘lishi, masalan, kutilayotgan taqdimot yori tilishi mumkin. Bunday axborot yangiliklar oqimida qo‘llab-quvvatlanishi uchun muntazam jo‘natib turilishi kerak.
- *press-reliz* – keng auditoriya uchun muhim bo‘lgan yangilikni yoki foydali ma’lumotni aks ettiruvchi axborot xati. Masalan, maxsus seminarlar o‘tkazish to‘g‘risida bo‘lishi mumkin.
- *mediakit* – fotosuratlar ilova qilingan bir necha xil materiallarni mujassamlashtiruvchi media yoki press-paket.

- shuningdek, qiziqarli va sharhli *maqolalar, fakt-varaqalar, bayonotlar*.

Har qanday xabar, u eng kichik bo‘lsa ham, o‘zida dinamizm va informativlikni tashishi kerak. Shunda muzey uchun muayyan darajada pablitsiti ta’milnadi.

Muzey Internetda o‘z veb-sahifasiga ega bo‘lishi, uni davriy ravishda yangilab borishi kerak. Bunday sahifaga ega bo‘lgan muzey auditoriyasini faoliyatning joriy va istiqbolli yo‘nalishlari haqida xabardor qilishi, bo‘lajak tadbirlar anonsini berishi mumkin.

Axborot varaqalarining obunachilar bo‘lmish ko‘p ming sonli jamoatchilikni (jumladan, professional doira, xalqaro jamoatchilikni) xabardor qilish, g‘oyalar va manfaatlarni ilgari surish uchun Internetdan foydalanish PRni eng istiqbolli hamda qudratli vositaga aylantirdi.

Asosiysi muzey auditoriyani OAV orqali o‘ziga jalb etish va ularga muzeyga tashrif buyurish maqbulligini tazyiqsiz eslatishi kerak.

Tashrif buyuruvchilar e’tiborini jalb qilish uchun muzey yangiliklardan tashqari, maxsus voqealarni ham tashkil etishi mumkin. Maxsus voqeа muzey hamda uning atrofidagi zerikarli va ko‘nikilgan hayot maromini buzishi, jamoatchilik uchun voqeaga aylanishi kerak. Quyidagilar PR vakolatiga kiruvchi tashkil qilinuvchi maxsus voqealarga kiradi: taqdimotlar, ochilish marosimlari, ochiq eshiklar kunlari, qabul marosimlari, konfrensiyalar, davra suhbatlari. *Maxsus voqeа* – olingan taassurotlarni bevosita ifodalash, erkin fikr almashish, yangi sheriklik aloqalarini o‘rnatish, kommunikatsiya va bir vaqtning o‘zida reklama qilish imkoniyatidir.

Xususan, “Muzeylarning uzun tuni” aksiyasining o‘tkazilishi o‘ziga xos ahamiyatga ega. 2000-yilda bu aksiyani Germaniya muzeylari tashkil etdi va shu yilning o‘zidayoq Shveysariya, Fransiya muzeylari tomonidan o‘tkazildi. Keyin “Muzey-

dagi tun” madaniy aksiyasida xalqaro loyiha sifatida Yevropa va MDH davlatlarining yuzlab muzeylari ham ishtirok etish boshladi. So‘nggi yillarda Xalqaro muzeylar kuni – 18-mayda O‘zbekistonning bir qator muzeylari ham ushbu aksiyani o‘tkazmoqda.

Pablitsiti – imijni muvaffaqiyatli shakllantirish vositasi, kamolidir. Muzey uchun imij nimani anglatadi? Bu – har kunlik ish, jamoatchilik ongida aks-sado bergen noodatiy, yorqin tadbirlar, bu – OAVning axborot ta’minoti va o‘z fuqarolik nuqtayi nazari; bu – taklif qilinadigan xizmatlarning sifati yuqori demakdir. Muzey pul ifodasi dagi foydadan tashqari, muzei muhitini va uning imijini shakllantirishda ishtirok etuvchi tashrif buyuruvchilardan ma’naviy foyda ham oladi, muvaffaqiyatga erishilganda, ular muzeyning ko‘ngilli reklama agentlari, do’stlari va sheriklari bo‘lib qoladi.

Muzey imijini saqlash har qanday o‘tkinchi foydadan muhimroq vazifadir, chunki bunday imij kelajakda bundan-dakatta daromadlar keltirish garovi hisoblanadi.

Pablitsiti qancha yuqori bo‘lmisin, u sifatsiz xizmatda olingan taassurotni silliqlay olmaydi. Muzeyning ichki tuzilishi, muhiti ham muzeyning ijobiy imijini shakllantirishga ta’si ko‘rsatadi. Shu sababli, muzey eng sifatlari narsalarni taqdim etishi kerak.

Muzeyda reklama nafaqat tashrifning bevosita omili sifatida (reklamani ko‘rib, muzeyga borish), balki tashrifdan keyin taassurotlarni jamlash vositasi sifatida ham ish beradi. Muzey imiji shakllanishiga imkon beradigan reklamaning uzoq mudatli samarasini, uning o‘tkinchi natijasidan muhimroq hisoblanadi.

Reklamaga qo‘l uchida kirishib bo‘lmaydi, uni professional darajada batafsil ishlab chiqish, muzey uchun yagona stilni yaratish kerak. Hech qachon bu ishga xasislik qilmasli lozim.

Istalgan muzey mahsuloti – katalog ham, suvenir ham, muzey do‘konida xarid qilingan videofilm ham, hattoki ular tasvirlangan sellofanli paket ham reklama bo‘lishi mumkin. Muzeydan tashqariga chiqqanda ularni sotib olgan kishiga, uning muzeyga tashrif buyurganligini eslatib turadi, yo‘lda duch kelgan har bir kishiga esa, muzeyning mavjudligini bildiradi.

Muzey o‘zining potensial auditoriyasini doimo kengaytiriши mumkin, zero dunyoda bilimlarni tarqatish uchun chegaralar mavjud emas. Televide niye, video, elektron kataloglar va boshqa kommunikatsion texnologiyalar muzeyga geografik to‘siqlarni aylanib o‘tgan holda, o‘z iste’molchilarini topishga imkon beradi. Bu esa **muzeylar brendiga** to‘xtalishni taqozzo etadi.

Brend, bu – tashkilot logosi emas. Logo brendning ko‘rinadigan qismi hisoblanadi. Ammo ko‘rinadigan qism qanchalik muhim bo‘lmisin, brend ancha keng talqin qilinadi, bu, birinchi navbatda, tashkilotni odamlar tomonidan ruhan qabul qilinishdir. Tashrif buyuruvchilarning muzey bilan munosabatga kirishadigan barcha nuqtalarida (ekspozitsiya, kafe, garderob, muzeydagi do‘kon, veb-sayt, kolleksiyalar, ma’rifiy dasturlar va boshqa) muzeydagi haqiqiy ahvol bilan yuzma-yuz kelishadi hamda ularda muzey haqidagi ilk taassurotlar, qarashlar shakllanadi.

Ko‘plab muzey xodimlari bitta savol berishadi: “brend muzey tuzilmasi uchun aynan nima qilib berishi mumkin?” Bu, birinchi navbatda, albatta, qandaydir marketing vositasidir: yaxshi brend odamlarga muzey yuksak malakali tashkilot ekanligi, unga sarmoya kiritish mumkinligi (donorlar va homiylar uchun); muzeyda noyob kolleksiyalar saqlanayotganligi (toshabinlar uchun) yoki muzeyda ishlash qiziqarli ekanligi (bo‘lg‘usi xodimlar uchun) to‘g‘risida hikoya qiladi. Yaxshi brend muzeyning iqtisodiy faoliyatiga ham ijobjiy ta’sir qili-

shi, ya’ni tomoshabinlar sonini yoki muzey kataloglarini sotishni ko‘paytirishi mumkin. Boshqacha aytganda, brend muzeyni raqobatbardosh, ya’ni tomoshalar tashkil etish industriyasidagi shafqatsiz raqobatda, o‘ziga xos tajribani taklif qilishga loyiq tashkilotga aylantiradi.

Brendlar qay tarzda rivojlanadi? Uncha katta bo‘lmagan mintaqaviy muzeylarning biri misolida fikrni dalillash mumkin. Bu tomoshabinlar sonini ko‘paytirishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan Shotlandiyaning Leurik shahrida joylashgan “*Shetland orollari muzeyi*”dir (har yili 30 ming tashrif buyuruvchisiga ega). Muzey yangi bino qurilishi uchun milliy lotereyadan moliyaviy yordam oldi. Loyihachilar oldida muzey brendini yangilashni nafaqat arxipelagning besh ming yillik tarixiy ildizlariga (shahar arxipelagning bir qismi hisoblanadi), balki yangi ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarga to‘la darajada mos keltirish vazifasi turardi. Muzey orolliklar uchun faxr-iftixor maskani bo‘lishi kerak edi. Loyihachilar muzey binosi fasadidagi yengil yelkansimon konstruksiya brendning o‘ziga xos asosiy unsuri bo‘lishi mumkinligini qayd etdilar.

Keyinchalik, muzey o‘z brendini kengaytirdi va uni mintaqaning brendi (Shetland madaniy merosi) bilan birlashtirdi. Hozirda bu mintaqaning eng qiziqarli turistik yo‘nalishlardan biri sifatida hikoya qiladigan nashrlarning deyarli barchasida yelkansimon konstruksiya timsolidan foydalaniladi.

Nyu-Yorkdagi (AQSh) Zamonaviy san’at muzeyi – MoMA (Museum of Modern Art) XXI asr boshida o‘z binosini rekonstruksiyalash uchun yopildi. Muzeyni vaqtinchalik ko‘chirish zarurati tug‘iladi. Muzey xodimlari oldida muzey qiyofasini aslicha saqlash, auditoriyani yo‘qotmaslik vazifasi turardi. Quyidagi yechimga kelindi: shahar muhitida MoMA obrazini ifodalovchi grafik belgilarni – piktogrammalar to‘plamini, biroz yangi talqinda joylashtirib chiqishdi, MoMA logosiga kollek-

siya vaqtinchalik joylashtirilgan Kvins tumanini ifodalovchi harflarni qo'shishdi.

Venadagi muzeylar mavzesi (Avstriya), tarixiy va zamona-viy binolarning, muzeylar hamda galereyalarning, turli madaniyat muassasalarining o'zaro qo'shniligi, mavzening o'ziga xosligi hisoblanadi. Mutaxassislar oldida hech kimning manfaatlarini kamsitmagan holda, mavzeni birlashtiruvchi brendni yaratish vazifasi turardi. Muzey xodimlari reklama kampaniya-sini o'tkazishi, muzeylar mavzesining qiyofasini butunlay o'zgartirib yubordi, ular shahar tarixi uchun muhim bo'lgan tanish nomlar bilan bog'landi.

Angliya shimolidagi "Baltic" zamonaviy san'at markazining yaratilishi madaniyat orqali shaharni jonlantirish dasturining bir qismi bo'ldi. Brend sanoat me'morligining tuzilmaviy va funksional o'ziga xosliklari bilan birgalikda yuzaga keldi.

Brend texnologiyasi muzey hayotining ichki o'ziga xosligi va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi nozik muvozanatga rioya qilinishini ta'minlaydi.

Muzeylar faoliyatida zamonaviy axborot va multimedia texnologiyalarining o'rni. XX asr oxiri – XXI asr boshidan boshlab dunyo miqyosida zamonaviy texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, deyarli barcha sohalarni qamrab olganini kuzatish mumkin. Davr talablari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'sirida odamlarning turli xizmat va tovar-larga nisbatan munosabati, talabi o'zgarib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda, muzeylar tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb qilish maqsadida eng yangi texnologiyalarni o'z faoliyat-lari doirasiga kiritishlari zamon talabi bo'lib qoldi.

Interaktiv va multimedia asosida faoliyat yurituvchi muzeylar ham aynan axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'sirida vujudga kela boshladi. Mazkur turdag'i dastlabki yirik muzeylar texnika sohasi yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda yuzaga kelgan. Ular ichida eng mashhurlari si-

rasiga Kopengagen (Daniya) Eksprementarium muzeyi, Bostonndagi (AQSh) Fan muzeyi va Ontariodagi (Kanada) Qiziqarli fanlar muzeyini kiritish mumkin.

1994-yilda Yevropa Ittifoqi davlatlarida san'atshunos mu-taxassislar uchun mo'ljallangan "Videomuseum" (Video muzey) nomli elektron-vizual katalog yaratildi. Mazkur katalogda Yevropa mamlakatlari muzeylarida mavjud bo'lgan tas-viriy san'at namunalari haqida videoma'lumot berilib, san'atshunoslар asar haqida axborot olish bilan bir qatorda, uni turli tomonidan olingan video- va fotolavhalar orqali ko'rish imkoniga ega bo'lishdi. Bu, o'z navbatida, san'atshunoslarga ilmiy tadqiqot olib borishda, muzeyshunos pedagoglarga esa, ma'ruzalarni ko'rgazmali o'tkazishda amaliy yordam bermoqda.

Zamonaviy texnologiyalar asosida, tashrif buyuruvchilarga, muzey ashyolarining dastlabki holati bilan muzeyga qabul qilingandan keyingi holatini namoyish etish mumkin. Misol uchun, 1994-yili Getti konservatsiya instituti tomonidan "Nefertitining virtual realligi" nomli ko'rgazmada, tashrif buyurganlarga zamonaviy texnologiyalar asosida, Nefertiti qabrini 1904-yil topilgan vaqtidagi ahvoli va 1992-yil amalga oshirilgan restavratsiyadan keyingi holati taqdim etildi. Bu, o'z navbatida, tomoshabinga arxeologik topilmalarni qayta ishslash, konservatsiyalash, qabrlardagi ierogliflarni rasshifrovka qilish usullari bilan yaqindan tanishish hamda muzey ashyosining dastlabki va ishlovdan keyingi holatini o'zaro qiyoslab ko'rish imkonini beradi.

XXI asr boshiga kelib, raqamli texnologiyalar imkoniyatlariiga asoslangan muzey konsepsiysi va ekspozitsiyalarini yuzaga kela boshladi. Zamonaviy muzeylarning amaliy ish faoliyati tahlili asosida muzey ekspozitsiyalarini modellashtirishning uchta modelini (*audiovizual, interaktiv va virtual*) belgilash mumkin.

Audiovizual modelning asosiy xususiyatlari:

- tashrif buyuruvchiga monolog tamoyili asosida ma'lumot beriladi (tashrif buyuruvchi “ekspozitsiyani o‘qydi”);
- ma'lumotlarni taqdim etishda raqamli vositalar keng qo‘llaniladi;
- ma'lumotlar va ekspozitsiya mavzuyini taqdim etishda, ovozli effektlardan foydalaniladi.

Mazkur modelni qo‘llashda raqamli vositalar asosiy funksiyani bajaradi. Zero, aniq bir shaxslarning ovozlari va obrazlarini tomoshabinga taqdim etilishi, ekspozitsiya mavzuyini maksimal darajada emotsional ochib berishga xizmat qiladi.

Interaktiv modelning asosiy xususiyatlari:

- tashrif buyuruvchiga ma'lumotlar dialog tamoyili asosida yetkaziladi (tashrif buyuruvchi ekspozitsiya bilan faol ishlaydi);
- tashrif buyuruvchining turli sezgi organlariga (ko‘rish, eshitish, hid bilish) ta’sir etuvchi kompleks raqamli qurilmalar qo‘llaniladi;
- ushbu modelda tashrif buyuruvchini faol harakatga jalb etishda, asosan, raqamli o‘yin qurilmalardan foydalaniladi.

Virtual modelning asosiy xususiyatlari:

- mazkur modelda tashrif buyuruvchiga ma'lumotlar ham monolog, ham dialog tamoyili asosida berish mumkin;
- konstruksiyalashgan ekspozitsiya makonini taqdim etish uchun raqamli qurilmalarning kompleks turlaridan keng foydalaniladi;
- ushbu modelda multimedia texnologiyalar asosiy vazifani bajaradi (qurilma o‘zida matnli, grafik, audiovizual va video materiallarni jamlagan bo‘lishi lozim);
- mazkur modelda virtual ekspozitsiya reallikda emas, balki virtual makonda mavjud bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, ilg‘or raqamli texnologiyalar faqat ekspozitsiyalar yaratish bilan cheklanib qolmasdan, ular

muzeyning barcha faoliyat xizmatlarini ham qamrab olib, unga faol ta'sir etadi. Xususan, zamonaviy texnologiyalar yordamida raqamli yozib olish asosida muzey ashyolari va eksponatlarining video hamda suratli ma'lumotlar bazasini shakllantirish, keyinchalik ularni qayta ishlash imkoniyati yaratildi. Bu, o'z navbatida:

- muzeylarga oid interaktiv ta'lim dasturlarini yaratish;
- muzey materiallarini elektron nashr etish;
- ekspozitsiyalarni elektron dasturiy loyihalashtirish;
- ma'lumotlarning elektron almashinuvini joriy etish;
- muzey ashyolarini konservatsiyalashni maxsus dasturlar yordamida ilmiy-amaliy tahlil etish, ma'lumotlarni saqlash va zarur hollarda kompakt-disklarga ko'chirish kabi qulayliklarni yaratadi.

Shu bilan bir qatorda, zamonaviy axborot texnologiyalari muzey menejmentining ajralmas qismi hisoblanib, u:

- muzeylar uchun tezkor aloqa va muloqot manbayi (elektron pochta, jo'natmalar ro'yxati saqlanadigan baza, muzey saytlaridagi yangiliklar bo'limi);
- muzey faoliyatni muvofiqlashtirish (elektron e'lonlar doskasi, muhokama forumlari, elektron so'rovnomalar);
- hamkorlikni tashkillashtirish va qayta aloqa manbayi (telekonferentsiyalar, tashrif buyuruvchilar uchun elektron kitob);
- qidiruv tizimi (muzey ashyolari, turli davlatlarda faoliyat yurituvchi muzeylar fondi bo'yicha materiallarni izlab topish) kabi ishlarni amalga oshirishda samarali hisoblanadi.

Muzeylarda innovatsion texnologiyalar yordamida virtual tizimni yaratilishi, tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va muzey xodimlarining amaliy faoliyatiga ijobjiy ta'sir qiladi.

Jumladan:

- ekspozitsiyalarni mustaqil tarzda namoyish etish;
- muzey ekspozitsiyalarini chuqurroq o'rganishda qo'shim-

cha elektron materiallar taqdim etish va uning asosida tomoshabinga psixologik ta'sir ko'rsatish;

- ekspozitsiya va eksponatlar joylashuvini loyihalashtirishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, muzeyga ommani keng jalb qilish maqsadida multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanilmoqda.

Multimedia tizimi – bu “inson–mashina” muloqot tizimi bo‘lib, u ikki qismdan: inson (operator yoki foydalanuvchi) va dasturni amalga oshiruvchi texnik vositadan iborat.

Multimedia – bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalarga asoslangan interaktiv dasturiy ta'minot boshqaruvi yordamida vizual hamda audio effektlarni birgalikdagi harakati bo‘lib, u matn, ovoz, grafika, rasm va videoni yagona raqamli ko‘rinishda taqdim etuvchi vositadir.

Zamonaviy muzeylarda multimediali ekspozitsiyalarni namoyish etish keng ommalashgan bo‘lib, ayniqsa, texnik vositalarga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlар auditoriyasiga juda mos keladi. Zero, yosh avlod vakillari ma’lumotlarni yozma yoki bosma ko‘rinishda olishdan ko‘ra, virtual taqdim etiladigan axborotlarga moyildir. Shu sabab, muzeylar multimediali ekspozitsiyalar yordamida yoshlarda o‘z vatani tarixi, moddiy-madaniyati, an’analari hamda jahon madaniy merosini o‘rganishga qiziqish uyug‘otish orqali ularga ma’naviy-madaniy rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir etishga harakat qiladilar.

Shu maqsadda multimediali ekspozitsiyalarni muzeylarda amalga oshirish uchun turli texnik vositalarni o‘z ichiga olgan majmuadan foydalaniladi. Jumladan:

Elektron sensorli kiosklar – bu maxsus o‘rnatilgan suyuq kristalli tekis monitorli kompyuterdir. Mazkur monitorga qo‘l tekkizish orqali ma’lumot olish, musiqa tinglash, rasmlar va videorolik ko‘rish mumkin.

Ushbu sensorli kiosk orqali muzey bo‘ylab virtual sayohat qilish, muzey kolleksiyasida (jumladan, saqlov xonalarida) tur-

gan ashyolarni tomosha qilish mumkin. Sensor kiosk kam joyni egallasa-da, ekspozitsiyalarni maksimal darajada samarali namoyish eta oladi.

Tomoshabin muzeyga tashrifi chog‘ida o‘zini qiziqtirgan eksponatning yaratilish tarixi, muallifi xususida ilmiy ma’lumotlar bilan tanishadi. Bu shubhasiz tomoshabinlarni muzeylarga ko‘proq jalb etadi.

Elektron sensorli kiosklarni samarali faoliyat yuritishi uchun ular to‘rtta asosiy bo‘limdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

Birinchi bo‘lim “*Muzey haqida*” deb nomlanib, bunda muzey tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, uning asoschilari hamda yetakchi xodimlari, olib borilayotgan ilmiy ishlar, muzey tomonidan uyushtirilgan ekspeditsiyalar va uning natijalari hamda yangiliklar mujassamlashtirilgan bo‘lishi kerak.

Ikkinci bo‘lim “*Fondlar*” deb nomlanib, unda muzeydagi barcha fond zaxiralari haqidagi ma’lumotlar umumlashtirilib berilishi lozim. Bu tomoshabinlarga axborot terminali orqali muzey fondlariga virtual sayohat qilish, ilgari faqat mutaxassislar uchungina taqdim etilgan, muzey ekspozitsiyasidan joy olmagan eksponatlar bilan tanishish imkonini beradi.

Uchinchi bo‘lim “*Ekspozitsiyalar*” deb nomlanib, bunda tomoshabinlar, sensor kiosk imkoniyatlaridan foydalangan holda, muzey zallarini virtual aylanib chiqishlari, tomoshabin eksponatlar bo‘yicha o‘zini qiziqtirgan savollarga javob topishi mumkin.

To‘rtinchi bo‘lim “*Ma’lumotlar*” bo‘limida muzeyning ish vaqtisi, chipta va ekskursiya narxi, muzeyga kirish uchun fuqarolarga belgilangan imtiyozlar, muzey ma’muriyati, qayta bog‘lanish uchun telefon raqamlari hamda boshqa ma’lumotlar beriladi.

Mazkur bo‘limlar bir qancha matn va grafik tasvirlarga ega bo‘linmalarni o‘zida birlashtirishi maqsadga muvofiqdir. O‘z

navbatida, barcha materiallar aniq tuzilishi va joylashuvga ega bo‘lishi shart.

Sensor kiosklar uchun maxsus ishlab chiqilgan navigatsiya tizimi mazkur qurilmalarda ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lma-gan tomoshabinlarga undan oson foydalanishlari uchun yo‘riq-noma vazifasini o‘taydi. Barcha tashkillashtirilgan texnik jara-yonlar sodda va tushunarli bo‘lishi uchun ekran tugmachalarida bajariladigan funksiyalari aniq yozib qo‘yiladi.

Keyingi paytlarda Internet tizimiga ulangan, alohida server xizmatlariga ega maxsus sensor kiosklarni muzeylarga joylashti-rish dolzarb masalalardan sanaladi. Bunday ko‘rinishdagi sensor kiosklar barcha muzeylar bilan bir vaqtning o‘zida aloqa bog‘lash va ma’muriy ishlarni o‘zaro boshqarishda qulaylik yaratadi.

Elektron plazmali panel – bu yupqa ammo katta hajmda bo‘lgan ekrandir. Ushbu ekranni kompyuter, DVD, videokame-ra va boshqa qurilmalar yordamida ishlatish mumkin. Bu, o‘z navbatida, elektron plazmali panellarda katta auditoriyalarda muzeyga oid video namoyishlarni ko‘rsatish imkonini beradi.

Elektron kompyuterli gid. Aksariyat xorijiy muzeylarda tashrif buyuruvchilarga elektron gidlar yordamida ekskursiya xizmat ko‘rsatish keng yo‘lga qo‘yilgan.

Bunda tashrif buyuruvchiga muzeyga kirishda naushnik va muzey ashyolari haqida ma’lumot yozilgan pleyer taqdim etila-di. Endilikda texnikaning eng so‘nggi yutuqlaridan kelib chiqib, bir qator Yevropa va AQSh muzeylarida elektron audio- hamda videogid tizimidan foydalanishga o‘tilmoqda. Mazkur tizimlar tashrif buyuruvchilarga yoki guruhlarga individual yondashish (til, yosh, bilim darajasi, har bir tashrif buyuruvchining kon-kret qiziqishlariga qarab moslashtirish) imkonini beradi. Shuningdek, ushbu tizimni ekskurovod boshqaruvida yoki uning aralashuvvisiz qo‘llash mumkin.

Shu o‘rinda aytish mumkinki, “OPHRYS systems” nomli fransuz kompaniyasi hozirda muzeylar uchun eng zamонавиy

qurilmalar ishlab chiqarmoqda. Mazkur audiogid qurilmalarda, bir tugmani bosish yordamida aniq bir eksponat haqida ma'lumot va izohlar olish mumkin bo'ldi. Ushbu qurilma bolar, kattalar hamda mutaxassislar uchun mo'ljallangan bo'lib, audiogid taqdim etayotgan matn bilan bir vaqtida, monitorda statistik yoki harakatlanuvchi tasvirlar ham ko'rsatib boriladi.

Multimedia texnologiyalaridan zamonaviy muzeylarda foydalanish nafaqat maqsadga muvofiq, balki dolzarb ham sana-ladi. Zero, mazkur texnologiyalar muzeylar oldidagi asosiy maqsadlardan biri bo'lgan shaxsning har tomonlama rivojlantirish funksiyasini bajarishda samarali hisoblanadi.

Multimedia vositalari muzey ashyolarini virtual ko'rinishini tiklash imkoniyatini ham beradi. Misol uchun, muzey ekspozitsiyasidagi sopol va shisha idishlarning to'liq va turli tomonlari ni namoyish etishda 3D o'lchamdan foydalanish mumkin. Bu, o'z navbatida, tomoshabinda sopol idishlarning shakl-shamoyillarining to'liq ko'rinishi bo'yicha tasavvur hosil qiladi. Xuddi shu kabi 3D o'lcham yordamida tarixiy-memorial obidalarni ham virtual ko'rinishini tomoshabinga taqdim etish mumkin.

Muzey ekspozitsiyalarini tashkil etishda multimedia vositalardan foydalanish, ularni nafaqat boyitadi, balki rekonstruksiya qilish ishlarida vaqtini tejashga ham imkon yaratadi. Bu, ayniqsa, muzey ashyolarini rekonstruksiya qilishga mablag'i nisbatan kamroq bo'lgan o'lakashunoslik va maktab muzeylarda asqotishi mumkin.

Shu o'rinda, multimedia texnologiyalarini muzey ekspozitsiyalarida foydalanishda muayyan muammolar ham yuzaga kelishini ta'kidlash zarur. Xususan, multimedia tashrif buyuruvchilarni:

- real qo'yilgan muzey ashyolarini diqqat bilan kuzatishlaridan chalg'itishi;
- taqdim etilgan ekspozitsiyalarga e'tiborsiz yondashishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, multimedia kompyuter savodxonligi bo‘lmagan tashrif buyuruvchilarning g‘ashiga tegishi, maktab o‘quvchilari multimedia texnologiyalariga qiziqib ketib, ekspozitsiyaga taqdim etilgan muzey ashylarining asl mohiyati, g‘oyalari va ilmiy ahamiyatiga e’tibor bermasliklariga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Umuman olganda, har bir zamonaviy texnologiyadan o‘z o‘rnida foydalansa samarali hisoblanadi. Shu jumladan, hozirgi texnika asrida muzey ekspozitsiyalarini loyihalash va tashrif buyuruvchilarga taqdim etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish – muzeylarga tashrif buyuruvchilarni ko‘proq jalg etishga hamda yoshlarda muzey ashylari orqali vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Bu esa har bir muzeyning pirovard maqsadi sanaladi.

Savol va topshiriqlar

1. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida muzeylarning faoliyatida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
2. Hozirgi davrda muzeylarga tashrif buyuruvchilarni jalg etish uchun qaysi omillarga e’tibor qaratish lozim?
3. Muzey menejmenti va marketingini takomillashtirishda asosiy ish shakllari nimalardan iborat bo‘ladi?
4. Milliy muzeylar rivojlanishida muzey reklamasi, muzey pablitsitisi, muzey imiji va muzey brendining o‘rni haqida fikr bildiring.
5. “Muzey ustaxonalari” (Workshops) nima va ularning zamonaviy muzeylar faoliyatida tutgan o‘rni qanday?
6. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan biron muzeyning rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqing.

Manbalar va adabiyotlar

1. Абанкина Т.В. PR некоммерческой организации: теоретические основы современных PR – технологий и моделей коммуникации // Музей будущего: Информационный менеджмент. – М.: Прогресс–Традиция, 2001.

2. Лебедев А.В. Технология мультимедиа: возможности и реалии. – М., 1999.
3. Лорд Б., Лорд Г.Д. Менеджмент в музейном деле. Учебное пособие. – М., 2002.
4. Ноль Л.Я. Информационные технологии в деятельности музея. – М., 2007.
5. Перспективное планирование. Руководство по созданию бизнес-планов, комплексному планированию и разработке планов для музеев и галерей. – М., 2006.
6. Пирс С. Новый взгляд на старые вещи // Международный журнал «Museum» (ЮНЕСКО). – М., 1999. – № 202.
7. Соболева Е.С., Эпштейн М.З. Эволюция концепции музеев в меняющемся мире // Вопросы музеологии. – М., 2011. – № 1(3).
8. Шляхтина Л.М. Основы музейного дела. Теория и практика. – М., 2005.
9. Hudson K.A. Social History of Museums: What the Visitors Thought. – London, Basinstoke: Macmillan press, 1995.
10. Museum Management and Marketing. – New York: Routledge, 2007.

7-MAVZU. MUZEY SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MUNOSABATLARNING O'RNI

REJA

1. YUNESKO va Muzeylar Xalqaro Kengashi (ICOM) faoliyati.
2. MDH miqyosida muzeylarning xalqaro aloqalari.
3. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiyalar.
4. Xalqaro ko'rgazmalar tashkil etishning umumiy qoidalari ishlab chiqilishi.
5. Xalqaro ko'rgazma o'tkazishning tashkiliy masalalari.

YUNESKO va Muzeylar Xalqaro Kengashi (ICOM) faoliyati. Birinchi xalqaro muzey tashkiloti – *Xalqaro muzeylar byurosi* 1926-yil Parijda Millatlar Ligasi shafeligidagi Xalqaro intellektual mulk instituti tarkibida ish boshladi. Ushbu tashkilot Ikkinchi jahon urushi yillarida okkupatsiya sharoitida faoliyat yuritdi. 1944-yildan byuroning ishida bir oz jonlanish bo'lsa-da, hali u o'zini to'liq tiklay olmagan edi.

1945-yilda BMT ta'sis etilgach, 16-noyabrda YUNESKO tashkilotiga asos solindi. Umumjahon miqyosida ta'lim, fan va madaniyat sohasida tashkilot tuzilishi muzeylarning xalqaro idorasini ta'sis etishga imkon berdi. Shu yili Amerika muzeylari assotsiatsiyasi prezidenti Chonsi Xemlin (1881–1963) Fransiyadagi Sharq san'ati bo'yicha Fransiya muzeylari direktori Jorj Sall (1889–1966) bilan uchrashib, yangi xalqaro muzey tashkilotini tuzish haqida fikr almashadi. J. Sall Xemlin tashabbusini yoqlaydi va g'oya o'sha vaqtda muzey professionallari ga ta'siri katta bo'lgan Britaniya muzeyi direktori tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uchun o'zining yordamini ayamaydi.

Natijada, 1946-yilning 16-noyabrida Luvrda 14 davlatning muzey tashkilotlari vakillarining uchrashuvi ish boshlay-

di. Uchrashuvning birinchi kunida Ch. Xemlin yangi tashkilotning kotibi etib tayinlanadi, tez fursatda uning lavozimi prezidentlikka o'zgartiriladi. 18-noyabrda esa, tashkilotga *Muzeylar Xalqaro Kengashi (International Council of Museums) – IKOM* nomi berildi.

1947-yili IKOMning YUNESKO bilan rasmiy tarzdagi birinchi shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra IKOM – YUNESKOning muzeylar va meros masalalari bo'yicha asosiy maslahatchisi etib belgilandi. Bu esa, IKOMga BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengash huzuridagi "A" toifadagi oliy konsultativ maqomni olishiga imkon berdi.

1947-yil noyabrida Mexikoda IKOMning I tayyorgarlik konferensiyasi o'tkazilib, Kengashning davriy nashrini chop etish, muzey predmetlarining xalqaro almashinuvi, ko'rgazma faoliyati, xalqaro fonoteka tashkil etish kabi masalalar muhokama qilindi. 1948-yil yozida Parijda IKOMning to'liq tarkibdagi I konferensiyasi o'tkazildi. 1950-yildan boshlab konferensiya har uch yilda bir marotaba o'tkazila boshlandi. Uning doirasida Bosh Assambleya ham yig'iladi. 2007-yildan Bosh Assambleya har yili o'tkaziladigan bo'ldi.

Odatda, IKOM konferensiyalari muayyan mavzuda tashkil etiladi. Bosh Assambleyada esa uch yillik faoliyat dasturini tasdiqlash, navbatdagi konferensiya mavzuyini belgilash kabi masalalar ko'rildi.

1977-yilda Moskva shahrida o'tgan Bosh Assambleyada Xalqaro muzeylar kunini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Unga muvofiq 1977-yildan boshlab har yili 18-may – Xalqaro muzeylar kuni nishonlanmoqda. Shu kuni butun jahonda muzey va galereyalarga kirish bepul bo'ladi.

IKOM tabiiy va madaniy merosni saqlash hamda ommalashtirish maqsadida, dunyoda muzey ishi taraqqiy etishiga ko'maklashadi, madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashadi, favqulodda vaziyatlardagi xavflarning oldi-

ni olish yuzasidan choralar ko‘radi. Jumladan, tabiiy ofatlar va texnogen falokatlar sharoitida jahon merosini himoya qiladi, muzeyga oid bilimlarni tarqatish bilan shug‘ullanadi. Ushbu vazifalarni hal etishda IKOM muzey sohasidagi muassasalar va mutaxassislarini birlashtiradi, ular o‘rtasidagi hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

XX asrning 80-yillaridan IKOM imkoniyati cheklangan kishilarga qulayliklar yaratishga e’tibor bera boshladi. Bu muzeyda nogironlik aravachasida harakatlanish kabi sharoitlar qatorida ko‘zi ojiz va eshitish qobiliyati zaif bo‘lgan tashrif buyuruv-chilarga maxsus tayyorgarlikka ega xodimlar tomonidan eks-kursiyalar o‘tkazish, Brayl shriftida axborotni taqdim etish masalalarini ham qamrab oladi.

90-yillar o‘rtasidan IKOM madaniy boyliklarni noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda faollashdi. Hozirda u muntazam ravishda “*Yo ‘qolgan 100 ashyo*” va “*Qizil varaq*” ro‘yxatlarini tayyorlab kelmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin YUNESKO hamda IKOM bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga sharoit yuzaga keldi.

Dunyoda tinchlikni mustahkamlash, qashshoqlikni bartaraf etish, barqaror rivojlanishni ta’minalash maqsadida ta’lim orqali madaniyatlararo muloqotni o‘rnatish, fan sohalarini rivojlantirish, xalqaro axborot almashinuviga ko‘maklashish kabi sohalarda faoliyat yuritadigan YUNESKOga O‘zbekiston 1993-yilda a’zo bo‘ldi. 1996-yilda Toshkent shahrida mazkur tashkilotning vakolatxonasi ish boshladi.

YUNESKOning O‘zbekistondagi faoliyati, uning Toshkent shahridagi vakolatxonasi, tashkilotning Bosh idorasi, ta’lim masalalari bo‘yicha Bangkok, fan masalalari yuzasidan Jakarta va Olma-otadagi mintaqaviy vakolatxonalari hamda YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston va YUNESKO o'rta-sidagi munosabatlar izchil rivojlanib, hamkorlikda ko'plab lo-yihalar amalga oshirildi.

Tabiiy va madaniy merosni aniqlash, saqlash hamda muhofaza qilish, YUNESKO faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. YUNESKOning Jahon merosi durdonalari ro'yxatiga qadimiy Samarqand, Shahrisabz, Buxoro shaharlari ning tarixiy markazlari, Xivadagi Ichan Qal'a majmuyi kiritilgan bo'lib, tashkilot ularni dunyoga tarannum etishda muhim o'rinn tutmoqda.

Boysun madaniy muhiti, Navro'z umumxalq bayrami, milliy musiqa san'ati – Katta ashula, Shashmaqom, milliy hajv san'ati – askiya, palov madaniyati va an'analari esa nomoddiy madaniy meros obyektlari sifatida YUNESKOning Umumjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan.

Mamlakatimizda milliy va ma'naviy qadriyatlarni tiklash, o'rganish hamda targ'ib etish, madaniy yodgorliklarni, tarixiy obidalarni, muqaddas qadamjolarni ko'z qorachig'idek asrabavaylash, ta'mirlash va kelgusi avlodlarga yetkazish hamda ajdodlardan qolgan madaniy va ma'naviy merosni qadrlash borasida ko'plab xayrli ishlар amalga oshirilib kelinmoqda.

Mirzo Ulug'bek tavalludining 600, Amir Temur tavalludining 660 yilligi, "Alpomish" xalq dostonining 1000, "Avesto"-ning 2700 yilligi, Samarqand shahrining 2750, Shahrisabz shahrining 2700, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500, Toshkent shahrining 2200, Marg'ilonning 2000 yillik yubileyлari nishonlangani ana shunday ulug'vor ishlardandir. Ushbu tadbirlar YUNESKO bilan hamkorlikda xalqaro miqyosda o'tkazildi.

1997-yilda Madaniyat ishlari vazirligi, Fanlar akademiyasi, YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi hamda muzey xodimlarining hamkorlikda olib bor-gan faoliyatları natijasida, *O'zbekiston muzeylar Kengashi* tu-

zildi. IKOM Ijroiya qo'mitasining 1997-yil 17-iyundagi qarori bilan ushbu Kengash Muzeylar xalqaro hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi.

2008-yilda BMT Rivojlanish Dasturining "Parlamentning qonun ijodkorligi va institutsional salohiyatini takomillash-tirish" loyihasi doirasida "Muzeylar Xalqaro Kengashining muzey odob-axloqi kodeksi" o'zbek tiliga tarjima qilindi.

MDH miqyosida muzeylarning xalqaro aloqalari. O'zbekistonning YUNESKO va IKOM bilan aloqalari MDH ishtirokchi-davlatlarining davlatlararo gumanitar hamkorlik fondi doirasida ham yo'lga qo'yildi. Mazkur fond 2006-yil 25-mayda Dushanbe shahrida tashkil etilgan. Ushbu Kelishuv hujjatini Rossiya Federatsiyasi, Armaniston, Belarus, O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikalari imzolagan bo'lib, 2008-yil iyun oyidan unga Ozarbayjon Respublikasi ham qo'shilgan.

Fond MDH makonida ta'lim, fan, madaniyat, san'at, omma-viy kommunikatsiya, sport, turizm hamda yoshlar bilan ishlash bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish orqali madaniy va ijtimoiy muhitni yaratish maqsadida faoliyat yuritadi.

Fond 2008-yilning 28-noyabrida Parij shahrida YUNESKO bilan o'zaro Anglashuv Memorandumini imzoladi. Memorandum doirasida "XXI asrda muzey boshqaruvi" mavzuyida uzoq muddatli loyiha amalga oshirila boshlandi.

Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida muzey mutaxassislari uchun YUNESKO va IKOM o'quv qo'llanmalari asosida o'quv treninglari tashkil etildi. Ushbu loyihada O'zbekiston Respublikasidan O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat san'at muzeyi xodimlari qatnashdi.

2009-yili Samarqandda "Muzey boshqaruvi" mavzuyida milliy o'quv seminari, Toshkent shahrida 2011-yili YUNESKO bilan hamkorlikda rossiyalik mutaxassislar ishtirokida "Muzey-

larda arxeologiya va etnografiya: to‘plash, hujjatlashtirish va talqin etish muammolari” mavzuyida seminar-trening hamda 2016-yili “Muzey va ta’lim” mavzuyida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.

Fondning madaniyat sohasidagi loyihasi MDH davlatlari ning umumiy madaniy merosini saqlash, ishtirokchi davlatlar ning madaniyatlararo muzokaralarini rivojlantirishga yo‘naltilgan bo‘lib, 2010-yilda arxiv, kutubxona, muzey ishini standartlashtirishga umumiy yondashuvni tatbiq etishga ko‘mashish; shu sohaga axborot texnologiyalarini joriy etish; kitob tarqatish va tarjima ishlarini rivojlantirish; festivallar, badiy ko‘rgazmalar, tanlovlardan, treninglar, o‘quv kurslari, master-klasslar o‘tkazish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston muzeylari 2007-yildan buyon “Desht-i-Art” Zamonaviy madaniyat markazi (Qozog‘iston) bilan ham hamkorlikda bir nechta yirik loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

Shunday loyihalardan biri, Madaniyat departamentlari, vazirliklar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadigan *MUSEUMstan dasturidir*. Dastur ma’lum bir davlatga emas, balki umumiy bir hududga taalluqli bo‘lib, unda Markaziy Osiyo davlatlari: O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston muzeylarining xodimlari ishtirok etadi.

MUSEUMstan dasturining asosiy maqsadi – eng faol muzey xodimlarini turli seminarlar, tanlovlardan, festivallarga taklif etish orqali tajriba va fikr almashish, umumiy muammolarni birgalikda yechish, ularda yanada yangi g‘oyalarni uyg‘otish, muvafqaqiyatli loyihalarni rag‘batlantirishdir.

Jahoning yetakchi muzeylarida mutaxassislar malakasi ni oshirishni tashkil etish, bu borada jahon tajribasini o‘rganish yuzasidan Toshkent Gyote instituti, Rossiyaning yirik muzeylari, AQSh, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya elchixonalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Mazkur hamkorlik natijasida 1991–2016-yillar davomida yigirmadan ziyod xalqaro ko‘rgazmalar, xorijiy mutaxassislar ishtirokida seminar-treninglar o‘tkazildi.

Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro konvensiyalar. Madaniy qadriyatlarni saqlab qolish, dunyoning barcha xalqlari uchun katta ahamiyatga ega. Zero, har bir xalqning madaniy boyliklariga yetkaziladigan zarar aslida insoniyatning madaniy qadriyatlariga yetkaziladigan zarar hisoblanadi. Qurolli mojarolar vaqtida madaniy boyliklarga jiddiy zarar yetkazilishi va harbiy texnikaning rivojlanib borishi oqibatida madaniy boyliklar ko‘proq vayron bo‘lish xavfi yuza-ga kelayotganligi sababli 1954-yil 14-mayda Gaaga shahrida “Qurolli mojaro chiqqan holda madaniy boyliklarni himoya qilish to‘g‘risida” Konvensiya qabul qilindi. 1999-yil 26-martda Gaaga Konvensiyasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish yuzasidan ikkinchi protokol ham qabul qilindi.

1970-yil 14-noyabrida Parijda “Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va egalik huquqini boshqa ga o‘tkazishning oldini olish va taqiqlashga qaratilgan choralar to‘g‘risida” Konvensiya qabul qilindi.

Konvensiyada:

- madaniy qadriyatlar sivilizatsiyalar va xalqlar madaniyatlarining asosiy unsurlaridan biri hisoblanishi hamda ular o‘zining kelib chiqishi, tarixi, makoni aniq ma’lum bo‘lganidagina haqiqiy qimmatga ega bo‘lishi;
- har bir davlat o‘z hududida joylashgan madaniy boyliklarni o‘g‘rilik, yashirin qazishlar va noqonuniy olib chiqib ketish xavfidan asrashga majburligi;
- ushbu xavflarning oldini olish maqsadida har bir davlat, o‘zining madaniy boyliklariga ham, boshqa xalqlarning madaniy boyliklariga ham nisbatan axloqiy majburiyatlarini yanada chuqur anglab yetishi lozimligi;
- muzey, kutubxona, arxivlar – madaniyat muassasalari hi-

soblanib, ularning kolleksiyalari umumbashariy axloqiy tamo-yillar asosida tuzilishi uchun sharoit yaratilishi kerakligi ta-kidlangan.

Madaniy va tabiiy merosning har qanday obyektiga putur yetishi yoki uning yo'qolishi, oxir-oqibat dunyo xalqlari mulki-ning qashshoqlashuviga olib kelishi, ularni milliy darajada mu-hofaza qilish, ko'pincha, katta xarajatlarni talab etishi jihatidan yetarli mablag' bilan ta'minlab bo'lmasligi, shuningdek, yangi xavflarning miqyosi kengligi hamda jiddiyligidan kelib chiqib, 1972-yil 16-noyabrda Parij shahrida "Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilindi.

Suvosti madaniy merosidan tijorat maqsadlarida foydalanishning, ayniqsa, suvosti madaniy merosini sotish, sotib olish yoki ularni barter qilishga qaratilgan harakatlarning ko'payib borayotganligi hisobga olingan holda, 2001-yil 2-noyabrda Parij shahrida "Suvosti madaniy merosini himoya qilish to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilindi. Unda davlatlar, xalqaro tashkilotlar, ilmiy tadqiqot institutlari, ixtisoslashgan muassasalar, arxeologlar, g'avvoslar, manfaatdor tomonlar hamda jamoatchilikning o'zaro hamkorligida xalqaro, mintaqaviy va milliy darajada suvosti madaniy merosini o'z joyida saqlab qolish uchun samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Globallashuv va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni hamjamiyatlar o'rtasida o'zaro muloqot o'rnatish uchun qulay zamin yaratish bilan bir qatorda murosasizlikning kelib chiqishi, degradatsiyalanishning jiddiy tahdid manbayi bo'lishi, xususan, nomoddiy madaniy merosni saqlash bo'yicha mablag'larning yetishmasligi oqibatida, uning yo'qolib yoki buzilib ketish xavfi ostidaligini anglagan holda, 2003-yil 17-oktabrda Parijda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiya" qabul qilindi. Unda hamjamiyatlar va ayrim hol-

larda, alohida shaxslarning nomoddiy madaniy merosini barpo etish, muhofaza qilish, saqlash, qayta bunyod etish – madaniy turli-tumanlikni boyitishda, insoniyatning ijodkorlik qobiliyatini oshirishda muhim rol o‘ynashi qayd etildi.

YUNESKOning xalqaro konvensiyalari xalqlar va davlatlarning fan, ta’lim, madaniyat oldida turgan vazifalarini baham-jihat bajarishga qaratilgan. Bu konvensiyalar ijtimoiy hayotning turli sohalarini, jumladan, ilm-fan, ta’lim, madaniyat, sport sohalarini qamrab oladi. Ularda ona Zaminni, tarixiy merosni, insoniy, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, ularni rivojlantirish va himoya qilish g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida madaniy meros obyektlari davlat muhofazasida ekanligi belgilab qo‘yilgan. “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi, “Muzeylar to‘g‘risida”gi, “Geodeziya va kartografiya to‘g‘risida”gi, “Turizm to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Bundan tashqari, qator me’yoriy-huquqiy hujjatlар, jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi qarori bilan “2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi” tasdiqlangan.

Mamlakatimizda “Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Konvensiya” (Parij, 1972-yil 16-noyabr), “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro Konvensiya” (Parij, 2003-yil 17-oktabr) ratifikasiya qilindi.

Xalqaro ko‘rgazmalar tashkil etishning umumiyligi qoidalari ishlab chiqilishi. Garchi, sodda shakldagi ilk ko‘rgazmalar miloddan avvalgi II–I asrlarda Bobil, Finikiya, Misr, Yunoston, Rim kabi davlatlarda diniy, xalq bayramlari doirasida

o'tkazilgan bo'lsa-da, yangi shakldagi ko'rgazmalarning bugungi kunga yaqin ko'rinishlari XVIII asrda Yevropada yuzaga keldi.

Ular asosan kiborlarga san'at asarlarini namoyish etish maqsadida tashkillashtirilgan. Aslida, ko'rgazmalarda madaniy boyliklar orqali qirol hokimiyati obro'sini ko'z-ko'z qilish maqsadi bo'lган. Keyinchalik, san'at asarlari qatorida sanoat mahsulotlari ham namoyish etila boshlandi.

XVIII asrning 60-yillaridan boshlab yirik umummilliy savdo-sanoat ko'rgazmalari vujudga keldi. Shunday ko'rgazmalar London (1761, 1767), Myunxen (1788), Peterburg (1829) da uyuştirildi. Ko'rgazmalarda savdo bitimlari tuzilar, iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yilar edi. Masalan, 1791-yil London-da qishloq xo'jaligi mashinalari namoyishi bo'lib o'tgan. Parij, Drezden, Berlin, Myunxenda esa an'anaviy tarzda chinni, gobelen, shoyi, atir-upa kabi badavlat xonadonlar uchun ishlab chiqarilgan manufaktura mahsulotlarining namoyishi o'tkazib turilgan.

Manufaktura tizimidan mashinalashgan ishlab chiqarish tizimiga hamda umummilliy bozor munosabatlariga o'tish davrlarida ko'rgazmalarning ahamiyati, ayniqsa, katta bo'ldi. Ular da texnika sohasidagi yangiliklar ham namoyish etila boshlandi.

XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro sanoat ko'rgazmalari uchun maxsus pavilyon va inshootlar qurila boshlandi. Ularning o'zi ham ko'rgazmalar o'tkazish jarayonida eksponat vazifasini o'taydigan bo'ldi (Londondagi Billur saroy, Parijdagi "Mashinalar galereyasi" va boshqalar).

Keyinchalik pavilyon, eksponatlar joylashtirilgan maydonlar suv havzalari, favvora, gulzor, ko'kalamzorlashtirilgan atrof-muhit bilan uyg'unlashgan me'morlik majmuasiga aylantirildi. Xalqaro ko'rgazma pavilyonlarining me'moriy yechimi har bir mamlakat ekspozitsiyasining g'oyaviy mazmunini ochishga xizmat qilishi nazarda tutila boshlandi.

Xalqaro savdo erkinligini targ'ib etish maqsadida I Xalqa-

ro sanoat ko'rgazmasi (I Umumjahon ko'rgazma) London-da 1851-yili tashkil etilgan. So'ngra, estafetani Fransiya o'z qo'liga olgan holda: 1855-, 1867-, 1878-, 1889-, 1900- va 1937-yillardagi ko'rgazmalarni o'tkazdi. Yevropaning boshqa mamlakatlari ham bu kabi ko'rgazmalarni tashkil etishdi. Massalan, Vena (Avstriya, 1873-y.), Barselona (Ispaniya, 1888-y.), Bryussel (Belgiya, 1897-y.).

Mazkur ko'rgazmalar bir-biridan farqlangan holda, konseptual yechimi, maqsad va vazifalari, yorqin loyihibariga ega bo'lsa-da, ularni o'tkazish jarayonida tashkilotchi hamda ishtirokchilar o'rtaida yuzaga keladigan turli munosabatlarni tartibga soluvchi yagona qoidalar mavjud emas edi. Bu borada muntazam duch kelinadigan muammoli vaziyatlarni hal etish uchun barcha xalqaro ko'rgazmalarni tashkil qilish yuzasidan mukammal dastur ishlab chiqish g'oyasini birinchi bor 1907-yilda Fransiya ilgari surgan bo'lsa, 1912-yilda Germaniya barcha manfaatdor mamlakatlar vakillarini Berlinda toplash va masalani hal etish tashabbusi bilan chiqadi.

Ushbu konferensiyada ishtirok etgan mamlakatlar xalqaro ko'rgazmalarni tashkil etish jarayonini tartibga solish maqsadida yagona me'yoriy hujjatni ishlab chiqishga kelishib oladilar. Birinchi jahon urushining boshlanishi sababli ushbu hujjat qabul qilinmay qoladi.

1920-yilga kelib bu masala yana ko'tariladi. Uzoq va puxta tayyorgarlikdan so'ng, 1928-yilda Parijda Umumjahon xalqaro ko'rgazmalarni tartibga soluvchi qoidalar ishlab chiqish hamda uni imzolash uchun yangi konferensiya ish boshladi.

1928-yil 22-noyabr kuni 31 mamlakat ishtirokida Parij konvensiyasi imzolandi. Hozirga qadar xalqaro ko'rgazmalarni tashkiliy jarayonini tartibga solishda, unga yagona umume'tirof etilgan me'yoriy hujjat sifatida amal qilib kelinmoqda.

Mazkur konvensiyaning ijrosini ta'minlash, xalqaro ko'rgazmalar faoliyatini tartibga solish va shu sohaga doir mu-

ummolarni hal qilish maqsadida *Xalqaro ko'rgazmalar Byurosi* (XKB) tashkil etildi. Mazkur byuro tarkibiga Konvensiyaga n'zo mamlakatlarning mas'ul vakillari kiritilgan bo'lib, u xalqaro ko'rgazma ishini boshqaruvchi yagona tashkilot hisoblanadi. Hozirda XKBga 170 mamlakat a'zo bo'lgan.

1969-yili xalqaro ko'rgazmalarning emblemasi bo'yicha jahon miqyosida tanlov o'tkazildi. Yapon rassomi Masanori Mattsusima ishlagan ko'k rangli aylana va uning ichida yuqoriga yo'nalgan gorizontal oq chiziqlar tasviri emblema sifatida qabul qilindi. XKB ro'yxatidan o'tgan har bir ko'rgazmada mazkur emblema tushirilgan bayroqlar ilib qo'yiladi.

Umuman, 1851-yildan 1958-yilga qadar mamlakatlarning iqtisodiyot, fan, texnika, madaniyat, san'at sohalaridagi yutuqlari namoyish etilgan 36 ta universal jahon ko'rgazmalari o'tkazildi. 1958-yildan boshlab Umumjahon ko'rgazmalari "EKSPO" nomini oldi.

Bryusselda o'tkazilgan "EKSPO-58"da 52 mamlakat qatnashib, eng yangi markadagi avtomobillar, elektron uskunalar, automatik liniyalar maketlari, rangli televizorlar, xotira mashinasi kabi ixtiolar namoyish qilindi. "EKSPO" ko'rgazma birinchi bor Osiyoda 1970-yilda Yaponiyaning Osaka shahrida "Insoniyat uchun taraqqiyot va uyg'unlik" shiori ostida o'tkazildi.

Hozirgi xalqaro ko'rgazmalarning ko'pchiligi ixtisoslashgan hisoblanadi. O'z maqsadlari, ishtirok etish shartlari va eksponantlarga beriladigan huquqlariga ko'ra, ular xalqaro yarmarkalarga yaqin turadi. Bunday ko'rgazmalar turlichay nomlanadi (masalan, Fransiyada – salonlar va yarmarkalar; Italiyada – salonlar, ko'rgazmalar, yarmarkalar; Germaniyada – yarmarkalar va ko'rgazmalar).

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ko'rgazmalar tashkil qilishga alohida e'tibor berila boshlandi. O'zbekistonning bosh ko'rgazmasi – "O'zEkspoMarkaz" 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, sobiq

O‘zbekiston Xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasi negizida tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi bor 2000-yil Ganoverda va “Inson–Tabiat–Texnika” shiori ostida o‘tkazilgan “EKSPO–2000” Umumjahon ko‘rgazmasida, jami 173 mamlakat qatorida qatnashdi.

Garchi, bu ma’lumotlarning aksariyati savdo-sanoat ko‘rgazmalariga taalluqli bo‘lsa-da, muzey ko‘rgazmalari ham ularning tajribalariga tayanadi.

Xalqaro ko‘rgazma o‘tkazishning tashkiliy masalalari. Xalqaro ko‘rgazma tashkil etishni rejalashtirgan har qanday davlat boshqa mamlakatlarga bu haqda taklifnoma jo‘natishidan olti oy avval bu ko‘rgazmani XKB ro‘yxatiga kiritib qo‘yishi shart.

Ko‘rgazmani ro‘yxatdan o‘tkazish mobaynida tashkilotchi XKBga mamlakat ichki qonunchiligidagi tartib-qoidalarni Xalqaro ko‘rgazmalar Konvensiyasiga muvofiqlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqqanligini ma’lum qilishi, ko‘rgazmada ishtirok etish shartlarini aniqlashtirishi kerak. Boshqacha aytganda, hukumat XKBga ro‘yxatga olish haqidagi ariza bilan birga, loyihalashtirilgan ko‘rgazmaning umumiyligini qoidalarini taqdim etadi.

Umumiyligini qoidalarda ko‘rgazmaning maqsadi, ko‘rgazmaning mamlakat hayotidagi qaysi muhim sana munosabati bilan o‘tkazilayotganligi, klassifikatsiyasi, namoyish etilishi mumkin bo‘lgan eksponatlar ro‘yxati, ularning joylashtirilish tartibi, ishtirokchilarining huquq va majburiyatları, pavilyonlar qurilishi bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash maqsadida joriy etilajak yig‘imlar, umumiyligini xizmatlardan foydalanish shartlari, ko‘rgazma yuklarini bojxonadan o‘tkazish tartibi, eksponatlarni sotish va sug‘urta qilish kabi masalalar o‘z aksini topadi. Shuningdek, ko‘rgazmani tashkil etayotgan vazirlik va davlat organining ustavi ham kiritiladi. Mazkur umumiyligini qoidalar ko‘p hollarda o‘ziga xos jamoaviy kelishuv vazifasini o‘taydi.

Ko'rgazmaning XKB tomonidan ro'yxatga olinishi, XKBga u'zo mamlakatlarga unda qatnashish majburiyatini yuklamaydi va, aksincha, a'zo bo'limganlar uchun ishtirok etish man qilingmaydi. XKBda ro'yxatdan o'tkazilgan vaqtdan boshlab tashkilotchilar potensial ishtirokchilarga diplomatik kanallar orqali taklifnomalar yuboradi.

Xorijiy ko'rgazmani tashkil etishdan maqsad katta daromad olish emas, balki imkon qadar qilingan sarf-xarajatni qoplash bilan kifoyalanishidan iborat. Chunki, xalqaro ko'rgazmani tashkil etish bilan bog'liq asosiy xarajatlar yo'llarni ta'mirlash, infratuzilmani yaxshilashga yo'naltiriladi.

Xorijiy ko'rgazmada ishtirok etishni xohlovchilar tashkilotchiga imkon qadar ertaroq, o'z ishtiroklari haqidagi ariza bilan murojaat etishlari lozim. Negaki, ko'pgina xorijiy ko'rgazmalarда joy masalasi ko'rgazma ochilishidan 6–18 oy avval hal etib bo'linadi. Arizaga taxminiy konsepsiya hamda unga muvofiq talab etiladigan maydon o'lchami havola qilinadi.

Ro'yxatdan o'tish uchun eksponent ko'rgazma tashkilotchisidan quyidagi ma'lumotlarni oladi:

- ekspozitsion hududning rejasi;
- pavilyonlar loyihasi;
- ro'yxatdan o'tish uchun talab etiladigan hujjatlar tarkibi;
- xizmatlar haqida hujjat;
- taklif etilayotgan joy;
- ko'rgazma o'tkazish tartibi;
- yo'riqnomasi.

Bir qancha muzey bilan hamkorlikda o'tkazilayotganda ariza tashkiliy masalalarga mas'ul bo'lgan tomondan taqdim etiladi.

Xorijiy ko'rgazmada ishtirok etish tartibi haqidagi hujjatda ko'rgazmaga kirish sharti, stendlar ijarasi uchun haq, to'lov shakli, kelishuvning bekor qilinish shartlari va boshqa qoidalar ko'rsatiladi. Texnik qismida esa, tayyorgarlik uchun muddat,

ko'rgazmali vositalarning o'rnatilishi bo'yicha yo'riqnama, texnika xavfsizligi va yong in xavfsizligi qoidalari, moddiy javobgarlik hamda sug'urta qilish masalalari yoritiladi.

Yuzaga kelishi mumkin xavfli vaziyatlarda eksponatlarni himoya qilish ishtirokchining zimmasida bo'ladi. Negaki, tashkilotchi faqat ekspozitsion maydonda yuz beradigan vaziyatlar va mulkka nisbatan xavfsizlikni ta'minlashga mas'ul hisoblanadi. To'satdan qatnashmasligini bildirish ishtirokchidan belgilangan miqdordagi ijara haqini undirilishiga olib keladi.

Eksponatlarni vaqtinchalik mamlakat hududidan olib chiqish uchun muzeyning xalqaro aloqalar bo'limi ularni jo'natishdan ikki oy oldin ro'yxatga olish bo'limiga eksponatlar ro'yxati, sug'urta va qaytarish kafolati haqidagi hujjatlarning nusxalarini topshiradi. Shundan so'ng, ro'yxatga olish bo'limi eksponatlarni muzeydan olib chiqish uchun asos bo'luvchi dalolatnomani tayyorlaydi. Kuzatib boruvchi mas'ul xodimga 2 nusxada dalolatnama va eksponatlarning saqlanganlik holati qayd etilgan ro'yxat topshiriladi. Uni qabul qilib olayotgan tomonning imzosi muhr bilan tasdiqlanadi. Eksponatni qabul qilib olayotgan muzey xodimi eksponatlarning saqlanganlik ro'yxatini tasdiqlashi, eksponatlarning qaytarilish jarayonidagi tekshiruvda aniqlangan tafovutlarni isbotlashga xizmat qiladi.

Boshqa mamlakatga olib ketilayotgan eksponatlarni bojxonadan o'tkazish, BMTning Iqtisodiyot qo'mitasi hamda Yevropa Bojaxona Ittifoqi tashabbusi bilan 1961-yil 8-iyunda qabul qilingan va 1963-yil 30-iyulidan kuchga kirgan Bryussel Bojaxona Konvensiyasi bilan tartibga solinadi. Mazzkur konvensiya ko'rgazma, yarmarka va boshqa madaniyma'rifiy tadbirdarda namoyish etishga mo'ljalangan tovarlarni imtiyozli tashish tartibini belgilaydi. Bu turdagи tovarlarga nafaqat eksponatlar, balki ularni montaj qilish asbob-uskunalar, stendlar, reklama vositalari bo'lmish nashrlar ham kiritiladi. Unga ko'ra, tovarlarni vaqtinchalik imtiyozli tashish muddati

bir yildan oshmasligi shart.

Bryussel Bojxona Konvensiyasiga muvofiq, imtiyozli tashish huquqini beruvchi A.T.A. karneti ishlab chiqildi. *A.T.A. karnet* – vaqtincha olib chiqish bo'yicha bojxona deklaratsiyasi o'rnida qo'llaniluvchi xalqaro hujjat bo'lib, chegaradan imtiyozli tarzda to'lovlar va ortiqcha rasmiyatichiliklarsiz olib o'tishni ta'minlaydi.

A.T.A. karnet bo'yicha eksponatlarni xalqaro ko'rgazma-da namoyish etishga olib ketish faqat shu konvensiyani ratifitsiya qilgan mamlakatlar uchun amal qiladi.

Ko'rgazma katalogi uning ochilishidan bir necha hafta ilgari tayyorlanadi. Undagi qatnashchilar haqidagi ma'lumotlar ishtirokchi arizasiga ilova qilingan axboriy hujjatlar va taxminiy konsepsiya asosida shakllantiriladi.

Ko'rgazmaning *tematik-ekspozitsion rejasida* (TER) ekspozitsion materiallarning konkret tarkibi, unga xos barcha ilmiy tavsiflar bilan birga o'z aksini topadi. TERga etiketaj (qisqa matnlarda eksponat haqidagi asosiy ma'lumotlar, u bilan bog'-liq afsona o'rinni oladi) ilmiy rekonstruksiyalar yaratish bo'yicha hujjatlar, ilmiy yordamchi materiallar ilova qilinadi.

TER to'liq tuzib bo'lingach, *sinov ekspozitsiya* tayyorlandi. Unda eksponatlarning o'rni aniqlanadi. Ko'rgazmaning muvaffaqiyatli chiqishi, ko'p jihatdan ekspozitsiyaning obruzli yechimiga bog'liq. Bunda asosiy masala o'rnatish moslamalari va ko'rgazma uskunalarining optimal variantini tanlash sanalandi. U eksponatlarning o'ziga xos xususiyatlari va boshqa zarur faktlarni hisobga olgan holda tanlanadi.

Ko'rgazma tashkil etishda yakuniy bosqich uning hisobotini tuzish bilan bog'liq. Bunda ko'rgazma konsepsiysi, tematik-ekspozitsion reja, ekskursiya matni, press-reliz, ko'rgazma yuzasidan chop etilgan materiallar, taklif etilganlar va tashrif buyurganlar ro'yxati, ochilish marosimining fotohujjatlari hamda qo'shimcha sharhlar yig'ma jildi shakllantiriladi.

Ko‘rgazma davomida esa, eksponatlarning xavfsizligini ta’minlash muhim vazifa hisoblanadi. Bunda qo‘riqlash, yong‘in xavfsizligi, harorat-namlik, yorug‘lik va sanitar-gigiye-na qoidalariga qat’iy amal qilish talab etiladi. Ushbu jarayonga muzey muhofizlari hamda faoliyati muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xodimlar mas’uldir.

Ko‘rgazma yopilishi bilan ekspozitsiyaga qo‘yilgan buyumlar va yordamchi materiallar o‘z joyiga qaytariladi hamda bu haqdagi ma’lumot tegishli hujjatga qayd etiladi. Vaqtincha foydalanish maqsadida olib kelingan eksponatlar moddiy javobgar shaxslar kuzatuvi ostida qaytarib beriladi. Ularni olib kelish va olib borish yoki ko‘rgazmada namoyish etish vaqtida shikast yetgan taqdirda, vaqtincha foydalanishga olgan muzey hamda javobgar shaxslar tomonidan yetkazilgan zarar qoplanadi.

Xorijda o‘tkaziladigan milliy ko‘rgazmalar esa, mamlakatlar o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra tashkil etiladi. Hozirgi vaqtida ham bu ko‘rgazmalar o‘z ahamiyatini yo‘qotmadni va jahondagi ko‘pgina mamlakatlarda muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. IKOMning tashkiliy tuzilmasi haqida ma’lumot bering.
2. IKOMning “Muzeylar Xalqaro Kengashining muzey odob-axloqi kodeksi”ni sharhlab bering.
3. YUNESKOning qaysi xalqaro konvensiyalari O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan?
4. Xalqaro ko‘rgazmalar qaysi me’yoriy hujjatlar asosida tashkil etiladi?
5. A.T.A. karnet deyilganda nima tushuniladi?

Manbalar va adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Muzeylar to‘g’risida”gi qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008. – № 37-38. – 364-modda.

2. Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Т.: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма, 2007.
3. Дешт-и Арт Центр / ОО "Лаборатория общественного развития". MUSEUMстан: музейный проект, сборник материалов. / Авторы-составители: Плетникова Л.Н. & Сафарова Г.М. – Караганда: Гласир, 2010.
4. Ключевые понятия музеологии/ Составители: André Desvalées и François Mairesse. – М., 2012.
5. Лысикова О.В. Музеи мира. – М.: Флинта, 2002.
6. Muzey – xalq tarixi ko'zgusi. – Т., 2011.
7. Управление музеем – XXI век. Комплект презентационных и учебных материалов проекта ЮНЕСКО / МФГС. Бюро ЮНЕСКО в Москве. – М., 2010.
8. YUNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari. – Т.: Adolat, 2004.
9. Юрненева Т.Ю. Музееведение. – М.: Академпроект, 2003.
10. International conference "Museum and Politics". Proceedings. – ICOM Russia, 2014.

8-MAVZU. JAHONNING YETAKCHI MUZEYLARI

REJA

1. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining mashhur muzeylari.
2. AQSh va Rossiya muzeylari.
3. Osiyo mamlakatlari muzeylari.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining mashhur muzeylari. *Luvr muzeyi.* Luvr (fransuzcha *Musée du Louvre*) – dunyodagi eng mashhur san’at muzeylaridan biridir. U Parij shahri markazi va Sena daryosining o‘ng qirg‘og‘idagi Rivoli ko‘chasiда joylashgan. Majmua hududi Lyudovik XIV ning otliq haykali turgan joydan boshlanadi. Ushbu bino 1190-yili qirol Filipp Avgust qal’asi sifatida barpo etilgan. 1317-yili qirol Karl V uni qarorgoh qilib oladi. 1528-yilda esa, qirol Fransisk I qal’ani buzdirib tashlaydi. 1546-yildan boshlab Genrix II, Karl IX davrlarida bino yonida yangi minora quriladi va u muhtasham saroyga aylantiriladi. 1594-yilda Genrix IV uni Yekaterina Medichi buyrug‘iga ko‘ra bunyod etilgan Tuiliri qasri bilan birlashtirishga ahd qildi. Saroyning to‘rtburchak shaklidagi hovlisini me’morlar Lemerse va Lui Levolar bezatishdi. Qirollar Lyudovik XIII va Lyudovik XIV hukmronlik paytida majmua to‘rt marotaba kengaydi. Uni bezashga Pussen, Romanelli va Libren singari mashhur rassomlar mas’ul bo‘lishdi. 1667–1670-yillari me’mor Klod Perro loyihasiga asosan saroy hovlisiga ustunlar o‘rnatildi. 1682-yili qirol Versal nomli qasrga ko‘chib o‘tgach, Luvrni muzeyga aylantirish fikri paydo bo‘ldi.

Napoleon I davrida me’morlar Perse va Fonten Rivoli ko‘chasingin shimolida qurilish ishlarini boshladi hamda 1852-yili Napoleon III davrida yakuniga yetkazdi. 1989-yili esa me’mor

Yo Ming Pey loyihasi asosida oynavand ehrom (piramida) barpo etildi.

Muzey eshiklari tashrif buyuruvchilar uchun ilk bor 1793-yilning 8-noyabr kuni ochilgan. Fransuz inqilobi paytida uni "Napoleon" deb atashgan.

Muzeyning birinchi direktori baron Denon dastlab fondga qurol-aslahalar hamda Misr va Yaqin Sharqning arxeologik topilmalarini kiritgan. Muzey fondi birinchi bo'lib Fransisk I va Lyudovik XIV larning gazlamaga tushirilgan rasmlari to'plami bilan to'ldirilgan. Haykaltaroshlik asarlari asosan Fransiya muzeyidan keltirilgan.

Umuman, eksponatlar Qadimgi Sharq, Qadimgi Misr, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim, shuningdek, Islom madaniyati, haykallar, buyumlar, tasviriy san'at va grafika kabi bo'limlarda saqlanadi.

Sharq to 'plamidagi asarlar ham uchg'a bo'lingan:

- Movarounnahr;
- Eron va Suriya;
- Falastin, Kipr, O'rtayer dengizi va boshqa mamlakatlar.

Luvrning islom san'ati va madaniyati bo'limi 3 ming kvadratdan iborat Viskonti zalida joylashgan. Bo'limning ochilishiga islom diniga oid nodir asarlarning ko'pligi va xilma-xil ligi sabab bo'ldi. Muzeyga islom san'ati va madaniyatiga doir dastlabki eksponatlar 1922-yilda olib kelingan. VII–XIX asrlarga oid buyum namunalari jami 16 mingdan ortiq sonni tashkil etib, ulardan 2300 tasi ko'rgazmaga qo'yiladi. Ko'rgazmadagi eksponatlardan eng noyoblari Qur'oni Karim qo'lyozmalari va Arabiston yarim orolidagi qirolliklarning saroylarida ishlatilgan turli buyumlardir.

Umuman, Luvrdagi turli madaniyat va zamonlarga doir saqlanayotgan 300 ming durdonaning faqatgina 35 mingtasi ko'rgazma zallarida namoyish etiladi. Eksponatlar har 3 oyda almashtirib turiladi.

Muzey maydoni bo'yicha jahonda uchinchi o'rinda turadi. 160 106 kvadrat metr maydonni egallagan, undan 58 470 kvadrat metrida eksponatlar joylashgan. Tashrif buyuruvchilar soni bo'yicha ham muzey jahonda yetakchi hisoblanadi.

2017-yili muzeyning Birlashgan Arab Amirliklarida ham filiali ochildi.

Vatikan muzeylari majmuasi (italyancha *Musei Vaticani*). Vatikan muzeylari Vatikan shahri va uning atrofida joylashgan muzeylar majmuasidan iborat. Vatikan muzeylarining rasmiy ochilgan sanasi manbalarda 1506-yil, deb qayd etilgan.

Vatikan muzeylarida dunyodagi eng mashhur tarixiy san'at asarlari saqlanadi. Dastlab Vatikan muzeylari Papa qasri uchun xizmat qilgan bo'lsa, hozirda ular Vatikan shahridagi galereyalar tizimini tashkil etadi. Mazkur muzeyda 54 ta galereya mavjud bo'lib, u dunyodagi eng yirik muzeylardan hisoblanadi.

Vatikan muzeylari tarkibiga Pinakoteka, Zamoniyy diniy san'at kolleksiyasi, Vatikan tarixiy muzeylari, Haykaltaroshlik va boshqa muzeylar kiradi. Ularda asrlar davomida Rim Papalari tomonidan yig'ilgan dunyodagi Renessans san'atiga oid ko'plab klassik uslubdagi haykallar va noyob eksponatlar namoyish qilinadi.

XVI asrning boshlarida Vatikan muzeylari dastlab Papa Yuliy II (1503–1513) to'plagan haykallar kolleksiyasi asosida tashkil topgan.

Vatikan muzeylari turli xil Papa muzeylari va galereyalari dan iborat majmua bo'lib, Papalar Klement XIV hamda Piy VI homiyligida shakllantirilgan. Pio-Klementino muzeyi nomi ham ana shu ikki Papa sharafiga qo'yilgan. Keyinchalik Piy VII klassik tarixiy kolleksiyalarni kengaytirib, Karomonti muzeyi va Brachch-Nuovo galereyasini bilan majmua tarkibini boyitdi. Shuningdek, u Lapidariy galereyasida saqlanadigan epigrafik kolleksiyasiga ham o'z hissasini qo'shgan. Rafael xonalari yoki "Stanze di Rafaello" ekspozitsiyasi Konstantin, Heliodorus,

Segnatura hamda Borgodagi Olov xonalaridan tashkil topgan bo‘lib, tarixiy va afsonaviy voqealarni aks ettiradi.

Ignazio Danti yaratgan Italiyaning topografik xaritalari Xaritalar galereyasiga o‘zgacha ko‘rk bag‘ishlaydi. Shuningdek, Vatikan muzeylarida toshlar va ieroglis yozilgan haykallarni o‘zida mujassamlashtirgan Gregorian etrusklar muzeyi, Hadrian villasiga qarashli Kanopusning qayta qurilishi, mumiyolar hamda Ossuriya saroylaridan bitiklarni ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, Vatikan muzeylarining eng noyob asarlari sirasiga Sikstin ibodatxonasi ham kiradi. Muzeyning oxirgi ko‘rgazmalar qatoridan joy olgan ushbu ibodatxona 1508–1512-yillarda qurilgan. Uning mashhur shifti turli xil ranglar bilan bezatilgan Eski va Yangi ahd so‘zлari, dunyo hamda gunohni tasvirlovchi devoriy suratlardan tashkil topgan.

Mikelanjelo shiftini bezatgan Sikstin ibodatxonasi Vatikan shahridagi Papaning rasmiy qarorgohi bo‘lgan Apostol saroyida joylashgan.

Qadimgi san’at milliy galereyasi (italyancha *Galleria Nazionale d’Arte Antica*). Italiyaning Rim shahri, Trevi rayoni, Palasso Barberini maydonidagi badiiy galereya.

Galereya ikki tarixiy bino – palasso Barberini va palasso Korsinini birlashtirib turadi. Palasso Korsini XV asrda bunyod etiladi, palasso Barberini XVII asrning birinchi yarmida quriladi.

Galereyada Karavadjo (“Yudif va Olofern”), Golbeyn, Rafael (“Fornarina”), Pussen, Tintoretto, Titsian, Gvido Reni, Rubens, Murilo va boshqa rassomlarning asarlari, mebel, mayolika va chinni namoyish etiladi. Shuningdek, galereyada yirik hajmda XVI–XIX asrda yashagan italiyalik san’at ustalarining asarlari to‘plangan majmua bo‘lib, u Maffeo Barberini buyurtmasi bilan qurilgan. Saroy qurilishida (1627–1633-yillar) uch me’mor – Karlo Maderna, uning jiyanı Franchesko Borromini va Jovanni Bernini ishtirok etgan.

Saroy o‘zining tashqi ko‘rinishiga ko‘ra, barokko usulidan manerizmga yaqinroq. Urban VIII ning o‘limidan so‘ng, saroy Papa g‘aznasi foydasiga musodara qilinadi. Biroq, u 1653-yilda Barberini oilasiga qaytariladi.

Galereya 34 ta zaldan iborat, unda besh yuzga yaqin asarlar mavjud. Mazkur binoda hozirda Italiya numizmatika instituti ham faoliyat olib bormoqda. 1950-yili inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudini tashkil etishga asos soluvchi konvensiya ham aynan shu yerda imzolangan.

Uffitsi galereyasi (italyancha *Galleria degli Uffizi*. Uffizi aynan – “kanselyariya”) – Italiyaning Florensiya shahrida joylashgan. Mazkur davlat kartinalar galereyasi dunyoning eng qadimiy va mashhur san’at muzeylaridan biri bo‘lib, Italiyadagi eng yirik majmua hisoblanadi. Uffitsi 1575-yilda ers-gersog Kozimo I de Medichi buyrug‘i bilan tashkil etilgan va Medichilar sulolasi to‘plami asosida shakllangan. Galereya XVI asrda Florensiya sudyalari uchun qurilgan 3 qavatdan iborat Palasso degli Uffitsi qasrida joylashgan (1560–1585, me’mori J. Vazari va B. Buontalenti).

Kolleksiya turli manbalar orqali asta-sekin XV asrga oid qadimgi ashyolar, qimmatbaho toshlar, medallar, tangalar, qimmatbaho vazalar bilan boyib borgan. XVI–XVII asr oralig‘ida Medichilar oilasiga tegishli bo‘lgan antik davr haykallari bilan to‘ldiriladi. Galereya keng jamoatchilik uchun 1769-yili buyuk gersog Petr Leopold tomonidan ochiladi.

Eksponatlar xronologik ketma-ketlikda ellikdan ortiq bo‘lgan zallarga joylashtirilgan. Uffitsi XIII–XVIII asrlar Italiya rangtasvir asarlarining jahondagi eng boy to‘plamiga ega bo‘lib (Duchcho, Jotto, Uchchello, Pero dela Francheska, Boticelli, Leonardo da Vinci, Rafael, Jordone, Titsian, Karavajo va boshqa), unda antik san’at, fransuz, nemis, golland hamda flamand san’atining ajoyib namunalari saqlanadi. Yevropa rasomlarining avtoportretlari, ayniqsa, nodirdir. Renessans davri-

ga oid klassik eksponatlardan olingan tasvirlar hamda haykal-taroshlik namunalari kolleksiyasi dabdabali va hashamadorligi bilan ajralib turadi. Kolleksiyada Sandro Botichelli tomonidan yaratilgan “Veneraning tug‘ilishi” asari ham o‘rin olgan.

Uffitsi galereyasiga har yili 1 milliondan ortiq sayyohlar tashrif buyuradi. Galereya Florensiya va Toskaniyaga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun shahardagi eng diqqatga sazovor joy hisoblanadi.

Neapol milliy arxeologiya muzeyi (italyancha *Museo Archeologico Nazionale di Napoli*). Janubiy Italiyadagi eng yirik bo‘lgan arxeologiya muzeyi.

Muzey binosi 1615-yili qurilgan. O‘scha davrdan to 1777-yilga qadar bu joyda Neapol universiteti joylashgan. So‘ngra Ferdinand IV ning tashabbusi bilan me’mor Ferdinando Fuga tomonidan Bourbonlar muzeyi, Qirollik kutubxonasi ni joylashtirish uchun binoning ichki qismi qayta ta’mirlanadi va loyihalashtiriladi. Keyingi yillarda ham muzeyni o‘zgartirish davom etadi. Xususan, binoning o‘ng va chap qanotlari 2 qavatta aylantiriladi. 1816-yilda binoga qadimgi shaharlar qazishmalarida topilgan Farnaze oilasining kolleksiyalari keltiriladi. XIX asr mobaynida muzey ekspozitsiyasi asosan arxeologik qazilmalarda topilgan ashyolar hisobiga bir necha marotaba boyitiladi.

1860-yil muzey davlat tasarrufiga o‘tkaziladi va Milliy muzey nomini oldi. 1957-yilgacha muzey kartinalar galereyasini ham o‘zida jamlagan edi. Keyinchalik ushbu kartinalar Kapodimonte muzeyining asosini tashkil etgan. Muzeydan galereya ko‘chirilganidan so‘ng, unda faqat qadimgi artefaktlar qoladi va u Milliy arxeologiya muzeyi deb qayta nomланади.

Pompey, Gerkulanum hamda Stabiyadan topilgan noyob kolleksiya butunlay mozaikadan iborat. Devoriy va polga qo‘yiladigan mozaikalar miloddan avvalgi 79-yil – II asrlarga taalluqlidir. Ular ichida Pompeydagi Favn uyi va “Aleksandr

Makedonskiyning Doro bilan jangi” mozaika eksponatlari diq-qatga sazovor.

Muzeyda Misr madaniyatiga oid ashylar ham mavjud. Uning asosini muzeyga in’om qilingan ikkita shaxsiy kolleksiya tashkil qiladi. Bular kardinal Stefano Borja (XVIII asr ikkinchi yarmi) va Djuzeppe Pikkanti (XIX asr boshi) kolleksiyalaridir. 1842-yil nemis sayyohi Shnars tarafidan muzeyga sovg‘a qilin-gan Misr ashylari hamda Pompey va boshqa hududlardan to-pilgan, Misr uslubida ishlangan arxeologik ashylar ham o‘rin olgan.

London Milliy galereyasi (inglizcha *The National gallery, London*). Londonning Trafalgar maydonida joylashgan bo‘lib, o‘zida XIII–XX asr oxirlariga oid 2 mingdan ortiq G‘arbiy Yevropa san’ati asarlarini mujassamlashtirgan. Mazkur gale-reya 1839-yilning 9-aprelida ochilgan. Ba’zan galereyaga asos solingan sanani 1824-yilning may oyi deb ham hisoblashadi. Nega deganda, ushbu vaqtida Angershteynda 38 ta rasm sotib olinib, birinchi kolleksiya shakllantiriladi hamda u bo‘lg‘usi galereyaning asosini tashkil etdi.

Dastlab rasmlar Pell-Mell ko‘chasidagi 100-uyda namoyish etilgan. 1824-yil 2-aprelda ingliz Parlamenti galereyaning bir-lamchi ehtiyojlari uchun 57 ming funt sterling va 3 ming funt miqdorda mablag‘ ajratish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Keyinchalik Jorj Bomont kolleksiyani Jovanni Antonio Kanal, Benjamin Uest, Rubens qalamlariga mansub yangi rasmlar bilan to‘ldiradi. Shu tariqa rasmlar soni 54 taga yetadi.

1831-yilda kolleksioner Xoluell-Karrning vasiyatiga binoan galereya Tinteretto, Titsian, Andrea del Sarto, Rembrandtlar-ning ko‘plab rasmlari bilan boyidi. Ushbu yilga kelib, galereya-dagi rasmlar 105 tani tashkil etgan.

Galereyadagi rasmlarning ko‘payishi ekspozitsiya va saqlash uchun maxsus talab darajasidagi binoga zaruratni kel-tirib chiqardi. 1831-yilda me’mor Uilkins loyihasi asosida

Trafalgar maydonining shimoliy tarafida bino qurilish ishlari boshlanadi.

1836-yili barcha kolleksiyada mavjud 114 ta rasmning har biriga bat afsil izoh bilan, 2 jilddan iborat dastlabki katalog nashr etiladi.

Muzeyning birinchi direktori bo‘lib rassom, san’at bilimdoni Charlz Istleyk tayinlanadi. Istleyk umrining oxirigacha Milliy galereya direktori sifatida faoliyat olib borgan. Uning 10 yillik rahbarlik davri mobaynida galereya 139 ta san’at asari bilan boyidi.

1838-yil lord Farnbruning vasiyatiga binoan galereyaga Rubens, Tomas Geynsboro, Jdon Konsebl qalamiga mansub asarlar taqdim etildi. 1847-ili Robert Veron galereyaga ingliz rassomlarining 156 ta asarlarini sovg‘a qiladi. 1851-yili rassom Jozef Mellord Uilyam Tyornerning vafotidan so‘ng, uning vasiyatiga binoan 300 ta rasm galereya tasarrufiga o‘tadi. 1857-yil galereya Lobmardi-Baldi (“Duchcho”, “Aretssolik Margarito”, “Paolo Uchello”) kolleksiyalari bilan boyidi.

1869-yil galereyaga beshta yangi zal qo‘shiladi. 1875-yili galereya Uinn Ellisning Milliy galereyaga taqdim etish to‘g‘-risidagi vasiyatiga binoan 94 ta san’at asari bilan to‘ldiriladi. Shunday qilib, galereyada mavjud asarlar soni mingtaga yetadi. 1876-yili galereyaning sharqiy qanoti qurib bitkaziladi. 1884-yili Rafaelning “Madonna Ansiedei” va Van Deykning “Karl I ning otdagi portreti” asarlari galereyaga sotib olinadi.

1870-, 1887-, 1911- hamda 1920-yillarning oxiri – 1930-yillarning boshlarida galereya binosida qator ta’mirlash va binoni kengaytirish bo‘yicha qurilish ishlari amalga oshirilgan. 1991-yilda “Saynsberi” nomli tarmoq supermarketlari sohibi, mashhur kolleksioner Saymon Seynsberi aka-ukalari bilan birgalikda, ajratgan xayriya mablag‘iga binoan “Seynsberi qanoti” nomini olgan yangi bino qurib bitkazilgan. Seynsberi qanotining

bitkazilishi bilan galereyaning umumiy maydoni 46 396 kvadrat metrni tashkil etdi.

London milliy galereyasi faqatgina muzey bo‘lib qolmasdan, u ilmiy markaz ham hisoblanadi. Galereyada ko‘rgazmalar, konferensiyalar, konsertlar, mashhur madaniyatshunoslarning ma’ruzalari tashkil etiladi.

Britaniya muzeyi (inglizcha *The British Museum*). Britaniya muzeyi Buyuk Britaniyadagi eng asosiy tarixiy-arxeologik muzey hisoblanadi. U London shahrining Blumsberi hududida joylashgan bo‘lib, Yevropadagi birinchi davlat muzeyi sanaladi. Muzey 1753-yili uchta kolleksiya (mashhur britan shifokori va tabiatshunosi Xens Sloun, graf Robert Xarli, shuningdek, Robert Kottonning kutubxonasi) asosida tashkil etilgan. Xens Sloun hayotligi paytida 71 mingdan ortiq to‘plagan yodgorliklarni yaxlit holda saqlanishini istagan. Shu sababdan, butun kolleksiyasini qiroq Georg II ga vasiyat qilib qoldiradi, evaziga esa, qiroq uning merosxo‘rlariga 20 ming funt sterling hadya qiladi.

Mazkur noyob yodgorliklar 1753-yilning 7-iyunida qabul qilinib, shu paytning o‘zida parlament Britaniya muzeyi tashkil qilinganligi haqida qaror chiqaradi. Kolleksianing katta qismi kitoblar, qo‘lyozmalar, tarixiy buyumlarning (tangalar, rasmlar) asl nusxalari va etnografik ashyolardan iborat bo‘lgan.

Dastlabki paytda muzey Londondagi Blumsberi hududidagi Montegyu-xaus hovlisida joylashgan edi. Muzey tashrif buyuruvchilarga 1759-yilda ochilgan. Muzey kolleksiyasi Uilyam Gamilton (1772)ning qadimiy vazalari, Taunli (1804, 1814) ning marmarlari, Grevil (1810)ning minerallar kolleksiyasini qo‘shish hisobiga ko‘paydi. 1814–1815-yillarda parlament lord Eljindan bebafo Parfenon haykallarini sotib oladi.

1823-yilda Georg II xalqqa o‘z otasi – qiroq kutubxonasini topshiradi, u Robert Smirk tomonidan loyihalashtirilgan bo‘lib,

to‘rtburchak binoni yodga soladi. 1857-yilda to‘rtburchak bino va aylana shakldagi o‘qish xonasi qurib bitkazilgan. Muzeydagi ortib borayotgan kolleksiyalar uchun xona ajratish maqsadida, 1880-yillarda asl tarixiy kolleksiyalar Janubiy Kensingtonda-gi yangi inshootga ko‘chiriladi. Keyinchalik ushbu bino Tabiiy tarix muzeyiga aylantirildi.

Ikkita jahon urushi yillaridan tashqari muzey har doim ochiq bo‘lgan. XX asrda Britaniya muzeyining ommaga xizmat ko‘rsatish sohasida katta siljish bo‘ldi, jumladan, 1903-yilda muzey haqida birinchi qisqacha qo‘llanma chop etilgan bo‘lsa, 1911-yilda ekskursiya o‘tkazadigan birinchi xodim tayinlangan. 1970-yilda galereyani qayta tiklash bo‘yicha faol das-tur va ta’lim xizmati joriy etildi. Parfenon haykalchalari uchun qurilgan Duven galereyasida omma uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. 1973-yilda muzey kutubxonasi yangi tashkilot – Britaniya kutubxonasining tarkibiy qismi bo‘ldi. 2 akr (*Angliya va AQShda yer o‘lchovi birligi, bir akr – 40,47 m² ga teng*) masofada joylashgan ushbu majmua Yevropadagi eng gavjum joylardan biri hisoblanadi.

Britaniya muzeyida Qadimgi Misr, Ossuriya, Yunoniston, Meksika, Rim, Yaponiya, Xitoy, Hindiston hamda Afrikaning ko‘plab davlatlaridan keltirilgan eksponatlar, haykallar, o‘ymakorlik ishlari, san’at asarlari, tangalar va chizmalar o‘rin olgan.

Muhammad Jo‘qiy tomonidan ko‘chirilgan Firdavsiyning “Shohnoma”si (1440-yil), “Boburnoma”ning qo‘lyozmasi (XVI asrning ikkinchi yarmi), Amudaryo xazinasi (1877-yili Amudaryo sohilidan topilgan) va boshqalar ushbu muzeyda saqlanadi.

Britaniya muzeyi kutubxonasida 7 milliondan ortiq kitob, taxminan 105 ming qo‘lyozma, taxminan 100 ming xartiya (qo‘lyozma hujjat) va yorliq, 500 ming geografik xaritalar, 3 mingdan ortiq papirus mavjud.

Drezden badiiy galereyasi (nemischa *Die Gemäldegalerie Alte Meister in Dresden*). Drezden badiiy galereyasi rang-tasvir asarlari to‘plangan jahonning eng yirik muzeylaridan biri hisoblanadi. Drezden badiiy galereyasi, shuningdek, “Keksa ustalar galereyasi” nomi bilan (nemischa *Gemäldegalerie Alte Meister*) ham ataladi.

Germaniyaning Drezden shahrida 1560-yilda saroy to‘plami tarzida kurfyurst Avgust Saksonskiy tarafidan asos solingan bo‘lishiga qaramasdan, uning fondi XVIII asrning o‘rtalaridan ko‘paya boshladi. Avgust II va uning o‘g‘li Avgust III diplomat, savdogar, rassom hamda olimlar orqali yirik kolleksiyalarni sotib oladilar.

1722-yilda rasmlar to‘plami inventarizatsiya qilinadi. Le Pla muzeyning birinchi direktori sifatida faoliyat olib borgan. 1745-yili Rafael Santining “Sikstin Madonnasi” asari sotib olinadi. Galereya uchun maxsus binoning qurilishi 1847-yili boshlanadi va 1855-yilda uning ochilishi bo‘lib o‘tadi. Ushbu binoning qurilishi Drezden badiiy galereyasi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi.

XX asrda bo‘lib o‘tgan urushlar galereya fondiga katta zarar yetkazgan. Ikkinchи jahon urushi davrida muzey binosi vayron bo‘lgan, san’at asarlarining bir qismi shikastlangan. 2 mingdan ortiq san’at namunalardan chorak qismi saqlanib qolingan, yuzlab asarlar nobud bo‘lgan yoki yo‘qolgan, mingga yaqini Germaniyadan o‘lja sifatida olib chiqib ketilgan va bir necha yildan so‘ng qisman qaytarilgan.

1956-yilda muzey qayta tiklangan binoda ishga tushirildi. XX asrning 80-yillarida Drezden galereyasining binosi qayta ta’mirdan chiqarildi hamda kartinalarni saqlash, ularni tashrif buyuruvchilarga namoyish etish uchun eng zamonaviy sharoitlar yaratildi.

Drezden badiiy galereyasida nodir san’at asarlarining asl nusxalari, Ya. Van Eyk, Jorjone, Rafael, Titsian, Korre-

jo, Veroneze, A. Dyurer, P.P. Rubens, Rembrandt, D. Velas-kes, N. Pussen kabi rassomlarning ishlari, XIX–XX asrlar-dagi badiiy maktablar namoyandalari asarlari va boshqa nodir buyumlar saqlanadi. Har yili galereyaga 2–3 million kishi tashrif buyuradi.

AQSh va Rossiya muzeylari. *Metropoliten san'at muzeyi* (inglizcha *The Metropolitan Museum of Art*) Nyu-York shahridagi Markaziy bog‘ning sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, AQShning eng yirik markaziy san’at muzeyi hisoblanadi. Nyu-York xalqi mashhur Metropoliten san’at muzeyini “Milliy xazinamiz”, “Milliy faxrimiz”, – deb atashadi.

Muzeyga 1870-yili bir guruh amerikalik biznesmenlar va san’atni qadrlovchi shaxslar tomonidan asos solinadi. U birinchi marta keng jamoatchilik uchun 1872-yil 20-fevralda ochilgan.

Muzeyning birinchi prezidenti etib Jon Teylor Jonson, ijrochi direktor sifatida noshir Jorj Palmer Putnem faoliyat yuritadi. Muzeyning tashkil etilishi deklaratsiyasida, u yerda nafaqat rangtasvir, haykaltaroshlik san’ati ishlari, balki gravyura, fotosuratlar, me’morchilik modellari, tarixiy shaxslar portretlari hamda amaliy san’at va hunarmandchilik ishlari saqlanishi kerakligi yozilgan edi.

1887-yilda Ketrin Lorillard Vulf (1828–1887) muzeyga zamondosh rassomlarning 143 ta asarini va pul mablag‘ini vasiyat qiladi. Bu pulga O. Renuar, F. Goya, E. Delakrua, O. Donu asarlari sotib olindi. 1889-yilda Ervin Dellis Amerika muzeylari tarixida birinchi bo‘lib, impressionistlarning kartinasini sovg‘a qiladi. Bu E. Manening “To‘tiqushli ayol” (1866) asari edi. XX asrning boshida muzey rangtasvirning boy va xilma-xil asarlari kolleksiyasiga ega bo‘lgan. Ba’zida sovg‘a beruvchilarning ixtiyoriga ko‘ra, kolleksiyaning san’at turlariga bo‘linishi buzilgan. Masalan, 1914-yilda Benjamin Altman (1840–1913) vasiyatiga ko‘ra taqdim etilgan ashyolar yaxlit kolleksiya sifati-

da ko'rsatilishi kerak edi. Altman kolleksiyasi Sharq gilamlari, Uyg'onish davri haykallari, xitoy chinnisi, shuningdek, Dyurer, Rembrandt, Titsian, Verrokko, Velaskes, Verner kartinalaridan iborat.

1888-yilda janub tomondan korpus va binoning yangi kiring tomoni qurilgan, 1894-yilda esa shimoliy tomon ochilgan. 1902-yilda sharqiy tomondan neoklassik uslubda bino qurilgan. Qurilish jarayonining uzoq davom etganiga qaramay, muzey o'zining zaxirasini to'ldirib bordi. Muzeyga Kiprning sobiq konsuli Luiji di Sesnol tomonidan Daniya va flamand rassomlarining 174 asari, Kipr san'ati yodgorliklari sovg'a qilindi. Shu tariqa, muzeyda Kipr madaniyati yodgorliklari paydo bo'ldi.

Muzeyda Yevropa rassomlari asarlari XX asrning boshlari dan ko'paya boshladi. 1917-yilda muzeyga J.P. Morgan va uning o'g'li tomonidan besh yarim mingdan ortiq ashylar topshirildi. Morganning o'zi muzeyga 20 yil mobaynida turli ashylarni sovg'a qilib turdi. Shu yili Ayzek Fletcherning rasmlar va amaliy san'at namunalaridan iborat kolleksiyasi muzeyga topshirildi. Muzey kolleksiyasining shakllanishida 1929-yilda G.O. Xevmeyrning (1847–1907) bevasi tomonidan sovg'a qilingan kartinalar ham muhim o'rinni tutadi. Bu kolleksiyada E. Mane, E. Dega, El Greko, F. Goyya asarlari bor edi. Shuningdek, muzeyga M. Goldenberg tomonidan Gustav Kurbe asarlari sovg'a qilingan. 1937–1940-yillarda Garri Reyn Bingem muzeyga ikkita rasmni sovg'a qildi. Bular P.P. Rubensning "Venera va Adonis" (1638) hamda G. Kurbening "Qishloq oyimchalari" (1852) deb nomlangan asarlari edi.

Umuman, muzeyga tegishli bo'lgan G'arbiy Yevropa san'ati – Yevropadan tashqaridagi eng yirik to'plamdir. Betakror rasmlar galereyasi o'rta asr haykaltaroshligi, arxitekturasi, gravyura, kiyim, musiqa asboblari va amaliy san'atning Uyg'o-

Uyish davridan XX asrgacha bo‘lgan namunalari bilan yonmaydon turadi.

AQSh san’ati kolleksiyasi – mamlakatdagi eng boy kolleksiyadir. U mustamlaka davridan hozirgi kungacha bo‘lgan Amerika rangtasvirining eng mashhur asarlarini, shuningdek, gravyura, amaliy san’at va arxitektura namunalarini o‘z ichiga oladi. 1929-yilda Nyu-Yorkda Zamonaviy san’at muzeyi tashkil etildi, shunga qaramasdan, Metropoliten muzeyi zamonaviy san’atning eng yaxshi namunalarini sotib olishni va ko‘rgazmalar o‘tkazishni davom ettirdi. Bular chinni, tasviriy va amaliy san’at namunalari edi.

Muzey Qadimgi Misr, Qadimgi Yunon va Rim san’ati namunalarining to‘liq kolleksiyasiga, Yaqin Sharq madaniyatini va san’atining katta kolleksiyasiga ega. Islom san’ati to‘plami dunyodagi eng yirik to‘plamdir. Uzoq Sharq san’ati to‘plamida xitoy san’ati keng yoritilgan. Amerika, Afrika va Tinch okeani orollarining qadimgi sivilizatsiyasi ham juda yaxshi ko‘rsatilgan.

1938-yilda kichik Jon Rokfellerning mablag‘iga Klyatr binosi – muzeyning filiali quriladi. U o‘rta asr Yevropa san’ati asarlarini o‘z ichiga oladi. XX asrning 50–60-yillarida libos instituti muzeyi, yangi ilmiy kutubxona, AQSh san’ati haqidagi kitoblar saqlanadigan joy ochiladi. 1980-yilda XX asr Yevropa rangtasvir san’ati asarlari uchun 2400 kvadrat metrlik gareya quriladi. 1984-yilda xususiy uy shaklida qurilgan binoda Uyg‘onish davri rangtasvir asarlari, italyan bronzasi, fransuz mebellari, nemis chinnisi ko‘rgazmasi ochiladi.

Shunday qilib, ikki qavatda joylashgan yuzlab xonalar o‘z ichiga butun dunyo bo‘ylab san’atning mavjud sohalaridaagi 3 milliondan ortiq eksponatlarni jamlagan. Muzeys amerikalik homiy, bankir va kolleksionerlar yordamida ashyolar bilan doim to‘ldirib boriladi.

Ashyolarning 700 mingtasi har yili boshqa tashkilotlarga

vaqtincha foydalanish uchun beriladi. Muzey tez-tez ko‘chma ko‘rgazmalar uyushtirib, unda rassomlarning mashhur asarlari namoyish qilinadi. Shuningdek, muzeyda yirik nashriyot ham faoliyat yuritadi. Muzey har yili “Yillik hisobot”ini nashr etadi. Unda muzeyga yangi qo‘shilgan asarlar yoritib boriladi.

Rossiya Federatsiyasi Davlat Ermitaji (ruscha Государственный Эрмитаж). Rossiya Federatsiyasi Davlat Ermitaji Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida joylashgan bo‘lib, dunyodagi eng katta, mashhur badiiy va madaniy-tarixiy muzeylardan biri hisoblanadi.

Ermitajga 1764-yilda Yekaterina II tomonidan (Berlindan golland va flamand maktablari rassomlarining asarlari olib kelinishi tufayli) asos solingan. 1764-yilda Qishki saroyga Germaniyadan 225 dona asar keltirildi. Bu asarlar Qishki saroydagagi xonalarning biriga joylashtiriladi va keyinchalik bu xona Ermitaj (fransuzcha *ermitage* – xilvat joy, hujra) nomi bilan atala boshlanadi. Bu asarlar galereyasi rivojlanishiga fransuzlardan Volter, Didro, Grimm o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Ermitaj binolari podsho oilasi va uning yaqinlaridan iborat mingtacha odamga yashash hamda ishlash joyi bo‘lib xizmat qilgan. Shuning bilan birga, saroylar noyob san’at asarlari va Rossiya yodgorliklari namoyish qilinadigan hashamatli maskan ham edi. Ermitaj majmuasi Yekaterina tomonidan bunyod etilgan bo‘lib, u yerda barcha turdagilari festivallar o‘tkazilgan, teatr va muzey ham aynan o‘sha binoda joylashgan. Ermitaj nafaqat podsho oilasining yashash joyi, balki o‘sha davrdagi Rossiya davlatining ham timsoli bo‘lgan. Yekaterina II dan keyingi Rossiya imperatorlari ham Ermitaj xazinasini kengaytirishga katta hissa qo‘shishgan.

1774-yil, 10 yildan so‘ng, bu galereyada 2080 ta asar jamlandi. Ermitajdagi asarlar sonining ko‘payib borishi hisobiiga yangi-yangi xonalar qo‘shib borilishini taqozo eta boshladi. XIX asr boshlariga kelib, Ermitajga muzey maqomi beriladi.

1815-yilda Aleksandr I fransuzlardan 38 ta noyob rasmlar sotib oladi. Shundan keyin, Ermitajdagi Rembrandt asarlari kolleksiyasi rassomning dunyodagi eng yirik kolleksiyasiga aylandi. 1852-yilda Ermitajning yangi binosi ochildi.

1913–1914-yillardan Ermitajdagi ishchi kasaba uyushmlarining ekskursiyalari o‘tkazilib, “Pravda” gazetasining muzey haqidagi o‘quv qo‘llanmalari nashr etila boshlandi. 1917-yildan keyingina Ermitajda katta o‘zgarishlar sodir bo‘lib, u xalq muzeyiga aylantirildi. Shu davrda Stroganovlar, Yusupovlar, Shuvalovlar hamda boshqa rus metsenat va boylarining mu-sodara qilingan to‘plamlari Ermitajga topshirilgan. 1921-yilda Ermitajdan Moskva shahriga olib ketilgan asarlari qaytarib keltirildi. Ikkinci jahon urushi yillarida Ermitaj to‘plamining bir qismi evakuatsiya qilingan, lekin muzey qamal paytida ham o‘z faoliyatini to‘xtatmagan.

Hozirda Ermitaj dunyo madaniyatini o‘rganishning ilmiy markazi bo‘lishi bilan birga, uning 353 ta zalida yil davomida 20 dan ortiq vaqtinchalik ko‘rgazmalar o‘tkazilib turiladi. Kolleksiyalar qirg‘oq bo‘yidagi beshta tarixiy binoda joylashgan bo‘lib, uning tarkibiga Rossiya imperatorlarining sobiq Qishki saroyi (me’mor B.F. Rastrelli, 1754–1762) ham kira-di. Bundan tashqari, Ermitaj muzeyi o‘z ichiga Menshikovlar saroyi, Chinni saroy, Eski qishloqdagi qulay omborxona va umumiylar xodimlar binosining sharqiy qismini qamrab olgan. Shuningdek, muzeyning chet davlatlarda ham bir qancha ko‘rgazma markazlari mavjud. Asosiy muzey majmuada Qishki saroy, Eski Ermitaj (me’mor Yu.M. Felten, 1771–1787), Yangi Ermitaj (me’mor L.fon Klense, 1839–1852) va Ermitaj teatri (me’mor J. Kvarengi, 1783–1787) faoliyat yuritadi.

Tarixiy va madaniy bo‘limda tosh davridan bronza va temir davrigacha bo‘lgan Skif qo‘rg‘oni (miloddan avvalgi VII–III asrlar), Oltoydan topilgan (miloddan avvalgi VI–IV asrlar) arxeologik buyumlar saqlanadi.

Antik dunyo bo‘limida Qadimgi Yunoniston va Rim san’ati obidalari, haykaltaroshlik asarlari, vazalar, jumladan, Petr I tomonidan Rimdan olib kelingan Venera haykali, Qora dengiz bo‘ylaridagi shaharlardan qazib olingan va keltirilgan namunalar saqlanadi.

1929-yilda tashkil etilgan Sharq bo‘limida Misr, Mesopotamiya, Vizantiya va Eron kabi mamlakatlardan keltirilgan kolleksiyalar, mashhur san’at asarlari o‘rin olgan. Bo‘limda, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari (Markaziy Osiyo va Kavkaz) asarlari alohida o‘rin egallaydi. Muzeyda qadimgi Afrosiyobdan topilgan qadimgi, ilk o‘rta asrlarga oid sopol haykalchalar, tangalar, IX–XII asrlarga oid arab yozuvi bitilgan sopol idishlar, Amir Temurning 1391-yilda Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxonga qarshi jangga otlanganligi to‘g‘risida yozdirgan ulkan xarsangtosh, Amir Temur maqbarasining o‘ymakor eshigi, Amir Temur buyrug‘i bilan Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun ishlatilgan oltita mashhur moychiroqlardan biri, Samarqand va O‘zgan shaharlarining XII–XIV asrlarga xos shahar madaniyati namunalari, Varaxsha devorlari suratlari, qadimgi yodgorliklardan topilgan ostodonlar saqlanmoqda. Hindiston, Xitoy, Turkiya mamlakatlaridan keltirilgan qadimgi va o‘rta asrlardagi madaniyat asarlari ham alohida o‘rin tutadi.

1941-yilda rus madaniyati bo‘limi tashkil etilgan bo‘lib, unda qadimgi rus tarixidan zamонавиј davrgacha bo‘lgan hamda XVIII–XIX asrlar rus madaniyati va tarixiga oid san’at asarlari saqlanadi. Rus rangtasvir san’ati namunalari asosan Sankt-Peterburgdagi rus Davlat muzeyida hamda Moskvadagi Tretyakov galereyasida saqlanishi munosabati bilan bu yerda ular nisbatan kamroq sonni tashkil etadi.

G‘arbiy Yevropa san’ati bo‘limi Ermitajning eng katta bo‘limi hisoblanib, unda XIX–XX asrlarda yaratilgan haykaltaroshlik, rangtasvir, amaliy san’at asarlari o‘rin olgan. Ermitaj

galereyasida: italiyalik Fra Beato Anjeliko, Rafael, Leonardo da Vinchi, Titsian; ispaniyalik Velaskes, Murilo, Fransisko de Goyya; flamandiyalik Rubens, Antonis Van Deyk; gollandiylar Rembrandt, Xals; fransiyalik Pussen, Loren, Vatto, Renuar, Matiss, Pikasso; angliyalik Reynolds, Lourens, Geynsboro kabi mashhur rassomlarning asarlari mavjud.

Haykaltaroshlik bo‘limida saqlanayotgan Mikelanjelo, Gu-don, Roden asarlari ham omma orasida shuhrat qozongan.

Numizmatika bo‘limida dunyodagi barcha mamlakatlardan keltirilgan qadimgi, hozirgi vaqtdagi tangalar, orden va medallar to‘plangan.

1925-yildan Ermitajda maxsus bo‘lim faoliyati yo‘lga qo‘-yilgan bo‘lib, u yoshlari va kattalar uchun ekskursiyalar, ma’ruzalar, to‘garaklar ishini tashkil etadi.

Ermitajda ilmiy tadqiqot ishlari ham olib boriladi: u badiy asarlar sotib oladi, ilmiy anjumanlar uyushtiradi, arxeologik ekspeditsiyalar tashkil qiladi, ilmiy asarlar, kataloglar, albomlar va yo‘lko‘rsatkichlar nashr qiladi.

Hozirda Ermitajga har yili 3 millionga yaqin kishi tashrif buyuradi. Ayni paytda muzey kolleksiysi 3 milliondan ortiq madaniyat namunalarini tashkil etib, turli binolarda saqlanadi.

Har yili muqaddas Yekaterina kuni – 7-dekabrdan muzeyga asos solingan sana sifatida nishonlanadi.

Rossiya Federatsiyasi Olmos fondi (ruscha Алмазный фонд Российской Федерации). Mazkur kolleksiya XVIII asrda Petr I ning davlatga qarashli buyumlarni saqlashga oid maxsus farmoni bilan shakllana boshlagan. Bu qimmatbaho ashyolar nafaqat podsho va uning oilasining shaxsiy mulki, balki butun Rossiya imperiyasiga tegishli bo‘lishi kerakligini ta’mindadi. Dastlabki holatda u 1719-yildan XVIII asrning o‘rtalarigacha mavjud bo‘lgan. Keyinchalik esa Qishki saroyning Olmos xonasiga ko‘chirilgan. Kolleksiya davlat g‘aznasi va monarx sovg‘alari hisobiga to‘ldirilib borilgan.

Yelizaveta va Yekaterina II boshqargan davrlarda fond olmos, zeb-ziynatlar bilan sezilarli darajada boyidi hamda eksponatlar birinchi marta ro‘yxatga olindi. 1919-yili buyumlar ekspertlar tarafidan baholandi, qayta ro‘yxatga olindi hamda tartibga keltirildi. Birinchi jahon urushi, inqilob va vayrongarchilikdan so‘ng, Rossiya mablag‘ga ehtiyoj sezib, Olmos fondida ayrim buyumlarni Amsterdamdagi auksionga qo‘yadi. Birinchi jahon urushi boshlangach, qimmatbaho ashyolar Moskva Kreml Qurol-aslahalar (Оружейный) palatasiga ko‘chiriladi hamda u yerda 8 yilgacha saqlanadi. Hozirda ham bu kolleksiya Kremlda joylashgan.

Olmos foni ko‘rgazmasi 1967-yilda ochilgan. Ekspozitsiya ikkita zalda joylashgan. Birinchi zalga tashrif buyuruvchilar olmos, brilliant, turli xil qimmatbaho toshlar, ulardan ishlangan nafis buyumlar, zamonaviy zargarlik ashyolari, nodir toshlar (Mefistofel, Bolshoy treugolnik, Verblyud)dan zavq olishi mumkin. Shuningdek, “Русские самоцветы” ekspozitsiysida ko‘k yoqut (sapfir), ametist, zumrad, topaz toshlari mavjud. Bundan tashqari, birinchi zalda zamonaviy san’at, sovet davrida olmos sanoati erishgan yutuqlar haqidagi hujjatlar ham namoyish etiladi.

Ikkinci zal tashrif buyuruvchilarga turli tarixiy davrlarda qimmatbaho ashyolar va XVIII–XIX asrغا oid zargarlik ishlardan zavq olish imkonini beradi. Ular 1917-yilga qadar podshoga qarashli boyliklar hisoblangan. Shuningdek, ikkinchi zalda XVIII asrning mashhur fransuz zargarlari Poze va Dyuval ishlari ham joylashtirilgan. Bundan tashqari, muzeyda kostum uchun ishlangan ziynatlar: hashamatli zar pogonlar, shpilka va popukli bog‘ichlar, turli xil kattalikdagi brilliantlar bilan bezatilgan nashivkalar mavjud.

Fonddagi eng noyob eksponatlardan biri – toj bo‘lib, mashhur fransuz zargari I. Poze tomonidan 1762-yili ikki yarim oyda tayyorlangan. Toj jami 4926 ta Braziliya brilliant toshidan ibo-

rat bo‘lib, 2858 karat og‘irlikni tashkil etadi. Undagi eng yirik brilliant tosh 56 karat og‘irlikda bo‘lib, ikkala yarim tarafini 75 dona marvarid bezab turadi. Tojning tepasida to‘q qizil rangli, 398,72 karat og‘irlikdagi shpinel joylashtirilgan. Uning umumiy og‘irligi 1907 gramm.

Davlat tarix muzeyi (Moskva) (ruscha *Государственный исторический музей*) – Rossiya milliy davlatchiligining yirik tarix muzeyi hisoblanadi. Bu yerda arxeologiya, numizmatika, qadimgi rus qurolozligi, rassomligi va kitobxonligining bebafo yodgorliklari saqlanadi. Muzey majmuasi Rossianing qadimgi davridan hozirgacha bo‘lgan tarixi va madaniyatini aks ettirishi hamda boy eksponatlari bilan noyob hisoblanadi. Muzey kolleksiyasini 5 million dona atrofidagi muzey ashylari va 14 million varaqdan ortiq hujjat materiallari tashkil qiladi. Mazkur muzey Moskva Qizil maydonining shimoliy tarafida joylashgan. Unga yonida joylashgan “Монетный двор” va Moskva shahar dumasi binolari ham tegishli. 1853–1856-yillarda bo‘lib o‘tgan Qrim urushidagi mag‘lubiyatdan so‘ng, rus jamiyatining ilg‘or qismi Rossianing ulug‘vorligini qayta tiklashga urindi. 1872-yilda, Moskva shahrida Butunrossiya Politexnika ko‘rgazmasi ochiladi. Mazkur ko‘rgazmada Sevastopol bo‘limi tashkilotchilari tarixiy muzey tashkil etish tashabbusi bilan chiqishadi.

Sevastopol bo‘limi tashkilotchilaridan biri bo‘lgan polkovnik N.I.Chepelevskiy valiahdi Aleksandr Aleksandrovich (1845–1894) ya’ni, bo‘lajak imperator Aleksandr III ga xat bilan murojaat qiladi. Iltimosnomada dunyoning barcha joylaridan rus xalqining muqaddas merosi, rus davlatchiligining hujjat va yodgorliklarini yaxlit holda to‘plash nazarda tutilib, Moskvada muzey tashkil etish haqida so‘z yuritiladi.

1872-yil 9-fevralda podsho valiahdi tomonidan Aleksandr Aleksandrovich nomidagi muzey qurilishiga ruxsat berildi. Mazkur sana keyinchalik Davlat tarix muzeyiga asos solingan kun deb hisoblandi.

1873-yil yanvarda “Muzeyning umumiy qoidalari” tasdiqlangan bo‘lib, unda muzeyning asosiy maqsadlari o‘z ifodasini topgan. Atoqli rus olimi, graf A.S. Uvarov tomonidan birinchi marta tayyorlangan muzey Nizomi Aleksandr II tarafidan 1874-yilning avgustida tasdiqlangan.

1874-yil bahorda muzey qurilishi uchun Qizil maydon huddining Senat va Nikol minoralari oralig‘idan joy ajratildi. Bino loyihasi rassom-arxitektor V.O. Shervud va muhandis A.A. Semenovlar tomonidan ishlab chiqiladi. 1878-yilga kelib, rus-turk urushi munosabati bilan davlat xarajatlari ortishi natijasida, qurilish ishlari sal kam 3 yilga to‘xtab qoladi. Muzey qurilishi ishlari 1881-yilda, Aleksandr III ning toj kiydirish marosimiga tayyorgarlik ko‘ra boshlanishi bilan yana davom ettirildi hamda Rossiya tarixi imperatorlik muzeyi nomini oladi. Muzeyga faxriy rais bo‘lib, podshohning ukasi ulug‘ knyaz Sergey Aleksandrovich (1857–1905) tayinlangan bo‘lishiga qaramay, amalda direktor vazifasini A.S. Uvarov bajaradi.

Muzey 1883-yil 2-iyunda keng jamoatchilik uchun ochiladi. Muzeyga Rossiyada taniqli bo‘lgan Golitsin, Uvarov, Kropotkin, Obolenskiy, Olsufev, Shcherbatovlar kabi nufuzli oilalar xonardonlaridan yirik tuhfalar kelib turgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida muzeyda rassomlik, tarihiy, etnografik va adabiy ko‘rgazmalar, qurultoy va ilmiy jamiyatlar yig‘ilishlari o‘tkazilgan. Birinchi jahon urushi yillarida Rossianing g‘arbiy guberniyalaridan evakuatsiya qilingan tarixiy yodgorliklar ushbu muzey zallarida saqlangan.

Davlat tarix muzeyida 1986–2002-yillarda restavratsiya va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilgan.

Tretyakov Davlat galereyasi (ruscha *Государственная Третьяковская галерея*). Rossianing yetakchi ilmiy-badiiy va madaniy-ma’rifiy markazlaridan biri hisoblanadi. Jahondagi eng yirik rus san’ati muzeyi. Tretyakov galereyasining asosiy binosi Moskva shahri, Zamoskvoreche tumanining Lavrushinsk

ko‘chasida, 1851-yili Tretyakov oilasi sotib olgan uyda joylashgan. To‘planayotgan ko‘rgazmalar miqdorining kun sayin ko‘payib borishi galereya ekspozitsiyasi imkoniyatlaridan ortib ketdi. San’at asarlarini saqlash va namoyish etish zarurati, yangi qo‘shimcha imoratlar qurilishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham 1873-, 1882-, 1885-, 1892- va 1902–1904-yillarda mana shunday binolarni qurish ishlari amalga oshiriladi. Vasnetsovsk fasadining qurilishi Tretyakov galereyasining emblemasiga aylandi.

1913-yil 2-aprelda Moskva shahar dumasi taniqli rassom, me’mor va san’at tarixchisi Igor Emmanuilovich Grobarni vasiy etib sayladi. Grobar faoliyati mobaynidagi islohotlar natijasida Tretyakov galereyasini Yevropa muzeylari tipidagi muzeyga aylantirdi. 1913-yil dekabr oyi boshlarida, jamoatchilik uchun muzey galereya asoschisi vafotining 15 yilligi munosabati bilan ochiladi.

1917-yildan boshlab galereya boshqa muzeylarning fondidan, shaxsiy kolleksiyalardan to‘plangan asarlar, XI–XVII asrlar qadimgi rus ikona san’ati, XVII–XX asrlar tasviriylar san’at, haykaltaroshlik, grafika san’ati ustalari asarlarining boy kolleksiyasi bilan to‘ldirib borilgan.

1918-yil 3-iyunda Xalq komissarlari kengashi Tretyakov galereyasini Rossiya Federativ Sovet Respublikasining davlat mulkiga aylantirish to‘g‘risidagi Dekretni chiqardi. Ushbu paytdan muzey Tretyakov Davlat galereyasi deb nomlana boshladi. Davlat mulki bo‘lgandan so‘ng Galereyaga I.E. Grobar direktor etib tayinlandi.

1941–1945-yillarda bo‘lib o‘tgan Ikkinci jahon urushi yillarida nemis aviatsiyasi hujumi natijasida, muzey binosining ayrim joylariga zarar yetgandi. Galereyani qayta ta’mirlash 1942-yilning o‘zidayoq boshlanib, 1944-yilga kelib 52 ta zaldan 40 tasi ta’mirdan chiqarildi va evakuatsiya qilingan eksponatlarni muzeyga qaytarish imkonini berdi. 1956-yil Tre-

tyakov galereyasining 100 yillik yubileyiga A.A. Ivanov zali qurib bitkazildi. Bu paytga kelib muzey kolleksiyasi 35 ming-dan ortiq san'at asaridan iborat edi. 1985–1995-yillar oralig‘ida ham muzey inshootini rekonstruksiya qilish ishlari olib borilgan.

1991-yildan “Tretyakov Davlat galereyasi” muzey birlashmasi deb yuritiladi. Tretyakov galereyasida o‘zbekistonlik ras-somlar (P. Benkov, A. Volkov, A. Abdullayev, O‘. Tansiqboyev, R. Ahmedov va boshqalar) asarlaridan namunalar qo‘yilgan. 2003-yilda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi va Tretyakov galereyasi o‘rtasida ilmiy, ijodiy ko‘rgazma almashish shartnomasi imzolangan.

Osiyo mamlakatlari muzeylari. “Osmon ibodatxonasi” (*Tyantan*) – Pekin shahrining janubida, imperator saroyidan janubi-sharqiy tarafda joylashgan aylana shaklidagi ibodatxonasaroy. Majmuaning umumiy maydoni 267 gektarni tashkil etadi. Ibodatxonadan tashqari, bu yerda katta bog‘, saroy va pavilyonlar mavjud. “Osmon ibodatxonasi” hududi ikki tomondan aylanma devor bilan o‘ralgan. Uning umumiy uzunligi 11 912 metrni tashkil etadi. Ibodatxona tashqi aylanma devori uzunligi 6 625 metr, ichki devor uzunligi 5 287 metrni tashkil qiladi.

Shahar timsollaridan biri hisoblanadigan mazkur majmua 1420-yili Min sulolasи davrida qurib bitkazilgan.

Dastlab ibodatxona “Yer va Osmon ibodatxonasi” deb nomlangan, biroq 1530-yili alohida “Yer ibodatxonasi”ning qurilishi bilan bu majmua Osmonga sajda qilish vazifasini bajargan.

Ibodatxona “Ta’qiqlangan shahar” binosi qurilgan davrda bunyod etilgan. Ibodatxona majmuasi o‘zgacha shaklga ega. Inshootning janubiy qismi to‘rtburchak shaklga ega bo‘lsa, shimaliy tarafi aylana shaklidadir. Xitoy an‘analariga ko‘ra, aylana – Osmonni, to‘rtburchak Yerni ifodalagan. Shundan boshlab Tyantan devorlarida Osmonga sig‘inish duolari aks ettirilgan.

500 yil mobaynida, yilda bir marotaba, qishki quyosh turi-shi kunida imperatorlar 3 kunlik ro‘za tutgandan so‘ng, Osmon uchun saxiy hadyalar keltirish, qurbanlik qilish maqsadida Tyantanga tashrif buyurishgan. Mamlakat farovonligini so‘rab osmonga duo qilishni faqat “Osmon o‘g‘li” – imperatorlargina amalga oshirish mumkin, deb hisoblangan. Hukmdor shamol, yomg‘ir, issiq va sovuqni, tabiat fasllari o‘z vaqtida kelishini duo qilib so‘ragan, bu esa mo‘l hosil berish kafolati bo‘lgan.

Asrlar mobaynida “Osmon ibodatxonasi” muntazam qurib borilgan, ayrim binolar buzilgan, yong‘inlardan zarar ko‘rgan va yana qayta tiklangan. Qayta ta’mirlash ishlari XXI asrda ham davom etmoqda.

“Osmon ibodatxonasi” 1998-yili YUNESKOning Butunja-hon insoniyat merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Matenadaran. Mesrop Mashtots nomidagi “Matenadaran” qadimgi qo‘lyozmalar instituti – Yerevandagi jahoning eng yirik qadimgi arman qo‘lyozmalari saqlanadigan joy va ilmiy tadqiqot instituti hisoblanadi. “Matenadaran” so‘zi arman tili-dan tarjima qilinganda “qo‘lyozmalar saqlanadigan joy” ma’nosini anglatadi.

Ilmiy tadqiqot instituti huzurida tashrif buyuruvchilar uchun ochiq bo‘lgan muzey faoliyat yuritadi. Matenadaran 1920-yil Echmi-adzin monastiri qo‘lyozmalar kolleksiyasining dav-lat hisobiga musodara etilishi negizida yaratilgan. Ushbu kol-leksiyadagi qo‘lyozmalar V asrga borib taqaladi hamda arman yozuvi va alifbosi asoschisi Mesrop Mashtots (taxminan 361–440-yy.) nomi bilan bog‘liq. V asrda yashagan tarixchi Lazar Parpetsining ma’lumotiga ko‘ra, o‘sha davrda Echmi-adzin monastirida kitob ombori bo‘lgan. 1892-yilda kolleksiya 3158 ta, 1897-yilda – 3338 ta, 1906-yilda – 3788 ta, 1913-yilda – 4060 ta qo‘lyozmani tashkil etgan. 1929-yil 17-dekabrda Echmi-adzin monastiri davlat mulki deb e’lon qilindi. 1939-yili kollek-siya Echmi-adzindan Yerevanga ko‘chiriladi. Matenadaran-

ning hozirgi binosi 1959-yili me'mor Mark Grigoryan loyihasi asosida qurib bitkazilgan va 1959-yilning 1-mart kuni uning ochilishi bo'lib o'tgan.

1984-yili Matenadaran kolleksiyasi umumiy katalogining birinchi jildi nashr etildi. Matenadaran kolleksiyasi Armaniston, Kavkaz, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari xalqlari tarixi, madaniyatini o'rganishda qimmatli ilmiy-tarixiy manba hisoblanadi. Matenadaranda arman xattotligi yodgorliklarini o'rganish va nashr qilish, matnshunoslik muammolarini tadqiq etish, manbashunoslik, paleografiya, o'rta asrlar kitobxonlik san'ati, tarixshunoslik singari yo'naliishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi.

Matenadaran muzeyining boy fondi 14 ta tematik zallarga ajratilgan. Hozirda Matenadaran fondida 119 mingdan ortiq hujjatlar saqlanadi. Ular rus, ivrit, latin, arab, yunon, gruzin, hind, yapon, fors va boshqa tillarda yozilgan qadimgi arxiv hujjatlari, qo'lyozmalardir. Hozirda Yevropa, AQSh va boshqa mintaqalarda yashaydigan armanlar muzey kolleksiyasini boyitishga ulkan hissa qo'shamoqda. Ayni vaqtida muzeyga tashrif buyuruvchilar uchun ekskursiyalar 9 ta xorijiy tilda olib boriladi. Bular, rus, ingliz, fransuz, ispan, italyan, nemis, portugal, arab va fors tillaridir.

Matenadaran YUNESKOning Butunjahon merosi obyekti hisoblanadi.

Giza shahridagi ehromlar majmuasi (inglizcha *Giza pyramid complex*). Misr ehromlari dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblanadi hamda qadimgi va o'rta podsholiklar davri Misr fir'avnlarining qabrlari ustiga qurilgan obidalardir.

Ehromlar asosan tosh yoki g'ishtdan bunyod etilgan. To'rtburchak asosdan tepaga qarab yuksalgan uchlari, eng tepada uchburchak shaklida birlashgan.

Qadimgi podsholiklar davridan ikkinchi o'tish davrigacha (miloddan avvalgi XXVIII–XVIII asrlar) fir'avnlar va aslzoda-

lar mastabalarga dafn etilgan. Mastaba – to‘g‘ri to‘rtburchak, yon devorlari yassi, ust tomoni tekis bo‘lgan, ko‘proq o‘rtadan kesilgan ehrom shaklida edi.

Uchinchi sulola zamonida (miloddan avvalgi XXVIII–XXVII asrlar) podsholar qabrlarida toshlar ishlatila boshlandi. Ilk ehrom bu davrda Qohira yaqinlaridagi Sakkarada mashhur me’mor Imxotep tomonidan qurilgan. Fir’avn Zoser (Joser) uchun qurilgan va ustma-ust qo‘yilgan olti mastabadan iborat bo‘lgan bu qabrga pog‘onali ehrom atamasi berilgan.

Muqaddas hisoblangan, podshoga sovg‘a va qurbanliklar keltiriladigan ibodatxona, pog‘onali ehrom hamda qo‘shimcha binolar atrofi keng devorlar bilan o‘ralgan edi. Balandligi 60 metr bo‘lgan ushbu ehrom Qadimgi Misrning eng go‘zal obidalaridan biridir. Bino ostida yerga qarab ochilgan 11 ta tunnelda fir’avn va ba’zi aslzodalarning pushti rang granit hamda oq marmardan ishlangan tobutlari qo‘yilgan. Lekin bularning aksariyati o‘g‘irlangan bo‘lib, ko‘pchiligi hozirgacha yetib kelmagan. 1953-yilda Sakkarada uchinchi sulola davridan qolgan tugallanmagan boshqa pog‘onali ehrom xarobalarigina topilgan.

Dunyoda eng mashhur ehromlar Qohira shahrining janubiga‘arbida joylashgan Gizadagi uchta ehromdir. Bu mahobatli ehromlar hozirgacha inson qo‘l mehnatining ulkan namunasi sifatida saqlanib turibdi. Mazkur ehromlar to‘rtinchchi sulola davridan (miloddan avvalgi XXVII–XXVI asrlar) qolgan. Eng kattasini fir’avn Xufu (Xeops) qurdirgan. Xufu ehromi qurilgan davrda asosi 230 metr, balandligi 146,6 metr bo‘lgan. Hozirda uning balandligi 138,8 metrni tashkil etadi. Imoratda har biri o‘rtacha 2,75 tonna og‘irlilikdagi 2,5 million dona tosh ishlatilgan.

Ehrom qurilishida ishlatilgan qoya toshlar Nil daryosi qirg‘oqlaridan, ohaktosh Qohira yaqinlaridan, granit esa Assuan dan keltirilgan. Toshlarni chiqargan va tashigan kishilar ism-

larini qizil bo‘yoqlar bilan toshlar ustiga yozganlar. Bu yozuvlar hozir ham toshlar ustida mavjud va ularni o‘qish mumkin. Toshlar tekis shaklda mis asboblar bilan ishlangan. Ehromlarning qurilish tarixiga oid afsonalarning hech qaysi birida, bu ulkan tog‘larning nega qudirilganiga aniq javob beruvchi dalil yo‘q.

Xufudan so‘ng Xefren va Mikerinos tomonidan qudirilgan ikkita piramida Xufu ehromiga qaraganda kichikroqdir.

Gizadagi ehromlar ichida ulkanligi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turuvchisi fir’avn Xefrenga tegishli ehrom bo‘lib, u Xufu ehromidan 40 yil keyinroq qurilgan. Bu ehrom asosi tomonlarining uzunligi 215,3 metrdan, balandligi esa 143,9 metdir. Ehrom cho‘qqisidagi qadimiy bezak namunasi – oq bazalt qoplamasи qisman saqlanib qolingan.

Uchinchi ehrom oldingi ikkitasiga qaraganda ancha kichik. U fir’avn Mikeringga tegishli bo‘lib, ming yillar davomida o‘z nafisligini saqlab qolgan. Bu kichik ehrom tomonlarining uzunligi 108,4 metrdan, balandligi esa 66,5 metrga (hozir 62 metr) teng bo‘lgan.

Uch ehrom ham ba’zi zamonlarda talon-taroj etilganligi sababli, uning ichidagi ashyolari yo‘qolgan. Beshinchi va oltinchi sulola fir’avnlari (miloddan avvalgi XXVI–XXIII asrlar) ham Giza va Abu Sirda bir qancha ehromlar qudirganlar. O‘n birinchi va o‘n ikkinchi sulola (miloddan avvalgi XXI–XVIII asrlar) vakillari ko‘proq Dahshur, Xavara va El-Lahunda piramidalar qurishgan. O‘sha davrdan so‘ng aslzodalarning qabri sifatida ishlatilgan ehrom qurilishi to‘xtatildi. Misriklar fir’avnlarni o‘n sakkizinchi sulola davrida (miloddan avvalgi XVI–XIII asrlar) poytaxt bo‘lgan Teb yaqinlaridagi Qiollar vodiysida, qoyalarda o‘yilgan dafnxonalarga ko‘mishni boshladilar.

Ehromning har biri 20 tonna og‘irlikdagi toshlardan bунyod etilgan va bu toshlar yuzlab kilometrdagi uzoq masofalar-

dan keltirilgan. Ehrom kimning nomiga qurilgan bo‘lsa, uning mumiyosi turgan xonaga yilda 2 marotaba: uning tug‘ilgan kuni va taxtga chiqqan kuni Quyosh nuri kiradi, Gizadagi uch ehrom oralari Pifagor uchburchagi tuzilishi shaklida ishlangan. Bu uchburchak yon tomonlari bir-biriga mutanosib bo‘lib, 3 : 4 : 5 ni tashkil etadi.

Sfinks. Sfinks – Nil daryosining g‘arbida joylashgan, Giza vodiysidagi boshi odamniki bo‘lgan va yerda yotgan ulkan sherning haykali hisoblanadi. Ushbu haykal yuzi fir’avn Xefren (Xafra, miloddan avvalgi XXVI asr) qiyofasi shaklida tasvirlangan. Haykalning uzunligi 72 metr, balandligi esa 20 metrni tashkil etadi. Oldingi oyoqlari oralig‘ida qachonlardir katta bo‘limgan ibodatxona mavjud bo‘lgan. Uni “dahshat otasi” deb atashgan. Ayrim arab qadimshunoslari aslida “sfinks” so‘zi Yunonistonga Misrdan borib qo‘llanilgan desa, boshqalari yunon tilidan kelib chiqqan, degan fikrni aytishadi. “Sfinks” so‘zi yunonchada aynan “bo‘g‘ib o‘ldiruvchi” degan ma’noni bildiradi.

Sfinksning aniq qurilgan davri haligacha sirligicha qolmoqda. Zamonaviy adabiyotlarda qadimgi mualliflarning mulohazalariga ko‘ra, uning bunyodkori Xefren bo‘lgan, bu fikr faqatgina Sfinks va uning yaqinidagi ehrom qurilishida bir xil kattalikdagi toshlardan foydalaniqligi bilan asoslanadi.

Qohiradagi Misr muzeyi (inglizcha *Egyptian Museum*). Qadimgi Misr davriga oid 120 mingdan ortiq noyob yodgorliklarni o‘zida mujassamlashtirgan Qohiradagi Misr muzeyi dunyodagi eng katta qadimiy muzeylardan biri sanaladi. Uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan bu muzey dastlab 1825-yilda tashkil etilgan bo‘lib, Azabakeya ko‘li yaqinida joylashgan. O‘scha davrdagi Misr hukmdori qadimiy tarixiy topilmalar va yodgorliklarning haqiqiy qiymatini baholay olmasdan, ularni XIX asr o‘rtalarigacha Misrga tashrif buyurgan yevropalik sayyohlarga berib yuborgan.

Keyinchalik, yodgorliklarning qolgan qismi Azabakeya ko‘li yaqinidagi qal’aning tashlandiq xonalaridan biriga keltirilgan. Avstriya imperatorining o‘g‘li Maksimilian qal’aga tashrif buyurganida ushbu topilmalarga qiziqib qoladi. Misr hukmdori bo‘lgan Abbas I hamma noyob buyumlarni Avstriya shahzoda-siga berib yuboradi. Shundan keyin, Maksimilian ularni Avstriyaga olib ketgan va ular hozirda o‘sha yerda saqlanmoqda.

Muzey binosi 1900-yili fransuz me’mori Marsel Dyunon loyihasi asosida neoklassik uslubda qurib bitkaziladi. Bir qancha urinishlardan keyin misrshunos olim Avgusto Maritte 1902-yil 15-noyabrida hozirda mashhur Tahrir maydonida joylashgan Misr muzeyini ochishga muvaffaq bo‘ldi.

Avvalgi vaqtarda eksponatlar ko‘rgazmaga qo‘yilishiga qaramasdan, ikki barobar ko‘p bo‘lgan noyob buyumlar muzey omborxonasida saqlangan. Chunki, muzeyga tashrif buyurgan mehmon ularni olib ketishi mumkin edi.

Misr muzeyi ikki qavat: yerosti bo‘limi va ustki qavatdan tashkil topgan. Yerosti bo‘limida tobutlar, katta haykallar va tosh o‘ymakorligi buyumlari kabi vazni og‘ir ashyolar joylashgan. Mazkur bo‘limdagi eksponatlar qadimgi podsholik, o‘rta podsholik, Yangi podsholik, So‘nggi podsholik davrlari, shuningdek, Qadimgi Yunon–Rim, Qadimgi Nubiya bo‘yicha tashkil etilgan.

Misr muzeyining yuqori qavatida yengilroq bo‘lgan noyob yodgorliklar – asbob-uskunalar, dafn marosimi buyumlari, kichkina haykalchalar, papirus qog‘ozlar, yog‘och tobutlar, ta-qinchoqlar va eng asosiysi, Tutanxamon qabri yodgorliklari saqlanadi.

Qadimgi podsholik davri yodgorliklari. Misr muzeyidagi qadimgi podsholikka oid eksponatlar muzey kirish eshigining chap tomonida joylashgan. Mazkur davrning eng katta yutug‘i Giza ehromlari, Memfis ehromi zinapoyalari, Dahshur va Abu Sir ehromlaridir.

Davlatni Memfis shahridan boshqargan hukmdorlardan biri fir'avn Xafraning ganchdan yasalgan haykali muzey yerostি qavatining ikkinchi zalida saqlanadi. Shuningdek, fir'avn oilasiga tegishli ohaktoshdan yasalgan to'rtta bosh haykalchalar ham ushbu qavatda ekspozitsiyaga qo'yilgan. Bundan tashqari, tashrif buyuruvchilarga xizmatkorlarning har kunlik yumushlari aks ettirilgan haykalchalari ham o'rin olgan.

O'rta podsholik davri yodgorliklari. O'rta podsholik davriga tegishli bo'lgan 10 ta mashhur haykallar hozirda Misr muzeyida saqlanmoqda. Mazkur barcha haykallar o'n ikkinchi sulola hukmdori fir'avn Senusert I ni aks ettiradi. Senusertning xuddi xudo Osirisga o'xshab ishlangan 3 ta haykali Janubiy Qohiradagi El Lisht yaqinidan topilgan.

Yangi podsholik davri eksponatlari. Yangi podsholikning turli davrlariga oid xudolar, fir'avnlar va haykallarining katta kolleksiyasi, shuningdek, mumiyolangan asboblar, o'rindiqlar, yog'och buyumlar, tojlar Misr muzeyining noyob eksponatlari sirasiga kiradi.

Qohiradagi Qibtiy muzeyi (inglizcha *The Coptic Museum in Cairo*). Qohiradagi qibtiy san'ati namunalariga doir dunyodagi eng boy kolleksiyaga ega muzey.

Muzey qadimda Misr Bobili nomi bilan mashhur bo'lgan, nasroniy (copt – qibtiy)lar istiqomat qilgan Qohiraning ko'hna tumanlaridan birida ikki qavatli binoda joylashgan. "Copt" so'zi "aygyuptos" so'zidan olingan bo'lib, Misrning yunon tilidagi nomlanishini bildiradi.

1908-yili qibtiy Markus Simaykga tegishli bo'lgan madaniyat va san'at ashyolari to'plami negizida asos solingan. Muzey tashrif buyuruvchilar uchun 1910-yilda ochilgan va dastlab qibtiy patriarxiya ko'magida rivojlangan. 1939-yili muzey uchun kengaytirilgan yangi bino qurib bitkaziladi. Hozirda muzey maydoni 8 ming kvadrat metrni tashkil etadi.

Muzeyga kirishda rus haykaltaroshi B.O. Fredman-Klyuzel tomonidan tayyorlangan Markus Simaykning haykalini ko‘rish mumkin. Binoning o‘zi ham (eshiklari, ayvon, oyna panjalarli, oyna, eshik qulf va tirkaklari qadimgi qibtiy uy va cherkovlardan olingan) qibtiy madaniyat eksponati bo‘lib xizmat qilmoqda. Muzey kolleksiyasidagi to‘qimachilik mahsulotlari, kitoblar, diniy madaniyat ashyolari, shuningdek, maishiy tur mush buyumlari Misr jamiyatida qibtiylarning muhim rolga ega ekanligi haqida guvohlik beradi. Umuman, muzeyda Misrning turli hududlaridan to‘plangan bir ming olti yuz atrofidagi ashyolar mavjud.

Muzeyning 29 zalida qibtiy cherkovining gullagan davri – taxminan III–XI asrga taalluqli bo‘lgan eksponatlar namoyish etilgan. Muzey binosi 2006-yilda qayta ta’mirlangan.

Savol va topshiriqlar

1. London milliy galereyasining eng mashhur eksponatlari qaysilar?
2. Britaniya muzeyidagi Markaziy Osiyo tarixiga oid eksponatlar haqida ma’lumot bering.
3. Rossiya Federatsiyasi Davlat Ermitajida saqlanayotgan mashhur eksponatlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Tretyakov galereyasida qaysi o‘zbek rassomlari asarlarining namunalari mavjud?
5. Giza shahridagi ehromlar qurilishi to‘g’risida Internet veb-sahifalaridan ma’lumot to‘plang.

Manbalar va adabiyotlar

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1–12-jild. – T.: O‘zME davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006-yy.
2. Восток и запад: Искусство исламского мира. Каталог выставки. Государственный Эрмитаж. – СПб., 2011.
3. Барагамян А. Великие музеи мира. – М., 2011.
4. Лувр. Музеи мира. Том 3. – М., 2011.
5. Grebe A., Lessing E. The Louvre: All the Paintings. – New York, 2011.

6. Grebe A. The Vatican All the Paintings: The Complete Collection of Old Masters. Plus more than 300 Sculptures, Maps, Tapestries, and Other Artifacts. – New York, 2013.
7. Fossi G. Uffizi. Art, history, collections. – Florence-Milan: Giunti Editore. S.p.A., 2004.
8. Neverov O.Ya. Alexinsky D.P. The Hermitage Collections: Volume I: Treasures of World Art. – New York: Rizzoli International Publ., 2010.
9. Neverov O.Ya., Alexinsky D.P. The Hermitage Collections: Volume II: From the Age of Enlightenment to the Present Day. – New York: Rizzoli International Publ., 2010

9-MAVZU. O'ZBEKİSTONDA MUZEY İSHİ TARİXI

REJA

1. O'zbekistonda muzeylar tashkil etilishida ilmiy jamiyatlar hamda kolleksionerlarning roli.
2. O'zbekistonda tashkil etilgan ilk muzeylar faoliyati.
3. 1917–1980-yillarda O'zbekistonda muzei ishi.
4. O'zbekistonda ixtisoslik muzeylarining tashkil topishi va ularning xususiyatlari.

O'zbekistonda muzeylar tashkil etilishida ilmiy jamiyatlar hamda kolleksionerlarning roli. O'rta Osiyoning (hozirgi Markaziy Osiyoning) naqadar chiroyli ko'rinishga hamda badiiy bezakka ega me'moriy obidalari, ya'ni saroy, masjid, madrasa va minoralari, madaniy boyliklari mavjud bo'lganligi asrlar davomida mintaqaga tashrif buyurgan ko'plab sayyoohlar hamda tarixchilarning yozma manbalarida qoldirgan qaydlarda o'z ifodasini topgan. Asosiysi, ular bu yerda yuksak sivilizatsiyani bunyod qilgan xalq yashaganligi haqida guvohlik beradi.

Rossiya imperiyasi tomonidan 1853-yili Oqmachitning bosib olinishidan to 1876-yili Qo'qon xonligining tugatilishiga qadar ularning barcha yurishlarida olimlar ishtirok etib, turli hujjat, qo'lyozma, kitob va boshqa ashyolarni toplashgan. General-gubernator K.P. fon Kaufman farmoniga asosan Samarqand istilosidan so'ng qo'lga kiritilgan xalifa Usmon Qur'oni sharqshunos A.L. Kun tashabbusi bilan Peterburg ommaviy kutubxonasiga jo'natiladi. Buxoro amirligida Muzaffarning to'ng'ich o'g'li Abdumalik to'ra boshchiligidagi qo'zg'oltonni bostirish davomida rus harbiy ekspeditsiyasi Shahrisabz va Kitob beklaridan 97 ta qadimiy qo'lyozmani olib qaytgani ma'lum.

Xivaga 1873-yilgi yurish davomida qo'shin tarkibida qat-

nashgan sharqshunos olim A.L. Kunga (1840–1888) Peterburg kutubxonasi va muzeylari uchun ilmiy ahamiyatga molik hamma narsalarni sinchiklab tekshirish hamda to'plash topshirilgan edi. Natijada, xon kutubxonasidan uch yuzga yaqin qo'lyozma-kitoblar musodara qilinadi. Xiva xonlarining tanga pul zarb qiladigan 200 nusxa qolipi, bir qancha muhr, xonning taxti, 172 nusxa mo'g'ullar davri tangalari, qo'ng'irotlar sulolalariga oid tangalardan 3 nusxdan, ko'plab etnografik buyumlar to'plami imperiya poytaxtiga jo'natilgan. Xiva ustalarining kandakorlik san'ati namunasi bo'lgan taxt 1874-yilda Qurol-aslahalar palatasiga yuborilgan. Xivadan olib ketilgan ayollar va bolalar kiyimlari, oltin va kumushdan tayyorlangan zargarlik buyumlari Sarskoe selo qo'riqxonasi, Peterburg badiiy rag'batlantirish jamiyati muzeyi hamda Moskva politexnika muzeylariga taqsimlab berilgan. Xiva xonligidan talangan qimmatbaho buyumlarning katta qismi Rossiya Davlat Ermitaji, Etnografiya muzeylariga berilgan.

Qo'qon xonligini tugatish paytida (1875–1876) tarix, tibbiyat, huquqshunoslik va diniy ilmlarga oid bir yuz o'ttizga yaqin qo'lyozma musodara qilinadi. Bu qo'lyozmalar dastlab Turkiston Xalq kutubxonasi, so'ng Rossiyaga olib ketilib, imperator Xalq kutubxonasiga topshirilgan.

Respublika Markaziy Davlat arxividagi hujjatlar ichida Turkiston general-gubernatori Kaufmanga 1878-yil 27-oktabrda yuborilgan tashakkurnoma saqlanib, unda Kavkaz noibi boshqarmasi Toshkentdan yuborilgan 7 quti etnografik buyumlar olinib, Tiflis muzeyiga joylashtirilganligini qayd etadi.

Bu ma'lumotlar O'rta Osiyoning istilo qilinishi davomida tartibli va uyushgan holda kolleksiyalar to'plab borilganligini ko'rsatadi. Bu jarayon rasmiy tarzda amalga oshirilgan. Bundan tashqari, O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga oid osori atiqalarni arzon-garovga sotib olib, xususiy boylik orttirish payida bo'lgan kishilar ham kam emasdi. Ular qatorida Zaraf-

shon okrugi boshlig‘i general A. Abramov, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori general N. Golovachev, Amudaryo bo‘limi boshlig‘i A. Galkin va boshqalar bo‘lib, ular to‘plagan ashyolar mohiyatan kolleksiyani tashkil qilgan edi.

Rus olimlarining kolleksiyalar to‘plash faoliyati bir tomonidan Peterburg, Moskva muzeylari, kutubxonalari, ko‘rgazma zallari zaxiralarini O‘rta Osiyo buyumlari va qo‘lyozmalari bilan to‘ldirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, boshqa tomondan ma’lum vaqt o‘tib, mahalliy muzeylar tashkil etish hamda ilmiy jamiyatlarni rivojlantirish ishiga yordam berdi. Olimlar, o‘lka-shunoslar, shifokorlar mahalliy aholi vakillari bilan birgalikda Turkistonda yevropacha tamoyildagi muzeylar to‘plamlari, qo‘lyozmalar kolleksiyalarini yig‘ish, ommaviy kutubxonalarni tashkil etish ishlarini boshlashdi.

Toshkentda 1870-yili Turkiston Xalq kutubxonasining tashkil etilishi, xususiy kolleksiya to‘plovchilar xizmati tufayli qator qimmatbaho buyumlar fan uchun asrab qolindi. Xalq kutubxonasida saqlanayotgan arab, fors va turkiy qo‘lyozmalar tavsiisi E.F. Kal tomonidan 1883-yilda nashr etilishi, ilmiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otdi.

Kutubxonaning qo‘lyozmalar bo‘limi 1898-yili Andijon qo‘zg‘olonidan so‘ng, Muhammad Ali ibn Muhammad Sobir (Dukchi Eshon)dan musodara qilingan asarlar bilan boyitildi. Professor V.A. Jukovskiyning ma’lumotiga ko‘ra, kutubxonada islom tarixi, tasavvuf ilmiga oid 194 qo‘lyozma bo‘lgan.

Qilingan sa‘y-harakatlar, ilmiy tadqiqotlarning aksariyat qismi fidoyi olimlar, kichik amaldorlarning shaxsiy tashabbusi bo‘lgan. General-gubernatorlik ma’murlari tomonidan sohaga juda kam mablag‘ ajratilgan. Sharqshunos V.V. Bartoldning yozishicha, “O‘rta Osiyo xalqlari qadimgi madaniyati ni o‘rganish, yodgorliklarni asrash foydasiz emas, balki zararli hamdir” deb hisoblangan. Zero, bunday munosabat xorijdan kelgan sayyoohlар va mahalliy antikvar buyumlar to‘plovchilar

tomonidan yodgorliklar, maqbaralar talon-taroj qilinishiga olib keladi. Jumladan, Sharl Uiyfalfi boshchiligidagi fransuz ilmiy ekspeditsiyasi Samarqand tarixiy obidalarining qoplama koshin namunalaridan yetti qutisini olib ketgan. Mustamla-ka ma'murlarining e'tiborsizligi tufayli, A. Vamberi, V. Frank, G. Mozer va boshqalar orqali ko'plab qimmatbaho buyum, no-dir qo'lyozmalar Yevropa mamlakatlariga chiqib ketdi.

Lekin ayrim holatlarda O'rta Osiyoga mutaxassislar keli-shining ijobiy jihatlari ham bo'lganligini ta'kidlash joiz. Samar-qand me'moriy obidalari bilan tanishib qaytgan shvetsiyalik me'mor Martin Rossiya Moliya vaziri S. Vittega yozgan xatida shahardagi me'morchilik ansamblining jahon madaniyati uchun ulkan ahamiyatini ta'kidlash bilan birga, bu ulug'vor yodgorliklarni muhofaza qilish va o'rganishni tashkil etishni so'raydi. Natijada, 1895-yili bu tadbir uchun ma'lum mablag' ajratilib, o'lchash, chizmalar chizish, tadqiqot ishlari boshlab yuboriladi. "Go'ri Amir" fotoalbomi ham shu davrda nashr etiladi.

Rossiya imperiyasi istilosidan so'ng ilmiy tadqiqot ishlari-ning aksariyati Turkistonning moddiy boyliklarini o'rganish, ulardan ratsional foydalanishga yo'naltiriladi. A.P. Fedchenko, V.V. Dokuchayev, I.V. Mushketov va boshqalarning tuproqshunoslikka oid tadqiqotlari O'rta Osiyoda mazkur yo'nalishni fan sifatida qaror topishiga xizmat qildi. Sharqshunos olim *Vasiliy Vladimirovich Bartold* 1895-yili Toshkent shahrida Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagini, ya'ni Markaziy Osiyo-ning birinchi sharqshunoslik ilmiy markazini barpo etadi. U paytda to'garak so'zi juda keng ma'noni anglatgan bo'lib, uning a'zolari nafaqat arxeologiya, balki O'rta Osiyo madaniy merosiga oid jiddiy ishlar olib borgan. Olimlar arxeologiyadan tashqari, o'lka tarixi, etnografiyasi, geografiyasi, shu hududda yashovchi xalqlarning tilini ham har tomonlama o'rganishadi. To'garakka Turkiston o'lkasi tarixini o'rganishga qiziquvchi har qanday havaskor a'zo bo'lishi mumkin edi. 1886-yilda ular-

ning soni 47 ta bo‘lsa, yil oxiriga kelib 100 tadan oshdi. Yigirma yil mobaynida mazkur to‘garak a’zolari Markaziy Osiyo ning madaniy merosini o‘rganish, tavsiflash, saqlash ishlari bilan shug‘ullanganlar, bu to‘garakning nizomida qayd etilgan maqsadi ham edi. Bajarilgan ishlar yuzasidan majlislar o‘tkazilib, bayonnomalari yozib borilgan. Tadqiqot natijalari 1896-yildan boshlab “O‘rta Osiyo xabarnomasi” jurnalida, 1898-yildan alohida to‘plamlarda nashr qilingan. Deyarli barcha tadqiqot ishlari mana shu to‘garak doirasida olib borilgan.

Rus olimlari Turkiston o‘lkasini o‘rganish, O‘rta Osiyo xalqlari hayoti bilan tanishish davomida mahalliy ziyolilar, turli xalqlar vakillari bilan bevosita muloqotda bo‘lishgan. N.I. Veselovskiy, V.V. Bartold, E.F. Kal, A.N. Samoylovich o‘z ilmiy tadqiqotlarida mahalliy madaniyat, tarix havasmandlariga tayandilar. Ularning ilmiy axborotlari, xabar va maktublarida mahalliy o‘lkashunoslari faoliyati keng tasvirlangan. Ayni paytda rus mutaxassislari bilan hamkorlik mahalliy ziyolilarda kolleksionerlik faoliyati bilan shug‘ullanishga rag‘bat uyg‘otdi.

Turkistonda N.I. Veselovskiy rahbarligida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda qatnashgan toshkentlik savdogar *Akrom Asqarov* yirik kolleksionerga aylandi.

Rus imperatorining arxeologiya jamiyati 1887-yili Akrom Asqarovni “Arxeologiyada erishilgan yutuqlarga yordam qilgанинги учун” kichik kumush medali bilan taqdirlaydi. Uni Parijda gi ilmiy arxeologiya jamiyati ham a’zolikka saylagan. A. Asqarov arab, rus tillarini bilgan o‘z zamonasining yetuk ziylisi edi.

A. Asqarov o‘z vasiyatnomasida to‘plagan kolleksiyalari ning hukumatga topshirilishini iltimos qilgan. Ammo uning o‘limidan keyin yig‘gan ashylari alohida-alohida sotilib, turli odamlar qo‘liga o‘tib ketadi. A. Asqarov kolleksiyasining katta qismi – 14 mingta tanga va 200 ta buyum Turkiston general-gubernatori A.B. Vrevskiy farmoyishi bilan Peterburgga, Imperator arxeologiya komissiyasi ixtiyoriga jo‘natiladi.



Birinchi o'zbek kolleksioneri Akrom Asqarov paviloni

Toshkentdag'i 1878-yilgi qishloq xo'jalik ko'rgazmasida qatnashgan savdogar Mirza Abdulla va Muhammad Shokirlar "Ipak buyumlari ishlab chiqarishni ancha takomillashtirgani va kengaytirgani uchun" oltin medalga sazovor bo'ladi.

Samarqandlik *Mirza Abdulla Buxoriy* savdogar bo'lib, mahalliy ipak, jun, ip gazlama buyumlari fabrikasiga ega edi. U N.I. Veselovskiy bilan ham aloqada bo'lgan. N.I. Veselovskiy uning kolleksiyasini ko'rib chiqib, undan 1202 buyum, shu jumladan, 11 ta tilla, 77 ta kumush tanga, 951 dona chaqa, 18 muhr, odamlar, hayvonlar va boshqa narsalar tasviri tushirilgan 6 ta toshni sotib olgan.

Mirza Abdullaning Peterburg safari, uning rus olimlari bilan muloqotda bo'lishi, keyingi faoliyatida o'z aksini topdi. Endi u oddiy kolleksioner emas, o'lkashunos-to'plovchi sifatida, u yoki bu qadimgi yodgorlik qanday vaziyatda topilgani bilan qiziqdi. Yangi topilmalar haqidagi Mirza Abdullaning ma-

halliy matbuotda chiqishlari imperator arxeologiya komissiyasi a'zolarida qiziqish uyg'otdi. Ular Turkiston general-gubernatori N.O. Rozenbax orqali Mirza Abdullaga murojaat etib, kolleksiyasi bilan tanishtirishini so'raydilar. Mirza Buxoriy roziliyi bilan 1888-yilning 21-oktabrida Peterburgga 6 quti qadimgi ashyolar, tangalar va boshqa narsalar yuboriladi.

Mashhur shoir va mutafakkir Furqat 1891-yilning yozida Samarqandda bo'lganida Mirza Abdulla xonodonida turgan. Xonodon sohibi ming yil va undan ham avvalgi O'rta Osiyo madaniyatini yuksak darajada bilgani, ashyo-buyumlarni zo'r qiziqish bilan tomosha qilganligi haqida Furqat "Turkiston viloyati gazeti" tahririyatiga yozgan maktubida alohida to'xtalib o'tgan.

Yana bir o'lkashunos, qadimgi buyumlar muxlisi, etnograf *Shohimardon Ibrohimov* esa yuksak ma'rifatli va madaniyatli kishi sifatida ajralib turgan. U O'rta Osiyo etnografiyasiga oid ko'pgina asarlar muallifidir. Sh. Ibrohimov o'zbek xalqining tarixi, turmush tarzini yaxshi bilgan. Qozog'istonlik elshunos E. Masanov uning asarlarini "rus bo'lmanan xalqlarga vatanparvarlik munosabatini qaror toptirishga yordam beradi, u rus ilg'or g'oyalari ta'sirida bo'lgan oz sonli savodxon etnograflardan biri edi", deb baholaydi. O'rta Osiyoda o'zbek tilida nashr etilgan "1871-yil kalendar"ning tuzuvchisi ham Sh. Ibrohimov edi.

Shayboniyxon madrasasi mudarrisi, mahalliy o'lkashunos, qadimgi buyumlar havasmandi va to'plovchisi *Abu Said Maxsum* mohir xattot bo'lib, arab yozuvini mukammal bilgan. U Go'ri Amir, Shohi Zinda majmuasining dahmalari va boshqa me'moriy inshootlardagi o'qilishi qiyin bo'lgan yozuvlardan nusxa ko'chirgan. Bu xattotdan sharqshunos olim V.V. Bartold Osiyo muzeyi uchun Sulton Shohruh davridan tortib to Shayboniyxon sulolasining so'nggi davrigacha bo'lgan turli yorliq va hujjatlarni sotib olgan. Uning nomi Ulug'bek rasadxonasi xarobalarining topilishi bilan ham aloqador. Darhaqiqat 1908-

1909-yillari Obirahmat arig'i yaqinidagi Poyirasat tepaligida qazuv ishlarini olib borgan V.L. Vyatkinga qazilma joyini aniqlash va Ulug'bek rasadxonasi qoldiqlarini qidirishda mahalliy keksalarning ko'rsatmalari yordam bergan.

Samarqandlik usta *Mirza Qosimov* shahardagi me'moriy yodgorliklarning koshinkor namunalarini to'plovchi kolleksiya-chi sifatida tanilgan edi. Jizzax yaqinidagi "Temur darvoza" qoyatosh kitobalari ham shu ajoyib rassom va xattot tomonidan qog'ozga ko'chirilgan. M. Qosimov Ulug'bek madrasasining qo'lyozma chizmasini ham tayyorlagan. Uning rasmlari to'plami 1886-yili Toshkentdagи Turkiston hunarmandchilik sanoati ko'rgazmasida namoyish etilib, munosib taqdirlanadi.

Samarqanddagi yodgorliklar majmuasi O'rta Osiyodagi barcha sharqshunos olim, kolleksioner, o'lkashunoslар e'tiborini tortdi. Xususan, I.V. Mushketov Samarqanddagi qabrtoshlar haqida gapirar ekan, mahalliy boshqarma huzuridagi Samarqand va uning atrofidagi yodgorliklar majmuyining nihoyatda qimmatli ekanligini ta'kidlaydi.

To'plangan qadimgi buyum, tanga-chaqalarni saqlaydigan maxsus stol va vitrinalarni ta'mirlash, zarur jihozlar tayyorlash uchun viloyat ma'muriyati ma'lum miqdorda mablag' ajrata-di. To'plangan tangalar 1875-yilning iyulida 700 dona bo'lsa, kutubxonadagi qo'lyozma va kitoblar esa 30 taga yetadi. Zarafshon okrugi mahkamasida saqlanayotgan kolleksiyaning bir qismi 1883-yili Toshkent muzeyiga topshirilsa-da, Samarqanddagi ashyolar ko'payib boradi. Muzey ochish ishida viloyat Statistika komiteti xodimlarining xizmatlari katta bo'lib, ular asosiy bazani shakllantirishadi.

Yettisuv viloyati arxeologiyasi bilan *Turdi Mirg'iyosov* shug'ullanib, arxeologik ashyolarni 16 yil davomida to'plagan. U A.A. Divayevga yozgan maktubida To'qmoq shahri yaqinida olib bongan tadqiqotlarida qadimgi shahar vayronalarini topganini xabar qiladi. Arxeologik tadqiqotlar ajoyib buyum va

ashyolar topilishi bilan yakunlanadi. Mahalliy aholi tomonidan qadimgi shahar g‘ishtlarini talon-toroj qilinishi T. Mirg‘iyosovni tashvishlantirmay qolmaydi. “Biz Verniyga uchta telegramma yubordik, – deb davom etadi u, – ammo hech qanday javob olmadik. Oradan uch yil o‘tib, bu nodir minoradan hech narsa qolmaydi. Qisqacha qilib aytganda, turkistonlik arxeologlar bu yerdagi qadimgi yodgorliklarni o‘z himoya-siga olmasalar, fan va tarix uchun qimmatli hamma narsa ado bo‘ladi”. Ilmiy jamiyatlarning a’zolari, olimlar madaniy merosni kelajak avlod uchun saqlab qolishga ko‘p harakat qilsalar-da, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaganligi bois, badiiy qimmatga ega mazkur ashayolar yo‘q bo‘lib ketdi yoki talon-taroj qilinishiga imkon berildi...

O‘zbekistonda tashkil etilgan ilk muzeylar faoliyati. Turkistonda muzeylar qurilishining boshlanishi, dastlabki muzeylar tashkil etilishi A.P. Fedchenko, V.F. Oshanin, V.V. Bartold, I.V. Mushketov kabi olimlarning nomi bilan bog‘liq. Dastlab, tabiiy kolleksiyalarni birlashtirish va ular asosida muzey tashkil etish masalasi ilmiy jamoatchilik tomonidan kun tartibiga qo‘yildi. A.P. Fedchenkoning Turkiston general-gubernatoriga yozgan axborotida: “Turkistonni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun u bilan asosli ravishda tanishib chiqish lozim, muzey esa buning uchun eng yaxshi vositadir”, – deb ta’kidlanadi. Bu masala 1871-yili tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo‘limi majlisida yana ko‘tarildi.

O‘rta Osiyo olimlari ilmiy jamiyatni uni bir necha yillar mobaynida hal etilishini qayta-qayta so‘rashadi. Nihoyat, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori, general N. Golovachyov 1876-yilning 9-yanvarida muzeyni komplektlash bo‘yicha yig‘ilishga N.A. Mayev, V.F. Oshanin, A.I. Vilkins, D.Yu. Yujakov va I.I. Krauzelarni taklif etadi. Yig‘ilishda muzey ochishga qaror qilinadi.

1876-yil 16-martdagи “Түркестанские ведомости” gazetasи tahririyatining general-gubernator idorasiga rasmiy maktubida gazeta muharriri N.A. Mayevning *Toshkentda muzey* ochish haqidagi bayonnomasi yuborilayotgani xabar qilinadi.

O'rta Osiyo tabiat taddiqotchilari N.A. Severev, A.E. Regel, I.V. Mushketov, D.L. Ivanovlar o'zлari to'plagan qush, baliq, o'simlik va ma'dan kolleksiyalarini muzeyga topshirishadi. Shu tariqa, O'rta Osiyoda birinchi muzey 1876-yili tashkil topdi.

Lekin davlat tomonidan bino berilmagani uchun, N.A. Mayev o'zining ipakchilik maktabidan muzey uchun ikki xona ajratdi. Ko'p o'tmay, muzey Statistika bo'limi ixtiyoriga o'tkaziladi. Muzey ta'minoti uchun yiliga 300 so'm ajratilganidan tashqari, ayrim shaxslar tomonidan moddiy yordam ham berilgan. N.A. Mayevning yozishicha, muzey faoliyati uchun yiliga 1600 so'mlik mablag' talab etilgan.

1877-yilning yanvariga kelib, muzey etnografiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi, tabiat tarixi va arxeologiya bo'yicha bir yarim mingdan ortiq ashyolarga, sakkiz yuzga yaqin qadimiy tangalarga ega bo'ldi. Mazkur eksponatlar asosida etnografiya-texnika, tabiat, tarixiy-arxeologiya, numizmatika, qishloq xo'jaligi bo'limlari mavjud edi. Ekspozitsiya an'anaviy amaliy san'at namunalaridan boshlangan bo'lib, unga Ili vohasida yashagan uyg'urlarning G'uljadan yuborilgan an'anaviy kiyimlari ham kirgan edi. Shuningdek, ko'rgazmaga qurolyarog'lar, musiqa asboblari kolleksiyasi, ipak, jun, paxta tolasidan to'qilgan gazlamalar, hisor olachasi, shahrisabz bahrombegisi, Qoshg'ar bozorlarida sotiladigan ingliz gazlamalari namunalari, kitobat va yozish qurollaridan boshlab, chinni, tunj, loydan ishlangan haykalchalar, mahalliy qog'oz namunalari, zargarlik buyumlari, tumor kabi diniy tasavvurlar bilan bog'liq ashyolar o'rinn olgan edi.

Tabiatshunoslik bo'limida yo'lbars, qo'tos tulumlari bilan bir qatorda turli-tuman hasharot, qushlarning kolleksiyasi,

o'simliklar gerbariysi mavjud bo'lgan. Ma'danlar bo'limida O'rta Osiyoning turli hududlaridan keltirilgan toshko'mir, oltin-gugurt, tuz, neft, tog' jinslari va ma'danlari, temir, mis rudalari namunalarini ko'rish mumkin edi. Numizmatika bo'limida miloddan avvalgi III asrdan milodning IV asriga qadar Yunon-Baqtriya, kushonlar, hind hamda musulmon tangalarining eng noyob namunalari o'rinni oldi. Arxeologiya bo'limida To'ytepa, Shohruhiya, Issiqko'l rayonlaridan keltirilgan me'moriy obidalarning sirli koshinlari joylashtirilgan. Qishloq xo'jaligi bo'limi turli o'simliklarning urug'lari, asalarichilikka oid ashyolar, ipakchilikka oid kolleksiyalar, dendrologiya namunalaridan iborat edi.

Muzey ashyolari maxsus to'planmagan bo'lsa-da, unda qimatbaho va noyob buyumlarning asl nusxalari mavjud edi. Mazkur muassasaning tashkil etilishi fanning turli tarmoqlarida foy-dalanish mumkin bo'lgan xilma-xil kolleksiyalarni to'plash ishlarini davom ettirishga turtki berdi. Natijada, ekspozitsiyalarni kengaytirish, bo'limlarni ma'lum darajada tartibga solish uchun dastur ishlab chiqildi hamda u geografiya, antropologiya, texnika, sanoat va etnografiya bo'limlariga bo'lindi.

Muzey Nizomi ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Unda muzeyning ixtisoslik vazifasi, ish ko'lami belgilab berildi. Dastlab muzeyni besh kishidan iborat nazorat qo'mitasi boshqardi. Nizomga muvofiq muzeyga geologiya, botanika, zoologiya, etnografiya, arxeologiya, numizmatika, sanoat va qishloq xo'jaligi bo'yicha eksponatlar to'plash hamda saqlash huquqi berildi. Mazkur Nizomda: "Muzey ommaning O'rta Osiyo o'lkasi bilan tanishuvi va to'plangan materiallarni olimlar o'z sohalari bo'yicha o'rganishlari uchun ochildi", – deyilgan edi. Lekin, muzey bu talabga to'liq javob bera olmas edi. Chunki, u eksponatlarning bir-biriga aloqasi yo'q, alohida kolleksiyalardan iborat edi. Nizoming bu bandidan muzey tashkilotchilari, uning vazifasini ilmiy-ma'naviy muassasa sifatida belgilaganlari ko'riniib turib-

di. Albatta, o'z davri uchun Turkistonda tashkil etilgan birinchi muzeyning ahamiyati katta edi. Undagi kolleksiya to'plamlari va ekspozitsiyaning qadr-qimmati yillar o'tib oshib bordi.

Olimlarning fikricha, 1876–1880-yillar Toshkent muzeyi faoliyatining muhim bosqichi bo'ldi. Mazkur davrda numizmatika, etnografiya bo'limlari boy kolleksiyalar bilan to'ldirildi.

1881–1889-yillar Rossiya imperiyasi tarixida “liberal islohotlar” davridan “reaksion harbiy politsiya tizimi”ga o'tish bilan izohlanadi. Bu narodniklarning terroristik faoliyati oqibatida imperator Aleksandr II ning halok bo'lishi bilan bog'liq edi. Ma'murlarning qattiqqo'lllik siyosati madaniy muassasalariga nisbatan ham qo'llanilib, Turkiston general-gubernatori M.G. Chernyayev farmoniga binoan 1883-yili muzey Xalq kutubxonasiga qo'shib yuborildi. Asosiy mablag' kutubxona ga ajratib boriladi. General-gubernatorlik mahkamasi ixtiyoriga o'tgan muzeyga yangi tayinlangan rahbarlarning aksariyati yetarli malakaga ega emasligi, muzey ishining nozik jihatlarini tushunmasligi, unga in'om etilgan osori atiqalarning yo'qolib ketishiga olib keladi. Muzey binosining eksponatlarni saqlash va ta'mirlash uchun mo'ljallanmaganligi, maydonining torligi ashyolarni turkumlash, ularni tartibli joylashtirishga imkon bermasdi. Yaroqsiz holga kelib qolgan muzeyning binosi ta'mirlashni talab etar, buning uchun esa yetarli mablag' yo'q edi. Natijada muzey ko'pincha yopiq bo'lar va qiziquvchilarni doim ham qabul qila olmasdi.

Zarur mablag' va sharoitning yetishmasligi muzey fondi materiallarini ta'mirlash, pasportlashtirish imkonini berma-di. Zoologiya bo'limidagi qimmatbaho kolleksiyalar barbos bo'ldi. Turli hayvonlarning ho'l preparatlarini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan spirtning yo'qligi tufayli bu kolleksiyadan 1883-yili voz kechishga to'g'ri keldi.

Albatta, Toshkent muzeyi xalqning o'zini anglashga, unda o'tmish, tarixga hurmat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qildi.

Ilg‘or fikrli mahalliy ziyolilar jamoatchilikni qadimiy yodgorliklarni asrab-avaylashga, ularni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish hamda muhofaza qilish uchun mablag‘ to‘plashga da’vat etdilar. Vaqtli matbuotda, tarixiy yodgorliklarning holati haqidagi muntazam maqolalar chop etilib, tarixiy topilmalar, xazina izlovchilar, muzeydagи qiziqarli eksponatlar bilan o‘quvchilarni tanishtirish boshlandi. Xususan, madaniy yodgorliklarni muhofaza etishda muzeylarning ahamiyati batafsil yoritildi.

Muzey kolleksiyalarining tez-tez ko‘chirilishi hamda o‘g‘irlanishi natijasida, u jiddiy zarar ko‘rsa ham fidoyilar sa’y-harakatlari tufayli fondlar doimiy ravishda boyitib borildi. Jumladan, Toshkent muzeyi 1884-yilga kelib gerbariy, numizmatika to‘plami, Samarqand kolleksiyalaridan tashqari, 3 mingta turli buyum-ashyolarga ega edi. Oradan yana ikki yil o‘tib, eksponatlar soni 4 mingdan oshib ketdi.

1886-yil 12-iyulda Rossiya imperiyasining “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizomi” e’lon qilindi. Unga binoan ta’sis etilgan maxsus qo‘mitaga muzey ham bo‘ysunar edi. Ammo maxsus qo‘mita faoliyati 1904-yilning oktabrida to‘xtatilgach, muzey boshqaruvi bevosita mahkama rahbari ixтиyoriga o‘tdi.

Muzey qoshida 1906-yili Nazorat qo‘mitasi qaytadan tuzildi, kutubxona va muzey ishlarining yangi qoidalari tasdiqlandi, budgeti ko‘paydi. Shu paytdan e’tiboran muzey va kutubxona uchun bino qurish masalasi ko‘tarildi. Yangi keltirilgan qo‘lyozma, kitob, kolleksiya, eksponatlarning ko‘pligi, bu ishni kechiktirib bo‘lmas zarurat ekanligini ko‘rsatardi. Mazkur masala yuzasidan tayyorlangan axborotda general-governator hamda mahkama boshqaruvchisining dala hovlilarini sotish muzey va kutubxona uchun bino qurishning yagona imkoniyatidir, degan fikr bildiriladi. Sababi, ushbu binolardan kam foydalilanilgan, qolaversa, ularning saqlanishi uchun ma’lum mablag‘ sarflanishi qayd etiladi. Turkiston general-gubernatori kengashi

ushbu tadbirni ma'qullab, muzey binosi loyihasi tuzildi. Loyiha va sarf-xarajatlar smetasi 1911-yilda bosh shtab muhandislik qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilsa-da, lekin ularning barchasi qog'ozda qolib ketadi.

Toshkent muzeyining tarixiy bo'limi taraqqiyotida 1885-yili tuzilgan arxeologiya havasmandlari to'garagining faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi. 1899-yildan boshlab to'garak tashkil etgan arxeologik ekspeditsiyalarning dastlabki arxeologiya va numizmatika materiallari muzeyga topshirilishi yo'lga qo'yildi.

Muzeyga imperator arxeologiya komissiyasi ham O'rta Osiyo tarixiga oid qator qiziqarli ashylarni topshiradi. Shaxslar ham turli idish, tanga, bezaklar bilan muzey fondlarini to'ldirib borishga ko'maklashadi. Jumladan, fonddan sharqshunos E.F. Kalga tegishli sopol, metall buyum, tanga-chaqalar dan iborat xususiy kolleksiya ham o'rin oladi. Shunday qilib, 1897-yilda muzeyning arxeologiya va numizmatika bo'limlari qazilmalardan topilgan 1345 buyum, 2017 dona tangaga ega edi.

Mahalliy ustalar tomonidan topshirilgan asbob-uskuna, charm mahsulotlari namunalari etnografiya sohasida alohida e'tiborga molik edi. Lekin binoning torligi muzeyni qimmatbaho eksponatlardan mahrum etardi. Xususan, 1900-yilgi San-Lui ko'rgazmasi uchun tayyorlangan etnografiya kolleksiyasini Toshkent muzeyi qabul qila olmadi. Muzey jamg'armalarining mavzu jihatdan xilma-xilligi, ma'lum ma'noda tartibsizligi, ko'pchilik topilmalarning aniq joyi, vaqtি ko'rsatilmagani ko'zga tashlanar edi. Umuman, 1880-yillarning boshidayoq ashyo (tartib) ro'yxatini tuzish ishlari boshlangandi. E.F. Kal 1886-yili etnografik, numizmatika va arxeologiyaning ayrim ashylari katalogini, N.A. Mayev 1889-yili zoologiya kolleksiyasi katalogini tayyorladi. Arxeologik materiallarni ro'yxatga olish 1901-yilda yakunlandi.

Muzey moddiy holatining og‘irligi kolleksiyalarning yo‘qolishi, bo‘limlarning qisqarishiga olib keldi. 1900-yilga kelganda faqat etnografiya, arxeologiya va numizmatika bo‘limlarigina faoliyat ko‘rsatar edi. O‘sha yili ro‘yxatga olingan kolleksiyalar holatiga qarab, ekspozitsiyalar haqida fikr yuritish qiyin emas. Ro‘yxat besh qismdan: gravyura va fotosuratlar; dafn etish va qabrtoshlar bilan bog‘liq ashyolar; uy-ro‘zg‘or buyumlari; kichik arxeologik ashyolar; numizmatika kolleksiyalaridan iborat edi.



Toshkent muzeyining XX asr birinchi yarmidagi ko‘rinishi

Arxeolog L.I. Zimin 1914-yili arxeologiya-numizmatika bo‘limining xronologik jadvalini yaratish, ashyolarning ilmiy pasportini ishlab chiqishga urinib ko‘rgan.

Muzeysiga keladigan tomoshabinlar soni yildan yilga oshib borgan. Xususan, 1900-yili tomoshabinlar soni 5400 kishi bo‘lsa, 1908-yilga kelib – 10 ming, 1913-yili esa 37 ming nafar kishiga yetdi. Bu borada eng muhimi muzeysiga keluvchilar ning aksariyat qismi mahalliy aholi vakillari ekanligidir. “O‘rta Osiyo hayoti” gazetasida berilgan xabarda “Garchi muzeey eksponatlari mahalliy tilda izohga muhtoj bo‘lsa ham, ularni zo‘r

qiziqish bilan tomosha qilayotgan mahalliy aholi orasida ruslar umuman kam ko‘rinardi”, deyilgandi.

Toshkent muzeyining muvaffaqiyatli faoliyati Turkiston o‘lkasidagi boshqa shaharlarda ham muzey tashkil etish uchun yo‘l ochdi. Bu borada ikkinchi muzeyning *Samarqand shahri*-da ochilishi to‘la asosga ega edi, albatta. Sababi, bu qadimgi shahar o‘z yodgorliklari bilan nafaqat olim va sayohatchilarni, balki jamoatchilikning keng qatlamini o‘ziga jalb etardi. Samarqandda havaskor o‘lkashunoslar, yodgorlik buyumlarini to‘plovchilar, kolleksionerlar ham talaygina edi.

Zarafshon okrugi boshlig‘i mahkamasida (keyinchalik Samarqand viloyati harbiy gubernatori idorasi) arxeologik qazishmalarda topilgan ashyo, qo‘lyozmalar, in’om etilgan buyumlar to‘planib borilgan. Bu borada Zarafshon okrugi boshlig‘ining arxeologiya, numizmatika va qo‘lyozmalarni to‘plash, aniqlash, ekspozitsiyalash hamda saqlash bo‘yicha maxsus topshiriqlar amaldori M.N. Rostislavovning sa’y-harakatlari e’tiborga sazovor. Uning taklifi bilan 1874-yili maxsus ajratilgan mablag‘ga qadimgi qo‘lyozma, tanga-chaqalar sotib olinadi. To‘plangan ashyo-buyumlar esa ijaraga olingan binolarda saqlangan.

Shu tarzda, Samarqandda, muzey tashkil etish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keldi. Muzey 1896-yilning 21-iyulida ochiladi va unga Georgiyev cherkov binosidan xonalar ajratiladi. Ko‘rgazmada dastlab qishloq xo‘jaligi mehnat qurollari asosiy o‘rinni egallaydi. Shuningdek, keng ko‘lamda bo‘lmasa-da, muzeyda arxeologiya, etnografiya va numizmatika kolleksiyalari ham namoyish etilgan. Devorlarda mahalliy aholi maishiy turmushi, urf-odatlarini ifodalovchi yuzdan ortiq fotosurat osib qo‘yilgan.

Ko‘p o‘tmay, muzeyning arxeologiya kolleksiysi arxeolog V.L. Vyatkin, V.V. Bartold tomonidan topilgan ashyo va buyumlar hisobiga boyidi. Topilmalar orasida somoniylar saroyining devorlariga mansub qoplama bo‘laklarni alohida qayd

etish zarur. Viloyat ma'muriyati muzey uchun har yili 300–400 so'm ajratar edi. Ammo muzeyning torligi ish va namoyish ko'lamlarini kengaytirish imkoniyatini bermasdi. Shu munosabat bilan Samarqand muzeyi uchun bino qurish masalasi 1901-yili ko'tarilsa-da, masala hal etilmay, qog'ozda qolib ketdi.

1894-yilda *Farg'ona viloyatida* Rossiya Qishloq xo'jaligi va davlat mulki vaziri tashrifi munosabati bilan birinchi marta sanoat hamda qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi tashkil etiladi.

Ko'rgazma asosida muzey tashkil etish masalasi ko'tarilib, u ijobiylar qilindi. Muzey ko'rgazmaning qishloq xo'jaligi va o'rmonchilik bo'limlaridagi uskuna, asboblardan tashqari, etnografiya, mineralogiya, zoologiya, mahalliy qurilish ashyolarni namoyon etuvchi xususiy kolleksiyalardan tashkil topdi. U 1899-yildan rasmiy Farg'ona Xalq muzeyi nomini olib, 5 kishidan iborat qo'mita tuzildi.

Asta-sekin muzeylar boshqa shaharlarda ham ochila boshlandi. Nijniy Novgorodda 1896-yildagi ko'rgazmaga yuborilgan kolleksiyalar qaytarilgandan so'ng, 1899-yili uning asosida *Ashxobod muzeyi* tashkil etiladi. 1902–1904-yillarda esa, uning uchun yangi bino ham barpo etiladi.

Muzeylarni tashkil etish, ularning fondini to'ldirib borishda turli yo'nalishlarda uyushtirilgan ko'rgazmalar katta ahamiyat kasb etdi. Albatta, mustamlaka ma'muriyati muzeylar orqali hukmron g'oyani targ'ib qilishga urinar edi. Ammo ilg'or madaniyat vakillari muzey eksponatlari orqali aholiga Turkiston o'lkasi tabiatini, xo'jaligi, tarixi va madaniyatiga oid ma'lumotlarni namoyish etishga intilgan.

Turkiston muzeylari o'lka, umumrossiya va xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etdilar. Sharqshunoslarning 1876-yil 20–30-avgustdagи xalqaro syezdida tashkil qilingan ko'rgazmada G'ulja, Toshkent, Samarqanddagi turli elatlarning yuzga yaqin tiplari tasvirlangan ajoyib albom, Hisor va Ko'lob rasmlari, Qo'qonning tangalari hamda qo'lyozmalari, Samarqandning

qadimgi buyumlari, qo‘lyozmalar namoyish etildi.

Toshkent muzeyi eksponatlari 1889-yili Toshkent fotosuratlar ko‘rgazmasida, 1890-yili Turkiston qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasida ko‘rsatildi. Muzey 1900-yilda Parijda bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rgazmaga mahalliy aholining an‘anaviy kiyimlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, milliy cholg‘u asboblari, charm, shisha, metall buyumlarni, arxeologiya va tabiat tarixi bo‘limi eksponatlarini yubordi. Etnografiya kolleksiyasining katta qismi esa, 1906-yildagi Milan ko‘rgazmasidan ham o‘rin oldi.

Asosiy muzeylar qatorida Toshkentda 1914-yili S.P. Zaverinning *Turkiston mahsulotlari namunalarining savdo muzeyi* Toshkent savdo-sanoat korxonasi tarkibida ochildi. Uning das turiga quyidagilar kirgan:

1. Turkiston o‘lkasining Xiva, Buxoro, Afg‘oniston, Xitoy va Mo‘g‘uliston bilan savdo an‘analarini o‘rganish.
2. Import va eksport savdo muammolarining statistik materiallarini to‘plash.
3. Turkiston bilan savdo aloqalarini o‘rnatgan mamlakat-larning turli mollarini qadoqlash, namunalarini yig‘ish.
4. Mahsulotlarning sifatini tekshirish va qiyoslash.
5. Yuklarni sug‘urta qilish bo‘yicha ma’lumotnomaga berish.
6. O‘zlarining namunalari, kataloglari, ro‘yxatlari, material-lari, shuningdek, mahsulotlarni sotish shartlari va ularning ko‘tara narxlari bilan tanishtirish.
7. Mahsulotlarning doimiy ko‘rgazmasini tashkil etish va shunga o‘xshash xizmatlarni ko‘rsatish.

Mazkur muzey noma’lum sabablarga ko‘ra, tez orada yopiladi va ushbu muzey faoliyat olib borganligi haqida muzey ishi-ga oid adabiyotlarda ma’lumot yo‘q. Uning ochilganligi haqidagi hujjat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanib qoltingan.

Turkistonda ommaviy kutubxona va ommaviy muzeylar aslida mustamlakachilar uchun Turkiston ma’naviy boyliklari-

ni ilmiy asosda o‘rganishni, ularni imperiya manfaatlari yo‘lida o‘zlashtirishni markazlashtiradigan muassasalar xizmatini o‘tash kerak edi. Ularda Turkiston xalqlarining moddiy va ma’naviy boyliklari to‘planib, qiymati aniqlanar hamda eng noyoblari, jahon ahamiyatiga moliklari markazga, Sankt-Peterburg va Moskvaga olib ketilar edi.

Bu davrda kolleksiyalarni birlashtirish va muzey tashkil etish masalasi juda murakkab kechdi. Chunki hukumat xalq orasida tarix va madaniyatga oid bilimlarni keng tashviqot qilish hamda ular e’tiborini qadimgi yodgorliklarga jalb etishni Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosatiga putur yetkazishidan xavfsirar edi. Qadimgi yodgorliklarni muhofaza qilish, saqlashga yaxshi e’tibor berilmaganligi sababli, ayrim chet ellik sayohatchilar va mahalliy noyob buyumlar bilan savdo qiluvchilar tomonidan madaniy boyliklar talon-toroj qilindi. Shu tariqa Markaziy Osiyoning moddiy va madaniy yodgorliklari, qimmatbaho buyumlari, nodir qo‘lyozmalari Rossiya hamda boshqa xorijiy davlatlarga olib ketildi.

Rossiya imperiyasida Oktabr to‘ntarishiga qadar muzeylarni boshqarish uchun alohida boshqarma yoki biron qonun yaratilmagan edi. Erishilgan ma’lum yutuqlar bilan bir qatorda, umumiy tarqoqlik, muzeylar faoliyatining ilmiy asoslangan yagona tizimi yo‘qligi, ishni tashkil etishning past darajasi bu davrga xos xususiyat bo‘lib qoldi. Shunga qaramay muzeylar nafaqat olimlarga, balki keng jamoatchilik ommasiga ham eksponatlarni har tomonlama o‘rganishga imkoniyat yaratdi.

1917–1980-yillarda O‘zbekistonda muzey ishi. Rossiya imperiyasi davrida o‘lkaning moddiy hamda ma’naviy, yerosti va ustki boyliklarini o‘rganish, ulardan imperiya manfaati yo‘lida foydalanish uchun muzeylar tashkil etilgan bo‘lsa, sovet davrida bu ishlar o‘zgacha tus oldi. Bolsheviklar endi, yangi tuzumni targ‘ib etish, yangi g‘oyalarni xalq ongiga singdirishi kerak edi.

1917-yilda amalga oshirilgan davlat to‘ntarishidan so‘ng, xonlarning saroy kolleksiyasi va muzeylar milliylashtirildi hamda davlat mulki deb e’lon qilindi. Badiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan ashyo-buyumlarni aniqlash, ularni ro‘yxatga olish, muhofaza qilish uchun badiiy-tarixiy komissiyalar tuzildi hamda bu tashkilot madaniy merosni saqlab qolishda muhim rol o‘ynadi.

Yangi hokimiyat o‘rnatilgach, muzeylarga rahbarlik qilish Maorif Xalq komissariati huzurida tuzilgan muzeylar, qadimgi yodgorliklar va san’atni muhofaza etish ishlari bo‘yicha Butunittifoq kollegiyasi zimmasiga yuklandi. Keyinchalik, 1918-yilning may oyida bu kollegiya mamlakatdagi barcha muzeylar faoliyatini birlashtiruvchi va ularga boshchilik qiluvchi Maorif Xalq komissariatining muzey bo‘limiga aylantirildi.

Bu esa, muzeylarda saqlanayotgan san’at asarlari va osori atiqalar xalqning boyliklari ekanligi, ularni asrash hamda muhofaza qilish bilan hukumat darajasida shug‘ullanish lozim ekanligini anglatar edi.

Sovet hukumati muzey ishi va yodgorliklarini muhofaza qilish bo‘yicha qonun yaratib, u osori atiqalarni milliylashtirish asoslarini, madaniy boyliklarni asrash, davlat uchun ma’lum yodgorlik yoki kolleksiyaning muhim ahamiyat kasb etishini mustahkamlab qo‘ydi. 1918-yil 20-yanvardagi dekretga asosan cherkov mulki xalqqa tegishliligi belgilandi. Yangi hukumat shu bilan diniy idoralarga oid katta mablag‘ va vositalarga ham ega bo‘ldi. Tarixiy va badiiy ahamiyatga ega bo‘lgan ashyo-buyumlarni chet elga sotish 1918-yilning sentabr-dekabr oylarida e’lon qilingan dekretlar bilan taqiqlandi.

Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yili 19-apreldagi dekreti bilan knyaz Nikolay Romanovning Toshkentdagи hovlilari davlat mulki deb e’lon qilindi, uyi esa xalq muzeyiga aylantirildi. Unda tasviriy san’at, grafika, haykallar, badiiy san’at ashyolari, mebel, chinni, tunj va amaliy san’atning bosh-

qa buyumlari qo‘yilgan edi. Muzey fondlarini to‘latish uchun Moskva Davlat muzeyi fondidan badiiy qiymatga ega bo‘lgan bir yuz yigirmaga yaqin eksponat berildi.

Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining 1920-yil 31-iyuldagи “Turkiston Respublikasidagi ayrim shaxslar va jamiyatlar ixtiyorida bo‘lgan san’at asarlari, qadimgiyodgorliklarni ro‘yxatdan o‘tkazish, hisobga olish hamda qo‘riqlash haqida”gi maxsus qarori muzey jamoalari zimmasiga mas’uliyatli vazifani yukladi. Turkkomstarisning maxsus yo‘riqnomasi bilan muzey ashyolarini rasmiylashtirish va ro‘yxatga olish joriy etildi. Ixtiyorida yodgorliklar bo‘lgan ayrim shaxslarga har tomonlama yordam ko‘rsatilib, maxsus muhofaza yorliqlari berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Muzey uchun qadrli narsalarni aniqlash uchun ilmiy-badiiy ekspert komissiyasi tuzildi. Uning raisi etib Turkkomstaris muzey seksiyasining mudiri A.M. Mironov tayinlandi. Turkkomstarisga qimmatbaho ashyolar bilan savdo qilishda maxsus ekspert komissiyasi belgilagan baho bo‘yicha sotib olish huquqi berildi. Shuningdek, Turkkomstaris ko‘rgazma va nashrlar uchun xususiy kolleksiyalardan foydalanish huquqiga ham ega edi. A. Mironov boshchiligidagi komissiyaning faol harakatlari bilan Turkkomstaris muzey fondini qisqa davr ichida badiiy tarixiy qiymatga ega ko‘plab ashyolar bilan boyitdi.

Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1923-yil 3-noyabr qaroriga binoan, Turkiston o‘lkasining turli viloyatlarida joylashgan 20 ta qadimgi yodgorlik Turkkomstaris ixtiyoriga o‘tkazildi. Tarixiy-arxeologik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan 52ta yodgorlik hisobga olindi. Turkiston ASSRning yettita muzeyida (Buxoro va Xivani qo‘shganda) ashyolar soni 114 075 taga yetdi.

Muzey ishlarini tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun yagona markaziy apparat – Turkkomstarisning tuzilganligi Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy o‘tmishini o‘rganishga sharoit yaratdi. Muzey tizimi shakllanishi barobarida undagi nodir

ashyolarni aholining keng qatlamlariga namoyish qilish muammosi ham hal etildi.

XX asrning 20-yillari xaqli ravishda “o'lkashunoslikning oltin o'n yilligi” deyiladi. Nega deganda, aynan shu davrda mahalliy muzeylar o'lkashunoslik harakati bilan bevosita bog'liq holda rivojlangan. “O'lkashunoslik muzeylari” atamasi ham o'tgan asrning 20-yillari o'rtalaridan keng tarqaladi. O'lkashunoslik ishlarining bu xilda tashkil etilishi, muzeylarning viloyatlar hayotidagi ahamiyatini oshirib, ularni o'ziga xos madaniy va ilmiy markazlarga aylantirdi, jamiyatda ularga “viloyat fanlar akademiyasi”, “o'lkaning jonli ensiklopediyasi” sifatidagi munosabat shakllandi.

Dastlab bolsheviklar hukumati mahalliy ziyolilarning katta qismiga muzeylarda ishlash hamda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish imkonini beradi. O'tgan asrning 20-yillarida muzeyga sovet davrida ta'lim olgan, ammo avvalgi an'ana va tajribalarni o'zlashtirgan yosh avlod ham kelib qo'shildi. Muzeylar faoliyatiga oid masalalar ko'p sonli anjumanlarda va o'sha davr matbuoti sahifalarida keng muhokama qilindi. O'lkashunoslik muzeylarining ushbu yillardagi faoliyati natijasida fondlar to'ldirilib, turli mavzudagi kolleksiyalar viloyatlar tabiatini va xomashyo zaxiralariga oid eksponatlar bilan boyitildi.

Rossiyada 1918–1923-yillari 150 dan ortiq muzey ish boshlagan bo'lsa, Turkistonda 4ta, jumladan, Toshkentdagı san'at, Namangandagi shahar o'lkashunoslik, Xorazm tarixiy-inqilobiya va Buxoro muzeylari tashkil qilindi.

Bu davrda nafaqat O'zbekiston, balki Sovet Ittifoqida mahalliy muzeylar g'oyaviy tazyiqqa uchradi. O'lkashunoslik muzeylaridan 20-yillarning oxiridanoq faqat utilitar, xo'jalik, siyosiy-ma'rifiy maqsadlarda foydalanishga harakat boshlanadi. Natijada, o'lkashunoslik muzeylari hududni kompleks hamda keng qamrovli o'rganishi lozimligi haqidagi juda ham muhim vazifa amalda sxematizm hamda bir tomonlama yondashuvda

amalga oshirildi. Oqibatda mahalliy muzeylarning ko‘pchiligi XX asrning 30-yillariga kelib, madaniyat sohasining ikkinchi darajali tarmog‘iga aylanib qoldi. Shunga qaramay, muzeylar bu ko‘rinishda ham o‘z o‘lkasiga qiziqishni uyg‘otishda, ilmiy bilimlarni ommalashtirishda muhim omil bo‘lib qoldi.

Muzey ishida XX asrning 20-yillari o‘rtalaridayoq bolsheviklarning inqilobiy ruhlari va markazlashishning ta’sirida xavfli yo‘nalishlar ko‘rina boshladi. Xalq maorifi komissarligi qoshida 1920-yili tuzilgan Bosh siyosiy-ma’rifiy komitet muzey bo‘limi ustidan siyosiy nazoratni o‘rnatdi. Davlat tomonidan ma’muriy-buyruqbozlik tizimi shakllana boshlab, RKP(b)ning 1919-yilgi konferensiyasi qarorlarida ko‘rsatilgan muzey xodimlarining jamoatchilik va kasbiy birlashmalarini tuzish taklifi amalga oshmay qoldi. Keyinroq, 1927-yili Oktabr inqilobining o‘n yilligini nishonlash davomida “yuqoridan” ko‘rsatma berilib, unda muzey ko‘rgazmalarida inqilobiy voqealarni aks ettirish talabidan tashqari bo‘lim va ko‘rgazma materiallari nomlari ham belgilab qo‘yildi.

1923-yili barcha muzeylarning fondi davlat mulki deb e’lon qilindi. Maxsus qarorlarga binoan, 1922–1926-yillarda muzeylarga tarixiy-badiiy qiymatga ega bo‘limgan buyum va ashylarni, eskirgan narsa, takrorlanadigan fondlarni sotishga ruxsat berildi. Ushbu yangi iqtisodiy siyosat davrining majburiy chorasi, 1929-yili davlat muzey fondlari omborxonalarining tugatilishi haqidagi qaror antikvariat bozorini shakllantirib qolmasdan, muzey kolleksiyaning sotilishiga va tiklab bo‘lmash yo‘qotishlarga olib keldi.

Ushbu davrda, O‘zbekistonda, qator tarixiy o‘lkashunoslik muzeylari barpo etildi. Jumladan, Farg‘ona viloyati o‘lkashunoslik muzeyi 1925-yili Qo‘qon shahrida, Qo‘qon xoni Xudoyorxonning 1870-yili qurilgan saroyida tashkil etildi. 1925–1927-yillarda Buxoro viloyatida o‘lkashunoslik muzeyini tashkil etish uchun tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Ekspozitsiya dastlab

Ko'kaldosh madrasasining oltita kichik xonasiga joylashtiriladi. Arxeologik ashyolar soni 335ta, etnografiya bo'limida 618ta buyum, zoologiya bo'limida esa, eksponatlar to'qsonga yaqin edi. Sitorai Mohi Xossa Buxoro amirining yozgi saroyida "Amirlar so'nggi sulolasining turmushi" deb atalgan, uch bo'limdan iborat ochiq muzey ekspozitsiyasi tashkil etiladi.

1926-yilning 1-yanvarida Toshkentda (eski shaharda) yana bir muzey ochildi. U qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi respublikadagi ilk tarmoq muzeyi hisoblanar edi. Unda uchta: qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik sanoati, tabiat tarixi bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. Muzeydagi 2 mingga yaqin eksponatning aksariyati noyob buyumlardan iborat edi. Keyinchalik u Toshkent tabiat muzeyi nomini oldi.

1930-yilning dekabr oyida Moskvada Muzeylar qurultoyi o'tkazilib, muzeylar sotsialistik qurilish xizmatiga jalgan etilib, "madaniy inqilob" quroliga aylantirish vazifasi belgilab olindi. Ayni shu davrdan muzeylar tarixida XX asrning 80-yillariga cha davom etgan yangi bosqich boshlanganligini ta'kidlash lozim. Muzeylarda tez orada reekspozitsiya (ko'rgazmalarni qayta tuzish) qilish, sotsialistik qurilish bo'limlarini ochish tavsisiya etildi. Har bir tumanda o'lakashunoslik bo'limlarini tashkil etish, omma orasida g'oyaviy tarbiyani kuchaytirish vazifasi qo'yildi.

Muzeylar tizimini qayta tashkil etish va takomillashtirish XX asrning 30-yillarida davom ettirildi. Ommani inqilob an'analari ruhida tarbiyalovchi tarixiy-inqilobiyl va xotira muzeylari faoliyatini yo'lga qo'yishga e'tibor qaratildi.

1930-yillarning o'rtalarida o'lakashunoslik muzeylarining umumiyl tizimi yaratilib, u uchta ekspozitsiya bo'limi – tabiat, tarix va sotsialistik qurilish bo'limidan tashkil topishi belgilandi. Shu vaqtadan boshlab avvalgi saroy, zodagonlar qo'rg'onlarida joylashgan tarixiy-maishiy hamda tarixiy-badiiy muzeylar soni kamayib boradi.

Muzey ishida 30-yillardagi o‘zgarishlar denga qarshi – ateistik muzeylarni tashkil etishda ham o‘z ifodasini topdi. Bu davrda siyosiy-ma’rifiy ishlarga, xususan, muzeydan tashqari ish uslublari – ma’ruzalar, ko‘chma ko‘rgazmalarga e’tibor kuchaydi. Muzeylarga tashrif buyuruvchilarning soni ko‘p yashiga, ko‘rgazmalarga maktab o‘quvchilarining tartibli jallb etilishi orqali erishilgan edi. Ekspozitsiya ishining ko‘p yillar davom etgan uslubi – siyosiy mazmundagi mavzuli ko‘rgazmalar bo‘lib qoldi. Muzeylarga sotsialistik qurilish va hayot tarzidagi ustunliklarni namoyishi tavsiya etildi. Shunga qaramasdan, muzey ishi ko‘nikmalari avloddan avlodga o‘tgan madaniy faoliyatning ma’lum an’alarini saqlashga yordam berdi.

Sredazkomstaris 1938-yil 7-aprelda tugatilib, uning muassasalari – O‘rtta Osiyo bosh muzeyi, Markaziy badiiy muzey, Hayvonot bog‘i va inqilob muzeyi O‘zbekiston Maorif Xalq komissarligi fan bo‘limi ixtiyoriga o‘tkazildi. Natijada muzeylarning ilmiy-yig‘uv va ilmiy-ekspozitsion faoliyati maydoni torayib, O‘zbekiston hududi bilan cheklanib qoldi.

XX asrning 30-yillarida davom etayotgan siyosiy qatag‘onlar kampaniyasi ham O‘zbekiston muzey ishiga o‘zining salbiy tasirini ko‘rsatdi. O‘shanda, Sovet Ittifoqida, qator yirik muzeylarning g‘oyaviy pozitsiyasi noto‘g‘ri deb topildi. Shu bois, bir necha muzeylarning faoliyati to‘xtatildi.

Urush yillarida esa, ilmiy tadqiqot muassasalari, shu jumladan, muzeylarning faoliyati ham tubdan o‘zgardi. Ko‘pgina muzeylar o‘z binolarini evakuatsiya qilingan muassasalar uchun bo‘shatib berdi. Respublikada muzeylar tarmog‘i keskin qisqartirildi. O‘zbekiston tarixi, madaniyati va san’ati muzeyi nomi ostida San’at, Adabiyot va O‘zbekiston tarixi; Tabiat muzeyi bilan birga, Politexnika muzeyi birlashtirildi. Respublikaning ko‘pgina muzeylari ekspozitsiyalari yig‘ishtirilib, ilmiy tadqiqot faoliyati hamda shtatlar qisqartirildi.

Urushdan keyingi yillarda muzeylar oldida turgan asosiy vuzifalar tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash, tiklash va saqlashga qaratildi. Urush natijasida yetkazilgan zararni keyingi davring iqtisodiy qiyinchiliklari sharoitida to'ldirish og'ir kechdi. Muzey ashyolarini saqlash xonalarining ayanchli ahvoli, nazorat va hisobning yetarlicha olib borilmasligi, qimmatli buyumlarning yo'qolishiga sabab bo'ldi. Bu holatga faqatgina urush emas, balki 1930-yillarda, muzey ishida ilmiy tadqiqot va muhofaza ishlariga e'tibor bermaslik, faoliyat asosan madaniy-ma'rifiy tarbiyaga yo'naltirilgani ham ta'sir etgan edi.

1945-yilda O'zbekiston muzeylari maorif tizimidan madaniy-ma'rifiy muassasalar qo'mitasiga o'tkazildi. Shu tariqa muzeylarning madaniy-ma'rifiy muassasalar tizimiga o'tishi uzilkesil hal etildi.

O'zbekistondagi ko'pchilik muzeylar 1946–1953-yillarda ko'rgazma tipidagi ekspozitsiyalar yaratish yo'lidan bordi. Ammo bu ko'p hollarda yuzaki xarakter kasb etar edi. Bu holatlarga chek qo'yish va muzey ishini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Madaniyat vazirligi madaniy-ma'rifiy muassasalari Bosh boshqarmasi huzurida muzeylar ishini muvofiqlashtirish bo'yicha doimiy harakatdagi uslubiy seminar tashkil etildi.

O'lkashunoslik va muzey ishi ilmiy tadqiqot institutining 1948-yil noyabrda o'tkazilgan kengaytirilgan sessiyasi muzeylarning faoliyati yakunlari hamda istiqbollariga bag'ishlandi. Institut tomonidan "Respublika, o'lka, viloyat va yirik tumanlarning o'lkashunoslik muzeylari haqida"gi hamda "Respublika, o'lka, viloyat va yirik tumanlarning o'lkashunoslik muzeylari ko'rgazmalarini tashkil etishning asosiy tamoyillari" kabi hujjatlarning ishlab chiqilishi hamda qabul qilinishi muhim bo'ldi. Hujjatlarda muzey eksponatlarini unifikatsiyalash amalga oshirilishi ma'qullandi. O'lkashunoslik muzeylarining davlat tomonidan ilmiy tadqiqot va madaniy-ma'rifiy

muassasa deb tan olinishi, muzey ishiga ijobiy ta'sir qildi. Uning tizimida fond bo'limi, kutubxona, ilmiy arxiv, yordamchi kabinetlar bo'lishi ko'zda tutilgan edi. Muzeylarga mustaqil ravishda adabiyot yoki badiiy ko'rgazmalar tashkil etisha ga ruxsat berildi.

1953-yildan boshlab aksariyat muzeylarning ekspozitsiyalarida muayyan burilish yuz berdi. Biroq, bunda hali ham sovet davri siyosatini har tomonlama yoritish saqlab qolingan edi.

Partiya Markaziy Qo'mitasining 1964-yil 12-maydag'i "Mehnatkashlarning kommunistik tarbiyasida muzeylarning rolini oshirish to'g'risida"gi va 1982-yil avgustdag'i "Muzeylarning g'oyaviy-tarbiyaviy rolini oshirish to'g'risida"gi qarorlari O'zbekiston muzeylarini ham "g'oyaviy targ'ibotchi muassasalar" tizimiga uzil-kesil biriktirib qo'ydi. Bu esa muzeylar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1953-yilda Madaniyat vazirligi tuzilgan bo'lishiga qaramasdan, uning muzeylarni boshqarishning ilmiy asoslangan dasturga ega emasligi, boshqaruvning barcha pog'onalaridagi kadrlar darajasining pastligi kuzatilar edi.

Muzeylar boshqarmasi tomonidan 1947-yili "Muzey fondlarini hisobga olish bo'yicha ko'rsatmalar" ishlab chiqildi, 1968-yili uning o'rniga yangi – "Asosiy fondlar tarkibi haqidagi"gi hujjat qabul qilindi. Muzeylarga yagona namunadagi inventar kitoblari ishlab chiqilib, tarqatildi.

1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillarning bosigacha bo'lган qisqa davr Sovet Ittifoqi va respublikalar madaniyati tarixida "iliqlik" davri deb nomlanadi. Unda ijtimoiy hayot va madaniy jarayonlar ustidan qattiq nazorat bir-muncha susaydi. Mamlakat siyosiy rahbariyatining madaniy jarayonlar taraqqiyotida qisman erkinliklar berishi, ijodiy kuchlarni sotsializmni mustahkamlashga ko'maklashishda faollash tirish maqsadini ko'zlagan edi. Jumladan, muzey ishida tabiat va madaniy merosni asrash muammolariga e'tibor kuchay-

di. Ushbu yillarda jamoat muzeylarining umumiyligi soni oshib, dastlabki muzey qo'riqxonalar, badiiy muzeylar tizimini yaratishga faol kirishildi. "Iliqlik" ta'sirini qatag'on qilingan siyosiy va madaniy arboblar haqidagi ko'rgazmalar, ma'lumotlarda hamda qamoqlarda, surgunlarda omon qolgan xodimlarning muzey ishiga qaytishida ko'rish mumkin.

Mazkur davrning yana bir muhim jihatni xalqaro hamkorlikning tiklanishi bo'ldi. 1957-yilda Sovet muzeylari tashkiloti Muzeylar xalqaro kengashiga a'zo bo'ldi. Mazkur kengash, bu davrda, Sovet muzeylari uchun dunyoga ochilgan "darcha" bo'lib, xorijiy muzeylar bilan aloqa bog'lash, jahon muzey amaliyotidagi yangi jarayonlar bilan tanishish imkonini berdi. Butunittifoq muzeylarining I ko'rige 1957-yilda o'tkazilib, bu esa, o'z navbatida, urushdan keyingi o'n yillikda, soha faoliyatini sarhisob qilish uchun imkoniyat yaratgan edi.

XX asrning 60-yillarida respublikada yangi muzeylar tashkil etildi. Shu bilan birga, mavjud muzeylardagi ekspozitsiyalar tubdan qayta ko'rib chiqildi. Bu o'rinda arxeologiya, etnografiya sohasidagi eng yangi ixtiolar, tarix fanining yutuqlari hisobga olindi. Shu yillarda bir qator memorial muzeylar ochildi. Yo'nalishi va maqsadiga ko'ra, bu muzeylarning ekspozitsiyalari olimlar, shoirlar, yozuvchilar hamda siyosiy arboblarning hayoti va faoliyatini ko'rsatish bilan birga, muayyan tarixiy davr, uning ruhi va nafasini ham aks ettirar edi.

1960–1970-yillarda O'zbekistonda muzey tarmoqlarini kengaytirish ishlari avj oldi, moddiy-texnika bazasi tubdan yaxshilandi. Bu davrda jamoat muzeylariga ham alohida e'tibor qaratildi. Dastlabki jamoat muzeylari XX asrning 20–30-yillarida tashkil qilingan bo'lsa, 1970-yilda O'zbekistonda bu turdagi muzeylar soni 60taga yetdi, ularning faoliyati davomida 4 mingta ekskursiya o'tkazilgan va ko'rgazmalarni 200 ming kishi tomosha qilgan. Mazkur muzeylar davlat, boshqarma, tashkilot, oliy ta'lim muassasasi, maktab muzeylari vazifasini

o'tab, muzey tizimining ajralmas qismi, davlat muzey fondini to'ldirish vositasi bo'lib qoldi. O'z faoliyatida tashkiliy, g'oyaviy-siyosiy, ilmiy-ma'naviy, targ'ibiy, madaniy-tarbiyaviy darajaga erishgan muzeylarga "Xalq muzeyi" maqomi berildi. Toshkentda bunday sharaflı nomga Chkalov aviatsiya birlashmasining harbiy va mehnat shon-shuhrati muzeyi, Teplovoy-vagon ta'mirlash zavodining hamda Ichki ishlar vazirligining harbiy va mehnat jasorati muzeylari erishgan. Bu xildagi muzeylar soni O'zbekiston bo'yicha 1984-yilga kelganda jami 415ta bo'lib, ulardan 22tasi "Xalq muzeyi" nomiga sazovor bo'lgan.

Jamoat muzeylarining keskin ko'payishi mamlakatda aholining tabiiy-madaniy merosga ommaviy qiziqishining natijasi edi. Ular professionallik jihatidan davlat muzeylaridan past bo'lsa-da, davlat muzeylarining g'oyaviy cheklanganligi, formalizmiga qarshi ommaning "namoyishi" deb munosabat bildirilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Jamoat muzeylarining madaniy va ijtimoiy hayotdagi o'rni aholini muzeylar tashkil etish ishiga bevosita jalb etish, o'z qishlog'i, shahri, korxonasining tarixini o'rganish, madaniy yodgorliklarni asrash bilan xarakterlanadi. Jamoat muzeylari ichida son jihatidan eng ko'pchiligini maktab muzeylari tashkil etadi. O'zbekistonda ular XX asrning 60-yillaridan tashkil qilina boshlangan edi.

Umuman olganda, 1960–1980-yillarning boshida muzeylarga kiruvchilar sonining keskin o'sishi kuzatiladi. Muzey ishi jamoatchilik diqqat markazida turdi. Muzeylar, ular faoliyati, madaniy yodgorliklarni asrash muammolari haqidagi munozaralar nafaqat maxsus nashrlarda, balki matbuotda ham keng muhokama qilindi. Jamiyatda muzeylarga qiziqishning oshishi muzey faoliyatiga davlat tomonidan e'tiborning kuchayishiga olib keldi. 1966-yilda O'zbekiston Respublikasi tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati tuzilib, unga alohida shaxs, ayrim jamoalar a'zo bo'la boshladilar. Natijada, yirik

zavod, korxonalar jamiyatga a'zolik badali tarzida nasbatan salmoqli mablag'larni o'tkazish imkoniga ega bo'ldilar. Bu vaziyat jamiyatga darhol yuqori maqom berib, u, eng avvalo, davlat manfaatlarining himoyachisi, ayniqsa, sobiq hukmron g'oyaga zid bo'lmagan tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilishda qo'l keldi. Ammo masjid, madrasa, xonaqohlarni buzish, ularni tahqirlab omborxonalarga aylantirish siyosati davom etdi. Ular muhofazadagi binolar ro'yxatidan chiqarilganligi tufayli, bu joylarni sanoat korxonalarini, vaqtixushlik muassasalariga aylantirish hollari ham uchrab turardi.

Jamiyatda tarixiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishga hamda ulardan foydalanishga munosabatning ijobiy tomonga o'zgarishi, yangi muzey muassasalarini, muzey-qo'riqxonalarining vujudga kelishiga ko'maklashdi. Ularning o'ziga xosligi, ma'lum ko'chmas yodgorlik asosida bunyod qilinishi, uning atrofidagi tarixiy-madaniy va tabiiy muhitni muhofaza qilish yoki tiklanishi bilan bog'liqligida namoyondir. Muhim tarixiy-madaniy va tabiiy-madaniy qadrga ega bu xildagi muzeylarning dastlabki kundanoq yuqori mavqeni olishi, ularning tarixiy-madaniy osori atiqalar yirik majmuasi tarzida muhofaza qilinishiga imkoniyat yaratish etdi. XX asrning 60-yillarida Xiva shahrida "Ichan Qal'a" Davlat muzey-qo'riqxonasi barpo etildi.

Ushbu davrda muzey tizimidagi yetakchi o'rinni O'zbekiston Madaniyat vazirligi doirasidagi davlat muzeylari tashkil etar edi. Boshqa tashkilotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi muzeylar soni 3 taga yetdi. O'lakashunoslik muzeylarining tabiiy-ilmiy ko'rgazmalardan, landshaftli ko'rgazmalarga o'tish jarayoni 1970-yillarda yakunlandi. Tez sur'atlar bilan o'sayotgan muzeylar tarmog'iga muzey-qo'riqxonalar, jonli eksponatli muzeylar kirdi.

Sovet hokimiyati davrida muzey ishini tashkillashtirish usullaridan biri, markazlashgan muzeylar tizimini yaratish bo'ldi.

Bunday birlashmalarning asosiy maqsadi muzeylarni nazorat qilish, muzey to‘plamlaridan g‘oyaviy hamda targ‘ibot maqsadlari uchun kengroq hamda unumliroq foydalanish, viloyat, shahar, tuman muzeylari faoliyat darajasini oshirish, ayrim muzeylarning tematik qayta tashkil qilish vazifalarini hal etish edi.

Yangi muzey, ko‘rgazmalarning tashkil etilish jarayonining tezlashuvi, muzeylarni loyihalashtirishda ham o‘zgarishlarga olib keldi. Ko‘rgazma dizayni badiiy ijodiyotning mustaqil hamda istiqbolli turi bo‘lib, muzey xodimlari va rassomlarning hamkorligidagi ijodi edi. Biroq, shuni ta’kidlash lozimki, sovet davrida muzey ko‘rgazmalar rang-barang va yuqori darajadagi san’at asarlariga aylana olmadi. Zero, ko‘rgazmalar ham mohiyatan proletariat va dehqonlarning muvaffaqiyatlarini tarannum etishi zarur edi. Shuning uchun maxsus komissiyalar nazorati va muhokamidan o‘tgan asarlargagina ruxsat berilib, ular minglab nusxalarda ko‘paytirilib, Sovet Ittifoqi hududlarida tarqatilar edi. Shu bilan birga, muzey faqat ma’rifiy ta’sir vositasi emas, ayni vaqtda dam olish, bo‘sh vaqt ni unumli o‘tkazish joyi, sovet xalqi va chet el sayyoohligening ommaviy maskaniga aylanishi lozim edi...

Sovet Ittifoqi hamda O‘zbekistonda muzey ishining holati, ko‘p sonli ilmiy munozaralar, yirik kompleks tadqiqotlar, ularning natijalari muzey nashrlarida e’lon qilinishi asosida bo‘ldi. Bu davrda muzeylarning soni va turlari o‘sishi kuzatildi, ularning targ‘ibot hamda tashviqot markazi sifatidagi mamlakatning ijtimoiy hayoti, madaniyatidagi roli esa kundan kunga oshib bordi.

O‘zbekistonda ixtisoslik muzeylarining tashkil topishi va ularning xususiyatlari. Muzey ishini boshqarish organlari ning muhim vazifasi, muzeylarni ixtisoslashtirishdir. Ixtisoslik deganda, muzeyning faoliyati biron-bir fanlarning kompleksi, san’at turlari, ijtimoiy yoki ishlab chiqarish sohasiga aniq yo‘naltirilganligi tushuniladi. Shuningdek, ixtisoslik tasnifi muzeylarni guruhlarga bo‘ladi va ularning har biri ma’lum

ilmiy vazifalar yechishini belgilaydi. Muzeylarni quyidagi asosiy ixtisoslik guruhlariga ajratish mumkin:

1. Tarix muzeylariga tarix fanlari tizimiga tayangan barcha muzeylar kiradi: keng tarixiy ixtisoslikdagi, arxeologiya, ethnografiya, numizmatika, harbiy-tarixiy, tarixiy-iqtisodiy, fan va ta'lif tarixi, maxsus tarixiy (masalan, sport tarixi) kabi muzeylar shular jumlasidandir.
2. Badiiy muzeylarga san'at tarixi va san'atshunoslikka taalluqliligi bo'yicha xarakterlanadigan barcha muzeylar kiradi.
3. Tabiiy muzeylarni o'z faoliyati jarayonida tabiiy fanlarga tayanuvchi barcha muzeylar tashkil etadi.
4. Texnika muzeylari texnika fanlari va ishlab chiqarish bilan bog'liq muzeylardan iborat bo'ladi: politexnika, texnika, aviatsiya, avtotransport, aloqa, kema qurilishi, tog' ishlari, temir yo'l, alohida korxona muzeylari hamda boshqa.
5. Adabiyot muzeylariga – umumadabiyot va adabiyotni rivojlanishiga hissa qo'shgan yozuvchilarining hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan barcha muzeylar kiradi.
6. Kompleks muzeylar deb, asosan, o'zida ikki va undan ortiq ixtisoslikni uyg'unlashtirgan muzeylarga aytildi. Bu esa, o'z navbatida, zaxiralar tarkibida, muzey faoliyat mazmunda, tashkiliy strukturasida namoyon bo'ladi: tarixiy-badiiy, tarixiy-me'moriy, qishloq xo'jaligi muzeylari shular jumlasidandir. Eng keng tarqalgan kompleks ixtisosligidagi muzey – o'lkashunoslik muzeyi bo'lib, u o'zida tarixiy va tabiiy yo'naliishlarni mujassamlashtiradi.

1917-yilga qadar O'zbekistondagi mavjud muzeylar ixtisosliklarga ajratilmagan. Turli xarakterga ega bo'lgan eksponatlar, ya'ni san'at, tarix, adabiyot, texnika kabilarga oid buyumlar bitta muzeyda ko'rgazmaga qo'yilgan. O'zbekiston hududidagi birinchi ixtisoslik muzeyi 1918-yilda tashkil etilgan.

Tarix va tabiat ixtisosligidagi muzeylar. *O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi.* O'rta Osiyoda tashkil etilgan ilk muzey

hisoblanadi va o‘zining rivojlanish bosqichida uchta tarixiy davrning guvohi bo‘lgan. Muzey 1876-yili tashkil etilgan. Dastlab muzeyda to‘rtta: etnografiya bilan texnika, tabiat tarixi va arxeologiya, numizmatika, qishloq xo‘jaligi bo‘limlari bo‘lgan. Muzeydagi eksponatlar dastlab rejasiz, tasodifan yig‘ilgan bo‘lsa-da, fanning ma’lum bir tarmog‘ida foydalanish mumkinligi tufayli turli kolleksiyalar to‘plashni davom ettirishga turtki berdi. XX asrning boshlarida muzeyda to‘plangan Turkiston o‘lkasining moddiy boyliklari: arxeologiya, etnografiya, numizmatika, tabiat tarixi, zoologiya, geologiya, milliy liboslar, sharq qo‘lyozmalari, qurol-yarog‘lar kolleksiyalari ayrim “olimlar” va alohida shaxslar tomonidan o‘zlashtirilib, dunyoning turli burchaklariga tashib ketilgani ham kuzatildi. Sovet davrida ham o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati va ma’naviyatini o‘zida aks ettirgan noyob buyumlar chet davlatlarga olib ketilgan.

Mazkur muzeyning nomlanishi va binosi bir necha bor o‘zgargan. 1917-yili muzey Turkiston xalq universiteti tasarrufiga o‘tkazildi. Mustaqil muassasa endi “Turkiston xalq o‘lka muzeyi” deb atala boshlandi. So‘ngra, muzey 1925-yili tashkil etilgan “O‘rta Osiyo inqilobi” muzeyi bilan birlashtirildi va 1933-yilda “Tarix va inqilob tarixi markaziy muzeyi” degan nom oladi. Ikki yildan so‘ng, “Markaziy tarixiy-inqilobiy muzey” sifatida faoliyatini davom ettiradi. 1940-yilda u “Markaziy tarix muzeyi” nomini oldi.

Ikkinci jahon urushi boshlangandan so‘ng, muzeylar hayotida yana o‘zgarishlar ro‘y beradi. Jumladan tarix, san’at va Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeylari birlashtiriladi. 1943-yilning oxirida mazkur muzeylar yana bo‘linadi va tarix muzeyi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimiga “O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi” nomi bilan kiritiladi.

Muzeyning Respublika Fanlar akademiyasi tarkibiga qo‘shilishi muhim ahamiyat kasb etib, uning faoliyatini butunlay

o'zgartirib yubordi. Sababi, bu muzeyni nafaqat madaniy, balki ilmiy markazlardan biriga aylanishiga asos bo'ldi.

1967-yili esa muzeyga yozuvchi, akademik Muso Toshhammad o'g'li Oybek nomi berildi. Bu davrda muzey XIX asr oxirida qurilgan me'moriy obida binosida edi. Muzey ekspozitsiyasi o'sha davrda 2188 kvadrat metr maydonda joylashgan bo'lib, 45 ta zalda oltita katta bo'limdan iborat bo'lган: ibridoiy jamoa va quldorchilik davrlari; feodalizm davri; Turkiston Rossiya imperiyasi tarkibida; Buxoro va Xiva Rossiya imperiyasi protektorati sifatida; Turkiston hududida inqilobiy harakatlar hamda zamonaviy davr.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Afrosiyobda A.I. Teryonojkin tomonidan dala tadqiqotlari o'tkazildi va eng pastki qatlaman miloddan avvalgi VI–V asrlarga taalluqli buyumlar, uy-joy xarobalari topildi. V.A. Shishkin va Ya.G'. G'ulomovlar rahbarligida olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida qadimiy madaniy qatlam materiallari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi. Respublika Hukumatining 1966-yil 13-iyuldagı qaroriga ko'ra, Afrosiyob "arxeologik qo'riqxona" deb e'lon qilindi. Arxeologik tadqiqotlar Samarcandning yoshini aniqlashtirdi va 1970-yilda shaharning 2500 yillik yubileyi o'tkazildi. Yubiley munosabati bilan 1970-yili "*Afrosiyob Samarcand shahar tarixi muzeyi*" tashkil etildi. U Afrosiyob shaharchasining sharqiy qismida joylashgan. Muzeydan Samarcandning moddiy madaniyatini yorituvchi sopol, shisha, tosh, metall, suyak, me'moriy naqshlardan iborat boy to'plamlar o'rın olgan.

O'zbekiston Davlat tabiat muzeyi. Muzey Toshkentning eski shahar qismida 1926-yilning 1-yanvarida ochildi. Mazkur muzey 1921-yilning 1-mayidan boshlab ish olib borgan eski shahar muzeyi asosida tashkil etilgandi. U qishloq xo'jaligi yo'nalishida bo'lib, respublikada birinchi tarmoq muzeyi hisoblanadi. Uning Nizomi "Birinchi o'zbek muzeyi to'g'risida"gi nom bilan O'rta Osiyo Komstaris tomonidan 1925-yilning 20-fevralida tasdiqla-

nadi. Qishloq xo‘jaligi va o‘lka qishloq xo‘jalik kooperatsiyalalarni, shuningdek, sohaga bog‘liq barcha masalalarni qamrash maqsadida muzey gerbariylar, urug‘lar, qayta ishlangan ozuqlar, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ilmiy tajribalar natijasida hosil bo‘lgan materiallarni to‘plash, sotib olishni ko‘zda tutgan edi. Bundan tashqari, muzeysda qishloq xo‘jaligiga oid mehnat qurolulari, mashinalarning modellari ham to‘plangan. Muzey quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lgan: qishloq xo‘jaligiga qarashli barcha sohalar; hunarmandchilik sanoati bo‘limi; umumiy ta’lim xarakteridagi tabiat tarixi bo‘limi. Muzey kolleksiyalarini qishloq xo‘jalik ko‘rgazmalaridan olingan bir qism eksponatlar, muassa va tashkilotlardan to‘plangan ashyolar, o‘lka qishloq xo‘jaligi hamda ilmiy sohaga oid materiallardan tashkil topgan edi.

1926-yilga kelib, muzeysda 2 mingga yaqin eksponat mavjud bo‘lib, ularning asosiy qismi noyob buyumlardan iborat edi. 1930-yili O‘rta Osiyo Bosh muzeyining hayvonot bog‘i, geologiya, geografiya, botanika, zoologiya, antropologiya bo‘limlari Birinchi o‘zbek qishloq xo‘jaligi muzeyi bilan birlgilikda O‘rta Osiyo tabiatini va ishlab chiqarish kuchlari muzeyiga aylantiriladi. 1935-yildan esa O‘zbekiston Davlat tabiat muzeyi sifatida qayta tashkil etiladi. 1945-yili muzey O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimiga o‘tkaziladi va “O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tabiat muzeyi” deb ataladi. 1963-yili u Madaniyat vazirligi tasarrufiga beriladi.

O‘lkashunoslik muzeylari. *Farg‘ona viloyati o‘lkashunoslik muzeyi.* Mazkur muzey 1894-yilning 16-oktabridan 17-noyabrigacha Farg‘ona shahrida (u vaqtda shahar Yangi Marg‘ilon deb atalgan) o‘tkazilgan birinchi qishloq xo‘jalik va sanoat ko‘rgazmasi negizida tashkil etilgan. Ko‘rgazmadan qolgan bir qism kolleksiya, turli soha kishilari tomonidan berilgan bir qancha eksponatlar muzeyning asosini tashkil etdi.

1897-yilning 4-iyulida muzeyning Nizomi tasdiqlanadi. Ana shu vaqtga kelib, muzey fondida jami 1200ta buyum va kitoblar

jamlangan edi. 1899-yilning 26-mayida “Farg‘ona viloyat xalq muzeyi”ning (muzeyning dastlabki nomi shunday edi) tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Bu vaqtida muzeyda 2 223ta eksponat to‘plangan edi. O‘tgan vaqt davomida Farg‘ona muzeyi bir necha bor o‘z binosini o‘zgartiradi. Muzey keyinchalik maxsus qurilgan uch qavatlari zamonaviy binoga joylashtirilgan. Muzeyning o‘zida maxsus kutubxona ham mavjud bo‘lib, uning fondida 12 ming olti yuzdan ortiq kitoblar bor. Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyi fondida turli davrlarga oid boy kolleksiya to‘plangan. Umumiy hisobda muzey eksponatlarining soni 90 mingdan ortiq bo‘lib, ulardan yetti yuzdan ziyodi noyob eksponatlar sirasiga kiradi. Bularni arxeologik, numizmatik, etnografik, amaliy va tasviriy san’at namunalari, qo‘lyozma va qurol-aslahalar tashkil etadi.

1928-yilda muzey fondida faqatgina 108 dona arxeologiya namunalari saqlanar edi. 1939–40-yillarda Katta Farg‘ona kanalining ulkan qurilishi jarayonida arxeologik nazorat uyush-tirildi. Mazkur ekspeditsiyaning bosh qarorgohi Farg‘ona muzeyi binosida joylashgan edi. Shu munosabat bilan qurilish vaqtida topilgan ko‘plab arxeologiya namunalari muzey kolleksiyasi-ga topshiriladi. 1953-yildan 1956-yilgacha bo‘lgan to‘rt yilning o‘zidayoq muzeyning arxeologiya kolleksiyasi ikki yarim ming buyumga ko‘paydi. Hozirda Farg‘ona muzeyining arxeologiya kolleksiyasida 11 mingdan ortiq buyumlar saqlanmoqda.

Namangan viloyati o‘lkashunoslik muzeyi. Namangan-da o‘lkashunoslik muzeyi 1920-yilda tashkil etiladi. Bu isjni amalga oshirishda Namangan shahridagi 1-son 7 yillik rus o‘rta maktabining fizika o‘qituvchisi Vladimir Ivanov katta tashabbus ko‘rsatdi. U 1919-yilda Xalq ta’limi nozirligiga yozgan xatida o‘quvchilarga puxta bilim berish maqsadida Naman-gan shahar maktablaridagi barcha fizika o‘quv asboblarini bir joyga yig‘ishni va yagona fizika kabinetini tashkil qilishni tak-lif etadi. Bu taklif Xalq ta’limi nozirligi tomonidan qabul qilin-

di. Muzeyga 1920-yil 20-avgustda asos solinadi va mактабning ikkita xonasida ekspozitsiya joylashtirildi. Mazkur muzey to‘liq xo‘jalik hisobida ish olib boradi va o‘zini o‘zi ta’minlaydi.

Ilk tashkil etilgan davrda Namangan shahar o‘lkashunoslik muzeyi, 1934-yildan keyin tumanlararo, 1938-yildan boshlab esa, Namangan viloyat o‘lkashunoslik muzeyi deb atala boshlandi. M.I. Ben-Gerariy nomidagi Namangan viloyat o‘lkashunoslik muzeyi 1920-yildan 1930-yilgacha bo‘lgan davrda ekspozitsion zallarini muntazam ravishda to‘ldirib bordi. Muzeyda “Zoologiya”, “Qishloq xo‘jaligi”, “Paxtachilik, ipakchilik”, “Agronomiya va zararkunandalarga qarshi kurash”, “Suratlar galereyasi, haykaltaroshlik va gravyura namunalari”, “Tarixiy-arxeologik”, “Hunarmandchilik”, “Ateizm” bo‘limlari mavjud edi.

Shuningdek, arxiv fondi hujjatlarida muzeyga kelgan tashrif buyuruvchilar soni qayd etilishi, ushbu muzey haqidagi tasavvurni kengaytiradi. 1920-yillarda ularning umumiy soni 3 205 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 1934-yilga kelib bu ko‘rsatkich 36 770 taga yetdi. Demak, muzey ishi faoliyati yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. 1935-yilda tomoshabinlar soni keskin 16 075 tagacha tushib ketadi, bunga yuqori tashkilotlar buyrug‘iga asosan, tirik hayvonlar namoyish etiladigan bo‘lim yopilib, Toshkentga jo‘natilishi sabab bo‘lgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Namangan o‘lkashunoslik muzeyi fondlari eksponatlar sotib olish hisobiga boyitib borilgan. Shuningdek, muzey xodimlari ham Farg‘ona vodiysini qamrab oluvchi tematik ekspeditsiyalarni uyushtirishgan. Shu zaylda, muzey fondlari etnografik, tabiatshunoslik, arxeologik eksponatlar bilan to‘ldirilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida, O‘zbekistonda, muzey tarmoqlarining qisqarishi Namangan o‘lkashunoslik muzeyiga ham ta’sir qildi. Eksponatlar vaqtinchalik viloyat o‘rtta maktablariga taqsimlandi. Natijada ko‘pgina muzey eksponatlari yo‘-qolib ketadi. 1947-yili muzey qayta tiklanib, eksponatlar joyiga

qaytariladi. XX asrning 50–60-yillarida Chust, Quvasoy, Axsikent daralari va g'orlaridan qadimgi davrlarga mansub manzilgohlar topilib, o'rghaniladi. Bu ishda muzey xodimlari ham faol qatnashishdi.

1961-yili O'zbekiston rassomlari uyushmasi qoshidagi O'zbekiston Badiiy ko'rgazmalar direksiyasi Namangan viloyat o'lkashunoslik muzeyiga 50 ta tasviriy san'at asarlarini sovg'a qildi. 1988-yilda esa, muzey maxsus qurilgan uch qavatli binoغا ko'chirildi.

Buxoro viloyati o'lkashunoslik muzeyi. Buxoro muzeyi ilk bor 1922-yilda tashkil etilib, ba'zi sabablarga ko'ra keyin yopilgan. 1925–1927-yillarda muzeyni qayta ochish uchun tayyorgarlik ishlari olib borildi. Buxoro komstarisning raisi Musa Saidjanov va ilmiy kotib B.I. Dudkeevlar Buxoro muzeyining tashkilotchilari edi. Muzey uchun ikkita bino: biri Sitorai Mohi Xossa, ikkinchisi Ko'kaldosh madrasasi taklif etiladi. XVI asrga mansub Ko'kaldosh madrasasi juda noqulay bo'lsada, muzey uchun aynan shu bino ajratildi. Ekspozitsiya madrasa hovlisidagi oltita kichik xonaga joylashtiriladi. Binolar zarur talablarga javob bermas, xona shiftlari past, sathi kichik edi. Muzeyning dastlabki ekspozitsiyasi arxeologiya, etnografiya va zoologiya bo'limlaridan iborat bo'lib, ularda mingdan ziyod buyumlar bor edi. Xalq maorifi komissariati tashkilotlari tomonidan berilgan materiallar va shuningdek, qisman muzey tarafidan yig'ilgan hamda sotib olingan buyumlar bo'lajak ekspozitsiya uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Ekspozitsyaning birinchi bo'limida, Buxoro okrugi qadimiy obidalarning fotosuratlari, Sayfuddin Boxarziy (XIV asr) qabriga qo'yilgan yog'och sag'ana, Buxoro va Samarqand me'moriy obidalarining koshinkorlik namunalari, Afrosiyobdan topilgan ossuariy bo'laklari va sirlangan idish parchalari namoyish etilgan edi. Etnografiya bo'limida Qadimiy Sharq qurollari, cholg'u asboblari, yozuv anjomlari, ot-ulov asla-

halari, kiyim-boshlar, Kitob, Hisor, Qarshi, Buxoro, Nurota choponlari, zargarlik hamda kashtachilik buyumlari va hokazolar yig'ilgan. Shuningdek, numizmatika bo'limida qadimiy tangalardan boshlab sovet davriga oid bo'lgan qog'oz pullar-gacha namoyish qilingan. Zoologiya bo'limi eksponatlarining soni kamroq bo'lib, 90 ga yaqin mahalliy fauna vakillarining nusxalari o'rinn olgan.

Buxoro Davlat muzeyining 1935-yil 1-yanvardan 1-iyulgacha bo'lgan hisobotlaridan birida shunday deyilgan: "Ish jarayoni juda noqulay sharoitda olib borilmoqda. Bunga sabab, muzey XVI asrda qurilgan eski Ko'kaldosh madrasasida joylashgan bo'lib, bu bino muzey uchun umuman yaroqsiz". Muzey xodimlari shunday og'ir sharoitda ishlagan bo'lsalar-da, ilmiy safarlar tashkil etishgan, ilmiy muassasalar bilan aloqa bog'lab, muzey uchun eksponat to'plab borishgan. Muzeyga bir yil mobaynida 29 722 kishi kelgan, shulardan 19 253afari mahalliy aholidan edi.

Buxoro amirining sobiq yozgi qarorgohi Sitorai Mohi Xossa sada alohida muzey ochish ham ko'zda tutiladi. Mazkur masalaning muhimligini nazarda tutib, O'zbekiston hukumati Sitorai Mohi Xossa saroyini Buxarstaris ixtiyoriga topshirdi. Saroyda "Amirlar so'nggi sulolasining turmushi" deb nomlangan uch bo'limdan iborat ekspozitsiya tashkil etildi. Ammo muzey ixtisosi o'z mazmuniga munosib emas edi. Viloyat o'lakashunoslik muzeyi va undagi "Amirlar so'nggi sulolasining turmushi" filialining dastlabki ekspozitsiyasida ko'plab jiddiy nuqsonlar bo'lib, u tarixiy-tematik prinsipda tashkil etilmagan edi.

Muzeyda o'lakashunoslik ixtisosligi, 1945-yili shaharning qadimiy me'moriy obidasi – Arkka ko'chirilganidan so'ng to'la shakllanadi. Bu bino 300 yil davomida Buxoro hukmdorlari ning qarorgohi vazifasini o'tagan. 1948-yili Sitorai Mohi Xossa filialida tarixiy-maishiy bo'limi amaliy san'at bo'limiga aylan-

tiriladi. 1955-yilda Buxoro amirining sobiq zindonida – muzey burchagi ochiladi. 1969-yilda muzey o'lkashunoslik ixtisosligidagi muzeyga aylantirildi va tabiat, tarix, tasviriyl san'at bo'limlaridan tashkil topadi. Umuman, XX asrning 80-yillarigacha muzey rivojlanishi sust kechadi.

Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeyi. Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeyi 1924-yili qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi asosida tashkil etilgan. Muzey binosi uchun sobiq Qo'qon xoni Xudoyorxonning saroyi ajratiladi. Mazkur bino 1871-yili qurilgan bo'lib, ham noyob tarixiy-me'moriy obida, ham muzey vazifasini o'taydi. Muzey ekspozitsiyasi yil sayin ilmiy xodimlar tashabbusi bilan to'ldirib borildi. Eksponatlar miqdori 1937-yilgacha 1040 ta bo'lsa, 1940-yilga kelib, ularning soni 5487 taga yetdi. Ekspozitsiyaga qo'yilgan eksponatlar soni 1939-yili 1401 tani tashkil etsa, 1940-yili 2337 taga yetdi. Barcha o'lkashunoslik ixtisosligidagi muzeylar singari, Qo'qon o'lkashunoslik muzeyi ekspozitsiyasi ham qadimgi Qo'qon tarixini yoritib beruvchi ekspozitsion materiallardan iborat edi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi bosib olgandan keyingi o'zgarishlar, ya'ni yangi binolarning, temir yo'llarning qurilishi, 1906-yilda birinchi poyezdning kelishi haqida ham ma'lumotlar mavjud bo'lgan. 1917-yil Oktabr to'ntarishidan keyingi davr siyosatiga oid eksponatlar, qishloq xo'jaligi, sanoatdagi rivojlanish va o'lka tarixini, flora, faunasini o'zida aks ettiruvchi eksponatlar ham muzey ekspozitsiyasidan joy olgan edi. Tasviriyl san'at asarlari bo'yicha ham alohida bo'lim mavjud edi.

Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeyini "muzey ichidagi muzey" deb bejiz aytishmagan. Chunki, muzey binosi sobiq xon saroyi bo'lgan. Markaziy binoning devorlari juda go'zal sirli koshinlar, ganch o'ymakorligi pannolari bilan bezatilgan va taxt turadigan zalda amaliy san'at namunalarini ham ekspozitsiyaga qo'yilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi o'lkashunoslik muzeyi. Boy eksponatlari bilan jahon ko'rgazmalarida faol ishtirok etayotgan muzeylar qatoriga Qoraqalpog'iston o'lkashunoslik muzeyini ham kiritish mumkin.

Arxiv hujjalardan yozilishicha, 1929-yili To'rtko'l shahri klubida Qoraqalpog'iston Muxtor viloyati ilmiy tadqiqot instituti qoshida o'lkashunoslik muzeyi tashkil etilib, o'sha yilning 16-mayida, uning ilk ko'rgazmasi ochilgan. Muzeyni tashkil etishda N.A. Baskakov, N.V. Torchinskaya, yosh qoraqalpoq olimi O. Ayimbetovlar faol ishtirok etishgan. XX asrning 30-yillari oxiridan muzey xazinasi S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi ashylari, keyinchalik I.V. Savitskiy to'plagan noyob eksponatlar bilan boyib borgan. Hozir u mintaqadagi mashhur muzeylardan biri hisoblanadi. Muzey ochilganda unda o'nlab eksponat bo'lsa, endilikda 60 mingga yaqin tarixiy buyum jamlangan. Ularning ko'pchiligi noyob va qimmatli bo'lib, xalq mulki hisoblanadi. Muzey xodimlarining soni qirqqa yaqin bo'lib, ular respublikada o'tkazilayotgan ekspeditsiyalarda muntazam qatnashib, fondni eksponatlar bilan boyitishga o'z hissalarini qo'shamoqdalar.

Badiiy muzeylar. *O'zbekiston Davlat san'at muzeyi.* 1918-yil 19-aprelda knyaz N. Romanovning Toshkentdagi shaxsiy to'plami davlat mulki deb e'lon qilindi, uyi esa muzeyga aylantirildi. Knyaz to'plagan tasviriylar va amaliy san'at namunalari asosida Markaziy badiiy muzey tashkil etiladi. Biroq, bu kolleksiyalar muzey uchun kamlik qilar hamda turiga ko'ra har xil edi. Ushbu kolleksiyalarning cheklangan xususiyati hamda muzeylarga qo'yilgan talablarga javob bera olmasligi sababli, boshqa yirik muzey fondlaridan eksponatlar to'plana boshlanadi.

Muzey ilk tashkil etilgan davrda besh yuzga yaqin eksponat bo'lgan va 1923-yilga kelib, ularning soni 2-3 baravar

ko‘paydi. 1924-yili milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilib, O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi, o‘z navbatida, muzey oldiga milliy san’at bo‘limini ochish vazifasini qo‘ydi. 1935–1939-yillarda xalq san’ati namunalarini yig‘ish uchun Respublika bo‘ylab ekspeditsiyalar uyushtirildi. Natijada, O‘zbekiston xalq san’atining barcha qirralarini ko‘rsatuvchi g‘oyat nodir va xilma-xil kolleksiya to‘plandi. Shu bilan birga, juda boy ilmiy materiallar yig‘ildi. XX asrning 30-yillarining oxiriga kelib, muzeyda uch mustaqil bo‘lim – G‘arbiy Yevropa san’ati, rus san’ati, O‘zbekiston tasviriy va xalq amaliy san’ati bo‘limlari tashkil topdi. Muzeyda XIX asr rus rassomlarining (I.E. Repin, V.A. Serov, I.I. Levitan, N.K. Rerix va boshqalar) nodir asarlari mavjud.

Shuni ta’kidlash joizki, ushbu muzey – Markaziy badiiy muzey sifatida 1929-yilga qadar faoliyat ko‘rsatdi. Chunki, 1929-yili eksponatlarga joy yetishmaganligi sababli muzey yopildi. 1935-yili O‘zbekiston san’at muzeyi nomi bilan boshqatdan ochilib, fabrika binosidan muzeyga joy ajratildi. 1941-yildan bu muzey O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyiga qo‘shib yuborildi. 1945-yili alohida muzey sifatida O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi nomi bilan atalib, faoliyat ko‘rsata boshladi. Mazkur muzey juda boy eksponatlar to‘plamiga ega bo‘ldi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridan to zamonaviy davrgacha bo‘lgan tasviriy va amaliy san’atning noyob namunalari muzey ekspozitsiyasidan joy olgan.

Hozirgi *O‘zbekiston Davlat amaliy san’ati muzeyi* dastlab 1927-yilda hunarmandlarning eng sara ishlari ko‘rgazmasi sifatida tashkil etilib, keyinchalik u doimiy ko‘rgazmaga aylan-tirildi. 1937-yildan “Hunarmandchilik muzeyi” sifatida faoliyatini davom ettirdi. 1938-yili muzey uchun podsho amaldori Polovsevning XIX asr oxirida qurilgan sobiq qarorgohi binosi ajratildi. Bu bino juda ko‘rkam bo‘lib, unga me’moriy yodgorlik sifatida ham qarash mumkin. Binoni bezashda

mashhur o‘zbek ustalaridan Olimjon Qosimjonov, Usto Kal, Toshpo‘lat Arslonqulov va boshqalar ishtirok etgan. Muzey ekspozitsiyasi amaliy san’atning turlariga qarab tartib berilgan. U yerda asosan XIX–XX asrlarda yaratilgan san’at asarlari namoyish etiladi. Ekspozitsiya bilan tanishuv XIX asrning ajoyib me’moriy-dekorativ san’ati namunasi bo‘lgan markaziy zaldan boshlanadi. Zalni bezashda o‘zbek xalq ustalari ning ijodi o‘z aksini topgan: ganch va yog‘och o‘ymakorligi, naqqoshlik, mozaika shular jumlasidandir. Muzeyda kulolchilik, mayda plastika, kashtachilik san’ati namunalari saqlanadi. Shuningdek, respublikada ishlab chiqarilgan milliy matalardan xon atlas, beqasam, olachi, adres kabilar ham ekspozitsiyadan joy olgan.

Muzey eksponatlari ko‘p marotaba Polsha, Hindiston, Fransiya, AQSh, Daniya, Shvetsiya, Belgiya va boshqa davlatlarda bo‘lib o‘tgan ko‘rgazmalarda namoyish etilgan. 1937-yili Parijda o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazmalarda xon atlas va beqasam yaratuvchi ustalar oltin medalga sazovor bo‘lishgan. Yana shu yili Parijda o‘tkazilgan butun dunyo ko‘rgazmasida kashtachilik namunalari katta oltin medalga munosib deb topilgan. 1939-yildagi Nyu-Yorkdagi ko‘rgazmada muzey eksponatlari oliy mukofot Diplomi sovrindori bo‘lib qaytgan. 1960-yilda muzey nomi “Amaliy san’atning doimiy faoliyatdagi ko‘rgazmasi” tarzida o’zgartirildi

I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston Davlat san’at muzeyi. Qoraqalpog‘iston poytaxti Nukusda dovrug‘i butun dunyoga tarqalgan madaniyat muassasalari ko‘p. Ulardan biri – I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston Davlat san’at muzeyidir. Muzeyni tashkil etishda rassom I.V. Savitskiyning xizmatlari katta. U Qoraqalpog‘istonda XX asrning 50-yillari mashhur arxeolog olim S.P. Tolstov rahbarligida olib borilgan ekspeditsiyada rassom sifatida qatnashgan. Uni mahalliy aholining madaniyati va san’ati hamda XX asr boshlarida yashab,

ijod qilib, qatag‘onga uchragan rus avangardchi rassomlarning asarlari qiziqtiradi. I.V. Savitskiy Nukusda qolib, nodir tasviriy va amaliy san’at kolleksiyalarni to‘play boshlaydi. Nati-jada, mazkur rus avangard asarlari kolleksiyasi dunyo bo‘yicha ikkinchi o‘rinni egallaydigan muzeyning assosini tashkil etdi. Muzeyda miloddan avvalgi III asrdan zamonaviy davrgacha bo‘lgan qadimiy Xorazmning moddiy va badiiy madaniyati, o‘ziga xos madaniyatga ega bo‘lgan qoraqalpoqlarning xalq amaliy san’ati o‘z aksini topdi. Tasviriy san’at bo‘limida esa, nafaqat Qoraqalpog‘iston milliy badiiy maktabi, balki XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda yashab, O‘zbekistonning rangtasvir madaniyatiga asos solgan ko‘p millatli rassomlar jamoasining asarlari ham namoyishga qo‘yilgan. Qisqa vaqt ichida mazkur muzey 90 mingdan ortiq eksponatga ega bo‘ldi. Bunday fakt dunyo muzey ashyolarini to‘plash amaliyotida deyarli yo‘q.

Memorial uy-muzeylar. O‘zbekiston xalq rassomi, akademik *O‘rol Tansiqboyev uy-muzeyi* hamisha tasviriy san’at ixlosmandlari bilan gavjum. Garchi O‘. Tansiqboyev bu mo‘-jazgina hovlida qisqa muddat, aniqrog‘i 1967–1974-yillarda yashagan bo‘lsa-da, san’atkorning ma’naviy olami, didi o‘z ifodasini topgan. Uning manzaralari tomoshabinga tabiatning eng nozik sirlarini oshkor qiladi, qalblarga toza va musaffo tog‘ havosini olib kiradi.

Rafiqasi E.Ya. Tansiqboyeva tashabbusi bilan musavvir xotirasini abadiylashtirish maqsadida, uyga 1976-yilda me’moriy yodgorlik o‘rnatalidi. 1981-yildan boshlab bino uy-muzeyiga aylantirildi. Uy ichiga kirib, dahlizdan chap tomonga yurilgandan keyin ijodiy ustaxona boshlanadi. Xona devorlarida osig‘liq rangtasvir asarlari O‘rol Tansiqboyev faoliyatining turli bosqichlariga tegishlidir. Muzeyning yagona maqsadi – O‘rol Tansiqboyev merosini saqlash va ommaga targ‘ib etish uchun faoliyat yuritishdan iborat. U poytaxtda birinchi tashkil etilgan memorial muzey hisoblanadi. Yillar davomida muzey

fondini to‘ldirish maqsa dida, O‘rol Tansiqboyev hayoti va ijodi bilan bog‘liq materiallar to‘plab kelinmoqda. Uning bisotida, shuningdek, Davlat sam‘at muzeyi tomonidan berilgan o‘nlab asarlar ham mavjud.

O‘zbekiston xalq shoiri, akademik *G‘afur G‘ulom uy-muzeyi* 1983-yilda tashkil etilgan bo‘lib, ekspozitsiyasi ikki marotaba, ya’ni 1988- hamda 1998-yillarda o‘zgartirilib, shoir hayoti va ijodiga taalluqli yangi hujjat, foto hamda boshqa memorial buyumlar bilan boyitilgan. Muzeylashtirilgan binoda shoir 1944–1966-yillarda yashab ijod qilgan. Bu binoda shoirning shaxsiy kabineti va kutubxonasi, dam olish xonasi mavjud bo‘lib, uning shaxsiy buyumlari ko‘rgazmaga qo‘yilgan. Mustaqillik davrida uyning yoniga yana bitta bino qurilib, ekspozitsiyalarning yar‘mi o‘sha yerga joylashtirildi. *G‘afur G‘ulom* yashagan uy memorial kompleksga aylantirilib, hayotligida qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlangan. U yerda o‘sha davr muhitini chuqur his qilish mumkin. Yangi binoda esa, shoirning yoshlik, o‘sniylik yillaridan to umrining oxirigacha bo‘lgan davrni aks ettiruvchi fotosuratlar xronologik tartibda joylashtirilgan bo‘lib, ekspozitsiya hujjatlar, kitoblar, buyumlar bilan to‘ldirildi. Shoirning tarjimonlik faoliyatiga doir ekspozitsiya ham mavjud bo‘lib, maxsus stendlarga joylashtirilgan.

Abdulla Qahhor uy-muzeyi atoqli adibning nomini abadiylashtirish maqsadida, 1987-yili davlat tomonidan ochildi. Bu binoni adib uy-muzeyiga aylantirishda, uning umr yo‘ldoshi, mumtozi adabiyot bilimdoni, zukko tarjimon Kibriyoxonim Qahhorovaning xizmatlari katta bo‘lgan. K. Qahhorova muzey tashkil qilingandan (1987-yil 6-may) to umrining oxirigacha muzeyning katta ilmiy xodimi lavozimida ishlab, o‘zlarining adib haqidagi xotiralarini matbuotda, uchrashuvlarda, davra suhabatlariда so‘zlab berardi. A. Qahhor yozuvchi sifatida o‘zbek tilini nafis his etuvchi va uning boy imkoniyatlaridan ma-

horat bilan foydalanuvchi qalamkash edi. Mazkur muzeyda Abdulla Qahhor ijodining o'ziga xosligi memorial buyumlar orqali yetkazib berilgan.

Yunus Rajabiy uy-muzeyini, har tomonlama Toshkentdag'i eng nufuzli uy-muzeylari qatoriga kiritish mumkin. O'zbek madaniyatidagi mashhur san'atkorlar sulolasining yetakchisi – Yunus Rajabiy o'zbek xalqining milliy musiqiy madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan. Xalqimizning millionlab musiqa shinavandalarining, yirik mutaxassis musiqashunos olimlar, basta-korlar, hofizlar, sozandalarning takliflariga asosan Yunus Rajabiyning farzandlari uyni muzeyga aylantirishga harakat qilishdi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 41-, 53-, 55-, 76-, 178-, 180-moddalariga asosan O'zbekiston Hukumatining 1989-yil 13-sentabrdagi 301-sonli qaroriga muvofiq uy-muzeyi tashkil topgan. Ilmiy tadqiqot va ilmiy-ma'rifiy tashkilot hisoblangan ushbu muassasa Madaniyat vazirligining tasarrufiga kiradi. Mazkur uy-muzeyning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda davr muhiti yaxshi yetkazib berilgan. Muzeyga kirganda mahzun, biroq yoqimli mumtoz musiqa navolari yangray boshlaydi. Ushbu musiqa barcha zallarga birdek yo'naltirilgan. Har bir ashyo kompozitsiyaning bir bo'lagi sifatida hikoya qiladi. Ta'kidlash joizki, ekskursovodlik faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilganligi bois, tomoshabin muzeyning maqsad va vazifalari hamda Yunus Rajabiyning hayoti va faoliyati haqida keng ma'lumot oladi.

O'zbek dirijorligining qaldirg'ochi, kompozitor va yirik jamoat arbobi *Muxtor Ashrafiy uy-muzeyini* tashkil etish to'g'risidagi fikr, uning vafotidan yarim yil o'tgach qabul qilin-gan "Muxtor Ashrafiy xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"ga qarorda belgilandi. 1969-yildan to 1975-yilgacha musiqachi yashagan uy qisman ta'mirlanadi, badiiy jihatdan milliy uslubda pardozlanadi. Yerto'la xonalari musiqa saloniga moslab jihozlanadi, bosh kirish yo'li qayta ta'mirlanadi. Faqat bitta xo-

nadagi – kompozitorning xotira xonasidagi jihozlar o‘z holicha saqlanib qolindi. Qolgan zallarga ekspozitsiyalar joylashtiladi. Muxtor Ashrafiyning shaxsiy arxivи musiqashunoslар, tarixchilar, yangi davr o‘zbek musiqa madaniyati bilan qiziquvchi hamma kishilar uchun keng miqyosda tadqiqotlar olib borish manbayi hisoblanadi. Muxtor Ashrafiyning butun hayot yo‘li, jumladan, yoshlik davri, ota-onasi, mакtab davri, ilk musiqa maktabiga a’zo bo‘lgани, ilk talabalik yillari, ilk dirijorlik ishi, ustozlari, ilk konsert dasturi, u yaratgan opera va balet asarlari jihozlari, kiyimlari, umri davomida ishlatgan buyumlari, cholg‘u asboblari, afishalari, jahon kompozitorlari hamda zamondosh kasbdoshlari, davlat va xorijiy davlat arboblari bilan suratlari olam-olam ma’no kasb etadi.

Bu muzeylarning barchasida turli tadbirlar, kompozitor, rassom, yozuvchi-shoirlar ishtirokidagi uchrashuvlar, davra suhabatlari o‘tkazib turiladi. Ularga san’at va adabiyot ixlosmandlari, ayniqsa, yoshlar ko‘p keladi. Bunday kechalar yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular qalbida ezgu tuyg‘ularni kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur memorial uy-muzeylarning hammasi Toshkentda joylashgan. O‘zbekistonning viloyatlarida Fayzulla Xo‘jayev, Sadriddin Ayniy kabi mashhur shaxslarga bag‘ishlangan uy-muzeylari ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, Sadriddin Ayniyning yodgorlik uy-muzeyi adib tavalludining 90 yilligi munosabati bilan, 1967-yilda O‘zbekiston Hukumati tashabbusi bilan tashkil etildi. Uy ikki qismdan iborat, birinchisi XVIII asr oxiri – XIX asr boshida qurilgan bo‘lsa, ikkinchi qismi XX asrning 30-yillarida Sadriddin Ayniyning shaxsan o‘zi tuzgan loyihasi asosida O‘zbekiston Hukumati tomonidan barpo etilgan. Zullisonayn adib tavalludining 140 yilligi arafasida, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi 975-son qaroriga asosan Sadriddin Ayniy yodgorlik uy-muzeyini mukammal ta’mirlash uchun 300 million so‘m ajratildi.

Muassasa va tashkilot muzeylari. Uy-muzeylarning aksariyati O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidadir. Bundan tashqari, yana xususiy muzeylar, oliy ta'lif muassasalari, ba'zi bir tashkilotlarga tegishli muzeylar ham mavjud. Bunga O'zbekiston geologiya muzeyini misol qilish mumkin. O'zbekiston Respublikasining Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasining Geologiya muzeyi 1988-yili tashkil etilgan.

Muzey zallarida O'zbekistondagi geologiya fanining barcha yo'nalishlari qamrab olingan. Muzeyda yerning sayyora sifatida shakllanishi va rivojlanishining umumiyligi fazoviy va geologik jarayonlari aks ettirilgan. Mazkur muzeyda O'rta Osiyo va O'zbekiston hududining geologik rivojlanish tarixi zali, hududiy geologiya zali va monografik paleontologik kolleksiyalardan tashkil topgan zallari mavjud. Foydali qazilmalar, mineraloziya, geokimyo, qadim tog' sanoati tarixi hamda dunyo geologik merosi zali katta ekspozitsion maydonni egallagan va har tomonlama mukammal kompozitsion yechimga ega ekspozitsiyani tashkil etadi. Muzeyda O'zbekistonda geologiya xizmatining shakllanish tarixi, geologiya fanining rivojlanishi, O'zbekistonning ilk geoglari, foydali qazilma konlarini ochgan dastlabki geologlar, ustoz olimlar haqidagi ma'lumotlar ham o'rin olgan. Ekspozitsiyalarda namoyish etilayotgan eksponatlarning umumiyligi soni muzey fondlarida saqlanayotgan dublikat va almashinuv fondini hisobga olmaganda 32 mingdan ziyodni tashkil etadi. Turfa xil tog' jinslari, rangli, kam uchraydigan metall rudalari, noma'dan foydali qazilmalar ko'rgazmaga qo'yiladi. Muzey vitrinalarida kinovar minerali, molibden, vismut, volframit kristallarini o'zida saqlab qolgan noyob namunalar namoyish etilgan. Maxsus petrografik kolleksiya o'z ichiga 300 ta namunani qamrab oladi; mineralogik kolleksiya esa 858 ta namunadan iborat bo'lib, ular juda nodir eksponatlar qatoriga kiradi.

Geologiya muzeyining tashkil topganiga uncha ko‘p vaqt bo‘lmasa-da, u tadqiqot ishlari hamda respublikaning turli hududlarida izlanishlar olib boradigan ilmiy va o‘quv markaziga aylandi. Mazkur muzey, geologik ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan turli tashkilot va muassasalarining muzeylari ustidan uslubiy boshqaruvni amalga oshirib kelmoqda.

Shunday qilib, sovet davrida muzeylarni qayta tashkil etish va kengaytirish ishlari davom etdi hamda ma’lum tuzilmaviy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Asosiy o‘rinni tarixiy-inqilobiy va memorial muzeylar egalladi. Mavjud tarixiy va o‘lkashunoslik muzeylarining barchasida yangi tuzum yutuqlarini namoyish etib, uning g‘oyalarini keng ommaga singdiruvchi ekspozitsiyalar paydo bo‘ldi. O‘lkashunoslik muzeylarining tipologik tizimi ishlab chiqildi. Asosiy e’tibor tomoshabinlar bilan siyosiy-ma’rifiy ish olib borishga qaratildi. Bunda ma’ruza va ko‘chma ko‘rgazmalardan kengroq foydalanildi. Tashrif buyuruvchilar soni ularni uyushgan holda ko‘rgazmalarga jalb etish, maktablar bilan ommaviy ishlar olib borish hisobiga oshirildi. Ekspozitsion faoliyatni baholashning asosiy mezoni uning siyosiy mazmuni bo‘ldi. Muzeylarga sotsialistik qurilish yutuqlari va sotsialistik hayat tarzining afzalliklarini ekspozitsiyalarda aks ettirish zimmasi yuklatildi. Lekin, ularda sovet tarixi bo‘yicha to‘laqonli kolleksiyalar yo‘q bo‘lganligi sababli muzey ashyosi o‘rnini matn, sxema, shiorlar egalladi.

Bu davrdagi muzeylar faoliyatidagi ijobiy tomonlar ham mavjud bo‘lganligini ta’kidlash joiz. Muzey fondlari komplektlashtirilib, eksponatlar tartibga keltirildi. “Badiiy va tarixiy noyob buyumlarni chet davlatlarga olib ketishni taqiqlash”, “Xususiy shaxslarda, muassasa va jamiyatlardagi san’at asarlari hamda qadimiy buyumlarni saqlash, ro‘yxatga olish”, “San’at va qadimiy yodgorliklarni hisobga olish hamda qayd etish” bo‘yicha qonunlar qabul qilindi. Muzey xodimlarining malakasi oshirildi. Madaniy, tarixiy yodgorliklar, muzey fondlarida-

gi kolleksiyalar, to‘plamilar olim va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib, qator ekspeditsiyalar tashkil etildi.

Savol va topshiriqlar

1. O’zbekistondagi muzeylar tarixini qaysi tarixiy davrlarga ajratib o’rganish mumkin?
2. Mahalliy kolleksiya to’plovchilardan kimlarni bilasiz?
3. Turkistonda ilk tashkil etilgan muzey haqida gapirib bering.
4. Tarix muzeylariga ta’rif bering.

Manbalar va adabiyotlar

1. Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Т.: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма, 2007.
2. Bekmurodov M., Rashidova M. Muzeyshunoslik. – Т.: Voris Ali, 2006.
3. Kuryazova D.T. O’zbekistonda muzey ishi tarixi. – Т.: San’at, 2010.
4. Kuryazova D.T., Ergashev B.E., Maxmudov T.I. Jahon muzeyshunosligi. Ma’ruzalar kursi. – Samarqand, 2015.
5. Лунин Б. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. – Т.: Фан, 1965.
6. Лунин Б. Средняя Азия в научном наследии отечественных востоковедов: Историографический очерк. – Т., 1979.
7. Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. – Т.: Fan, 1981.
8. Фузаилова Г., Хасanova М. Музееоведение. – Т., 2008.

10-MAVZU. MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MUZEYLAR VA MUZEY ISHINING ISLOH ETILISHI

REJA

1. O'zbekistonda muzey ishini isloh etish chora-tadbirlari. Mustaqillik yillarda muzey ishining me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilishi.
2. O'zbekistondan olib chiqib ketilgan muzey eksponatlarini qidirib topish, o'rganish va qaytarib keltirish chora-tadbirlarining tashkillashtirilishi.
3. Asosiy muzeylar faoliyati.
4. Muzeylarning jamiyat hayotida tutgan o'rni. Mustaqillik yillarda tashkil etilgan muzeylar.
5. O'zbekiston muzeylariing jahon bo'ylab ko'chma ko'rgazmalari tashkil etilishi.

O'zbekistonda muzey ishini isloh etish chora-tadbirlari. Mustaqillik yillarda muzey ishining me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilishi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqining asrlar davomida jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi muzey ekspozitsiyalarida o'zining xolisona aksini topdi. Shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarda muzeylar faoliyatining huquqiy asoslari tamomila yangilandi. 2017-yilga qadar muzeylar faoliyatiga oid 46 ta me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2 ta qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta farmoni, 2 ta qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19 ta qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi, muzeylarning faoliyatini takomillashtirishda asos bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillik davrida muzeyshunoslik va muzey ishiga oid dastlabki hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-dekabrda qabul qilingan "Respublika

inuzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-martda qabul qilingan “Muzeylar faoliyatini tubdan qo‘llab-quvvatlash masalalari to‘g‘risida”gi qarori hisoblanib, ular muzeylar faoliyati uchun ahamiyatli bo‘ldi. Unda respublika muzeylarining muhim vazifalari, jumladan, O‘zbekiston muzeylari fondi to‘g‘-risida, muzeylarda saqlanayotgan tarixiy-madaniy boyliklarni ro‘yxatga olish, jamlash va saqlash tartiblari to‘g‘risida vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘-risida”gi farmoniga muvofiq, hududiy, idoraviy bo‘ysunishidan hamda mulkchilik shaklidan qat’i nazar muzey faoliyati bilan shug‘ullanuvchi barcha tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish maqsadida Respublika “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagи “Madaniyat va sport sohasida boshqaruв tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tugatilib, uning funksiyalari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga o‘tkazildi.

2008-yil 12-sentabrda tasdiqlangan “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonun muzeylarni boshqarish, Milliy muzey fondi, muzey faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, davlat muzeylarining toifalarini belgilash, Milliy muzey fondining Davlat katalogi, Milliy muzey fondining ochiqligini ta’minlash, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish kabi ko‘plab masalalarni hal etishda manba bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risidagi” qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-aprel 68-sonli qaroriga asosan quyidagi:

- Muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi to‘g‘risidagi;
- Davlat muzeylarining toifalari to‘g‘risidagi;
- Milliy muzey fondining Davlat katalogi to‘g‘risidagi;
- Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini Milliy muzey fondi tarkibiga kiritish hamda uning tarkibidan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi;
- Milliy muzey fondining davlatga tegishli qismi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi;
- Milliy muzey fondi holati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi;
- Muzey mutaxassislarini tayyorlash, muzey xodimlari ning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi;
- Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko‘rish tartibi va shartlari to‘g‘risidagi Nizomlar tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldaggi PQ-2133-son qarori bilan tasdiqlangan “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi 9-bandining ijrosini ta’minlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyaligiga sadoqat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular ongiga xalqimizning boy milliy-madaniy merosi hamda tarixiy o‘tmishini hurmat qilish va e’zozlashni singdirish hamda aholi dam olishini mazmunli tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyul-dagi “Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalari-

ga ochiqligini ta'minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq idoraviy bo‘ysunishidan qat’i nazar, barcha davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqligini ta’minlash maqsadida haftaning har seshanba hamda juma kunlari bolalarning respublika davlat muzeylariga bepul kirishi ta’minlandi. Har yili 2–8-sentabr kunlari “Muzeylar haftaligi” va uning doirasida madaniy-ma’rifiy tadbirlar o’tkazish hamda aholining shu kunlari davlat muzeylariga bepul kirishlari belgilab qo‘yildi.

Ushbu qaror yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ajdodlarning boy moddiy-ma’naviy merosini asrash va an’analarni davom ettirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekistondan olib chiqib ketilgan muzey eksponatlari ni qidirib topish, o‘rganish va qaytarib keltirish chora-tadbirlarining tashkillashtirilishi. O‘zbekiston hududi qadimdan bebaho moddiy va ma’naviy yodgorliklar xazinasi sifatida mashhur bo‘lib kelgan makon hisoblanadi. Dunyoga mashhur IX–XII asrlardagi Renessans davri, Temur va temuriylar, shuningdek, keyingi davrlardan meros bo‘lib qolgan boy moddiy hamda ma’naviy meros turli davrlarda bosqinchilik siyosati tu-fayli talon-taroj qilingani tarixdan ma’lum. O‘rta asrlarda davlat arboblari va allomalar tomonidan yaratilgan kutubxonalarning dovrug‘i Yevropa, qolaversa, butun jahonga tarqalgan edi. Bu kutubxonalar butun jahon olimlarining sara asarlarini o‘zida mujassam qilgan.

XV–XVI asrlarda O‘rta Osiyoga Yevropa sayyoohlari, elchilari, savdogarlarining kelishi ko‘paydi, nodir qo‘lyozma va moddiy yodgorliklarni olib ketish kuchaydi. Bu jarayon, ayniqsa, XIX asrga kelib avj oldi. Sharqshunos olim X.D. Fren 1834-yili O‘rta Osiyodan izlab topilishi lozim bo‘lgan sharq mualiflariiga mansub “Yuz asarning tadrijiy ro‘yxati”ni tuzib chiqdi. Bu holat Peterburgga qo‘lyozmalar tashib ketilishiga sabab bo‘ldi. Shu tariqa O‘rta Osiyo moddiy va ma’naviy yodgorlik-

larining chetga chiqib ketishining birinchi bosqichi boshlandi. Shu davrdayoq Yevropa davlatlari va Rossiyaning podsho saroylari hamda kutubxonalarida Turkiston yodgorliklari paydo bo‘la boshladi.

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasi bosib olinishi asrlar davomida to‘plangan va asrab kelinayotgan meros talon-taroj qilinishiga olib keldi. O‘rta Osiyoniligi ilmiy tadqiq etish bahonasida xonliklardagi noyob qo‘lyozmalar, tangalar va boshqa osori atiqalar Rossiya imperiyasiga tashib ketila boshlandi.

Sharqshunos olim P.I. Lerx tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dasturga binoan Turkiston shaharlari, xonlik yerlaridan qo‘lyozma, tanga, muhr, amaliy san’at namunalari, mahalliy hunarmandlarning yuksak san’ati mujassamlashgan buyumlar, ipak gilamlar, zargarlik, ayniqsa, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan qilich, pichoqlar va boshqalar to‘planishi lozim edi.

Bunda o‘lkani geografik, arxeologik tadqiq etish maqsadida kelgan rus olimlari ishtirokini ta’kidlash zarur. Ular orasida olim N.I. Veselovskiyni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Uning tomonidan Afrosiyob yodgorligi o‘rganilishi natijasida, maxsus terrakot va ossuriylardan iborat kolleksiya tuzildi. U Go‘ri Amir, Xo‘ja Ahror, Ahmad Yassaviy qabrlarini o‘rganib, 1895-yili Amir Temur maqbarasidagi bezakli naqshinkor darvozani Peterburgga olib ketdi (hozir Ermitajda saqlanadi). 1903-yili esa Amir Temur maqbarasidagi oyna qo‘porib olindi va imperator Aleksandr III muzeyi uchun Peterburgga jo‘natildi. 1905-yilda esa shu maqbara peshtoqidagi yozuvli lavha o‘g‘irlandi (hozirda Ermitajda saqlanadi). Bu lavhada “Jahongir Amir Temur Ko‘ragonning qabri, xudo uni rahmat qilsin va abadiy jannatda bo‘lsin”, degan yozuv bitilgan. Shu tariqa Ermitajning numizmatika va boshqa fondlari O‘rta Osiyodan borgan behisob osori atiqalar bilan boyidi. Ermitajga jo‘natilgan yodgorliklar ichida 1202 etnografik buyumlar, 1168 qadimiy oltin ku-

mush-tangalar bo'lib, bular O'rta Osiyoning Baqtriya davlatidan to XVII asrgacha bo'lган davriga oid edi.

Shu tariqa o'zbek xalqining asrlar davomida noyob kutubxonalarini, hunarmandchilikning turli sohalarini o'zida jam qilgan beba ho san'at asarlari, milliy liboslar, me'moriy obidalar ning peshtoq yozuvlari va boshqa ko'plab buyumlar o'zga yurtlarning muzeylari hamda kutubxonalarini boyitdi. Lekin mustaqillik sharofati bilan olimlar va mutaxassislar oldiga asrlar davomida olib ketilgan moddiy hamda ma'naviy merosi ni tadqiq etish va ro'yxatini tuzish bo'yicha vazifalar qo'yildi. Hozirda tadqiqotchilar tomonidan tarixiy davrlar, shaxslar, alломalar bilan bog'liq bo'lган merosimizni jahon muzeylari va kutubxonalaridan topish, tadqiq etish, nusxalarini olib kelish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bu borada 2017-yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi tashkil etilganligi ahamiyatli bo'ldi.

Asosiy muzeylar faoliyati. Mustaqillik yillarda muzeylarning soni ko'payib, yangi ixtisoslik muzeylari tashkil etildi, ularning moddiy-texnika faoliyatini mustahkamlashga ahamiyat berildi. Hozirda tarix, o'lkashunoslik, tabiat, geologiya, aloqa, sog'liqni saqlash, avtomobilsozlik yo'nalishlarini o'zida aks ettiruvchi bir qancha muzeylar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Har bir viloyatda mavjud bo'lган o'lkashunoslik muzeylari viloyatlarning tarixi, madaniyati va tabiatini haqida keng qamrovli ekspozitsiyalari bilan alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi. Mustaqillik sharofati bilan muzey faoliyatida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-apreldagi qaroriga muvofiq, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi qayta tashkil etildi. Hozirda O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi eng yirik ilmiy-ma'rifiy markazlardan hisoblanib, uning jamg'armasida 300 ming-

ga yaqin eksponat mavjud. Ular orasida numizmatika, arxeologiya, etnografiyaga oid ko‘plab qimmatli jamlanmalar bor. O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyining yangi ekspozitsiyasi O‘zbekiston hududida tarixiy-madaniy jarayonlarning eng qadimgi davrlardan boshlab hozirga qadar bo‘lgan taraqqiyotini ashyoviy dalillar va tasviriy vositalar orqali namoyon etadi. Ularda o‘zbek davlatchiligining shakllanish tarixi, o‘zbek xalqining boy an’analari va madaniyati ifoda etilgan. Asrlar davomida jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib kelgan buyuk davlat arboblari, allomalar, fozil-u ulamolar, shoirlar, rassomlar, o‘z xalqining erki va ozodligi uchun kurashib kelgan milliy qahramonlarning jasorati ekspozitsiyaning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi. Mazkur badiiy muzey fondi 50 mingdan ziyod eksponatga ega. Muzey ekspozitsiyasi san’at janri va turlariga ajratilgan holda, xronologik tartibda tuzilgan. Har bir zaldagi eksponatlar san’at turlari, maktablari, an’analalar va hozirgi rivojlanish markazlariga qarab joylashtirilgan. Ekspozitsiya O‘zbekistonning qadimiyligi san’at yodgorliklari, so‘ng O‘zbekiston xalq amaliy bezak san’atini namoyish etish bilan boshlanadi.

O‘zbekiston Davlat amaliy san’at muzeyi. Amaliy san’atning doimiy faoliyatdagi ko‘rgazmasi 1997-yilda O‘zbekiston Davlat amaliy san’at muzeyi maqomiga ega bo’ldi.

Muzey xazinasida XIX asrning birinchi yarmidan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrga oid bebaho amaliy san’at durdonlari yig‘ilgan. Muzey xazinasida saqlanayotgan xalq amaliy san’at asarlarini badiiy jihatdan uch guruhga bo‘lish mumkin. Birinchidan, bu qadimiyligi an’analalar asosida yaratilgan, har bir hudud ichidagi o‘ziga xosligini aks ettirgan maktablarga oid amaliy san’at asarlari; ikkinchidan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xalq ustalari an’anaviy uslubini yo‘qotmagan holda, uni o‘z ijodiy yondashuvi bilan rivojlantirib, badiiy bezak

bilan yanada boyitilgan asarlardir. Uchinchi guruhga esa, amaliy san'at taraqqiyotidan kelib chiqib, zamonaviy san'at tabablari darajasidagi rang-barang, turfa naqshlar bilan bezatilgan va yetuk asarlar kiradi.

Muzey ekspozitsiyalarida xalq amaliy san'atining ellikdan ortiq turi namoyish etib kelinmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston hududida asrlar davomida xalq badiiy hunarmandchiligining o'ziga xos yirik markazlari shakllangan, har bir hudud o'zining badiiy bezak san'ati bilan boshqalardan ajralib turgan. Xususan, Chust do'ppisi, pichog'i, Rishton o'zining lojuvard sopol idislari, Marg'ilon kamalak tovlanma atlasi, Buxoro zardo'zligi, Shahrixon pichoqchiligi bilan mashhurdir.

Xiva "Ich'an Qal'a" Davlat muzey-qo'riqxonasi. Dunyoning qadimiy shaharlaridan biri, xalqaro sayyohlik markazlardan biri sanalgan Xiva bejiz ochiq osmon ostidagi muzey sifatida e'tirof etilmagan. Shahar hududida miloddan avvalgi VI–V asrlardan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrlarga taalluqli bir yuz yigirmadan ortiq arxeologik yodgorliklar, me'moriy obidalar saqlanib qolning hamda ular davlat muhofazasiga olingan. Ayniqsa, Xiva shahrining Ich'an Qal'a qismi Markaziy Osiyoda saqlanib qolning birdan bir butun boshli shahar-yodgorlik bo'lib, uning o'tmishidagi taqdiri, me'moriy obidalari dunyoning eng qadimgi madaniy voha – Xorazmning tarixiy, madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Betakror Xiva shahri sharq xalqlarining qadimiy madaniyatni beshigi bo'lgan Xorazmning ko'p asrlik me'moriy qurilish an'analarini meros qilib olgan Xorazm me'morlari san'ati va mehnatining ijodiy yakunidir.

Mustaqillik arafasida, aniqrog'i 1990-yil 12-dekabrda Xiva "Ich'an Qal'a" Davlat muzey-qo'riqxonasi butun dunyo shaharsozlik madaniyati va me'morchilik san'atining yuksak namunasini sifatida Xalqaro YUNESKO tashkilotining Jahon madaniy meroslari ro'yxatiga kiritildi.

Xiva “Ichan Qal’ a” Davlat muzey-qo‘riqxonasining umumiy maydoni 26 gektarni tashkil etadi. Muzey-qo‘riqxona hududida 54 ta tarixiy-me’moriy obidalar, 360 xonodon mavjud. Muzey-qo‘riqxonaning 69 ta zalida joylashgan 14 ta mustaqil ekspozitsiya Xorazm va Xiva tarixinining ma’lum bir davrlarini aks ettirib, uning jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasini yoritadi. Muzey-qo‘riqxona fondida 40 mingga yaqin eksponatlar saqlanadi.

Xiva “Ichan Qal’ a” muzey-qo‘riqxonasini har yili 1 million-dan ziyod kishi ko‘radi, shundan 50 mingga yaqini saksondan ortiq davlatdan kelgan xorijiy sayyoohlar hisoblanadi.

Ichan Qal’ a “Novate.ru” portalı ma’lumotiga ko‘ra, tashrif buyurish kerak bo‘lgan dunyoning eng g‘aroyib yodgorliklari ro‘yxatiga jami 14 qal’adan sakkizinchisi sifatida kiritilgan.

Mustaqillik yillarida *Buxoro Davlat badiiy-me’moriy muzey-qo‘riqxonasi* faoliyatida tub o‘zgarishlar yuz berdi. 1993-yilda Buxoro shahri Butunjahon merosi obyekti ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa, 1997-yilda YUNESKO qarori bilan shaharning 2 500 yilligi keng nishonlandi. Muzey-qo‘riqxona tarkibiga 13 ta filial, 7 muzey kiradi. Ular orasida “Ark” viloyat o‘lkashunoslik muzeyi, Abu Ali ibn Sino, Naqshbandiya tariqati, Romitan tuman tarixi kabi muzeylar Buxoroning qadimiy tarixi, uning moddiy va ma’naviy boyliklari, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan o‘ziga xos an’analari ni saqlash, o‘rganish hamda targ‘ib etishda muhim rol o‘ynamoqda.

Muzey-qo‘riqxona jamg‘armasida 100 mingdan ortiq ashyolar saqlanib, Buxoroning qadimgi davridan to hozirga qadar bo‘lgan tarixini 94 ta zalda joylashgan mustaqil ekspozitsiyalarda namoyish etib kelmoqda.

Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyi. Mustaqillik yillarida ushbu muzeyning faoliyatida ham tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Qayta tashkil etilgan yangi ekspozitsiya viloyatning tari-

xiy va madaniy hayoti bilan bog‘liq barcha tarixiy jarayonlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Muzeyning arxeologiya fondi Farg‘ona vodiysidagi eng boy kolleksiyalardan biridir. Muzeyda dastlabki farg‘onalik mutaxassis rassomlar M.N. Yansin va P.M. Nikiforov, xalq rassomlari A.N. Volkov va S. Alibekov, shuningdek, zamonaviy rassomlarning asarlarini o‘z ichiga olgan, o‘ziga xos tasviriylar san’at to‘plami ham mavjud. Rish-ton va G‘urumsaroy kulolchiligi, misgarlik hamda zargarlik buyumlari, ust-bosh va turli xil kashtalar ko‘rgazmasi e’tiborni tortadi. Hozir muzeyda o‘lka tabiatini va Farg‘ona vodiysi tarixining XX asr boshlariga qadar bo‘lgan davrni aks ettiruvchi ekspozitsiya faoliyat ko‘rsatib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi “2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 2a-ilovasida muzey “Farg‘ona viloyat tarixi va madaniyati muzeyi” nomi bilan qayta tashkil etilishi nazarda tutilgan.

Samarqand Davlat muzey-qo‘riqxonasi. Samarqand Davlat birlashgan tarixiy-me’moriy, badiiy muzey-qo‘riqxonasi tizimida O‘zbekiston madaniyati va tarixi muzeyi, Samarqand viloyati tabiatini va tarixi muzeyi, “Afrosiyob” muzeyi, Mirzo Ulug‘bek muzey-majmuasi kabi tarixiy obida, ziyoratgohlar va muzeylar mavjud.

Mirzo Ulug‘bek muzey-majmuasi. Majmua hududida-gi rasadxona Mirzo Ulug‘bek tomonidan 1429-yilda Samarqand yaqinidagi Ko‘hak tepaligida qurilgan. Silindr shaklidagi uch qavatli bino asosining diametri 60 metr bo‘lgan. Markazidan janub-shimol yo‘nalishida, radiusi 40 metrli qo‘shaloq yoy shaklidagi kvadrant barpo etilgan. Kvadrant aylananing to‘rtidan bir qismi bo‘lib, 90 darajali yoyni anglatadi. Rasadxona kvadrantining ostki qismi qoyani kesib, 11 metrli chuqurlikka joy-

lashtirilgan. Kvadrantning tepe qismi yer sathidan 31 metr, hozirgi o‘lchov bilan 10 qavatli bino balandligicha ko‘tarilgan. Rasadxonaga yuzma-yuz qilib, o‘sha davrlardayooq dunyoni o‘ziga qaratgan Registonning bir bo‘lagini o‘zida ifoda etgan muzey joylashgan bo‘lib, uning yangi binosi 2010-yilda barpo etilgan.

Muzey ekspozitsiyasida Sohibqiron Amir Temur davlat-chiligiga oid ma’lumotlar, Yevropa davlatlarining qirollari tomonidan yozilgan xat nusxalari namoyish etilgan. O‘z asrining buyuk astronomi Mirzo Ulug‘bekning tug‘ilishiga oid miniatyura nusxasi, Ulug‘bek davri fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘sghan ulug‘ olimlar – Jaloliddin Rumiy, Ali Qushchi portretlari hamda o‘sha davrda zarb qilingan tangalar ekspozitsiya mazmunini boyitadi. Rasadxona tarixi bilan bog‘liq vaqf hujjati namunasi, me’morlar Nilsen, G. Pugachenkova, M. Bulatovlar tomonidan tayyorlangan rasadxona maketlari tomoshabinlar diqqatini tortadi.

2009-yilning aprel oyida Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani kengliklari “Maydanak” fazoni kuzatish rasadxonasida yangi sayyora aniqlanib, jahonshumul voqelikka asos solindi. Ushbu sayyoraga O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov taklifi bilan “Samarqand” nomi berildi. Ekspozitsiyada ana shu kenglikda olingan “Samarqand” nomi bilan ataluvchi sayyora surati ham o‘rin olgan.

O‘zbekiston muzeylari orasida uy-muzeylar alohida o‘ringa ega. Mamlakatimizda ko‘plab taniqli adib va yozuvchilarining uy-muzeylari faoliyat ko‘rsatmoqda. Toshkent shahrida Oybek, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Sergey Yesenin, Sergey Borodin uy-muzeylari, Farg‘onada Hamza uy-muzeyi, Qo‘qon shahrida Muqimiy, Farg‘ona viloyatida Uvaysiy, Jizzax viloyatida Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim uy-muzeylari yoshlarni o‘zbek adabiy muhiti, adiblar bilan yaqindan tanishishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Muzeylarning jamiyat hayotida tutgan o'rni. Mustaqillik yillarida tashkil etilgan muzeylar. Moddiy va ma'naviy merosni saqlashda muzeylarning o'rni beqiyos bo'lib, ular o'zining XXI asrda faoliyat yuritish shart-sharoitlari avvalgi davrdan tubdan farq qiladi. Zamonaviy muzeylar madaniy merosning yangi qirralarini ochar ekan, millatlararo do'stlik va hamjihatlik tamoyillariga ham alohida e'tibor bermoqda. Chunki bu sa'y-harakatlar boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan hurmat tuyg'ularini uyg'otishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tarixiy-madaniy merosni saqlash, uni avlodlarga yetkazishda, shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik, tarixiy-madaniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashda muzeylarning o'rnnini alohida e'tirof etish zarur.

Ayni vaqtda muzey jamiyatning o'z tarixi va madaniyatiga bo'lган munosabatini aks ettiruvchi ko'zgu hisoblanadi. Shu sababli muzeylar zamon bilan, jamiyat bilan hamnafas bo'lган holda yangicha usulda faoliyat ko'rsatishi bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi.

Hozirda, butun jahon muzeylari oldida, "XXI asr muzeyi qanday bo'lishi va tashrif buyuruvchilarni qanday jalb qilishi kerak", – degan muammoli masala turibdi. Muzey ashyolarini endilikda nafaqat moddiy jihatdan namoyish etish, balki ularni zamonaviy texnologiyalar uyg'unligi yordamida turli uslublarda targ'ib etish imkonini tug'ildi. Jumladan, Internet tarmog'i tomonidan havola etilgan foydali xizmatlardan biri virtual ko'r-gazmalarni tomosha qilish bo'lib, u har bir insonga kompyuter ekranidan uzoqlashmagan holda, dunyo muzeylarida sayr etish imkoniyatini yaratmoqda.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab, jahon muzeylari konsepsiyalarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Hozirda faqat hodisa, jarayon, fakt va muzey ashyolari haqida bilim berishgina emas, balki tomoshabinning sezgi-emotsional holatiga ta'sir etish, uni tarixiy muhitga olib kirish, uning tasavvur

qilishga undash muzeylar madaniy-ilmiy faoliyatidagi birinchi vazifa, deb qaralmoqda. Muzeyga kelgan inson tarbiyaviy ta'sir obyekti emas, balki teng huquqli suhbatdoshdir, shuning uchun muzeyning auditoriya bilan muloqoti monolog emas, balki dialog shaklida bo'lishi zarur.

Konsultant Uil Filips (Will Phillips) 1996-yilda "Obyektlarni auditoriya bilan bog'lash" ("Linking Objects with Audience") maqolasida "muzeylar faoliyati asosi auditoriyadan emas, balki obyektlar va namunalarni yig'ish hamda tushuntirishdan tashkil topgan, deb ta'kidlagan edi. Agarda muzeylar o'ziga ko'proq tashrif buyuruvchilarni jalg etishni istasa, uning asosiy diqqat markazida auditoriyaning xohishi va qadr-qiymati bo'lishi lozim. Muzeylarning yangi shiori "Ularni bilgin va ular keladi". Auditoriya istaklari va talablarini bilish, hurmat qilish, javob berish – muzeylardagi samarali marketingga bo'lgan yo'ldir, deb bejiz aytilmagan. Haqiqatan ham hozirda muzeylar o'z faoliyatiga tegishli bo'lgan barcha jabhalarni yangicha shakl va yangicha yondashuv tarzida tashkil etishi davr talabiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi va rahbarligida Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Olimpiya shon-shuhrat muzeyi, Qatag'on qurbanlari xotirasi muzeyi, O'zbekiston Tasviriy san'at galereyasi, O'zbekiston madaniyati va san'ati ko'r-gazmasi, Qurolli kuchlar Davlat muzeyi, Kamoliddin Behzod nomli bog'-muzeyi, Aloqa tarixi muzeyi, Termiz shahridagi Arxeologiya muzeyi, Xivada Ma'mun akademiyasi tarixi muzeyi, Samarqand shahrida Ulugbek muzeyi kabi mamlakatimiz madaniy hayotida ulkan voqeal bo'lgan o'nlab yangi muzeylar barpo etildi, Nukus shahrida I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat muzeyining yangi binosi bunyod qilindi.

Ular orasida temuriylar davrida jahon sivilizatsiyasi taraq-qiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarning hayoti va

faoliyatiga bag‘ishlangan *Temuriylar tarixi Davlat muzeyi* tashkil etilishi muhim voqeа bo‘ldi.

Temuriylar tarixi Davlat muzeyi Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, maorif va madaniyatning yuksalishini haqqoniy aks ettirish hamda keng targ‘ib qilish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-martdagи 99-sonli qarori bilan qisqa vaqt ichida Toshkent shahridagi Amir Temur xiyobonida barpo etildi. Muzey xalqimiz, vatandoshlarimiz vakillari va xorijiy davlatlardan kelgan mehmonlar ishtirokida 1996-yil 18-oktabrda tantanali ravishda ochildi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov uning ochilish marosimida nutq so‘zlab, “Kimki o‘zbek nomini, o‘zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘sghan hissasini, shu asosda keljakka ishonchini anglamoqchi bo‘lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak”, – degan edi.

Istiqlol davrida qurilgan muzey binosi zamonaviy me’morchilikning noyob namunalaridan hisoblanadi. Aylana shaklda qurilgan binoning tashqi ko‘rinishiga alohida e’tibor berilgan. Salobatli moviy gumbaz, ustunlari va har biri keng ma’noni anglatuvchi arabcha yozuvlar (itoat, adolat, zarofat, ma’rifat, diyonat, oqibat, marhamat, qadriyat, sadoqat, muvaffaqiyat, matonat, muruvvat, shijoat mazmunidagi) unga o‘zgacha husn bag‘ishlaydi.

Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyi. Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2001-yil 1-maydagи “Qatag‘on qurbanlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risida”gi farmoni asosida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida barpo etilgan va 2002-yil 31-avgustda – mamlakatda ilk bor nishonlangan “Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni”da tantanali ravishda ochilgan.

2007-yilning 31-avgustida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining muzeyga tashrifi chog‘ida, ushu muzeypa faoliyatini yanada takomillashtirish, qatag‘on qurbanlari tarixini yanada kengroq o‘rganish maqsadida unga qo‘srimcha bino qurish haqida taklif berilib, ekspozitsiyada nafaqat bugungi kun, balki kelajak uchun ham g‘oyat muhim ahamiyatiga ega bo‘lgan hujjat va eksponatlarning ko‘rsatilishi lozimligi ta’kidlandi. Shundan keyin, 2008-yilda, uning yonida ikkita yangi binoga asos solindi va ekspozitsianing mazmun-mohiyati qaytadan shakllantirildi. Muzeyning qayta ta’mirlangan va kengaytirilgan binosi qo‘s sh gumbazli ekspozitsiya uchun mo‘ljallangan uchta zaldan iborat inshoot bo‘lib, atrofini o‘yma naqshinkor ayvon, uning atrofini milliy naqsh bilan bezatilib, o‘yilgan 42 ta ustun o‘rab turadi.

Hozirda muzey eksponatlarining umumiy soni 14 mingdan ziyodni tashkil etadi. Ekspozitsiyada kompyuter texnologiyalaridan, multimedia ma'lumot bazalaridan, audiomateriallardan keng foydalanilgan. Har yili muzeyga 50 mingga yaqin kishi tashrif buyuradi. Ularning aksariyati yoshlardan iboratdir.

Xalq taqdiriga daxldor bo‘lgan tarixiy adolatni tiklash, millatning yaqin o‘tmishidagi hali-hanuz sir bo‘lib kelayotgan sahifalarini to‘la ochib berish, tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotga nekbinlik bilan qarashda mazkur muzeyning ahamiyati katta.

2017-yili 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Shahidlar xotirasi” xiyoboniga tashrifi chog‘ida bildirgan taklifi asosida har bir viloyatda muzeyning filiallari universitet va institutlar qoshida tashkil etila boshlandi.

Arxeologiya muzeyi. Termiz shahridagi Surxondaryo viloyati Arxeologiya muzeyi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharofati va Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Termiz shahrining 2500 yilligi munosabati bilan

bunyod etilgan hamda u 2001-yilning 24-oktabrida ochilgan. Mustaqillik yillarida bu qo'hna shaharda bunyod etilgan Arxeologiya muzeyi Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Termiz shahridagi Surxondaryo viloyati Arxeologiya muzeyida 60 mingga yaqin ashylar saqlanadi. Muzeyning kirish zalida vohaning har bir tarixiy davriga xos tosh va ganchdan yasalgan noyob haykallar, toshhovuz hamda katta hajmdagi sopol idishlar joy olgan bo'lsa, to'qqizta asosiy ko'rgazma zalida miloddan avvalgi 100-ming yillikdan XX asr boshlariga qadar Surxondaryo viloyat yodgorliklarini o'rghanish jarayonida topilgan oddiy tosh qurollardan tortib, yuksak did bilan yaratilgan san'at namunalarigacha o'rinni olgan.

Olimpiya shon-shuhrati muzeyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagি 284-son qarori bilan tashkil topgan. Uning tantanali ochilish marosimida Birinchi Prezident Islom Karimov bilan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Prezidenti Xuan Antonio Samaranch ham qatnashgan. Muzey ekspozitsiyasida sportchilar tomonidan Olimpiya va Osiyo o'yinlari, jahon championatlari, nufuzli xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritilgan medallar, kuboklar, nishonlar, suvenirlar, pochta markalari, badiiy polotnolar, sport anjomlari o'rinni olgan. Ekspozitsiya o'zbek sportchilarining erishgan yutuqlari va ularning jahon sport arenasidagi o'rni haqida ma'lumot beruvchi yagona muzey hisoblanadi.

Aloqa tarixi muzeyi 2009-yil Toshkentda ochilgan. Muzey O'zbekiston telekommunikatsiya sohasining shakllanish va rivojlanish tarixini o'zida mujassam etgan bo'lib, unda to'rt yuzdan ziyod eksponatlar mavjud. O'zbekiston pochtasi bo'limida o'zbek pochta xizmatining temuriylar davridan tortib, hozirgi davrgacha bo'lgan shakllanish tarixidan hikoya qiluvchi eksponatlar, o'tgan asr boshlarida pochtalonlar ishlatgan sumka, 1916-yilga tegishli pochta xizmatchilari kiyimi, muhr hamda pochta aravasining tabiiy kattalikdagi maketi ham o'rinni olgan.

O'zbekistonda telefon aloqasining rivojlanishini aks etti-ruvchi bo'lim esa, o'tgan asr boshlaridan beri foydalanib kelingan turli telefon modellari haqida hikoya qiladi. Ularning hammasi tarmoqqa ulangan bo'lib, istagan kishi qo'ng'iroq qilib ko'rishi mumkin. Shuningdek, muzeyda O'zbekiston televideniyesi tarixiga oid qiziqarli ma'lumotlar bilan ham tanishish mumkin. Televizion signalni qabul qilib uzatuvchi texnika va televizorlarning har biri milliy televideniyening rivojlanishidagi ma'lum bir bosqichni ifodalaydi. Bu yerda, hozirgi kunda noyob bo'lib qolgan "KVN-49" televizorini ham ko'rish mumkin. Ushbu muzey aloqa tarixini o'zida aks ettirish bilan bir qatorda, tashrif buyuruvchilarni xohlagan tarixiy eksponat bilan jonli muloqotga kirishlari uchun imkoniyat yaratib bergen.

O'zbekiston muzeylarining jahon bo'ylab ko'chma ko'rgazmalari tashkil etilishi. Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston muzeylarining xalqaro aloqalari shakllandi va yillar davomida butun dunyoga o'zbek xalqining boy moddiy hamda ma'naviy merosi targ'ib qilinmoqda. Ushbu sharafli vazifani bajarishda, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan yirik davlat muzeylarining hissasi kattadir. Ayniqsa, ular orasida O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi, O'zbekiston Davlat san'at muzeyi, O'zbekiston Amaliy san'at muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Qatag'on qurbanlari xotirasi muzeyi kabi muzeylarning faoliyati alohida e'tirofga loyiqidir.

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyining xalqaro aloqalarining asosini o'zaro hamkorlik natijasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, jahon muzeylari bilan tashkil qilingan ko'rgazmalar hamda xodimlar malakasini oshirish maqsadida o'tkaziladigan seminar-treninglar tashkil etadi.

Ushbu muzey o'tmishni, tarixiy yodgorliklar va noyob arxeologik topilmalarni jahonga tanitishda samarali ishlarni olib borayotgan muzeylardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarda

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya, Misr, Ozarbayjon, Rossiya, Yaponiya, Qozog'iston kabi davlatlarning muzeylari bilan xalqaromadaniy va ilmiy aloqalarni yo'lga qo'ydi. Jumladan, 2003-yilda muzey AQSh Metropoliten muzeyida o'tkazilgan ko'rgazmada o'z eksponatlari orasidan joy olgan va noyob eksponat hisoblangan ikki boshli ilon tasvirlangan toshumor namoyishi bilan qatnashdi.

Muzeyning Janubiy Koreya muzeylari bilan aloqasi e'tibor ga molik bo'lib, ushbu mamlakat bilan madaniy aloqalar turli ko'rgazmalarni tashkil etish, treninglarda ishtirok etish va O'zbekiston tarixi Davlat muzeyida bolalar uchun birinchi maxsus "Mo'jizalar olamida" muzeyini tashkil etishda namoyon bo'ldi. 2007-yilda Koreya Milliy liboslar akademiyasi bilan hamkorlikda muzeyda koreys milliy liboslari ko'rgazmasi ochilgan bo'lsa, 2014-yilda Seuldag'i Folklor muzeyida O'zbek xalqi madaniyatini o'zida aks ettiruvchi ko'rgazma tashkil etildi. 2009–2010-yillar mobaynida Koreya Milliy muzeyida "Sivilizatsiyalar chorrahasida: O'zbekistonning qadimiy madaniyati" nomli ko'rgazma ham tashkil etildi. Ushbu ko'rgazma bir yil davomida koreys xalqiga O'zbekistonning qadimiy tarixi va madaniyatini namoyish etdi.

Muzeyning xalqaro ekspeditsiyalarni tashkil etishdagi ishlari ham alohida ahamiyatga molik. 2013–2016-yillarda O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi Tokio universiteti muzeyi bilan hamkorlikda "O'zbekiston hududida tosh davri yodgorliklari ni tadqiq etish" bo'yicha Qashqadaryo viloyatining Yakkabog', Chiroqchi tumanlari va Navoiy viloyatining Nurota tumani huddidagi o'rta tosh davri yodgorliklarini o'rgandi. Ekspeditsiya o'z ishini qadimiy g'orlarda davom ettirib, madaniy qatlamlardan o'rta paleolit davriga mansub bo'lgan tosh qurollar va boshqa qadimiy ashyolarni ilmiy tadqiq etdi. Bu tadqiqotlar O'zbekiston hududidagi qadimiy manzilgohlar, insonlarning

turmush tarzi va madaniyati haqida yangi ma'lumotlarni topishda katta ahamiyatga egadir.

2014-yilda O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi Germaniya Dortmund universiteti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti bilan hamkorlikda "An'anaviylik va zamonaviylik" deb nom olgan o'zbek milliy hamda zamonaviy liboslar ko'rgazmasini o'tkazdi. Ko'rgazmada muzey xazinasidan joy olgan milliy liboslar hamda o'zbek dizaynerlari tomonidan milliy matolardan yaratilgan zamonaviy liboslar namoyish qilindi. Ko'rgazma milliy matolarga o'tmishda va hozirgi kundagi yondashuvni yaqqol ko'rsatib bergenligi bilan ahamiyatga molikdir.

Muzeyning yosh ilmiy xodimlari, muhofizlari muzey ishi, restavratsiya, konservatsiya, muzey menejmenti, arxeologiya va boshqa yo'nalishlar bo'yicha xorijiy davlatlarga malaka oshirish uchun o'qishga yuborilmoqda. 2008-yilda YUNESKOning Toshkent shahri vakolatxonasi tomonidan tashkil etilgan "Muzey menejmenti", "Muzey ishi" bo'yicha, Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida "Muzey boshqaruvi", Koreya Respublikasining Seul shahridagi Koreya Milliy muzeyida "Muzey ishi" bo'yicha o'tkazilgan o'quv-seminarlar, YUNESKOning Osiyo va Tinch okeani davlatlari madaniyat markazi (ASSU) tomonidan Yaponiyaning Nara shahrida restavratsiyaning zamonaviy metodlarini o'rganish bo'yicha, Misr Madaniyat vazirligi OUDA tashkiloti bilan hamkorlikda "Muzeylar boshqaruvi" bo'yicha, Berlin shahrida joylashgan Germaniya arxeologiya instituti (DAI) hamda Mangeym shahrida joylashgan Reys-Engelxorn muzeyida (REM) restavratsiya va muzeyshunoslik yo'nalishi bo'yicha, Gerda Xenkel fondi tashabbusi bilan Germaniya arxeologiya instituti (DAI) hamda Eybax shahrida joylashgan Germaniya "Fil suyagi muzeyi"da restavratsiya bo'yicha tashkil etilgan treninglar shular jumlasidandir.

O'zbekistonning eng mashhur badiiy muzeylaridan biri *O'zbekiston Davlat san'at muzeyi* mustaqillik yillarida Britaniya kengashi, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Rossiya muzeylari bilan o'zaro xalqaro aloqalarni rivojlantirdi. Mustaqillik yillarida, muzeyning xalqaro aloqalari o'zaro tajriba almashish maqsadida tashkil etilgan das-turlar, xorijda hamda muzeyda tashkil etilgan ijodkorlar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ko'rgazmalar hamda arxeologik tadqiqotlar yuzasidan olib borilgan ilmiy hamkorlik kabi yo'naliishlardan iborat bo'ldi.

O'zbekiston amaliy san'at muzeyi xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazmalarning faol ishtirokchisi bo'lib, o'zbek xalq amaliy san'atining nodir namunalarini jahonga tanitishda peshqadam muzeylardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Amaliy san'at muzeyi Fransiya, Livan, Belgiya, Latviya, Germaniya, Avstriya, Shveysariya, Slovakiya, Turkiya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Koreya, Malayziya, Avstraliya kabi davlatlarda bo'lib o'tgan ko'rgazmalarda muzey xazinasidagi amaliy san'at namunalari bilan ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, muzey 1999-yil Fransiyada bo'lib o'tgan "O'zbekiston milliy kiyimlari", 2001-yil Italiyada o'tkazilgan zargarlik san'atiga bag'ishlangan xalqaro ko'rgazmada, 2002-yil Germaniyada tashkil etilgan "O'zbekiston amaliy san'ati", Yaponiyada o'tgan "O'zbekiston: an'anaviylik va zamona naviylik" ko'rgazmalarida eksponatlarini jahonga namoyish qildi.

Mustaqillik yillarida tashkil etilgan va qisqa muddat ichida xalqaro aloqalarni keng yo'lga qo'ygan muzeylardan biri *Temuriylar tarixi Davlat muzeyi* hisoblanadi. Bu muzey 1996-yilda Fransiyada o'tkazilgan "Temuriylar renessansi" bilan bir qatorda, 2000-yilda Germaniyaning Gannover shahrida o'tkazilgan "EKSPO-2000", 2004-yilda Avstraliyaning Sidney shahridagi Paurxaus muzeyida o'tkazilgan "Yorqin

gullar: Markaziy Osiyo gazlamalari va keramikasi” xalqaro ko‘rgazmalarida faol qatnashdi.

Mazkur muzeyga elchixonalar va jahon muzeylari o‘z sovg‘alarini taqdim etishgan. Fransiyadagi Luvr muzeyi tomonidan sovg‘a qilingan Amir Temur rasmi nusxalari, Eron elchixonasi tortiq etgan Amir Temur va temuriylarning qo‘shni davlat hukmdorlari bilan yozishmalari, Hindiston elchixonasi bergan qo‘lyozmalar nusxalari, Pokiston, Xitoy, Malayziya, Qozog‘iston, Rossiya, Gruziya, Turkiya va boshqa davlatlarning tuhfalari muzey xazinasini yanada boyitdi.

Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyi ham o‘z xalqaro aloqalarini kengaytirish va rivojlantirish borasida samarali ishlar ni olib bormoqda. Muzey xalqaro aloqalari asosan qatag‘on siyosati qurbanlari xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu borada hamkorlikdagi ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Muzeyning xalq universitetlari nemis assotsiatsiyasining (DVV) O‘zbekistondagi filiali, Konrad Adenauer nomidagi fondning Markaziy Osiyo vakolatxonasi, Ozarbayjon elchixonasi, Qrim-tatarlarning Toshkent shahridagi “Avdet” Milliy madaniyat markazi, Qozog‘istondagi “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” muzeyi va ALJIR memorial kompleksi, Rossiya Milliy kutubxonasi qoshidagi “Возвращенные имена” markazi bilan ilmiy va madaniyma’rifiy yo‘nalishda hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekistonda, mustaqillik yillarida tashkil topgan muzeylar haqidagi ma’lumot bering.
2. Muzeylarda qaysi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ish yuritildi?
3. Muzey qo‘riqxonalarining tarkibi qanday?
4. O‘zbekistondan olib chiqib ketilgan muzey ashyolarini qidirib topish, o‘rganish va qaytarib keltirish bo‘yicha O‘zbekistonda qanday ishlar olib borilmoqda?

5. Mustaqillik yillarda O'zbekiston muzeylarining rivojlanish jarayonlarini diagramma shaklida ishlab chiqing.
6. O'zbekiston muzeylarida muzey auditoriyasini o'rganish, tomoshabinlar bilan ishlash borasida qanday innovatsion yo'nalishlarni joriy etish mumkin?

Manbalar va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2008. – № 37-38. – 364-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi PF-1913-sod farmoni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1998. – 1-son. – 31-modda.
3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 23 декабря 1994 г. № 618 "О мерах по улучшению деятельности музеев Республики".
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2017–2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.12.2017-y., 09/17/975/0398-sod.
5. Ismailova J.X., Nishanova K.S., Muxamedova M.S. Muzey va jamiyat. Darslik. – T.: Chinor ENK, 2015.
6. Музейная безопасность. – Представительство ЮНЕСКО в Узбекистане, 2008.
7. Управление музеем: практическое руководства / Под ред. Патрик Дж. Бойлан. – Париж: ИКОМ, 2004

GLOSSARIY

Arxeologiya ashyosi – arxeologiya qidiruvlari, qazishmalar va arxeologiya nazoratini amalga oshirishda yoki xo‘jalik hamda boshqa faoliyat jarayonida aniqlangan, shuningdek, tasodifan topilgan (xazina) va identifikatsiyalashdan o‘tkazilgan moddiy qoldiq.

Arxiv – hujjatlar saqlanadigan muassasa. Har bir muzeyning shaxsiy arxivi bo‘lib, ular ilmiy yordamchi bo‘lim hisoblanadi. U yerda muzey hujjatlari, hisobotlar, ilmiy-uslubiy kengashning qarorlari, taklif va mulohazalar kitoblari, hujjatlar saqlanadi.

Asl nusxa – asl, haqiqiy buyum; tabiat va jamiyat haqidagi bilmlarning birlamchi manbayi, muzey jamg‘armalari asosi. Muzey ishida asllik muzey ashyolarining turli guruhlariga nisbatan turlicha belgilanadi.

Attraktivlik – ashyoning tashqi ko‘rinishi, uning o‘ziga jalgila oladigan xususiyatlari (ya’ni rangi, shakli, hajmi).

Audio effekt – sun’iy yaratilgan yoki kuchaytirilgan ovoz yordamida ta’sir etish.

Audiomateriallar – fonoyozuvlar, fonosharhlar (qo‘sishchi, shoir, yozuvchi, tarixiy shaxslarning musiqali va hujjatli ovozli yozuvlari; qushlar va hayvonlarning tovushlari, tabiiy shov-qinlar).

Ashyoviy manbalar – muzey ashyolari turi. Maishiy maqsadlarga yo‘naltirilgan ashyolardan iborat. Ashyoviy manbalar

turlari tayyorlanish materiali (metall, yog‘och, shisha, matolar va boshqa) hamda funksional yo‘naltirilganligiga (numizmatika, qurol-yarog‘, mebel va boshqa) ko‘ra farqlanadi.

Badiiy muzey – tasviriylar va amaliy san’at hamda me’moriy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, ko‘rgazma o‘tkazish hamda ommalashtirish bilan shug‘ullanuvchi ilmiy tadqiqot, ma’rifiy muassasa.

Bioguruh – o‘simgilik yoki hayvonlar obyektidan iborat ekspozitsion (kompleks) majmua.

Brif – ekspozitsiya ochilishigacha bo‘lgan jarayonni tashkillashtiruvchi, yo‘naltiruvchi ilmiy loyiha-reja.

Vitrina – san’at asarlari qo‘yilgan oynavand javon, quti.

Galereyalar – ixtisoslashtirilgan badiiy kolleksiyalar, ular mavzuyi, vaqt, turi va janriga ko‘ra farqlanadi. Galereyalar badiiy muzeyning bir ko‘rinishi yoki muzeyning bir bo‘limi bo‘lishi mumkin. Muzey ishi tarixida galereya, odatda, badiiy muzeylar bunyod etilishidan oldin amalga oshirilgan. XX asrda “galereya” tushunchasi kengaydi: moddiy madaniyatning jamoatchilik ko‘rishi mumkin bo‘lgan turli yodgorliklar, kolleksiyalar, ko‘rgazmalar va san’at asarlari savdolari o‘tkaziladigan badiiy salonlar ham galereya deb atala boshlandi.

Davlat katalogi – milliy muzey fondi tarkibidagi har bir muzey ashyosi va muzey kolleksiyasi to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar kiritilgan hisobga olish hujjatidir.

Davlat muzeylari – davlat mulki bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda boshqa vazirliklar ixtiyoridagi muassasa. O‘zbekistonda muzeylarning asosiy qismi davlat muzeyi hisoblanadi.

Diaksatsiya – muzey ahamiyatiga ega bo‘lmagan yoki muzey yo‘nalishiga javob bermaydigan eksponatlarni sotish.

Diqqatga sazovor joylar – inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek, tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan, xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan, harbiy) voqealar yodgorliklari, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, tabiy landshaftlar, shuningdek, ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.

Dublikat – hujjat yoki badiiy asarning asli bilan teng huquqli nusxasi.

Yodgorliklar – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari.

Imij – firma yoki shaxsning jamiyatda yoki alohida shaxsda shakllangan obro’si, nufuzi.

Imitatsiya – nimagadir taqlid qilish. Muzey ishida esa muzey muhitida tabiiy va madaniy tasavvurlarni aks ettirish. Muzey ekspozitsiyasida kompleks ravishda hayvonlar va qushlar, tabiiy hodisalar (dengiz to‘lqini shovqini, momaqaldiroq ovozi), shuningdek, madaniy an’analar, urf-odatlar, hunarmandchilik faoliyati, nomoddiy madaniy merosni namoyish qilish.

Inventar kitob (ilmiy ro‘yxatdan o‘tkazish kitobi) – olingan manbalarni ashyolar va kolleksiyalarning xillari hamda san’at

turlariga qarab turkumlashtirib, kengaytirilgan va aniq tavsiflar bilan aks ettiriladigan kitob.

Inventarizatsiya (kodifikatsiya) – qaysidir muzey ashvosini tezlik bilan topish uchun belgilangan tartib raqami.

Informativlik – muzey ashvosining mazmun jihatni. Ashyodan tarixiy voqealar, madaniy, ijtimoiy va tabiiy jarayonlar haqida ma'lumot bera oladigan manba sifatida foydalanish mumkin. Ilmiy tahlil etilgan hujjatlarda ashyo haqidagi ma'lumotlar yig'indisi ashyoning informatsion potensiali ni tashkil etadi. Bunday ma'lumotlar ikkita shartli guruhga bo'linadi: ichki informatsion maydon va tashqi informatsion maydon.

Kartoteka – har bir bo'limga tegishli bo'lgan eksponat haqida ma'lumotlar yozilgan va tartib berilgan kartochkalar yig'indisi. Bu kartotekalar muzeyning kundalik ishida muhim o'rinni tutadi. Ular o'ziga xos ma'lumotnomachi vazifasini o'taydi. Muzeyda saqlanadigan ashylarni hisobga olish va o'rganish ishini osonlashtirishga yordam beradi.

Katalog – muzeydagi asarlar va mualliflar to'g'risida qisqa-cha ma'lumot berilgan kitob.

Keramika – kulolchilik san'ati; tabiiy loydan ishlangan buyumlar.

Kirim kitobi (КП) – muzeyning hisobga olish bo'yicha bosh kitobi. Muzeyga keltirilgan har bir eksponat qabul qilish-topshirish dalolatnomalari asosida dastlabki kirim kitobiga qayd qilinadi.

Kolleksiya – san'at asarlari, ilmiy, badiiy, tarixiy yoki boshqa ahamiyatga ega bo'lgan va ma'lum tartibda saqlanadigan bir xil buyumlar majmuyi.

Kompleks komplektlash – muzey ahamiyatiga ega bo‘lgan ashyolarni sistemali va tematik jihatdan tartib berish.

Konvensiya – biror maxsus masala yuzasidan davlatlar o‘rtasida tuziladigan xalqaro shartnomalar, bitim, kelishuv shakli bo‘lib, uni imzolagan tomonlar muayyan huquq va majburiyat-larni o‘z zimmalariga oladi.

Konservatsiya – san’at asarlari, arxeologik materiallar, arxiv hujjatlari va boshqa narsalarni uzoq vaqt yaxshi saqlash tadbiri. Buning uchun harorat, havoning namligi doimo bir xil, yorug‘lik hamda ventilyatsiya bir me’yorda bo‘lishi, chang va hashoratlar kirishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak. Konservatsiya muzeydagi ta’mirlash ishlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Ko‘rgazma – muzey kolleksiyalaridan foydalanish samaradorligini oshiradigan, boshqa muzeylar va shaxsiy jamlanmalarни jamoatchilikka namoyish etadigan tadbir. Ko‘rgazmalar o‘tkazilish joyi (ichki muzey, muzeydan tashqari, muzeylararo, ko‘chma), mazmuniga (mavzuviy, muammoli, jamg‘arma, hisobot, shaxsiy, yubiley) ko‘ra farqlanadi. Shuningdek, muzeyning asosiy ekspozitsiyasi o‘rnini bosadigan doimiy ko‘rgazmalar turi ham mavjud. Ko‘rgazmalar muzeyning ijodiy laboratoriya-siga aylanishi mumkin.

Majmua – tarixan tarkib topgan hududda aniq ko‘zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me’moriy, estetik yoki ijtimoiy-mada-niy qimmatga ega bo‘lgan, ijtimoiy, ma’muriy, diniy, ilmiy, o‘quv-ta’lim, istehkom, saroy, turar joy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san’ati, me’morlik asarlari bilan bog‘liqlikda alohida yoki o‘zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlari, shuningdek, tarixiy manzilgohlar imoratlari-

ning qoldiqlari, landshaft arxitekturasi va bog‘ san’ati asarlari, binolarning badiiy shakl hamda uslub jihatdan bir-biriga uyg‘un ko‘rinishi.

Maketlar – asosan ishlab chiqarish va maishiy interyerlar, ma’lum bino hamda inshootlarning, landshaft va relyef joylarning ko‘rinishlari. Ular ma’lum bir mashtabda ishlanib, namoyish etilishida ba’zi shartliliklarga yo‘l qo‘yiladi.

Marketing – bozorni o‘rganish, uni oldindan baholash orqali tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu yo‘l orqali eng yuqori foyda olishni ta’minlash.

Metsenat – san’at homiysi. Qadimgi Rim davlatida, imператор Avgust davrida yashagan Metsenat ismli badavlat kishi nomidan olingan. Bu atama hozirda san’atga homiylik qiladigan shaxsga nisbatan qo‘llaniladi.

Model – original nusxaning konstruktiv prinsiplari va fakturnasi saqlangan holda yaratilishi. Model asosan ashayoning masshtabi, ekspozitsiyaga sig‘maganligi uchun o‘zgartirilishi kerak bo‘lganda, uni ishlatilish jarayonini ko‘rsatishda va boshqa hollarda qo‘llaniladi.

Muassasa muzeylari – turli vazirliklar va muassasalar tarkibida faoliyat yurituvchi muzeylar guruhi. Muayyan tarmoq muassasasi – ta’lim, aloqa, sog‘liqni saqlash, harbiy muassasalar (mudofaa, ichki ishlar), shuningdek, ilmiy (masalan, Fanlar akademiyasi) va jamoatchilik tashkilotlariga (kasaba uyushmalari, partiyalar, jamiyatlar) ko‘ra turkumlanadi.

Muzey – muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash, o‘rganish hamda ommaga ko‘rsatish uchun tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi madaniyat muassasasi.

Muzey arxitekturasi – muzeylarning qurilishi, ularning me'moriy-badiiy yechimi.

Muzey auditoriyasi – muzey ta'siri yo'naltirilgan kishilar jamoasi. Ular ijtimoiy va demografik parametrlarga (jinsi, yoshi, ma'lumoti, yashash joyi) ko'ra tavsiflanadi. Muzey auditoriyasi muzey sotsiologiyasi va psixologiyasining o'rghanish obyekti-dir.

Muzey ashyosi – sifati yoki alohida belgilari jamiyat manfaatlari uchun saqlash, o'rghanish va ommaga namoyish etish zaruratini taqozo etuvchi madaniy yodgorlik.

Muzey kolleksiyasi – o'z kelib chiqish xususiyati yoki shaklan yaqinligi tufayli yoxud boshqa belgilari bo'yicha birlash-tirilgandagina muzey ashyosi xususiyatiga ega bo'ladigan madaniy boyliklar majmuyi.

Muzey kommunikatsiyasi – muzey va jamiyat o'rtasidagi axborot almashinuv jarayoni. Ushbu atama 1868-yilda kanadlik muzeysunos D.F. Kameron tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Muzey-qo'riqxona – tarixiy-madaniy va tabiiy muhitdagi jonli tarix sahifasini o'zida aks ettiruvchi ochiq osmon muzeyi.

Muzey menejmenti – muzey muassasalarini rivojlantirish, ular oldida turgan vazifalarni bajarish, yangi loyihibar va rejalarni ham tashkiliy, ham moliyaviy jihatdan ta'minlanishi uchun zamonaviy tadbir, chora hamda uslublarni qo'llash amaliyoti.

Muzey pedagogi – muzeyda ma'rifiy va ma'naviy ish yurituvchi mutaxassis. Tashrif buyuruvchilar va muzey yodgorliklari o'rtaida muloqotda pedagogik jarayonni tashkil etadi.

Muzey pedagogikasi – pedagogika, psixologiya va muzey-shunoslikning o‘zaro uyg‘unligi natijasida shakllangan fan yo‘nalishi.

Muzey sotsiologiyasi – sotsiologiyaning alohida sohasi. U muzey auditoriyasining ma’naviy talablari, qiziqishlari va muzey faoliyatining samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganadi.

Muzey texnologiyasi – muzey ishida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali ekspozitsiya-ko‘rgazma, hisobga olish va fond ilmiy tadqiqotchilik faoliyati (informatsiya texnologiyasi) hamda muzey boshqaruvining takomillashishiga (menejment texnologiyasi), madaniy-ta’limiy faoliyatni amalgaga oshirishga (marketing texnologiyasi), notijorat loyihalar uchun qonun doirasida qo‘srimcha resurslarni jalb etish (fandrayzing) va boshqalarga erishish mumkin.

Muzey to‘plami – muzeyning barcha kolleksiyasi. Unga nafaqat ilmiy tashkillashtirilgan muzey ashyolari balki ilmiy yordamchi materiallar hamda muzeyda saqlanadigan turli ilmiy axborot bilan ta’minlovchi vositalar, qisman arxiv va kutubxonalar kirdi.

Muzey ustaxonalari (Workshops) – xorijiy muzeylarda keng qo‘llanilayotgan tashrif buyuruvchilarni jalb qilish usuli. Bunda, ishlab chiqarish jarayonini bevosita kuzatish va hatto unda ishtirok etish mumkin.

Muzey fandrayzingi – notijorat loyihalarini amalgaga oshirish uchun moliyaviy mablag‘larni jalb etish ishlarining majmuyidir.

Muzey fondi – muzey tomonidan doimiy saqlash uchun qabul qilingan barcha ilmiy tashkillashtirilgan materiallar. Shu

bilan birga, ular nafaqat fondlarda, balki ekspozitsiyada, ta'mirlashda yoki tashkilotlarga berilgan bo'lishi mumkin.

Muzey ekspozitsiyasi (ko'rgazmasi) – muzey eksponatlari orqali ma'lum bir davr yoki mavzu taqdim qilinishi va namoyish etilishi.

Muzey etikasi – muzeylarda uzoq asrlardan buyon saqlanib kelayotgan osori atiqalarga bo'lgan munosabat, muzeylarga tashrif buyurish odobi.

Muzeydagi tun – dastlab "Muzeylarning uzun tuni" aksiasi nomi ostida 2000-yilda Germaniya muzeylarida o'tkazilgan va shu yilning o'zidayoq Shveysariya, Fransiya muzeylari-da ham tashkil etilgan tadbir, ma'lum bir belgilangan sanda muzeylar tuni bilan ishlashi hamda ularda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishidir. So'nggi yillarda, "Muzeydagi tun" madaniy aksiyasida xalqaro loyiha sifatida Yevropa va MDH davlatlarining yuzlab muzeylari qamrab olinmoqda. Xususan, so'nggi yillarda, Xalqaro muzeylar kuni – 18-mayda O'zbekistonning bir qator muzeylari ham bu aksiyani o'tkazmoqda.

Muzey-madrassa – ayrim diniy yodgorliklarni muzeylash-tirish asosida tashkil etilgan badiiy-me'moriy muzey.

Muzey-saroy – shahar yoki shahar tashqarisida yaratilgan saroy ansambli asosida tashkil etilgan tarixiy-badiiy muzey. Bunda, me'moriy-badiiy va dekorativ ansamblni butunligicha saqlash, qayta tiklash muhim o'rin egallaydi.

Muzeyshunoslik (muzeologiya) – muzeylarning tarixi va ijtimoiy vazifalari, muzey ishining nazariyasi hamda uslubiyati.

Muzeografiya – muzeylar va ulardagi ashyolarning bayon qilinishi.

Multimedia tizimi – inson-mashina muloqot tizimi bo‘lib, u ikki qismdan: inson (operator yoki foydalanuvchi) va dasturni amalga oshiruvchi texnik vositadan iborat.

Mulyajlar – asl nusxaning hajmini, shaklini, rangini va fakturasini aniq qilib takrorlaydi. Ular asl nusxani aniq o‘lchamlari, ba’zida esa chizmatasvirlari bo‘yicha tiklaydi.

Muhofiz – muzey ashyolarini hisobga olish, saqlash, muhofaza etish, ta’mirlash ishlarini tashkillashtirish hamda fondda saqlanayotgan ashyolarni fonddan chiqarish va qabul qilish bo‘yicha belgilangan tartiblarga rioya qilinishini ta’minlaydigان mas’ul xodim.

Novodel – vaqt ta’sirida eskirgan, yo‘qolgan moddiy madaniyat yodgorligini saqlab qolingan bo‘laklari yoki yozma ma’lumotlar asosida asl ashyoning materialida va hajmida ishlangan aniq nusxa.

Paramuzeylelar (xorijiy muzeologiyada) – haqiqiy muzey ashyolarini emas, muzey ashyolarining (obyektlarining) qayta tiklangan nusxalarini yoki tarixiy hodisalarga ilova qilish uchun maxsus yaratilgan obyektlarni saqllovchi hamda eksponatsiya qiluvchi muzey tipidagi muassasa. Mum haykallar, san’at asarlaring sifatli reproduksiyalari, buyum komplekslari shular jumlasidandir.

Ratifikatsiya – xalqaro shartnomaning davlat hokimiya-ti oliy organi tomonidan tasdiqlanishi. O‘zbekistonda xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qarori bilan amalga oshiriladi.

Reproduksiya – turli tasvirlar, rasm, chizma, fotosuratlar, hujjat va boshqalarning nusxasini fotografiya yoki poligrafiya usulida ko‘chirish, ko‘paytirish.

Saqlash – muzeyning muzey ashyosi va muzey kolleksiyasi but saqlanishini ta'minlash uchun moddiy hamda huquqiy sharoitlar yaratilishini nazarda tutuvchi faoliyat turi.

Ta'mirlash – san'at asarlarini uchgan, singan, buzilgan qismini tiklab, asl holiga keltirish.

Tematik kolleksiya – ma'lum bir mavzuni yoritishda turli xildagi muzey ashyolaridan tashkil topgan kolleksiya.

Uy-muzey – madaniyat, davlat yoki jamoat arbobi, tarixiy shaxs hayoti va faoliyatini yorituvchi, shu shaxs yashagan uy asosida tashkil etilgan memorial muzey.

Xalqaro Muzeylar Kengashi (ing. *International Council of Museums – ICOM*) – 1946-yili Parijda tashkil etilgan nodavlat professional xalqaro tashkilat. ICOM – muzeylar va soha mutaxassislarining xalqaro tashkiloti bo'lib, moddiy hamda nomoddiy, tabiiy va madaniy merosni saqlashni rivojlantirish hamda muzeylar o'rtasida hamkorlikni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro muzeylar kuni – 1977-yil 18-maydan buyon har yili Xalqaro muzeylar kuni nishonlanib, shu kuni butun jahonda muzey va galereyalarga kirish bepul bo'ladi.

Harorat va namlik o'lchash asboblari – psixrometr, gigrometr, termometr yoki o'ziyozar termograf va gigrograflar.

Ekskursiya – ekskursovod boshchiligidagi jamoa bo'lib muzey, ko'rgazma, diqqatga sazovor joylarni tanishtiruv, ilmiy va ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarda ma'lum bir yo'naliш bo'yicha tomosha qilish.

Eksplikatsiya (lat. *explication* – sharplash, tushuntirish) – ko'rgazma, ekspozitsiya haqida ma'lumot.

Ekspozitsiya – tomosha qilish uchun namoyish etish. Muzey ekspozitsiyasi bir maqsadga yo‘naltirilgan va ilmiy asoslangan konsepsiya asosida shakllantiriladi. Unda badiiy jihatdan bezash texnik jihozlash bilan uyg‘unlashtiriladi.

Eksponat – tomosha uchun qo‘yilgan va muzey ekspozitsiyasining asosi hisoblangan muzey ashyosi. Muzey eksponati asl ashyolar bilan bir qatorda qayta tiklovchi (model, maketlar va boshqa) hamda ilmiy ko‘makchi materiallar (xarita, sxema, jadval va matnlar) bo‘lishi mumkin.

Ekspressivlik – ashyo o‘zining ma’lum bir tarixiy voqeа, fakt, jarayonlarga bog‘liqligi bilan tashrif buyuruvchini o‘ziga jalg qilishidir. Ashyoning yaratilishi, olib kelingan muhiti, biron-bir mashhur shaxs yoki voqealar bilan bog‘liq tomonlari kishida ma’lum bir tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Elektron plazmali panel – yupqa, ammo katta hajmda bo‘lgan ekran.

Elektron sensorli kiosklar – maxsus o‘rnatilgan suyuq kristalli tekis monitorli kompyuter.

YUNESKO – Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha xalqaro tashkiloti. Davlatlar o‘rtasida ta’lim, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo‘li bilan tinchlikka hamda xalqaro xavfsizlikka ko‘maklashish maqsadida 1946-yilda tuzilgan. Hozirda 195 mamlakat (shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi 1993-yil 26-oktabrdan) a’zo.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOT

1. Adilov Jamshid Xasan o‘g‘li – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti. E-mail: jamshid8880@bk.ru.

2. Azimbayev Muhammadjon Samatovich – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti kichik ilmiy xodimi. E-mail: vatanuzbek@mail.ru.

3. Ismailova Jannat Xamidovna – tarix fanlari doktori. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi direktori. E-mail: jannat.ismailova@mail.ru.

4. Kuryazova Darmanjan To‘rayevna – tarix fanlari nomzodi, dotsent. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti doktoranti. E-mail: tura268@mail.ru.

5. Mirkamilov Anvarjon Kazimjonovich – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti. E-mail: amirkomilov@mail.ru.

6. Muxamedova Munisa Sabirovna – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “Muzeyshunoslik” kafedrasi dotsenti. E-mail: munisa.muhammedova@mail.ru.

7. Nishanova Kamola Solijon qizi – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “Muzeyshunoslik” kafedrasi mudiri. E-mail: kamola-nishanova@rambler.ru.

8. Nazarov Azizjon Yoqubjonovich – O‘zbekiston Milliy universiteti “Manbashunoslik va arxivshunoslik” kafedrasi o‘qtuvchisi. E-mail: azizbek_888@mail.ru.

9. Raximov Mirzoxid Akramovich – tarix fanlari doktori, professor. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori. E-mail: mirzohidr@mail.ru.

10. O‘ljayeva Shohistaxon Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor. Toshkent kimyo-texnologiya instituti “O‘zbekiston tarixi va siyosiy fanlar” kafedrasи mudiri. E-mail: uljayevashohistahon@gmail.com.

11. Qurbanova Dilafro‘z Abdirashidovna – tarix fanlari nomzodi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom sivilizatsiyasi markazi “Muzey va eksponatlar” bo‘limi boshlig‘i. E-mail: dilkur_1980@mail.ru.

MUZEYSHUNOSLIK

O'quv qo'llanma

Toshkent – «TURON-IQBOL» – 2018
100182. Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 51-uy.
Telefon/faks: 244-25-58.

Muharrir: *A. Tillaxo'jayev*

Badiiy muharrir: *K. Boyxo'jayev*

Sahifalovchi: *A. Boyxon, E. Muratov*

Nashr litsenziyası AI № 223, 16.11.2012.

Bosishga 24.08.18-yilda ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 84^1_{16}$.

«Times New Roman» garniturasida offset bosma usulida bosildi.


Shartli b.t. 15,11. Nashr hisob t. 15,0.

Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 71.

«TURON-MATBAA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Olmazor tumani, Talabalar ko'chasi, 2-uy.

MUZEYSHUNOSLIK



ISBN 978-9943-14-530-6

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-14-530-6.

9 789943 145306